

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI.**

**MIRZO ULUG'BEK nomidagi SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI.**

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI.

**MILLIY ISTIQLOL G'OYASI FANIDAN
MA'RUZALAR.**
(bakalavriyat bosqichi uchun).

SAMARQAND 2007 yil.

Bu kitobda O'zbekiston erkin, demokratik jamiyat barpo etish va taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirish jarayonida yangicha e'tiqod va duyoqarash xamda g'oyaviy immunitet asoslarini shakllantirish bilan bogliq masalalar xaqida fikr- muloxaza yuritiladi. Kitobda milliy istiqlol g'oyasining ma'nomoxiyati, asosiy tushuncha va amal kilish tamoyillari xaqida aloxida e'tibor qaratilgan.

Mazkur ma'ruzalar to'plami O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat Qurilish akademiyasi tomonidan tavsiya etilgan.

«Milliy istiqlol g'oyasi» fani namunaviy dastur asosida tayyorlandi.

Mazkur ma'ruzalar bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan uquv qo'llanma.

Tuzuvchi: S.Norov.

Taqrizchilar: A.I.Safarov, A.B.Muxammadiyev.

«Ijtimoiy fanlar» kafedrasining 12 yanvar 2007yil yig'ilishida muxokama qilinib ko'paytirishga tavsiya qilingan.

1. MAVZU
«MILLIY ISTIQLOL G'OYASI»
FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI
Reja

1. Milliy istiqlol, g'oyasini o'rganishning obyektiv zarurati.

2. Fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.

3. Milliy istiqlol g'oyasining negizlari va asosiy prinsiplari

4. Milliy istiqlol g'oyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va uni o'rganishning ahamiyati

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining sivilizasiyalashgan davri tajribasi bironbir jamiyatning ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmasligini tasdiqlamoqda. Mustaqillikka erishgan mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan o'zbek xalqi ham o'z oldiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish kabi buyuk maqsadlarni qo'ydi. Ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish, mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish ehtiyoji bizga yot va begona g'oya tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va nihoyat, yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash — milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliymanaviy yangilanishda milliy istiqlol g'oyasiga tayanishga alohida e'tibor berdi. Mustabid tuzum davrida amal qilib kelingan, xalqimizning milliymanaviy ruhiyatiga tamomila zid bo'lgan «kommunistik g'oya» dan voz kechildi. O'zbekiston xalqi o'z milliy G'OYASI negizlariga tayangan holda rivojlanish yo'lini tanladi. Uning o'ziga xos sabablari mavjud. Ular asosan quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Mustaqillik tufayli mamlakatimiz xalqi o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini tanlash huquqiga ega bo'ldi. Bu esa xalqimizning tarixan qaror topgan milliy madaniy meroslarini, qadriyatlarini, manaviyruhiy olamini qayta tiklagan holda o'z kelajagini ko'rish va qurish imkoniyatini berdi.

Ikkinchidan, «mustabid» totalitar tuzum davrida jamiyat qurilishining g'OYAVIY asosi bo'lgan kommunistik mafkura targ'ibotchilari mamlakatimiz xalqlari, xususan, o'zbek xalqi turmush tarzi, dunyoqarashi, tarixi, urfodatlar, an'analari va milliy xususiyatlarini hisobga olmasdan bizga begona va yot bo'lgan qadriyatlarni, maqsadlarni singdirishga urinib kelgan. Buning asoratlaridan xalos bo'lishga qaratilgan manaviy ehtiyoj mavjud.

Uchinchidan, ma'lumki har qanday davlat yohud jamiyat maqsadsiz yashay olmaydi. U rivojlanish uchun manaviy asoslarni belgilab oladi. Tarixiy maqsad xalqning milliymanaviy g'oyalarida o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanlab olgan O'zbekistonda milliy g'oyani o'rganishga bo'lgan zarurat deb qaralishi lozim.

To'rtinchidan, jamiyat qurilishi tarixida har xil g'oyalar hukmronligi bo'lgan. Foyaviy maqsadlar tufayli jamiyat hayotida turli xil voqyealar ro'y bergan tabiiyki, ular turli xil oqibatlarni keltirib chiqargan. Demak g'oya bilan g'oyaning, maqsad bilan maqsadning, fikr bilan fikrning farqini bilish va anglash uchun ham milliy istiqlol g'oyasig'ni o'rganish zarur.

Beshinchidan, g'oyalar jamiyatdagi turli insonlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, xalqlar, millatlar maqsadi, orzu intilishlari, hayotni idrok etish ko'nikma va malakalari, xulqatvor ko'rinishlari, qadriyatlari manfaati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. U yoki bu g'oya qaysi manfaatni qanday tamoyillarga asoslangan holda ifoda etishiga qarab birbiridan farqlanadi, uning maqsadiga va qanday g'oya ekanligiga baho beriladi.

Oltinchidan g'oyalar ta'sir ko'lamini bilan ham birbiridan farqlanadi. Ayrim g'oya tarafdorlari mutlaq haqiqatni e'tirof etishga da'vo qilishi mumkin. Ular o'z maqsadlarini boshqa xalqlarning milliy xususiyatlarini hisobga olmasdan, qanday yo'l bilan bo'lmasin «singdirishga» urinadi. Demak bu borada har birimizdan ogohlik talab etiladi. Farzandlarimiz o'z xalqi, mamlakatining tarixini, milliy madaniy merosini, qadriyatlarini toptatmasligi, o'ziga xoslikni yo'qotmasligi uchun ham milliy g'oyani o'rganishi, bilishi kerak bo'ladi.

Yettinchidan milliy istiqlol g'oyasini o'rganishning zarurligi bugungi dunyoda mafkuraviy kurashning davom etayotganligi bilan ham bog'liq. Insonlar ongi va qalbini egallash unga ta'sir ko'rsatib, o'z maqsad va muddaolarini bir tomonlama amalga oshirishga urinishlar

to'xtamayotganligidan ham kelib chiqmoqda. Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining tarixiy maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'naviyruhiy kuchquvvat manbai hisoblanadi, demokratik fuqarolik jamiyatini qurish uchun ilmiynazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikni mustahkamlash uchun xalqimizni birlashtiradigan, uning asriy ezgu maqsadlari bo'lgan «Kelajagi buyuk davlat»ni barpo etish, har bir shaxsning hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy mafkurani yaratish ijtimoiy siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmoqda. Milliy istiqlol g'oyasini fan sifatida o'rganishning sabablarini mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov quyidagicha ta'kidlagan: «Oldimizga qo'ygan olijanob maqsadmuddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda». Ana shu hayotiy zarurat milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini fan sifatida o'rganishni taqozo etadi.

2. Milliy istiqlol g'oyasi — mazmunmohiyati, maqsad va vazifalari Islom Karimov asarlarida asoslangan ta'limot. Uning mazmuni quyidagilardan iborat:

- tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezonini bo'lish;
- xalqimizni tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy vazifasini o'tash;
- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch e'tiborining manbai bo'lish;
- O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va uni vakillariga birday taalluqli bo'lish;
- millatimiz aholisi ongi va qalbida «O'zbekiston yagona Vatan» degan tuyg'uni yuksak darajada shakllantirishga xizmat qilish;
- turli millat, qatlam, uning vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan yuksak fenomen — ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lish;
- bironbir dunyoqarashni mutloqlashtirmaslik yoki bironbir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik;
- har qanday ilgor g'oyani o'ziga sig'indirish va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olish;
- subyektivizm, valyuntorizm kabi illatlardan xoli va jamiyatimizning xolis fikriga tayanuvchi obyektiv mafkura bo'lish;
- so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olish;
- davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, muddoalarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozirjavob va ijodiy bo'lish va boshqalar.

Milliy istiqlol g'oyasi ana shu qayd etilgan sifatlarga ega bo'lgan taqdirdagina jamiyat hayotida yetakchi ma'naviy ma'rifiy omilga aylanishi va kutilayotgan muhim vazifalarni bajara olishi mumkin¹. Biroq, milliy istiqlol g'oyasi o'z-o'zidan insonning ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e'tiqodiga aylanib qolmaydi.

Bunga har bir inson o'z hayoti davomida erishib boradi. «Har qanday fanning — deb yozadi, — mamlakatimizning taniqli faylasuf, milliy istiqlol g'oyasini talabalar ongi va tafakkuriga singdirish jonkuyari professor Q.Nazarov muayyan bilimlar tuzishi sifatidagi o'ziga xos mavzular tushunchalari, qonun va kategoriyalari bo'ladi. Ularning barchasi fan o'rganadigan soha, ya'ni predmetning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Biz o'rganishga kiritayotgan «Milliy istiqlol g'oyasi» fani bundan mustasno emas. Uning ham o'z predmeti, qonun va kategoriyalari, maqsad va vazifalari bor. «Foya» va «mafkura» tushunchalari, ularning halqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayon, milliy istiqlol royasining mazmunmohiyatini tushunchalari, shakllanish qonuniyatlari, namoyon bo'lish xususiyatlari, uni xalqimiz qalbiga singish yo'llari va usullari ushbu fanning mohiyatini belgilaydi. Uning tushuncha va kategoriyalari bir butun, yaxlit tizim shaklida namoyon bo'ladi»*. Milliy g'oyaning odamlarning ishonch

Falsafa: qonusiy lugat (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). — T.: «Sharq» nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004, va e'tiqodiga aylanishi turmush, hayotidan joy

olishi bir qator omillarga bogliq. Demak bunda ham muayyan qonuniyatlar amal qiladi. Milliy istiqlool g'oyasining fan sifatida e'tirof etilishi uning o'ziga xos predmeti, obykti, maqsad va vazifalari mavjudligini anglatadi.

Birinchidan, boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar qatori «Milliy istiqlool g'oyasi» fanining ham muayyan bilimlar tizimi, ya'ni o'ziga xos mavzulari, tushunchalari, qonun va kategoriyalari mavjud.

Ikkinchidan, uning barcha boshqa fanlar qatori o'z predmeti, obykti, maqsad hamda vazifalari bor. Avvalo, har bir fan oldiga qo'yiladigan umumiy talablar milliy istiqlool g'oyasiga ham bevosita dahldor. Ayni paytda, milliy g'oyaning jamiyat, milliy madaniyat negizlari asosida shakllanishi, xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanishi bilan bogliq o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ham hisobga olish kerak. Bunda har bir inson yoki shaxsning individual xususiyatlari, uning o'ziga xos dunyoqarashi, shunga mos tafakkur va hayot tarzi, milliy ong, o'zligini anglaganligi darajasi alohida o'ringa ega. Milliy an'analarga, tarixi, ona tili, madaniyatiga bo'lgan munosabatda shakllangan va mustahkamlangan qalbdagi ruhiyati, e'tiqodi, sadoqati bilan vatanparvarlik va millatparvarlik tuygulari o'zining va millatining sha'ni, qadrdimmatini hurmat qilishda namoyon bo'ladi. Shuningdek har bir insonda umuminsoniy qadriyatlar boshqa xalqlar va millatlarning madaniy yutuqlariga o'zaro manfaatdarlik hamda milliy taraqqiyotida uni mustahkamlash nuqtai nazaridan qarash, baholash ko'nikmalari, sa'yharakatlari orqali o'z ifodasini topadi.

Ushbu fanning predmetini milliy madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro munosabati, milliy istiqlool bosh g'oyasi xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanishi «g'oya» va «mafura» tushunchalari, ularning xalqlar, millatlar va davlatlar taqdiriga ta'sirini o'rganish tashkil etadi. Milliy istiqlool g'oyasi fanining predmetini fakat «g'oya va mafura» tushunchalaridan iborat deb qabul qilish ushbu fanni tor doirada tushunishga olib keladi. Bu fanning predmetini hozirgi zamondagi mafkuraviy jarayonlar, uning ma'no mazmunidagi o'ziga xos jihatlari, ta'sir etish qonuniyatlari, ma'lum bir makonda va davrda namoyon bo'lish xususiyatlari, uni ko'p millatli davlatimiz fuqarolarining ongi va qalbiga singdirish yo'llari hamda uslublarini aniqlash ham tashkil etadi.

Bu jarayon,

Birinchidan, milliy g'oyaning fan talablari asosida, muayyan andoza, tartib va qoidalarga, bilim va tajriba tizimiga shunchaki tushavermasligi bilan ham alohida ajralib turadi. Uning ana shunday xususiyatga ega bo'lishi milliy istiqlool g'oyasi kishilarning ong va tafakkuri, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari milliy ma'naviy merosga munosabatning jamiyat hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari bilan bogliq;

Ikkinchidan, milliy istiqlool g'oyasining shakllanishi kishilar (xalq, millat, avlodlar) amaliy faoliyatida hamda o'zaro munosabatlarida ishonch va e'tiqodga aylanishining namoyon bo'lishi «bir chiziqli», yagona tartib, me'yorlarga osonlikcha tushavermaydi. Ayni paytda, fuqarolar, turli ijtimoiy guruhlar yoki qatlamlar, millat va elatlarni o'zaro mushtarak maqsadlar, g'oyalar birlashtirib turmas ekan, ular o'rtasida o'zaro hamjihatlik totuvlik ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham, milliy istiqlool g'oyasining predmeti milliy istiqlool g'oyasining shakllantirishga, keng jamoatchilikning ishonchi va e'tiqodiga aylanishi. uning madaniy negizlarini ijtimoiy hayot. mehnat faoliyatida namoyon bo'lish shart-sharoitlari omillari konuniyatlarining ilmiy nazariy asoslarini o'rganishdan iboratdir.

Milliy istiqlool g'oyasi mustaqillikni qo'lga kiritish, uni mustahkamlash va rivojlantirish, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'lishi uchun imkon yaratadigan xalqni, millatni jipslashtirib turadigan maqsadlar, manfaatlar majmuidir. Ilmiy adabiyotlarda «g'oya», «mafura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq Farb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi Idyea so'zidan olingan, u ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi»¹.

Milliy istiqlool g'oyasining obykti sifatida O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, milliy-madaniy rivojlanish xususiyatlarini qadriyatlarini e'tirof etish mumkin. Shuningdek

xalqning madaniyati, milliy-madaniy merosini, odamlarning ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirish bilan bog'liq maqsadlarini jamiyat hayotida namoyon bo'lishini tahlil etish ham muhimdir. Shuningdek fanning obyektini — O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li va ijtimoiy rivojlanishning milliy-ma'naviy negizlari, umumbashariy tamoyillar tashkil etadi.

Milliy istiqlool g'oyasi ijtimoiy taraqqiyot sohasidagi dunyo xalqlari tajribasi va yutuqlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, O'zbekiston milliy rivojlanishining yangi yo'nalishi modelining milliy-nazariy asosidir. Negaki, O'zbekiston xalqining o'ziga xos shunday milliy-madaniy merosi va qadriyatlari mavjudki, ular mamlakatda yashayotgan har bir fuqaro, oila, xalq va millat hayotining barcha jabhalaridan chuqur o'rin olgan. Ular orqali shu xalq, millatning «o'zligini», «borlig'ini» boshqa xalqlar yoki millatlar o'xshashligi (umumiyligi) va farqi (ayrimligi)ni anglab olish mumkin. Shu xususiyatlar saqlab qolinsa, O'zbekiston o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lidan rivojlanishi mumkin. Buning uchun milliy g'oya jamiyat hayoti sohalarini bilan o'zaro uyg'unlashmog'i muhim ahamiyatga ega. Ana shunday ishonch, e'tiqod, milliy g'urur, o'zligini namoyon etish va qadrlash tuyg'ulari milliy istiqlool g'oyasini xalqning ishonch va e'tiqodiga aylanganligini ko'rsatuvchi muhim mezonidir.

Demak milliy istiqlool g'oyasining maqsad va vazifalari umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi tamoyiliga to'lato'kis mos kelishi, demokratik erkinliklar va insonlarini saqlashga doir xalqaro andozalarga hamohangligi bilan xam insoniyat tarixidagi ko'pgina milliy g'oyalardan farq qiladi.

To'g'ri, milliy qadriyatlarga tayanmasdan ham «rivojlanishga» erishish mumkin. Yoki «biz qadriyatlarga ko'proq bog'lanib qolmoqdamiz, qadriyatlarimiz esa bizni taraqqiyotimizga ayrim hollarda turtki berish o'rniga, halaqit qilmoqda», deyidiganlar ham topiladi. «Bunday qarashlar qaysi jihati bilan to'g'ri kelmaydi yoki uni qabul qilish qiyin», degan savollar doimiy ravishda mavjud bo'ladi. Taraqqiyotga erishishning turli yo'llari mavjud. Aytilganidek «biron bir andozani» qabul qilib ham xalq yoki millat o'z taraqqiyotini unga moslashtirishi mumkin. Lekin xalq yoki millatning milliy taraqqiyot yo'li tarixiy an'analari va merosiga to'g'ri kelmasdan, boshqa xalqning tarixiy rivojlanish tajribasini afzal ko'rsa, uning o'zligi qayerda qoladi?

Milliy rivojlanishida har bir xalq tili, madaniy xususiyatlarini hisobga olmasdan, qadriyatlariga befarq, loqayd qarasa va istagan «turmush tarzi», urfodat, qadriyatlarni o'zi uchun qabul qilaversa, o'z taraqqiyot yo'lini yo'qotib qo'yadi. Bunga mustabid sovet davri tipik misoldir. Shuning uchun ham har qanday rivojlanish andozasini emas, o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini e'tirof etish milliy istiqlool g'oyasiga to'g'ri keladi. Shu ma'noda, milliy istiqlool g'oyasini xalqimizning yangi jamiyat qurish borasidagi harakat dasturi deyish mumkin.

Milliy istiqlool g'oyasining asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalari, maqsad va yo'nalishlari bilan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ishonch uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviyruhiy rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Milliy istiqlool g'oyasi fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalaydi. G'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatni farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolarda milliy istiqlool g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlanishga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga nisbatan doimo tayyor bo'la olish immunitetini shakllantiradi. Milliy istiqlool g'oyasi mamlakatning oldida turgan ulug', bunyodkorlik ishlari undan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarning erkin va farovon hayotga erishishi, ozod va obod Vatan qurish yo'lida har bir kishi uchun harakat yo'nalishi bo'lishga qaratilgan. Milliy istiqlool g'oyasi harch qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini boshqarishni, ularni yana allaqanday «qolipga», «yagona andozaga» solishga qaratilgan emas. U fikrlar, g'oyalar xilmaxilligiga asoslanadi. Erkin fikrni uyg'otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o'zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak milliy istiqlool g'oyasi «hukmron g'oya»ga intilishdan mutlaqo begona bo'lgashshgi bilan ham boshqa nosog'lom g'oyalardan farq qiladi. Milliy istiqlool g'oyasi voqyea-hodisalarni bilish, tahlil etish, ularga baho berishga imkoniyat yaratib, bir qator ilmiy, tarbiyaviy va amaliy vazifalarni ham bajaradi. «Milliy

istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida qisqa va muxtasar tarzda bayon etilgan. Ulardan eng muximlarini qayd etmoqchimiz:

— odamlarimizda mustaqil dunyoqarash va erkin fikrlashni shakllantirish;

milliy totuvlik hamjihatlikni istiqbolimiz yo'lidagi eng katta toyalardan hisoblanishi nosoglom mahalliychilik urugaymoqchilik deb ataladigan illatlardan holi etish;

—hayotga endi qadam qo'yayotgan yosh avlodning dunyoqarashiga yangicha ma'no va mazmun baxsh etish orqali unda faol hayotiy pozisiyani, milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodni shakllantirish;

—jamiyatimizda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, kishilar ongiga Vatan taqdiri uchun mas'ullik yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlash;

—istibdod davri asoratlari, qullik va mutelik kayfiyatlarining ongimizda, tafakkurimizda saqlanib qolayotgani sabablarini tahlil etish, ularni bartaraf etish yo'llarini topish zarurati bilan bog'liq vazifalarni hal etishdan iboratdir. Demak yangicha fikrlaydigan, mutelik tuyg'usidan xoli bo'lgan o'zligini anglagan, avlod-ajdodlarini, madaniy merosini yaxshi bilgan ma'naviy barkamol. Milliy istiqol g'oyasining asosiy tushunchalari avlodni tarbiyalash istiqol mafkurasining muhim vazifasidir.

Milliy istiqol g'oyasi muayyan tushunchalarga asoslanadi. Ular turli xil bo'lib, jamiyatda shakllangan va mavjud bo'lgan fikrlar xilma-xilligi bilan kishilarning o'zaro ijtimoiy munosabatlari asosida amaliy xatti-harakati orqali namoyon bo'ladi.

«Milliy g'oya va istiqol mafkurasida haqida gap borar ekan, — deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz, — biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'nomazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi»¹. Binobarin, milliy istiqol g'oyasining asosiy tushunchalari nisbiylik xususiyatiga egadir.

Milliy istiqol g'oyasini o'rganishda quyidagi tushunchalarni hisobga olish zarur:

-turli jamiyatlar, xalqlar hayoti, milliy-madaniy qadriyatlari, maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan turli xil ma'nomazmunga ega umumiy tushunchalar: «g'oya», «mafura», «g'oyaning turli xil ko'rinishlari», «bunyodkor g'oyalar» va «yovuz, tajavvuzkor g'oyalar», «milliy g'oyalar» va «umumbashariy g'oyalar»;

-jamiyatning siyosiy hayoti, turli xil jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog'liq maqsad va intilishlarni ifoda etadigan turli-xil siyosiy mafkuralar ko'rinishlari;

-O'zbekiston xalqining hayoti bilan bog'liq bo'lgan, uni o'zida aks ettiradigan va unga xizmat qiladigan «milliy istiqol g'oyasi», «milliy istiqol g'oyasining ma'naviy negizlari», «milliy rivojlanish g'oyasi», «milliy istiqol mafkurasida», «milliy istiqol g'oyasining asosiy g'oyalari», «milliy istiqol g'oyasining bosh g'oyasi», «milliy istiqol g'oyasining umumbashariy tamoyillari» va boshka tushunchalar.

Milliy istiqol g'oyasi bilan bog'lik tushunchalarning uziga xos xususiyati shundan iboratki, u asosan, Uzbekiston xalqi ijtimoiy, xayot soxalari rivoji bilan, uning milliy-urf odatlari, kadriyatlari, tili, madaniyati, tarixi falsafasi, diniy ruxiyati bilan uzviy bog'lik. Milliy istiqol g'oyasi milliylikni, milliy rivojlanish xususiyatlarini e'tirof etadi va unga xurmat bilan karaydi. Milliy istiqol g'oyasi «sinfiylik», «pratiyaviylik» tamoyillariga asoslanmaydi. Boshka mamlakat xalklarining xayotiga uz g'oyalarni singdirishni da'vo kilmaydi. Bu bilan u «kommunistik g'oyadan» tubdan fark kiladi. Milliy istiqol g'oyasi uzbekiston respublikasi nomini olgan uzbek xalqi, millatning milli-madaniy merosiga tayangan xolda boshka xalklar madaniyati, maksad va intilishlari bilan uzaro mushtarak tarzda mamlakat ravnakining ma'naviy-ruxiy, falsafiy omili sifatida xizmat kiladi.

Milliy istiqol g'oyasini urganishni takozo etadigan umumiy va uziga xos konuniyatlar mavjud umumiy konuniyatlar turli xalklar, mamlakatlar, jamiyatlar xayotida amal kiladigan umumiy asosga ega bulgan ichki zaruriy boglanishlar bulib, u jamiyat va mafkuralar (g'oyalar)ning bir-birlari bilan uzviy bog'likligi konunidir. Jamiyat mafkurasiz, maksadsiz yashay olmaydi. Demak birinchidan, mafkura xar kanday jamiyat xayotida zarur. Mafkura bulmasa, odam, jamiyat, davlat uz yulini yukotishi mukarrar. Ikkinchidan, kayerdaki g'oyaviy bushlik vujudga kelsa, usha yerda

begona g'oya asosida bulgan mafkuralar ta'siri uchun sharoit mavjud buladi. Buni isboti uchun xox tarixdan, xox zamonamizdan kuplab misollar keltirish kiyin emas. U jamiyat oldidagi maksadlar, uni amalga oshirish vositalaridir.

Milliy istiqlol g'oyasining tushunchalari bilan bir katorda uning namoyon bulish konunlari xam mavjud. Ularning maksadlari xam, rivojlanish yullari xam turli xil. Ya'ni rivojlanishining, ijtimoiy tarakkiyotining xilma-xilligi konuni orkali namoyon buladi:

-dunyoning mafkuraviy manzarasi turli xil maksadlar turli-xil manfaatlar, karashlar bilan boglik xolda namoyon bulgan va bulib kolmokda. Bu ezgu g'oyalar bilan birga yovuz g'oyalarning xam yashovchanligini, "dunyoda mafkura soxasida kurashing"avom etib kelayotganligining asosida yotgan uziga xos jixatdir.

Lekin, xar bir xalkning uziga xos ma'naviy ruxiyati, merosi, kadriyatlar bilan bog'lik g'oyasi xam mavjud. uni inkor etib bulmaydi. Uni anglamslik u bilan boglik bulgan turmush tarzini, madaniyatidagi xususiyatlarni, tarixni, tilni, milliy-madaniy rivojlanish konuniyatlarini e'tirof etmaslikka olib keladi. Bu oxir okibatda shu xalkni yoki mamlakatning "uzligini" tan olmaslikka sabab buladigan yuldir.

-globallashuv jarayonining milliy g'oyaga ta'sir etishi xam uziga xos umumiy konuniyatdir. Bu jarayon turli mamlakatlar, xalklar xayotida ularning bir-biriga boglikligini, uzaro ta'sirini oshiradi, ma'naviy, g'oyaviy xayotida aks etmasdan kolmaydi.

Milliy istiqlol g'oyasi tugrisida fikr yuritganda, uning uzbek xalkining xayoti, turmush tarzi, tarixi, madaniyati, milliy-madaniy merosi va kadriyatlar bilan boglik bulgan xamda milliy g'oyada aks etadigan uziga xos konuniyatlari xam mavjud. Bu konuniyat milliy istiqlol g'oyasining mazmuni, maksadi va xususiyati nuktai nazaridan qaraganda aloxida, ustivor ahamiyatga ega. Chunki bu konuniyatni xisobga olish uzbek xalkining, millatning kelajagi bilan uzligini sakla kolish xamda uz negizida rivojlanishini, dunyoda uziga xos uringa ega bulishni e'tirof etish bilan boglik. Tarixiy jixatdan yondashganda, bu soxada "turli g'oyalar", "mafkuralar" ana shu muxim konuniyatlarga zid bulgan xolatlarni xam kuzatilishini kursatadi. Uzbek xalkining tili madaniyatidan, tarixidan ajratib kuyoishga bulgan urinishlar bunga misoldir. Chunki yot va begona g'oyalar xalkning turmush tarzi, milliy-madaniy kadriyatlaridan ajratib kuyish orkali uni zaiflashtirishga va uz irodasiga buysundirishga xarakat kilgan. Yot va begona g'oyalar ba'zi xalklarning millat sifatida rivojiga uzining salbiy ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasiga tayanish va unga amal qilish O'zbekiston xalqining o'zligini saqlab qolish va o'ziga xos va mos rivojlanish ehtiyoji sifatida namoyon bo'ladi. Demak milliy istiqlol g'oyasining qonuniyatlari har bir xalq uchun milliy o'ziga xosligini zamon yutuqlari bilan boglashning nafaqat kafolati, balki rivojlanish strategiyasi hamdir.

3. Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish prinsiplarining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning g'oyaviy jihatlarini belgilash bilan bogliq. Shu nuqtai nazardan milliy istiqlol g'oyasining prinsiplari birbiri bilan uzviy dialektik aloqadorlikda deyish mumkin. Ular o'z navbatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi talablariga mos kelishi bilan uzviy bog'liq

a) Milliy istiqlol g'oyasi insonparvarlik inson qadriyatlarini, sha'ni va ornomusi, haququqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi prinsipiga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu prinsip o'tkinchi xarakterga ega bo'lmay, balki O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o'zida mujassam etadi. Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik prinsiplari inson hamda jamiyat manfaatlarini uyg'unligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o'taydi. Demak milliy istiqlol g'oyasi ikki muhim, birbiri bilan bogliq negizga tayanadi. Bu, bir tomondan, O'zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urfodat, an'analari, madaniyati bilan bog'liq milliy-madaniy merosi bo'lib, bu uning asosi, bosh negizi, tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi, dunyo xalqlari e'tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi.

b) Milliy qadriyatlarga sodiqlik milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu prinsip O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-

avaylash, kelajak avlodlarga yetkazish uchun tula imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdan qolgan madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish bu prinsipning asosiy jihatidir. Lekin u narsani umumqonuniyat sifatida hisobga olish kerakki, umumbashariy qadriyatlar, avvalo milliy-ma'naviy negizda shakllanadi. Xalq, millatning ruhiyati uning milliy-madaniy merosi orqali uning xayotida maqsad va orzularida, jamiyat qurilishida o'zining aniq ifodasini topadi. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida u yoki bu xalqlarga xos bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy mohiyati dunyo xalqlari rivoji uchun umumbashariy qadriyat sifatida xizmat qiladi. Ular bir birini boyitadi, ayni paytda o'zaro mushtaraklikka ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Milliy istiqlol g'oyasining turli xil fikr, g'oyalarga munosabati, uning ijtimoiy-ma'naviy hayotda aks etish usullarini anglash uchun, eng avvalo, turli xildagi g'oya va mafkura tushunchalarining mazmunmohiyatini o'rganmoq zarur. Ma'lumki, har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos qarashdir, ijtimoiy fikr esa — voqyelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. Foya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tugilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi¹. Jamiyat hayotida turli xil fikr, va g'oyalarning o'rni muhim. Lekin, ma'lum bir fikr mutlaqlikka intilsa yoki yakka hukmronlik qilsa, u jamiyat rivojiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demoqchimanki, «ikki odam aynan bir xilda fikrlamagani kabi turli xalqlar, mamlakatlar ham aynan birbiriga o'xshashi, ya'ni bir xil tarixga, madaniyatga ega bo'lishi qadriyatlarni e'zozlashi, umumiy maqsadni ko'zlab ijtimoiy, rivojlanish yo'lini andoza sifatida olishi va faqat unga tayanishi mumkin emas.

Milliy istiqlol g'oyasining o'ziga xos jihati ham shundaki, u fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini tan oladi. Jamiyatning yakka-yagona mafkurasi sifatida bironbir fikr, g'oyani e'tirof etmaydi. Erkinlik xususan, fikr erishshgi va xilma xilligi prinsiplariga amal qilish milliy istiqlol g'oyasi uchun muhim. Fikr erkinligi va g'oyalar xilma-xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta'minlab turuvchi, inson salohiyatini oshiruvchi noyob imkoniyatdir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hych qayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulqatvor normalari ham shuni taqozo etadi. Masalan, dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvesiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash rejasi ham buning amaliy namunasi bo'ldi. O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan, shakshubhasiz, samarali foydalanadi. Bironbir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'rko'rona ko'chirib olish to'g'ri emas. Aksincha, aniqravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi.

Jahon xalqlari va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha ijobiy tajribani rad etmagan holda o'z *ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-qukukiy tarakkiyot yo'limizni tanlab olish respublikaning kdt'iy pozitsiyasidir*. Bu — o'tmish yillarining xatolarini, davlat tuzilishining shakl va usullariga nisbatan mavjud qarashlarni idrok etish natijasidir. Bu, tarkib topgan ijtimoiy voqyelikka berilgan real baxodir. Bu — O'zbekiston xalqining ijtimoiy taraqqiyotiunosib turmush sharoitiga intilishidir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqi ga intilish — tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Odamlarning ongi va turmushiga uzoq yillar mobaynida, ko'pincha zo'ravonlik yo'li bilan singdirilgan narsalarni bir zumda o'zgartirish mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga va ularni birbiriga qaramaqarshi qo'yilishga barham berish bilan jamiyatni yangilash va o'zgartirish

zarurligiga odamlarning o'zini ishontirish, harakatga keltiruvchi kuchlarni va mehnatning ragbatlantiruvchi omillarini o'zgartirish mumkin.

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinligi, ularning o'ziga xos xususiyati bu muammolarni hal etishga alohida yondashuvni taqozo etadi. Turmush sharoiti va tarzining milliy xususiyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik ham shuni talab etadi.

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga eripshishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning milliy istiqbol g'oyasiga asoslangan quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shartsharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u axrlinish milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalk an'analari va urfodatlaridan kglb chikadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'grisida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehrmuhabbat, mehnatsevarlik bilimga, ustozlarga, ma'rifat Parvarlarga nisbatan alohida hurmatehtirom — O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllanishda, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinistagada ham shu omil namoyon bo'ladi.

Mazkur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalar ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazgan. O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadanqancha avlodlarning ma'naviyruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi. U hamon ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat — g'oyat muxim xususiyatlardan biridir. Respublikamizda aholi va mehnat resurslari yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholining yarmidan ko'prog'i qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan shugullanadi. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'ini bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigitqizlar tashkil etadi.

O'z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joylarga boglanganlik ko'chib yurishga moyillikning yo'qligi respublika aholisiga xos xususiyatdir. Respublikaning yana bir xususiyati — aholi *milliy tarkibining o'ziga xosligidir*. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeyi egallaydi. Shu bilan bir vaqtda, respublika hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. O'zbekistonning milliy madaniy jihatdan g'oyat rangbarangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish yo'lida qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum k&driyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanganligini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Bir tomondan, bu ijtimoiy tenglikka, kafolatlangan mehnat qilish huquqiga, yalpi bepul ta'lim va tibbiy xizmatga qat'iy tarafdorlikka intilishida namoyon bo'lmoqda. Ikkinchi tomondan esa, yakkahokimlikdan iborat ma'muriy buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonning mulkka egalikdan va xo'jayinlik tuygusidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati yuzaga keltirilganligida ko'rinadi.

Yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotning o'zimiz tanlagan — murakkab jarayon bo'lib, respublika ijtimoiy tur ning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy madaniy boshqa barcha sohalarini qamrab oladi. Xalq davlat hokimiyatining manbaidir. Uning xohishiroyaavlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini, Uzbekiston fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan. Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi (2005 yil 28 yanvar) ma'ruzasida: mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlashni istardimki, «boshqariladigan iqtisod», «boshqariladigan demokratiya» deb atalmish modellar bizga mutlaqo to'rri kelmaydi.

Shu ma'noda, mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi. Faqat mana shu asosda, mana shu negizda mamlakatdagi kambag'allik va qoloqlik muammolarini hal etish mumkin va zarur. Inkoriy bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qonqoniga, vujudiga singib ketishini istardim»¹, deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlab berganligi bilan xarakterlanadi.

Bu siyosiy sohada quyidagilarni bildiradi:

- xalqning turmush tajribasiga, respublika aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlarining manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish. Xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligini;

- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish. Jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralari tuzilmasini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi.

Kuchli ijroiya hokimiyati bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin. Bu esa qonuniy qarorlarning ro'yobga chiqarilishini, fuqarolaryugag huquq va erkinliklari himoya qilinishini, siyosiy va iqtisodiy islohotlar turmushga tatbiq etilishini ta'minlaydigan prezidentlik hokimiyatini mustahkamlash va rivojlantirishni taqozo etadi;

- barcha fuqarolarning honun oldida huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlarini himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish. Qonuniylik va huquqtartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi;

- O'zbekistonda tushlgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e'tiqodidan qat'i nazar, Respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik va vatanparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarish. Avlodajdodlari yoki o'zlari o'tmishdagi fojiali voqyealar sababli xorijga ketib qolishga majbur bo'lgan o'zbeklar ham bemalol Respublikaning fuqarosi bo'lishlari kerak. O'zbekiston hududi o'zbeklarning milliy davlatchiligi bo'lgan birdanbir hudud ekanligini e'tiborga olib, Respublika o'zbeklar qayerda yashamasin, ularning hammasi uchun madaniy va ma'naviy markaz bo'lib holishi lozim;

- ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urfodatlarini va an'analari saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta'minlash, davlat tuzilmalarining faoliyatida va jamoat turmushida faol qatnashish;

- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka-hokimligidan qat'iyan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilmaxilligini tan olish Bironta ham mafkura mutlaq haqiqatni bilishga da'vo qilishi mumkin emas.

Ma'naviylik va insonparvarlik respublika hududida yasha'tgan barcha xalqlarning an'analari va urfodatlarini, lini tili va madaniyatini hurmat qilish qoidalariga ustuvorlik berilishi;

__chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni amalda shakllantirish. Ayni vaqtda, hokimiyatni zo'ravonlik bilan o'zgartirishni maqsad kilib qo'ygan, respublikaning davlat mustaqilligiga, hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiqadigan, milliy va diniy adovatni avj oldiradigan, konstitutsiyaviy tuzumga, xalqning demokratik erkinliklari va ma'naviy negizlariga tajovuz qiladigan partiyalar va jamoat harakatlari qonundan tashqari bo'lishi kerakligi.

Ijtimoiy va ma'naviy sohada:

- insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik Bu g'oyalarning oliy maqsadi inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, shonsharafi va qadrqimmatini, yashash joyini tanlash huquqi. O'zbekistonning kundalik hayotida inson huquqlarining Umumiy deklarasiyasida mustahkamlangan me'yorlarni izchillik bilan, ogishmay qaror toptirish;

-ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash. Xalqlarning madaniy merosiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish va O'zbekistonga qaytarish;

-qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish. Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish, Respublika hududida yashovchi xalqlarning milliy madaniyatlari va tillariga o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lish;

-hurfiylilik vijdon va din erkinligi qoidalarini Qaror toptirish. Bir dunyoqarashning yakkahokimligi yangilangan jamiyatga yotdir. Har bir inson o'z e'tiqodiga ega bo'lish, o'zining diniy marosimlarini erkin bajo keltirish uqiga ega. Bugungi kunda din barcha illatlardan, yolg'on va riyokorlikdan poklanishga, yuksak axloqiy negizlar va ma'naviy fazilatlarni qayta tiklashga ko'maklashmoqda. Islom ota-bobolarimizning dini, musulmonlarning ongi, turish turmushining mohiyati, hayotining o'zidir. Davlat har bir musulmon uchun muqaddas bo'lgan Makkaga haj qilishda zarur yordam beradi;

— ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari — keksalar, nogironlar, yetimesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlash. Eng taraqqiy etgan mamlakatlarda insonni ijtimoiy muhofaza qshgash tizimi keng qo'llaniladi, bunga nihoyatda muhim ahamiyat beriladi, bizning sharoitimizda esa bu — fuqarolar totuvligani saqlab qolish kafolatidir;

— hamma uchun ma'qul bo'ladigan sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, chaqaloqlar o'limini kamaytirish, odamlar umrini uzaytirish bo'yicha samarali choratadbirlarni amalga oshirish. Aholiga yuqori malakali tibbiy yordam olish shakllarini erkin tanlash imkoniyatlarini yaratish;

— umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikdan o'tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berish. Yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqining va respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur;

— ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun shartsharoitlarni yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilish. Kishilar shuni aniq va ravshan anglab yetishlari kerakki, ma'naviy potensialni ildam rivojlantirmay turib, respublikaning chinakam mustaqilligini va ravnaq topishini ta'minlab bo'lmaydi. Fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquqtartibotni qaror toptirish mana shunday siyosiy, va konstitusiyaviy tuzumga erishish kalitidir.

Oila — jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, birbiriga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talabehtiyoblari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'grisida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'grisida gamxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Mustaqil o'zbek davlati — xalqimizning tarixiy yutushdir. O'z davlati bilan faxrlanish va fuqarolarning vatanparvarligi jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ilg'or marralarga chiqib olishida yordam bergan. *Mamlakatimiz tuprog'ida yashab turgan va o'zini vatanparvar deb xisoblagan har bir kishi uning yaxlitligi va birligini asrabavaylashi shart.*

Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bogliq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayratshijoatiga, to'lato'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bogliq ekashshgini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, gullabyashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi — biz ko'zlayotgan oliy maqsaddir. Bunga Mustaqil O'zbekistonning Konstitusiyasi huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

4. Milliy istiqlol g'oyasini faqat shu fanni o'rganish asosidagina egallash mumkin deb qarash bir tomonlama va noto'g'ri tasavvurdir. Aksincha, milliy istiqlol g'oyasi bilan barcha fanlar, xususan, falsafa, ijtimoiy Qtisod, ijtimoiysiyosiy fanlar uzviy bogliq. Bu fanShng qanday royaga asoslanishi, ularni o'qitish asosida yoshlar ongi va ishonchiga, qalbiga qanday g'oyalar singdirilishi har qanday jamiyat uchun ahamiyatlidir. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida bu fanlarni o'ta mafkuralashtirib, xalqlar, mamlakatlar va millatlar taqdiriga, uning rivojlanish yo'li, milliy madaniy merosiga, qadriyatlariga ham «sinfiy» manfaatlar «kommunistik g'oya» talablaridan kelib chiqib yondashilganligini aniq hisobga olish kerak. Natijada, O'zbekiston xalqi hayoti, tarixi «o'zga xalqlar tarixi»ni o'rganishdan iborat bo'lib qolgandi. Milliy madaniyat, qadriyatlar o'rnida soxta baynalmilallashtirilgan, mohiyatan milliylikni e'tirof etmaydigan, milliy hadriyatlardan begona shaklan milliy, mazmunan socialistik bo'lgan prinsipga bo'ysundirilgan edi. Butun ta'lim va tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyma'rifiy ishlar, adabiyot va san'at, ijod uchun «sosialistik realizm» muhim mezonga aylangan, to'g'rirog'i, aylantirilgan edi. Shunga javob berish va shunga amal qilinishi shart edi. Bu barcha ijtimoiygumanitar fanlarning bir xil qolipga solinishiga, yagona kommunistik g'oya va mafkuraning targ'ibotchisiga aylanishiga olib keldi. Oqibatda, ijtimoiysiyosiy fanlar rivojlanishdan to'xtadi. Fanlarning erkin rivojlanmasligi oqibatida ularnint samaradorligi keskin pasayib borganligi ma'lum.

Bugun milliy istiqlol g'oyasining boshqa fanlar bilan munosabati to'trisida fikr yuritilganda, avvalo, uni kommunistik g'oya prinsiplaridan tub farqini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, fikrlar xilmaxilligi, g'oyalar xilma xilligi prinsipiga asoslanish, xalqning milliy madaniy merosi va qadriyatlariga tayanishi hamda umumbashariy prinsiplarni e'tirof etish qoidasi fanlarning rivoji uchun keng imkoniyat beradi. Ikkinchidan, har bir fan yo'nalishlari (sohalari) orqali milliy istiqlol g'oyasi negizlarini bilib olish mumkin. Masalan, milliy istiqlol g'oyasining tarixiy negizlarini — tarix orqali, falsafiy jihatlarini — falsafa, iqtisodiy asoslarini — iqtisod, diniy asoslarini — dinshunoslik adabiyot va san'at bilan bog'liq tomonlarini o'rganish orqali milliy g'oya kishilarning ishonch va e'tiqodiga aylanib boradi. Boshqa fanlar ham o'z predmeti, maqsad va vazifalari bilan shu mushtarak maqsadga xizmat qilishi tabiiy.

Milliy istiqlol g'oyasini alohida fan sifatida o'rga esa uning o'ziga xos xususiyatlarini, ishonch va e'tiqodga aylanish bilan bogliq qonuniyatlarining mavjudligini anglatadi. Uni alohida o'rganish yuqorida qayd etilgan fanlarning bevosita vazifasiga kirmaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol g'oyasi bilan bogliq bo'lgan qonuniyatlarni o'rganish uning o'ziga xos jihatlarini bilish O'zbekiston xalqlari hayotida muhim ahamiyatga ega. U quyidagi yo'nalishlarda o'zining aniq ifodasini topadi:

— Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonning har bir fuqarosni O'zbekiston xalqlari, o'zbek xalqi hayoti, ma'naviyruhiy, madaniy merosi, milliy ma'naviy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtiradi, uning mazmun va mohiyatini anglashga undaydi. Bu g'oya ularda milliy ma'naviy negizlariga tayangan holda rivojlanish, uni qadrlash tuyg'ularini shakllantiradi va mustahkamlaydi;

— Milliy istiqlol g'oyasi prinsiplarining har bir fuqaroning ishonch va e'tiqodiga aylanishi, kishilarning xatti harakati va faoliyati orqali mamlakat oldida turgan maqsadlarni birgalikda amalga oshirish uchun ularni mushtarak maqsadlar atrofida jipslashtiradi, ma'naviyruhiy kuchquvvat beradi;

-yot, zararli, begona g'oyalarning ta'siridan saqlaydi, mavkuraviy immunitetni oshiradi. Prezidentimiz aytganlaridek «fikrga qarshi fikr bilan, g'oyaga qarshi g'oya bilan, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan» kurashishni talab etadi. Chunki, o'zining mustaqil fikri, g'oyasi bo'lmagan odam yot va begona, yovuz g'oyalarga qarshi kurasha olmaydi;

-Milliy istiqlol g'oyasini o'rganish orqali inson turli xil ROYAVIY ta'sirlarning maqsad va muddaolarini birbiri bilan farqlay oladi. Fuqarolarda, xususan, yoshlarning tarixiy xotirasi, milliy

o'zligini anglashi milliy ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan soglom muhitni shakllantiradi va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalaydi;

- Milliy istiqlol g'oyasini o'rganish, milliy gurur, avlodlarga munosib vorislar bo'lish, ular bilan faxrlanish va ularga o'xshab o'z Vatanining ravnaqiga munosib hissa kushish bilan bogliqdir. Hozirgi zamon ilmfan yutuqlarini egallash, fan va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etadi.

Vatanparvarlik tuygularini oshiradi. O'z xalqiga va

millatiga bo'lgan sadoqatini mustahkamlaydi. Kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni oshiradi. O'zbekistonning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga ega bo'lgan mustaqil mamlakat sifatida dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa va nufuzga ega bo'lishi uchun fidoyilik bilan mehnat qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati qurilishida uning ahamiyati doimo oshib boradi. Chunki, dunyoda turli xil g'oyalar, turli xil maqsadlar mavjud bo'lar ekan, milliy istiqlol g'oyasi tizim sifatida amal qilishi kerak. Shunda, O'zbekiston o'zining tadrijiy rivojiga ega bo'ladi. Milliy g'oya hayot o'zgarishlari bilan bouliq holda doimo yangi-yangi muammolarga duch kelishi mumkin. Har bir davr, zamon va makon o'zgarishlari, unga bo'lgan ishonch va e'tiqod zaruratini doimo saqlab qoladi. Faqat uni yangi sharoitda yangicha yondashuv, yangicha texnologiyalarni joriy etish asosidagina odamlar ongi va tafakkuri, ishonch va e'tiqodi bilan bogliq ma'naviyruhiy olamining negizi bo'lgan milliy istiqlol g'oyasi uzluksiz ravishda mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga shartsharoit yaratadi.

Demak Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik ziyolilarimiz, ilmfan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma'naviy ma'rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur»'.

2 MAVZU

JAMIYAT TARAQQIYOTINING G'OYA VA MAFKURA BILAN O'ZARO BOG' LIQLIGI.

Reja

1. G'oya tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati.
2. Mafkura tushunchasi va uning mohiyati.
3. Bunyodkor g'oyalar va mafkuralarning jamiyat xayotidagi ijobiy ta'siri.
4. Vayronkor, yot g'oya va mafkuralarning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri.

Ezgu, bunyodkor g'oya va mafkura barcha insonlarning hayoti mazmunini, orzu istaklarini ifodalaydi. Xar bir inson, jamiyat o'z oldiga muayyan bir maqsad qo'yadi va unga erishish uchun harakat qiladi. Inson maqsadlari jamiyat manfaatlariga mos kelishi, taraqqiyot yo'li va istiqbolini belgilab beradigan muayyan ezgu g'oya va mafkurasida aks etishi o'ta muhimdir. O'z mustaqil fikri va sobit imon-e'tiqodga ega emaslik esa ertangi kuniga ishonchsiz odamlarning paydo bo'lishiga olib keladi. O'z e'tiqodiga ega bo'lmagan, kelajagini yorqin tasavvur qilib, muayyan ezgu maqsad sari faol harakat qilmaydigan insonlar yashaydigan jamiyatda o'zaro ishonch, osoyishtalik va barqarorlikka turli tahdidlar bo'lishi tabiiy. Turli nosoglom kuchlar o'z manfaatlarini ko'zlab begona va yovuz g'oyalarni bu yerda yashaydigan odamlar hayotiga, turmushiga, ongi va qalbiga turli yo'llar bilan singdirishga, odamlarga ma'naviyruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Darhaqiqat, inson va jamiyat hayoti muayyan fikrlar, g'oyalar bilan uzviy bo'Yeliq mafkura inson hamda jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi va uzluksiz takomillashib, rivojlanib, davrlar o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shu sababli, inson, jamiyat taraqqiyotida g'oya va mafkuraning o'rni hamda ta'sirini o'rganish barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega. Inson va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar alohida o'rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy holatlarning ro'y berishi jamiyatda qanday g'oyalar hukmronlik qshgashi, ular qanday kuchlarni harakatga keltirishi, kimlarning, ya'ni qaysi bir ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilishiga ko'p jihatdan bogliqdir.

G'oya tushunchasining mohiyati nimadan iborat?

Inson o'zining ongi, aqlzakovati, iymone'tiqodi va ijodiy mehnati bilan boshqa barcha tirik jonzoatlardan farq qiladi.

Inson tafakkuri voqyelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Demak birinchidan, roya inson tafakkurining mahsulidir.

Ikkinchidan, g'oya oldin mavjud bo'lmagan, o'zida yangalikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda «g'oya», «mafkura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko'proq Garb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. «Ideya» iborasi yunon tilidagi «idyea» so'zidan olingan, «ideologiya» so'zi uchun o'zak bo'lib hisoblanadi va tushuncha yohud fikr ma'nosini anglatadi. Ideologiya (idyea-g'oya. Tushuncha, iogos — ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'grisidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

— g'oyalarning mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha hisoblanadi;

— muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi. SOGLOM va nosoglom, ezgu hamda yovuz, bunyodkor yoki buzgunchi g'oyalar bo'lishi mumkin. G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo'lsada, keng jamoatchilikning maqsadlarini ifoda etadi. Ularning ishonchi va e'tiqodiga aylanib, e'tirof etilganligini bildiradi, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiyaqliy kuchga aylanadi. Ularni muayyan maqsadga yo'naltiradi, safarbar etadi. Ularni jipslashtiradi, hamjihat va hamkorlikka undaydi.

G'oyaning ijtimoiy moxiyati. Har qanday g'oya ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar, odatda, alohida olingan shaxs ongida shakllanadi. Ma'lum bir muddatdan keyin esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyaladi. Muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdira o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib qiladi. g'oyaning eng muhim xususiyati — insonni va jamiyatni maqsad sari yetaklaydigan, ularni harakatga ketiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida g'oya milliy-madaniy merosni, umuminsoniy qadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy hayotni, tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilmfan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq — muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin:

— Ilmiy g'oyalar; falsafiy g'oyalar; diniy g'oyalar; badiiy g'oyalar; ijtimoiysiyosiy g'oyalar; milliy g'oyalar; umuminsoniy g'oyalar va h.k.

1. *Ilmiy g'oyalar* — fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

2. *Falsafiy g'oyalar* har bir falsafiy ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'grisidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plagan bilimlarini umumlashtirish, inson hayotining ma'nomazmuni, uning baxtsaodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aqlzakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g'oyalar yaratganlar.

3. *Diniy g'oyalar* deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymone'tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi. Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va hodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to'grisidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko'ra jon ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin. Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib, monoteistik — yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizm), ayniqsa, jahon dinlari xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi royasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

4. *Badiiy g'oyalar* — adabiyot va san'at asarining asosiy ma'nomazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uygotadi. «Qahramon»larni sevis, ularga ergashish hollari ham shu asosda ro'y beradi.

5. *Ijtimoiysiyosiy g'oyalar* har bir xalq va umuman bashariyatning orzuumidlarini, maqsadmuddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi.

Milliy G'OYA — inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar, g'oyalar majmuidir. *Ozodlik va mustakillik adolat va xakikat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g'oyalari shular* jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk o'lmas g'oyalar xalqlarga kuchquvvat va ilhom bagishlab, ularni o'z erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan g'oyalar yuksak g'oyalardir. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar o'rtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qo'zg'aydigan tuban buzgunchi g'oyalarga misol bo'ladi. Aslida, bunday qabih niyat va soxta shiorlarni g'oya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgan, qanday aholi guruhlari yoki elatmillatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham g'oyalarni turlarga ajratish mumkin.

G'oyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, siniy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, g'oyalar ham mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda ezgu harakatga undaydigan g'oya mazmunan umuminsoniy bo'lishi ham yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan siniy g'oya jamiyat va inson manfaatlariga zid, tajovvuzkor bo'lishi ham mumkin.

Ezgu g'oya — inson tafakkurida vujudga keladigan. muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib. jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan. ularni bunyodkor maqsadmuddao sari yetaklaydigan ulugaor fikrlardir.

«Mafkura» tushunchasi arabchadagi «mufakkir» «mufakkiratun» so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr demakdir. Mafkura tushunchasini ta'riflashda falsafiy adabiyotlar va lugatlarda bir qancha fikrlar beriladi. Mafkura tushunchasiga faylasuf olimlar tomonidan berilgan

ta'riflar shakl va mazmun jihatidan har xil. Mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va G'oyalar majmuidir, — deb ta'rif beriladi. Ularning barchasida jamiyatdagi muayyan siyosiy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, ilmiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar majmui sifatida asoslab beriladi. Demak mafkura — muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiyma'naviy rivojlanish prinsiplarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalangan ijtimoiy kuchlar va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi. Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan toyalar majmuidan iborat bo'ladi. Shu sababli dunyoqarashning negizini va muayyan ishonche'tiqodning asosini ham g'oyalar tashkil etadi.

Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning millat hamda davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi¹.

«G'oya» va «mafkura» tushunchalari birbiriga yaqin bo'lsada, ularni aynanlashtirmaslik kerak. Nima sababdan?

Birinchidan, mafkura g'oyaga nisbatan mazmunan kengroq tushunchadir.

Ikkinchidan, har qanday mafkurada ijtimoiy voqeyelikni saqlab qolish yoki o'zgartirishga qaratilganlik ya'ni maqsadlar botiniy emas, balki zohiriy tarkibda mavjud bo'lishsh va mafkuraning o'zagini tashkil etishini ta'kidlash, joiz.

Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya faqat ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyatini, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishi mumkin.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasida jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Prezident Islom Karimov jamiyat mafkurasiga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniqlavshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir **G'oyani** men jamiyat mafkurasida deb bilaman». Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni — xalq, millatni — millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniqlavshan charog'on etadigan mayoqdur.

Insoniyat tarixida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, xilmaxil ijtimoiysiyosiy kuchlar, o'z g'oyalari va ta'limotlari orqali, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun intilgan. Mafkuralar mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi.

Turli-tuman ijtimoiysiyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilmfan yutuqlariga tayanishi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanishi mumkin.

Mafkuraning falsafiy ildizlari deganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunda har bir xalqning o'ziga xos falsafiy merosi, qarashlari, g'oyalari ularning maqsadlarida o'zining ifodasini topadi. Sharq va Garb falsafasi bunga yorqin misoldir. Masalan, mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlarini va mentalitetini zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. Shu bois, o'sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz, nemis falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat kildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmokli hissa bo'lib qo'shildi. Jumladan, havqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya—Vengriya imperiyasidan ajralib, mustaqil yo'lni tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasida darajasiga ko'tarilgan edi.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Umum-e'tirof etilgan prinsiplar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik dinlararo bag'rikenglik kabi royalar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haququqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Masalan, O'zbekistonda mustaqillik yillarida dindan jamiyatni ma'naviy yangilashda, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Diniy qadriyatlar tiklandi — Avesto ona tilimizda chop etildi, islom dinining muqaddas kitobi Qur'on, Hadislar, Imom Termiziy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy,

Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulxoliq Gijduvoni, Xo'ja Ahror Vali yubileylari o'tkazilib, yodgorlik majmualari tiklandi, boy ma'naviy meros o'rganilib, ulardan jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida keng foydalanilmoqda. Ushbu hayrli ishlar mamlakatimizda diniy meros va qadriyatlardan oqilona foydalanilmoqda. Dunyoviylik degani, bolsheviklar va aqidaparastlar aytganidek dinni inkor qilish yoki «dahriylik» degani emas, balki undagi ahloqiy va falsafiy ta'limotlardagi ezgu g'oyalardan, qadriyatlardan o'rinli foydalanish uchun keng imkoniyat yaratishdir.

Bu haqda Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek «dunyoviylik». ayrim aqidaparast kimsalarning da'volaridan farqli o'laroq, aslo daxriylik emas. Biz bunday noto'g'ri va g'arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz»'.

Darhaqiqat, yaqin o'tmishimizda — dahriylik siyosati hukmronlik qilgan, diniy qarashlar va qoidalar xurofot deb atalgan. Diniy aqidaparastlar esa dunyoviy ilmlarni dahriylik xudosizlik deb insonni e'tiqodidan ayirishga urindi.

Mafkuraning diniy ildizlari — inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bogliq ekani va shu bois uning YEOYAVIY ildizlari diniy ta'limotlariga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni, ko'pgina mafkuralarda Avesto, Veda va Upanishadlar, Injil va Qur'on kabi kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Dunyoviy va diniy qadriyatlar birbirini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom Gazzoliy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yonmayon yashab, faoliyat ko'rsatgan davr yorqin misol bo'la oladi. Ilmiy kashfiyotlar bugungi kunda ham mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, bionika, biofizika, kibernetika, axborotlashtirish sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gennasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda.

Shu sababli ham, ilmfan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, soglom mafkura kerak.

Har qanday jamiyat o'ziga xos rivojlanish yo'lini tanlar ekan, oldiga muayyan maqsad va vazifalarni qo'yadi. Zero, bu vazifalar jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma'rifiy, ta'limtarbiya va mafkuraviy jarayonlarning uzviy birligi asosida amalga oshadi.

Inson hyech qachon tashqi dunyodan, o'zini qurshab olgan olamdagi o'zgarishlar, ro'y berayotgan hodisalar, voqyea jarayonlardan ajralib qolgan, ularni his etmagan holda, ularning ta'sirisiz yashay olmaydi. Xalqlar, millatlar, ijtimoiysiyosiy kuchlar faoliyati tufayli sodir bo'lgan turli hodisa va jarayonlar odamlar ongi, tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sir etadi.

Hayotda maqsadi, yuksak G'OYASI, ezgu orzui-ntilishlari bo'lmagan inson va jamiyat a'zolari tabiiy ehtiyojlar doirasi bilan chegaralanib, ma'naviy yuksaklikka erishishi qiyin. Ayrim yovuz kuchlar ta'sir o'tkazish orqali o'z garazli niyatlariga yetish maqsadida foydalanishlari mumkin. Shu sababli barcha davrlarda inson va jamiyat o'z maqsadmuddaolarini ifoda etadigan manfaatiga zid bo'lgan zararli va begona toyalarga qarshi turadi. Har bir xalq, millat va jamiyat o'z manfaatiga xizmat qilib, uning taraqqiyotini ta'minlashga yordam beradigan muayyan g'oyaga ehtiyoj sezadi.

Binobarin, g'oya muayyan millat va xalqning maqsad-muddoalari, manfaatlari zahirida shakllanadi hamda takomillasha boradi. Milliy istiqlool g'oyasi ham millat manfaatlarini, xalqning orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtiradi. U o'zining hayotbaxsh g'oyalari, buyuk maqsadlari bilan o'z kuchgayrati, aqlzakovati va hatto hayotini buyuk g'oyalar yo'lida baxsh etishga tayyor komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, yer yuzida dastlabki odamzod paydo bulib, uning urug, kabila, jamoa yoki xalk sifatida shakllanishi ruy bergan dastlabki davrlardayok ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga extiyoj tugilgan. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «...Chun-ki, mafkura — jamiyatda yashaydigan odamlarning xayet maz-munini, ularning intilishlarini uzida mujassamlashtira-di». Darxakikat, barcha davrlarda xar bir davlat, xalk, jamiyatning uziga xos g'oyasi va mafkurasi bulgan. Chunki jamiyatning, xalkning uz oldiga kuygan anik ma'usadi uni amal-ga oshirishda jamiyat axdini birlashtiradigan, safarbar-likka undaydigan g'oyasi va mafkurasi bulmasa, u mukarrar ravishda xalokatga maxkum buladi.

G'oya, mafkura jamiyatning uz oldiga kuygan anik maksadi bulib, busiz jamiyat uz yulini yukotadi. «Maksad degani, — deb yozgan edrx Prezident I.A.Karimov, — xalkni, millatni birlashtiruvchi, yulga boshlovchi bamisoli bir bayrok Bu bayrok butun Uzbekiston xalkining ruxini,

gurur-iftixorini, kerak bulsa kudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug kuchdir. Davlatimizning, xalkimizning, el-yurtimizning maksadi uzining ulugvorligi, xayotiyiligi va xakkoniyligi bilan xammamizni jyalb etadigan bulmogi lozim. Toki bu maksad xalkri-xalk, millatni-millat kila bilsin, kulimizda yengilmas bir kuchga aylansin»1.

Mafkuraning xayotiyiligidir! odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-intilishlarini kay darajada aks ettira oladigan bosh va asosiy g'oyalar, bu g'oyalar ularning turmush tarzi, dunyokarashi, tabiatiga kanchalik moye bulishi bilan belgilanadi. Xayot sinovlariga bardosh beradigan, odamlarning ezgu maksad-muddaolarshsh ifodalaydigan, ularga ma'naviy-ruxiy kuvvat beradigan mafkurani kupchilik kabul kiladi. Fakat shunday xoldagina u kuchli ruxiy kudratga ega buladi. Shu sababli xam mafkura barcha davrlarda jamiyatni yuksak va bunyodkor maksadlar yulida birlashtirib, jamiyat axli urtasida soglom munosabatlar-ni shakllantirgan, xamda ezgu orzular, maksad-muddaolari-ga erishishda ma'naviy-ruxiy kuch-k;uvvat beradigan omil vazifasini bajarib kelgan. Shuning uchun xam g'oya va mafkura barcha insonlar, xalk^lar, jamiyat va davlat oldida turgan muxim vazifalarni amalga oshirishda yordam beradigan, tur-li soxada faoliyat yuritadigan jamiyat axlini birlashti-rib, ularni umumiy maksad sari safarbar etadigan buyuk kuchdir.

Shu sababli xdm insonlar, xalkdar, jamiyat xdyotida mafkura muxim rol uynaydi. Mafkuraning xayotbaxsh kuchi, av-valo, insonning jamiyatdagi urni va axamiyatini kanday tushunishi va uni kanday ijtimoiy makomda tasavvur etishiga boglik Chunki, insonni ijtimoiy xarakat va faoliyatga undash va shu tarika kuzlangan muayyan maksad-vazifalarga erishish dunyodagi barcha ezgu mafkuralarning ma'no-moxiyatini tashkil etadi.

Shu sababli xam milliy istirulol g'oyasining asosiy tu-shuncha va prinsiplari tizimida insonning yasamiyatdagi urni bunyodkor kuch sifatida belgilangan. Istiqlolning bosh g'oyasi x.am, asosiy yeoya va tushunchalari x;am bunyodkorlik falsafasi bilan yugrilgan. Chunki bunyodkorlik — xalkimizning eng olijanob fazilati. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, uzbek tom ma'noda bunyodkordir, duppisida suv tashib bulsa xam daraxt kukartiradi. Darxakikat, mustakillik yillarida mamlakatimizda iktisodiy, ijtimoiy, siyosiy-madaniy, ma'naviy soxalarda amalga oshirilayotgan isloxotlar, erkinlatterish jarayonlari bunyodkorlik ishlariga yorkin misol buladi.

Bu muayyan davlat, jamiyatda yagona mafkuraning tula xukmronligini Unga xos prinsiplarning uzgarmas akidalar tarzida jamiyat xayetida kat'ii va mutlak tartibda urnatilisini ifodalaydi. Aloxida mafkura yakkaxokimligining moxiyati shundaki, bunda biron-bir mafkuraviy tizim yagona ilmiy jixatdan asoslangan eng adolatli, jamiyatdagi muayyan katlam manfaatlarini ifoda etuvchi mafkura deb e'lon kshshnadi. Uzi-ning moxiyati yoki biron bir jixati bilan undan fark kiluvchi g'oyalar, karashlar, mafkuralar yot va dushman mafkuralar sifatida e'tirof etiladi. Fikrlar, g'oyalar xilma-xilligi inkor etiladi. Okibatda, millionlab kishilarda yagona fikrga moslashish, mutelik lok;aydlik bokimandalik maxdudlik uzga g'oyalarga xadixsirab k;arash ruxiyati shakllanadi. Jamiyatning ma'naviy rivojiga, ilm-fan ravnakiga jiddiy zarar yetkaziladi. Aslida, bunday yagona mafkura yakkaxokimligi yovuz niyatlarda amalga oshiriladi, davlat mafkurasiga aylanadi. Ijtimoiy xayotning rivojiga sal-biy ta'sir kursatadi va jamiyat xayotini, fikrlar erkin-ligini bugadi,

Tarixdan ma'lum bulgan mustabid tuzumlarni kiyosiy taxdil etish ular amal kilgan mafkuralarning kuyidagi umumiy xususiyatlarini xamda bu g'oyani amalga oshirish bilan boglik kator salbiy ok;ibatlarini aniklash imkoniyatini beradi. Avvalo, mustabidchilik mafkuralari uz davlatlarida ijtimoiy va shaxsiy xayotning barcha soxa-larini tulik; kamrab olishga, yagona dunyok;arash tizimi xukmronligini urnatishga intildilar, Bu mafkuralar buyuk va srk;in utmishni inkor etadilar. Ular jamiyatni inkilobiy yul bilan yoppasiga kayta tuzish zarur va uni amalga oshirish mumkin, deb xisoblaydilar. Uzlorigacha bulgan milliy madaniy meros va kadriyatlarining barchasini yoxud kupchiligini bekor kilib, ularni fakat uz prinsiplari bilan alish-tiradilar.

Mustabid davlatlarning uziga xos boshka xarakterli xususiyatlari jamiyatning xarbiylashtirilishi, «kamal kilingan kal'a»dagidek g'oyaviy-psixologik vaziyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Bunda mamlakat ichida xarbiy fanatizm vaziyati avj oldirilibgina kolmasdan, shu bilan birga, agressiv tashki siyosat xam amalga oshirildi.

Bu siyosat xarbiy-xududiy va mafkuraviy boskinchilik kilishga, uzining mustabidchilik tartiblarini keng mikyosida karor toptirishga karatiladi. Lekin tarixiy xakikat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozalari va ularning loyixalari asosida yaratilgan, demokratiyaga karshi tuzumlarning pirovard natijada xalokatga uchrashi mukarrar. Shu sababli yakkaxokimlikka

intilgan, mutlak xakikatni e'tirof etishga da'vo kiladigan mafkuraning istikboli yuk. Chunki, u yakkaxokimlik urnatish barobarida uzini boyitib boradigan manba — fikrlar rang-barangligi va karashlar xilma-xilligidan uzilib koladi. Muayyan gurux yoki partiya g'oyalari xukmron mafkuraga aylansa, xurfikrlik vijdon erkinligi va karashlar xilma-xilligi cheklanadi. Mutlak xakikatga egalik da'vosi mustabidlik prinsiplarini kuchaytiradi.

Masalan, sobik Ittifok davrida kommunistik mafkura ana shunday xolga tushgan edi. Uning asosiy g'oyalari sobik shurolar xokimiyati raxbarligida zurlik bilan amalga oshirildi. Natijada, bu mafkura yakka xukmron bulib kolgan edi. U XX asrning 80- yillarida tanazzulga yuz tutdi. 1991 yilda sobik Ittifok tarkalib ketishi bilan uzil-kesil inkirozga uchradi. Buning sabablari nimalardan iborat?

Birinchidan, u uzini insoniyat tafakkuri erishgan eng yuksak chukdi, mutlak xakikat ifodasi deb xisoblab, boshka mafkuralarni tan olmas, ular bizga yot degan akida asosida murosasizlarcha ish tutar edi;

Ikkinchidan. bu mafkura targibotchilari zuravonlik prinsini — «majbur kilamiz» kabilida ish tutar, ushbu g'oyalar xamma joyda, xamma vakt xech istisno va tuxtovsiz targib kilinar, xalkning erkin yashashi va fikr yuritishiga yul kuyilmas edi. Kimki bu g'oyaga karshi chiksa, shafkafkatsiz jazolanar, butun davlat mexanizmi ana shu jazoni turll shakllarda amalga oshirishga karatilgan edi.

Uchinchidan, bu mafkura nomigagina ijtimoiy guruxlar mafkurasi edi. Aslida sobik Ittifok davrida ziyolilar, dexkonlar, xizmatchilar, kolaversa, «yetakchi sinf» bulgan ishchilarning orasida xam mafkuradan norozi bulganlar bor edi. Lekin metin mafkuraviy devor ortidan ularning ovozi chikmas edi;

Turtinchidan. bu mafkura xech kimga vijdon erkinligi, uz fikrini ochik; bayon etish, jumladan, xorij fukarolari bilan xolisona mulokatda bulishga xam yul kuymas edi. Bor-di-yu kimdir tunga jur'at etsa, «xalk dushmani», «burjuaziya malayi»ga aylanar edi;

Beshinchidan. u milliylikdan butunlay xoli edi. Unda mavxum baynalmilallik zur berib kuylanardi. Kimki milliy kadriyatlar tugrisida gap ochsa, darxol «millatchi»ga chikarib kuyilardi. Milliy tafakkurga ega bulgan shaxs, mutaxassis, ziyoli, olim, boshkalar «kolok», «shubxali kishi» xisoblanardi;

Oltinchidan, bu davrda millii tarix xususan, Uzbekiston tarixi mutlako tan olinmas edi. Nari borsa, ular kupincha umumiy tarzda kayd etilardi, xolos;

Yettinchidan, xalklarning diniga, diniy merosiga, diniy kadriyatlariga nisbatan mutlako notugri munosabatda bulishar edi. Jumladan, xalkimizning ulug siymolari Imom Bu-xoriy, Imom Termiziy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kub-ro, Baxruddin Nakshband, Maxmud Zamaxdgar, Imom Mo-turidiy, Sufi Olloyor kabi allomalarning boy ilmiy merosini urganish, ulardan foydalanish takiklangan edi.

Bularning barchasi bolshevistik — yagona kommunistik mafkuraning tarakdiyot talablariga mutlakr zid ekanini yakdol namoyon etdi. Shu bois u yangi zamonaviy talablarga dosh berolmay, uz davlati bilan birga tarixga aylandi.

Yagona mafkura xukmronligini da'vo kilib, uzok utmishga kaytishga chakiruvchi islom fundamentalizmi guyoki bundan mustasnodek tuyuladi. Birok, aslida bunda xam usha andoza saklanib koladi. Ya'ni, islom fundamentalizmi tarix gildiragini urta asr jaxrlati davriga kaytarish nikobi ostida, birxillashtirgan mustabid «kelajak»ning uziga xos andozasini taklif etadiki, unda inson fukarolik xukuklaridan tulik maxrum kilinadi, xakikatdan diniy akidaparastlik terroriga duchor etiladi.

Yagona mafkura xukumronligining jamiyat xayotidagi zararli okibatlar:

Shaxs erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga murosasizlik millatning uzligini inkor etish, millii va diniy kadriyatlarni rad etish, milliylikni cheklash, mutlak xakikatni bilishlikka da'vo kilish, zuravonlikka asoslanganligi, mutelik bokimandalik lokaydlik millii maxdudlik siyosiy soxada tashabbussizlik uzga g'oyalarga yot-karash, jamiyatning ma'naviy inkirozi, tarixiy xotirasizlik ona tiliga pisandsizlik bilan karashda yakkol namoyon buladi.

Mustakillik tufayli oldimizga kuyilgan olijanob maksad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bulish, g'oyaviy bushlik paydo bulishiga yul kuymaslik begona va yot g'oyalarning xurujidan ximoyalanish, bunday tajovuzlarga karshi tura oladigan, xar tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zaruriyati xalkimiz va jamiyatimiz manfaatlariga moye milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishni va mustaxkamlashni takozo etadi.

Ma'lumki, biz uz milliy tabiatimiz va ming yillik an'analarimizga, urf-odatlarimizga zid bulgan soxta kommunistik G'oyalardan voz kechdik. Lekin mafkura dunyosida bushlikka yul kuyib bulmasligi. shunday xolat yuz bergan takdirda bush krlgan mafkura maydonidan bizga begona. orzu-intilishlarimizga mutlako yot g'oyalar urin egallashga urinishi shubxasiz. Tabiatda bushlik (vakuum) bulmaganidek jamiyatda xam bushlik bulmaydi. Ma'lum davrda oldingi fikr uzgarishi bilan urnini yangi

fikr egallaydi, g'oyaning urnini xam boshka g'oya egallaydi, shu sababli jamiyatda xam, inson ongi va kalbida xam bushlik bulmaydi.

Xozirgi paytda ruy berayotgan ayrim salbiy xolatlar. nojuya xatti-xarakatlar. yovuz ishlar. avvalo. mafkuraviy bushlikning yuzaga kelishi uchun, yul kuyilgan kamchilik va e'tiborsizlik tufayli sodir bulmokda. G'oyaviy bushlikni yuzaga kelishi, eng avvalo, chukur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-psixologik muammo va jarayonlar bilan .boglik. Odatda, yangi g'oyalar turli ta'sir kuchiga ega buladi. Ayrim guruxlar ularni tez kabul kiladi, ba'zi toifalarning avvalgi mafkuraviy akidalaridan yuz ugirishi va yangi g'oyalarni kabul kilishi esa kiyin kechadi. G'oyaviy bushlik poydo bulishining yana bir manbai — jamiyatda bu soxadagi tarbiyaning yetarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning uz xolicha tashlab kuyilganligi xam bulishi mumkin. Agar davlat yoki millat, ijtimoiy gurux yoxud katlam uz manfaatlarini, maksad-muddaolarini anikravshan ifoda etadigan uz g'oyalarini mafkura yordamida kishilar, ayniksa, yosh avlod ongiga muntazam singdirmasa, g'oyaviy bushlik paydo bulishi mumkin. Bunday sharoitda ishonch-e'tikrd susayib, mafkuraviy taxdidlar kuchayadi. Uz mustaxkam g'oyasi yuk, e'tikodi bush odamlar esa, ta'sirga tez beriluvchan buladi, uz yulini yukotib kuyadi, bunday xol jamiyatga juda katta zarar yetkazadi.

Sobik mustabid tuzum urnida yangi mustakil davlatlar shakllandi. Xukmron yagona mafkura barxam topgach, uning Xududida ma'lum muddat g'oyaviy bushlik (vakuum) xolati vujudga keldi. Ma'lumki, umrini utab bulgan g'oya, tarakkiyot nukta nazaridan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g'oya, ilgor bir fikrning shakllanishiga extiyoj seziladi. Bu zaruriyat teran anglab yetilmagan xolda esa g'oyaviy vakuum — bushlik yuzaga keladi. Lekin, mafkura soxasida bushlikda yul kuyib bulmaydi.

Xush, aslida g'oyaviy bushlik; nima? G'oyaviy bushlik — eski mustabid tuzumdan yangi tuzumga utish jarayonida oldin xukmronlik kilib kelgan mafkura uz mavkeini yukotgach, tarakkiyot talablariga mos ravishda uning urnini bosadigan ilgor g'oyaviy tizimning xali tulik shakllanmagan xolatidir. Bunday sharoitda turli g'oyalar ushbu xududga uz ta'sir doirasini utkazishga urina di.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bushlik Uzbekiston xududida xam namoyon buldi. Uning uziga xos xususiyatlari kuyidagilardan iborat:

- xukmron, kommunistik mafkura tanazzulga yuz tutdi va urni bushab koldi;

- Uzbekiston mustakil davlat sifatida karor topgan, mustakillik mafkurasi g'oyalari mamlakatimiz fukarolarining ongi va dunyo karashida ma'lum darajada aks eta boshlagan bulsada ammo u xali odamlarning mustavil dunyokarashiga, mustaxkam ishonch va e'tikodiga aylanmagan edi;

- Utish davrida ijtimoiy xayotning turli soxalarida fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga jushkin ifoda buldi. Milliy izdaniy meros va kadriyatlarga, milliy is-tutol g'oyasiga bulgan ishonch va e'tisodning e'tirof etilishi vaziyatda muxim burilish yasadi. Utish davrida, yangicha karashlar odamlarning mustaxkam e'tikodiga aylanib ulgurmagan paytda tashki g'oya ta'g'irlarning yaxshi yoki yemon, foydali yeki zararli ekanini xamma xam farklay ololmadi. Uzbekistondagi mafkura maydoniga begona, xalkimizning orzu-intilishlariga mutlako yot g'oyalarning xujumi ana shu bilan boglik geosiyosiy, mafkuraviy maksadlar bilan xam izoxlanadi. Masalan, mustakil mamlakatimiz tinch-osoyishta yashayotgan bir paytda Afgoniston va boshka yakin xududlardagi bekaror vaziyatdan foydalanib, ularning xududiga in kurib olgan ba'zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi tudalar uz jinoyatkorona maksadlarini amalga oshirishta, Markaziy Osiyo mintakasini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi.

G'oyaviy bushlik mamlakat xavfsizligi va fukdrolar osoyishtaligiga jiddiy xavf soladi. Chunki g'oyaviy bushlik,

g'oyaviy zaiflikka, g'oyaviy parokandalikka olib keladi. G'oyaviy birdamligiga, davlatning kudratita putur yetkazadi, natijada davlatlar va xalklar karamlikka, iktisodiy va mafkuraviy iskanjaga tushib koladilar, tanazzul va tushkunlikka yulikadilar. Masalan, Chingizxon yurtimizga bostirib kelganda Muxammad Xorazm Shox boshchiligidagi davlat kudrati va lashkarlarning soni jixatidan Chingizxondan bir necha barobar ustun edi. Lekin g'oyaviy parokandalik tufayli mamlakat axolisi asoratga tushib koldi, Xuddi shuningdek Chor Rossiyasi istilosi davrida xam kam sonli rus askarlariga karshi Buxoro Amirli, Xiva va Kukon xonliklarining bir-birlari bilan kelishmovchiliklari umumiy dushmanga karshi kuchlarni birlashtirish g'oyasi urniga, aksincha, uzlaricha bulinib karshi turishlari, tarkokliklari oxir okibatda xalkni birlashtirib, kurashga safarbar etmagani ulkamizning karamlik changaliga tushib kolishiga sabab buldi. Jamiyatdagi barcha katlam va guruxlarni yagona kuch sifatida umumiy maksadlar va tub manfaatlar yulida birlashiradigan jamiyat mafkurasigina g'oyaviy parokandalikka barxam beradi. Shuning uchun uz kelajagini uylagan xar bir davlat va jamiyat g'oyaviy

bushlik va mafkuraviy parokandalikka yul kuymaslik eskirgan akidalaraga begona karashlarni inkor etish bilan birga, ilgor fikrlar, ulug'vor maksad va ezgu g'oyalarni odamlar ongi va kalbiga singdiripgga xarakat kiladi.

Mafkuraniy plyuralizm (lot. R1ualis - - xilma-xillik rang-baranglik) ~ ijtimoiy-siyosiy xayetda turli katlam partiya, guruxlar Mafkuraviy plyuralizm manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, karashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi.

Inson va jamiyat xayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bulipsh ijtimoiy-ma'naviy extiyoj ifodasidir.

Jamiyatda g'oya va mafkuralar xilma-xilligining kuzatilishi insonlarning tabiat-jamiyat xodisalari, olam va dam tug'risidagi fikrlari turlichaligi bilan izoxlanadi.

Umumiy g'oyaga e'tik;od kilish tufayli turlicha ijtimoiy guruxlar shakllanadi. Ularning maksad-muddaolari, orzu-istaklari, manfaatlari bir-biridan farqlashsh mumkin. Tabiiyki, ijtimoiy guruxlarning maksad va manfaatlarini aks ettiradigan, ularga ma'naviy-ruxiy kuch bagishlaydigan g'oyalarni amalga oshirish yullari xam xilma-xil buladi.

Ezgulik yaratuvchilik bunyodkorlik xamkorlik ozod-lik erkinlikni karar toptirishga karatilgan fikrlar mamlakatda osoyishtalik xalklar urtasida totuvlik barkarorlikka xizmat kdoladi. Ular mamalakat tarakdiyotida muxim urin tutadi. Ezgulik va yaratuvchilikni targib kiluvchi fikrlar ezgu va bunyodkor g'oyalarning paydo bulishiga sabab buladi. Amir Temurning parokanda bulgan xalkdsh birlashtirish va shu asosda markazlashgan davlat tuzit tug'risidagi fikrlari negizida mamlakat obodligi, xalk osoyishtaligini ta'minlashga yunaltirilgan bunyodkorlik g'oyalari paydo buldi. Buzgunchilikka undovchi yovuz figsrlar jaxrlat urugini sepib, urushni targib kiladi. Buzgunchi fikrlar jamiyatdagi muayyan guruxlar, katlamlarning ongiga singib uning" yovuz manfaatlarini ifodalaydigan g'oyaga aylanishi mumkin. U xolda jamiyatda bekarorlik muxiti vujudga kelib, odamlar boshiga katta kulfatlar yogilishi mumkin.

Jamiyatda fikrlar xilma-xil bulgani va bir-biridan fark kilganidek g'oyalar xam turli-tuman bulib, moxiyatiga, uz oldiga kuygan maksadi va kaysi ijtimoiy guruxlarning manfaatiga xizmat kilishiga karab bir-biridan fark kiladi. G'oya bilan g'oyaning bir-biriga uxshamasligi va ular urtasida fark bulishini tabiiy jarayon deb karash kerak. Kaysi ijtimoiy katlamning maksadini ifodalashi va kimlarning manfaatiga xizmat kilishiga, kanday yunalishga ega-ligiga kura xam g'oyalar rang-barang bulishi mumkin. Lekin g'oya va mafkuralarning xilma-xilligi va bir-biridan fark kilishi tabiiy jarayon sifatida karalishi bilan birga, ular-ni bir-biriga yakin mushtarak tomonlari, ayni paytda, bir-biriga mutlako tugri kelmaydigan jixatlari xam buladi.

Shubxasiz, ma'lum bir g'oya va mafkurani jamiyat a'zolari ongiga majburan singdirish va unga rioya kilishni barchadan talab kilish — jiddiy xatodir. Nima uchun? Sababi, masalan, sobik «Ittifok davri»da kommunizm g'oyasini mafkura yordamida jamiyatning barcha a'zolari kdysi katlam, ijtimoiy gurux, kaysi millatga va kaysi dinga mansubligi muddaolari e'tiborga olinmasdan, ular uchun majburiy kilib, daxriylikni da'vo kildi va okibatda bu g'oyaning xayotiy ekanligiga odamlarda shubxa va ishonchsizlik ortib bordi.

Ma'lumki, mafkura muayyan bir ijtimoiy guruxning, millatning, xalkning, jamiyatning manfaatlarini uzida mujassamlashtirgan karashlar, g'oyalar tizimidir. Bu tizim uzining falsafiy, siyosiy, xukukiy, axlokiy, diniy, madiiy negizlariga ega. Demak mafkura uz moxiyati va vazifasi jixatidan nixoyatda rang-barang bulishi tabiiydir. Xuddi jamiyat xayeti turli katlamlar, yunalishlar va darajalarga ega bulganidek mafkura xam xilma-xil bulishi mumkin.

Yer yuzidagi barcha insonlar uz fikr-muloxazalariga ega bulib amaliy faoliyat yuritadilar. Shu sababli yunon faylasufi Aristotel ikkita inson aynan bir xilda fikrlamaydi, ularning olam xakidagi tushunchalari. fikrlari xilma-xildir deganda, xak; edi. Darxakikat, dunyodagi xalklar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar xam bir-biridan fark kiladi. Ularning diniy e'tikodi, milliy madaniyati, demak-ki mentaliteti, maksadlari va tarakkiyot yullari xam rang-barangdir. Tabiiyki, ularning orzu-istaklari, xayotiy ideallari, muddaolarini aks ettiradigan g'oyalar va ularni amalga oshirishda ma'naviy-ruxiy kuch bagishlovchi mafkurasi xam xilma-xil bulishi tabiiydir. Darxakikat, dunyodagi xar bir chavlat, xalk va millat, jamiyatning maksad va manfaatlarini ifodalaydigan uziga xos g'oyasi va mafkurasi mavjud.

Mamlakatda ilgor g'oyalar, mafkuralar kancha kup bulsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm xukmron bulsa, tarakkiyotning samarali yulini tanlab olish uchun imksshiyat shunchalik keng buladi. Fikrlar

erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jixatidan boyishiga, bir-birini tuldirishiga xizmat kiladi.

Mustakil Uzbekiston mafkura yakkaxokimligidan voz kechdi va milliy tarakkiyoti uchun keng yul ochdi. Mamlakatimizda mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga aloxida e'tibor beriladi. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi ijtimoiy tarakkiyotga xizmat kiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bulishiga turli xalklar, elatlar, millatlar va siyosiy institutlarning manfaatlarini umumiy tarzda . ruyobga chikarishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek u mamlakatimizda kuppartiyaviylik tizimiga xam sharoit yaratadi. Siyosiy partiyalar esa uzlari mansub bulgan katlamlar, siyosiy guruxlarning manfaatlari, intilishlari, orzu-umid-larini umumlashtirgan xolda uz xarakat dasturlari orkali namoyon kiladi.

IIIu bilan bir katorda. tarixiy tarakkiyotning mas'uliyatli davrlarida jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruxlar, millat yoki siyosiy yunalishlarni uzida mujassamlashtiruvchi. kupchilikka makbul, umum tomonidan ma'kullanadigan, jamiyatning asosiy manfaatlarini uzida mushtaraklashtiradigan mafkuralar xam bulishi mumkin. Masalan, milliy ozodlik kuratli mafkurasi, milliy mustakillik mafkurasi va xokazo. Umummiy g'oya jamiyat a'zolarining, xalk ommasining tub manfaatlarini va kunglidagi orzu-intilishlarini ifoda etgani, millatlarning birdamligi, jamiyatning ^udratini mustaxkamlashi, fuk;arolar urtasidagi bag-rikenglik munosabatlarini ifoda etgani sababli odamlar-ni ulkan maksadlar yulida birlashtiradigan joziba kuchiga ega buladi. Bunday g'oya jamiyatda barkarorlikni ta'minlaydi. Tarix saboklari shundan dalolat beradiki, fikrini er-kin ifoda etadigan shaxs, gurux yoki ijtimoiy katlam, avvalo, uzining anik-ravshan. asosli karashlariga ega bulishi, uz nuktai nazarining okibati uchun ma'suliyatni uz zim-masiga olishi. baxs-munozara madaniyati talablariga amal kilishi lozim. Ya'ni, fikrlar rang-barangligi va karashla xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy kddriyatlariga. joriy konunchilik normalariga, axlokiy mezonlarga zid bulmasligi lozim. Shu sababli jamiyatda bunyodkor-yaratuvchanlik g'oyalarini ilgari suruvchi va xayotga tadbik; etuvchi kuchlar jamiyat axli urtasida uz g'oyalarini singdirishga urinsalar, kupchilik ongiga ijobiy ta'sir etib, jamiyatda barkarorlik tinchlik osoyishta-lik va yaratuvchilik ishlariga uz ta'sirini kursatadi. Masalan, bu ilk urta asrlarda mamlakatimiz xududida ilm-fan, din. madaniyat, adabiyot, xunarmandchilik rivozklani-shi tufayli istisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy soxalarda uygonish sodir bulib, kuplab yetuk allomalarning yetishib chikishiga olib keladi. Ular uz ta'limotlarida buyuk g'oyalar yaratib, jamiyat tarakdayotiga ijobiy ta'sir kursatdi.

Darqiqat, bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

Jamiyatda ezgu g'oyalar barcha davrlarda insonni yuksak orzular bilan yashashga, olijanob maqsadlar yo'lida e'tiqod bilan kurashishga o'rgatadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi bunyodkorlik ishlari bunga yorqin misoldir. Inson va jamiyat bor ekan, ezgulik g'oyalarining ziddi bo'lgan zulm va zo'ravonlik qabohat va jaholat yangi-yangi shaklarda namoyon bo'lishi ham mumkin. Lekin ular insoniyatning adolat, tenglik tinchlik qardoshlik rivojlanish va farovonlik g'oyalariga tayanib, yuksak maqsadlar sari intilishlarini to'xtata olmaydi. Ezgu va yuksak g'oyalar odamlarni hamisha olijanob maqsadlar sari yetaklayveradi. Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taraqqiyotga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

3.Bunyodkor g'oya — insonni ulug'laydigan, uning kuchg'ayrati va salohiyatini oshirib xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida taraqqiyot, ma'rifat, do'stlik tinchlik adolat, halollik poklik kabi ezgu histuygularning urugini mujassam etadigan royadir.

Insoniyat tarixi xilmaxil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, birbiri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab birbiridan farqlanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aqlzakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfusiy va Zardusht, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlarning faoliyati buning yaqqol tasdigidir.

Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik royalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormaytolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga ezgulik g'oyalarini targib qilgan Zardusht ham,

«O'zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqro ham, «xalqni yakqalam qildim», deya insonparvarlik adolat g'oyalarini kuylagan va qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Markazlashgan davlat tuzib, xalqni birlashtirib, uning adolat kuchiga ishonchini mustahkamlagan Amir Temur ham, Hindiston ozodligi yo'liga umrini baxshida aylagan, ma'rifat yo'li bilan golib chiqqan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo'lgan ulur insonlardir. Jamiyatda ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'ladi.

Bunyodkorlik aql-zakovat, qalb bunyodkorligiga aylanganda chinakam qadrqimmat kasb etadi. Masalan, sobiq sho'ro davrida insonlar qalbidagi bunyodkorlik tuygusini so'ndirgan tuzum o'zicha ko'p ishlarni, ulkan rejalarini amalga oshirish uchun urinib ko'rdi. Lekin qalb bunyodkorga aylanmagani uchun qilingan ishlarda baraka va samara bo'lmadi. Qalb bunyodkorligi esa e'tiqod bilan, pok niyat bilan nafaqat bugunni va ertani, balki olis kelajakni o'ylab yaratishdir. Odamzodga azaldan aqlzakovat bilan qalb bunyodkorligi xos fazilatdir. Uning qalbi bilan qo'li bir maromda ishlasa, haqiqiy mo'jizalar bunyod etiladi. Necha asrlardan buyon dunyoni hayratga solib kelayotgan Misr ehromlari, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqandagi Bibixonim, Registon maydonidagi madrasalar majmui, Toj mahal yodgorligi, Eyfel minorasi, qanchadanqancha san'at va madaniyat durdonalari

— barchasi ana shunday bunyodkorlik namunasidir. Bunday mo'jizalar bizning madaniy merosimizda, Xiva, Buxorodagi betakror obidalarimizda, mumtoz san'at asarlarimizda yuksak axloqiylikka asoslangan urfodat va an'analarimizda o'z aksini topgan.

Buyuk donishmand bobomiz Bahouddin Naqshband «Diling — Ollohda, qo'ling — mehnatda bo'lsin» deya yaratuvchilikka da'vat etganlarida, har qanday ishni aql va e'tiqod bilan bajarishni nazarda tutganlar. Ushbu shiorda inson ko'nglida Ollohga e'tiqod qo'yib, o'zi halol mehnati bilan tirikchilik o'tkazish va ilmhunar o'rgatib Vatanni obod qilishga da'vat etiladi. Diniy ishlarni dunyoviy ishlar bilan boglab olib borish, dunyoviylik va diniy e'tiqodning mushtarakligi orqali jamiyatda barqarorlik osoyishtalik va farovonlikka erishish mumkinligi g'oyasi tarrib qilinadi. Mustaqillik yillarida, O'zbekistonda, Islom dinining ezgu g'oyalari milliy qadriyatlarimiz va turmush tarzimizga chuqur singib bormokda. Umuman, e'tiqodni faoliyatga, faoliyatni esa e'tiqodga aylantirish xalqimizga xos. Masalan, yaxshilikni, ya'ni oddiy insoniy faoliyatni e'tiqod darajasiga ko'targanimiz yoki Ollohga bo'lgan ishonche'tiqodimizni faqat ezgulik yo'lida xizmat qildirishni an'anaga aylantirganimiz (ya'ni, dinni niqob qilib mutaassiblikka, jaholatga, buzgunchilikka berilmaganimiz) buning tasdishi.

Bunyodkor g'oyalar bilan qurollangan kishilar farovon hayot, erkin jamiyat qurish uchun kurash olib borganligi tarixdan ma'lum. Bunday jarayon ijobiy g'oyalarning tugilishiga, ular esa, o'z navbatida, elatlar, xalqlar, millatlar manfaatlarini ifodalovchi hayot tarzining shakllanishi uchun asos bo'lgan. Shuningdek milliy davlatlarning yuzaga kelishida bu g'oyalar yetakchi va yo'naltiruvchi ahamiyat kasb etgan. Buni biz o'zbek davlatchiligi g'oyalarining shakllanishi va takomili misolida ham kuzatishimiz mumkin.

Bunyodkorlik g'oyalari yurti obod, xalq hayotini farovon qilishdek oliyjanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizasiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana shu boqiy G'oyalarning ma'nomazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga otabobolaridan merosdir. Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardusht yaratgan «Avesto» kitobidagi yuksak g'oyalar buyuk vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasidir.

Qariyb uch ming yil muqaddam ma'rifat ziyosini jaHolat bulutlari qoplab olgan davrda buyuk vatandoshimiz Zardusht yakkaxudolik va ezgulik g'oyalarini targ'ib qilishni boshlagan edi. Zardusht ta'limotida insonni ezgulikka da'vat etuvchi g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi.

Ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi g'oyaviy kurash zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham bayon etilgan. Unda harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlari, jonivorlarni, hayvonlarni azoblash, odamlarga adolatsizlik yolg'onchilik ahdga vafosizlik hiyonat qilish g'oyalari qoralanib, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehhonchilik chorvachilik bilan shugullanishga da'vat etadigan royalar uluglanadi. Zardushtiylik dinida yer, suv, musaffo havo, ona tabiat e'zozlanadi, quruq yer ochib, uni bogu rogga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi, aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sugorish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladi. Zardushtning bunyodkor g'oyalari insonlarni tinchtotuv yashashga, halol mehnat qilib Vatanni obod qilishga da'vat etadi.

«Avesto»da vatanparvarlik g'oyasi ulug'lanib, odamlarni barkamol bo'lishga da'vat etilgan. «Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar»¹, deyiladi. Shuningdek asarda ona zaminni e'zozlash, uni obod qilish g'oyalari targib qilinadi. Jumladan, «Avesto»da yozilishicha, Zaminni hammadan ko'proq baxtiyor qilgan shaxs, hammadan ko'p bugdoy, giyoh va mevali daraxtlar ekkan zotdir! U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zotdir..., — deyiladi.

Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir... Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng qo'l va chap qo'l bidan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi... Zamin ham mo'lko'l mevalarni in'om etadi.

Yerning shudgor qilinib, sara urug'lar sepilishi, bug'doy maysasining unib chiqishi o'sha yerdagi yovuz kuchlar, devlarning bu yerlarni tark etishi to'grisidagi koya Avestoning Vandidat qismiga bag'ishlangan bo'limida quyidagicha berilgan: «Qachonki egatlarda urug yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar.

Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bugdoy un bo'lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bugdoy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo'lalilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan uzoqlashadilar. Qay bir xonadonda bugdoy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi» («Avesto», 115bet).

«Avesto»da aks etgan Zardushtning «Ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni olqishlayman! Niyat, so'z va amallar ichidan men ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman. Men barcha qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan yuz buraman»¹, degan hikmatli so'zlari bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu o'lmas royalar keyinchalik paydo bo'lgan dinlar, jumladan, xristianlik va islom tomonidan ham qabul qilindi. Demak bu kitob o'z davrida shakllangan g'oyalar tizimidan iborat bo'lgan jamiyat mafkurasini edi.

Hindistonda paydo bo'lgan buddaviylik dini asta-sekin Janubiy, Sharqiy Osiyoda yashaydigan ko'pchilik xalqning mafkurasiga aylandi. Eramizning birinchi asrida Rim imperiyasida shakllangan xristianlik dini jahonning ko'pgina xalqlari va millatlari tomonidan qabul qilindi, ularning ma'naviy hayotiga singdi. VI asrning oxirida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan islom dini o'rtadagi ahillik birodarlik hamjihatlik ezgulik yaratuvchilik g'oyalarini targib qilganligi sababli dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlari xalqlari o'rtasida tarqaldi, ularning ma'naviy hayoti, turmush tarzi va madaniyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «sharqona» ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfusiyning (mil.av. 551-479) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda.

Konfusiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab Qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartibqoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfusiyni insoniyat haqida fikr yuritarkan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi orqali emas, balki odamiylik adolatparvarlik haqgo'ylik samimiyat, farzandlik izzathurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlariga erishishi tufayli kamolotga yetishuvi mumkin deb, hisoblaydi.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to'g'risidagi buddizm dinining asoschisi Siddxartxa Gautama qarashlari muhim o'rin tutadi. Har qanday insoniy tuyru, hissiyot, ehtiros va istak azobuqubatlarni chuqurlashtiradi. Hayot mazmunan tug'ilish, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g'afatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Inson beshta axloqiy talabga amal qilishi lozim, deb e'tirof qilinadi. Bu axloqiy talabga ko'ra, har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilik qilishdan, histushularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi lozim.

Siddxartxa Gautama insonni hayotdagi azobuqubatlardan qutqarishning yo'llarini topish haqidagi ta'limotida, uning yechimi insonning o'ziga bog'liqligini asoslashga urinib, inson faqat o'z kuchiga tayangan holda «najotning olijanob quyidagi sakkizlik yo'lidan» ongli harakati va sobitqadamligi ila o'z maqsadiga erishishi mumkin, degan G'OYANI ilgari suradi. Buning uchun:


1. E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi;

2. Maqsad sari qat'iy harakat qilishi;
3. To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi;
4. To'g'ri fe'latvor bo'lishi;
5. To'g'ri turmush tarzi bo'lishi;
6. Kuch-gayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi;
7. Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi;
8. Diqqat e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi¹.

Inson o'zining hayot faoliyati davomida ushbu qoidalarga rioya qilsa, dunyoning mohiyatini teranroq anglay boradi, maqsad muddoasiga erishib, oxiroqibatda yuksak kamolotga va osoyishtalikka erishadi. Gautama ta'limotida, asosan, taqvodorlikning yo'llari va talablari to'rrisida fikr yuritiladi. Ushbu ta'limotda ilgari surilgan ijobiy axloqiy talablar, insonni o'zini idora qilishga da'vat etuvchi to'g'ri fikr yuritish, fe'latvorni to'g'ri bo'lishi, turmush tarzini to'g'ri tashkil etish, kuchg'ayratni, niyatni to'g'ri maqsadga qaratish haqidagi g'oyalar insonlarni o'ziga jalb etgan va odamlar ushbu ta'limotni qabul qilib uning talablarini bajarganlar.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazylatlardir. Sharq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlari turli davrlar ta'sirida Garbga, xususan, antik Yunon Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Masalan, A.Makedonskiyning ustoz, jahongir shogirdi Osiyoni mahf etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan qadimgi yunon faylasufi va qomusiy olimi Arastu (Aristotel, mil. av. 384-322 y.) o'z g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartirishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha, voqyeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak deb hisoblaydi.

Aflotun (427-347 mil. avv.) esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, ular ilohiy xususiyatga ega tushunchalar, deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy G'OYA ko'pincha xudoga tenglashtirilardi. Bu faylasufning ustoz bo'lgan Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 y.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik va bilim donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi deb, tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.



ABU NASR FOROBIY


(873-950) «Sharq Aristoteli» nomini olgan qomusiy alloma. 160 dan ortiq asar yaratgan. «Mantiqqa kirish kitobi». «Isbot kitobi», «Falsafaga izohlar», «Musiqqa haqida katta kitob», «Inson a'zolari haqida kitob». «Lug'atlar haqida kitob», «Shaharni boshqarish», «Fazilatli hulqlar» kabi asarlari bilan jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.

«Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil», «Sizlarning yaxshilaringiz ahloqi yoqimli bo'lganlaringizdir», «Ekmak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering»¹, degan da'vatlarda ezgulik va insonparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. Sharqda, ya'ni Turon zaminida esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Almuallim asSoni» («Ikkinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom

olgan Abu Nasr Forobiy (873-990 y.y) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikrmulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama yetuk barcha aholini baxtsaodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi yuksak axloqqa ega ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olga surdi.

Abu Nasr Forobiy: «Insonning mohiyati haqiqiy baxt saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxtsaodatga erishadi»¹, deb alohida ta'kidlagan. O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir.

Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarni yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlik jaholatga qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o'zi ham bunyodkorlik ishlariga boshqosh bo'lgan.



ABU ALI IBN SINO
(980-1037)

O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini butun dunyoga tanitgan mashhur hakim, qator tabiiy fanlar bilimdoni, Ovro'pada Avisenna nomi bilan tanilgan buyuk qomusiy alloma. Ul zot yaratgan 450 dan ortiq asarlardan «Tib qonunlari», «Donishnoma», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzilishi», «Insof kitobi», «Tibbiy ko'rsatmalar haqida» kabi 160 ga yaqin asarlar bizgacha yetib kelgan.

Buyuk mutasavvufilar: Xoja Yusuf Xamadoniy Axmad Ya saviy, Abdulholiq Rijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotlarida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlari jamiyatning sog'lom ma'naviyahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi.

Ezgu g'oyalar Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi va o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bilim va aqlidrok orqali ezgu ishlar qilish to'g'risida Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: «Tabiat kimga zakovat, aqlidrok bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi»¹, deb yozgan edi «Qutadg'u bilig» (XI) nomli asarida. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomulmulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, elyurt tinchligi va obodligi bosh YEOYA sifatida ilgari surildi.

Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy prinsiplarining ustuvor yo'nalishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik edi. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, Yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aqlzakovat va huquqiy asos bilan idora etgan desak adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinlidir.




MIRZO ULUG'BEK (1394-1449)

Buyuk munajjim, davlat arbobi, ilmfan va madaniyat homiysi, o'z davrida Samarqandda rasadxona qurdirib, astronomik maktab yaratgan olim. Ilmiy merosining gultoji — «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari bo'lib, «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», «To'rt ulus tarixi» asarlari ham uning qalamiga mansub.

Zero, Sohibqiron o'z bunyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Jumladan, bu haqda «Temur tuzuklari»da yozganidek «Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim»¹, degan so'zlari bugun ham ibratlidir.

Uning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, Temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan va adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi. Barcha davrlarda va turli xalqlar tarixida milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyati va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Xind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandi (1869 1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilgor qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslariDan biriga aylandi. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir biriga borlashga harakat qildi. Fidoyilik va vatanparvarlik namunalari ko'rsatdi. Men uyim to'rt tomondan devor bilan o'ralib, derazalarim zich bekitib qo'yilishini istamayman. Barcha mamlakatlar madaniyati uyimga erkin kirib kelishini xohlaymanu, lekin uning oyog'imdan qoqib yiqitishini ham istamayman, degan edi. Darhaqiqat, Mahatma Gandi hind xalqining fidoyi



**ALISHER NAVOIY
(14411501)**

O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir va davlat arbobi. O'zbek tili jozibasini o'z «Xamsa»si bilan butun olamga namoyon etgan ulug' so'z san'atkorining «Badoyi ulbidoya», «Navodir ulnihoya», «Zubdat uttavorix», «Chor kitob», «Majolis unnafois», «Mahbub ulqulub»,

«Xazoyin ulmaoniy» kabi asarlari ham xalqimiz ma'naviyta'rifiy xazinasidan munosib o'rin egallagan.

vatanparvari bo'lib, u boshqa xalqlar ma'naviyati ta'sirida o'z xalqi madaniyati va taraqqiyotining yanada rivojlanishini istar edi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizasiya» kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarga poydevor bo'ldi.

Shunday bunyodkor g'oyalardan biri Janubiy Koreya mamlakati rivojiga katta hissa qo'shgan fidoyi inson Yong Ki Kimning yuksak g'oyalarga asoslangan vatanparvarlik faoliyati va bunyodkorlik ishlari diqqatga sazovor. O'tgan asrning 30 yillarida «12 oila qishloqda» degan harakatni boshlab, giyoh ham ko'karmagan tashlandiq tepalikni sotib olib,



ZAHIRIDDIN MUXAMMAD BOBUR
(1483-1530)

Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida munosib o'rin egallagan adib, shoir, olim, yirik davlat arbobi va sarkarda. Uning jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari «Boburnoma»dan tashqari, «Mubayyin», «Xatti Boburiy», «Harb ishi» kabi asarlari va go'zal she'riyati mashhurdir.

obod qilishga kirishdi. Keyinchalik fermerlar tayyorlaydigan «Kanaan» (imkoniyatlar maktabi) ni ochadi. U hamisha faqat tashlandiq, giyoh o'sishi qiyin bo'lgan yerlarni olib, obodqilib, odamlarni o'z tashabbusi, g'oyasi bilan orqasidan ergashtirib mamlakat rivoji va obodonligiga o'z hissasini qo'shdi. Bugungi kunda «Kanaan» ta'lim dargohining bosh maqsadi — tinglovchilarda insoniy e'tiqod tuyg'ularini shakllantirish, ularga insoniy fazilatlar komillik o'zaro tenglik birodarlik vatanparvarlik hislarini singdirishdir. Vatan va millat ravnaqi yo'lida fidokorona mehnatqilish, tug'ilib o'sgan Vatanni jondan ortiq sevmqlik shart ekanligi g'oyasi har bir tinglovchiga singdiriladi. Bitta fidoiy, vatanparvar insonning yuksak g'oyalarga asoslangan ishlari bugungi kunda keng tarqalib Janubiy Quriyaning obod bo'lishiga katta hissa bo'lib qo'shilmoqda. Ozodlik mustaqillik tinchlik adolat, tenglik hamkorlik do'stlik birodarlik hurfiqrlilik ma'rifatlik bagrikenglik xalqparvarlik vatanparvarlik insonparvarlik tashabbuskorlik mehnatsevarlik xayrixohlik barqarorlik tadbirkorlik ishbilarmonlik halollik poklik va h.k. bunyodkorlik g'oyalarining ko'rinishlari bo'lsa, kelajakka ishonch, adolat, haqiqatni tan olish, jur'atli bo'lish, sobitqadamlik mehmuruvvat, sahovatlilik baynalminallik millatlararo do'stlik va birodarlik fidoyilik yurtga sadoqatlilik taraqqiyparvarlik iymone'tiqodlilik vijdon erkinligi, safarbar etish, uyushtirish, farovonlik tashabbuskorlik ezgulik yaratuvchilik fikr erkinligi va Yeoyalar xilmaxilligini tan olish, bagrikenglik bunyodkor g'oyalarga xos xususiyatlardir.

Vayronkor g'oyalar jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'ladi, Gayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida ezgulik va bunyodkorlik G'oyalari bilan yovuzlik va buzgunchilik g'oyalari o'rtasida hamisha kurash bo'lganligi tarixdan ma'lum. Yovuzlik g'oyalari tarixda hamisha salbiy va yovuz kuchlar faoliyati hamda hukmronligini ifodalaydi. Salbiy yurishlarga turtki bo'lgan toyalarga, irqchilik fashizm, terrorizm, mustamlakachilikni targib qiluvchi g'oyalar misol bo'ladi.

Insoniyatning, jumladan, O'zbekistonning bir necha yuz yillik tarixida ham turli bosqinchiliklar oqibatida zulm, zo'ravonlik kulfat urug'larini sochish va qon to'kilishiga sabab bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va mafkuralarning halokatli ta'siri bilan bog'liq voqeyalar ko'p bo'lgan. Bu g'oyalar o'zlarida mustabidlik intilishlarini goh yashirin, goh oshkora ifodalagan holda amalga oshgan.

Jumladan, bolshevizm bilan bir qatorda, XX asrning boshida mustabid G'OYA va mafkuraning boshqa shakli — fashizm paydo bo'ldi.

Fashizm (ital. Fasismo — boglam, birlashma) — Garb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi ogir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy buxronlar davrida vujudga kelgan o'ta tajovuzkor va vayronkor g'oyalar asosida shakllangan insoniyatga qarshi nazariya va amaliyot. U jamiyatda o'ta reaksiya va tajovuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdanochiq terroristik diktaturaga, zo'ravonlik royasiga tayanadi. Fashizmning muhim xususiyati ochiqdanochiq shovinizm va irqchilik bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari, ilgor fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatishning eng ogir va zararli shakllarini qo'llash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fagsizm o'z kirdikorlarini yashirish va xaspo'shlash uchun siyosiy tilyog'lamalik yolg'on va bo'htonlardan ustalik bilan foydalanadi. Fashizmning tashqi siyosati bosqinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat bo'lib, bunday siyosiy rejimlar XX asrning 30yillarida Italiyada, Germaniyada, Portugaliyada, Ispaniyada va Sharqiy Yevropaning boshqa bir qancha mamlakatlarida o'rnatilgan edi. Fashistlar Germaniyasi militaristik Yaponiya bilan ittifoq tuzib, 1939-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushini boshlagan. Bu urush insoniyatga mislsiz kulfat va falokatlar keltirdi, 50 milliondan ortiq odam halok bo'ldi, yuzlab shahar va qishloklar vayron qilindi.

O'tgan asrning 70yillariga kelib, Portugaliya, Gresiya, Ispaniyada ham fashistik tartiblar barbod bo'ldi. Ammo bugungi kunda ham ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va b.) fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoqda. Yangi fashizm g'oyasi insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamosh lozim.

Bolshevizm mafkurasi bo'lgan kommunistik ta'limot xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalmilalligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir hukmron millatning «irqiyetnik sofligi»ni mutlaklashtirishni targ'iblashni etdi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

«Rasizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada «insoniyat nasli»ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi.

Irqchilik — odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik bosqinchilik zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irq'larga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayri milliy ta'limot.

Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irq'larning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyyotning quyi pogonalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy YEOYASI o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irklarni «quyi» irq'lar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra farqlanib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat hodisalarida yaqqol namoyon bo'ldi. U buyuk davlatchilik ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bplan chambarchas boglanib ketadi.

Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik talonchilik amaliyoti bilan yaqindan bog'liqdir. Irqchilik ta'limoti bilan qurollangan fapshstlar Germaniyasi «oriylar irqi» hukmronligini o'rnatish maqsadida jahon urushini boshlagani bunga yaqqol misoldir. Hozir ham reaksiya mafkuraga asoslangan kayfiyatdagi ayrim guruhlar, ularning nazariyotchilari irqchilik g'oyalarini targ'ib etib, «qoloq» xalqlarning go'yo mustaqil rivojlanishga ruhiy tayyor emasliklarini da'vo qilmoqdalar. Dunyoning turli mintaqalaridagi bunday qarashlar va harakatlarni xalqlar ozodligini bo'shshga, ular ustidan hukmronlik o'rnatishga intilish deb tushunish mumkin. Sobiq ittifoq parchalanib ketganidan so'ng ba'zi imperiyacha fikrlovchi ayrim siyosatdonlar va ularning nazariyotchilari qarashlarida ham irqchilik kayfiyatlari paydo bo'lganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlarning asossiz ekanini hayot ko'rsatmoqda. Ma'lumki, irq'lar odamlarning ikkilamchi tashqi nasliy xususiyatlari (badanining rangi yuzbosh tuzilishi kabi belgilari) bir xil bo'lgan, tarixiy davrda shakllangan guruhlardir. Dunyoda yevropalik mo'ru va negrlik belgilariga qarab ajratiladigan uch asosiy irq bor. Insonning jismoniy tuzilish asoslari (suyak mushak miya va tananing boshqa a'zolari) barcha irqqa mansub kishilarda bir xildir. Butun insoniyat yagona biologik turga — «Nomo sapiens»ga mansubdir. Tarixiy taraqqiyyot davomida irq'larning aralashuvi — irqiy belgilarning o'zgarishi sodir bo'lib kelgan va u hozir ham

davom etmoqsa. Barcha irqalar madaniy taraqqiyotga birdek qobiliyatlidirlar. Irqchilik insoniyatga qarshi g'oyadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida barcha irqalar va millatlarning teng huquqliligi belgilab qo'yilgan. Bu qoida jahon hamjamiyatining xalqaro huquq me'yorlariga javob beradi.

Bugungi kunda insoniyatga katta tahdid solayotgan yana bir eng yovuz yuyalardan biri — terrorizmdir.

TERRORIZM (lot. Terror — qo'rquv, dahshat) — ma'lum yovuz maqsad yo'lida kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Ko'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, ROYAVIY, irqiy, milliy, guruhii, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna, galamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlatishlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Terrorizm harakatlari insoniyat tarixida yangilik emas. U insoniyat hayotiga tahlika va tahdid solib, turli garazli maqsadlarning, g'oyalar va xohish irodalarning timsoli sifatida yashaydi. Terrorizm ma'lum bir guruhning shaxsiy manfaatlari, o'z orzuumidlari va gayriinsoniy xatti-harakatlarning majmuasidir. Ayni paytda, u ana shu maqsadlarning amalga oshishi uchun har qanday xunrezliklardan, qotilliklar va zulmdan qaytmaydi.

Terrorizm xatti-harakatlarining mazmuni va mohiyati bevosita zo'ravonlik inson hayotiga tahdid va uning huquqlarini poymol etish bilan bogliq bo'lgan. U butun mamlakatni xonavayron qilishga olib kelgan xalq, millat va mamlakat taqdirini butunlay boshqa o'zanga burib yuborib, o'z maqsadi va royalarining ro'yobga chiqishi uchun hyech narsadan tap tortmasdan hokimiyatga erishish da'vosidir. Ayni paytda, u har qanday fikrlash, aqlidrok doirasida ish yuritishdan xoli bo'lgan shafqatsizlik ashaddiy xunxo'rlik jazava va tazyiq bilan yovuz niyatini amalga oshiradigan bir to'da olomon faoliyatidir.

Terrorizm turli mamlakatlarda xilmaxil shakllarda va har xil maqsadlar asosida dunyoga keladi. Ma'lum bir mamlakat xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviyruhiy qiyofasi, aniqrogi, ehtiyojlari, turmush tarzi bevosita ana shunday jarayonlarning shaklini, qiyofasini, mohiyatini va rivojlanish jarayonlarini, boshqacha qilib aytganda, evolyusiyasini belgilaydi.

O'zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni Qo'lga kiritishni ko'zlovchi kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi reaksiyon, agressiv ruhdagi rasmiy siyosiy kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin.

Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatogonlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi «yovuz» kuchlar terrorchilik yo'liChshlan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga, bizni qaramlikka, asoratga solishga urinmoqsa. Ular vatanfurush xoinlardan ham, terrorchilikni «kasb» qilib olgan, «buyurtma» bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmokdalar. 1999 yilgi fevral voqyealari, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2001 yil 11 sentyabrda sodir bo'lgan voqyealar, dunyoning turli mamlakatlarida amalga oshirilayotgan xunrezliklar terrorchilar o'z maqsadlari yo'lida hyech narsadan tap tortmasliklarini ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.K.Karimov «Nezavisimaya gazeta» (Moskva)ning muxbiri Viktoriya Panfilovaga (2005 yil 14 yanvar) bergan intervyusida: «Xalqaro terrorizm» tushunchasi 2001 yilning 11 sentyabridan ayniqsa urf bo'ldi. Biroq bundan ancha avval ham Italiyada «Qizil brigadalar» va Germaniyada «Baodermayn xof» bir paytlar tinchlikni talab qiluvchi tashkilot sifatida matbuotga chiqqan, bugunga kelib esa eng ashadsiy terrorchilar, qotillar va zo'ravonlarni yetkazib beradigan tashkilotga aylangan. «Hizbut tahrir»ni misol qilib keltirish mumkin. Shu sababli ham bizning ishonchimiz komilki, avvalambor, terrorchilar tomonidan yoshlarning ongiga singdirib, ularni elaktirishtirib ishlarga tortadigan yovuz mafkuraga qarshi keskin kurash olib borish kerak. «Terrorchilikka qarshi kurashda bizning prinsipimiz nuqtai nazarimiz o'zgargani yo'q» — deb ta'ki dl aydi.

Darhaqiqat, terrorizm qanday bayroq ko'tarib chiqmasin, kanday shiorlar bilan niqoblanmasin, uning reaksiyon, jiyaoyatkorona mohiyatini farqlab olish, yovuz niyatini ochib tashlash ongli, hur fikrli insonning, har bir vatanparvar fuqaroning burchidir.

Yovuz g'oyalardan yana biri buyuk davlatchshshk shovinizmi va agressiv millatchilikdir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi — bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

Xususan, XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilmaxil ko'rinishda olib bordilar.

Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfsizligimizga tahdid solayotgan muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlagan: «O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan hatti-harakatlarda namoyon bo'lmoqda»¹.

Buyuk davlatchilik shovinizmi gayriinsoniy xususiyatga ega bo'lib, boshqa xalqlarni qaram qilish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda ularni kamsitish o'ziga xos shaklidir.

Shovinizmning tarixan halokatli ekanligiga sabab shuki, Haddan tashqari kuchayib ketgan va ayniqsa, o'z milliy mumtozligiga ishonishga asoslangan buyuk davlatchilik zo'ravonlik asosiga qurilganligidadir. Bu esa, o'z navbatida, buyuk Davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikni ifoda etuvchi davlatlarning o'zida ko'plab qurbonlar va yo'qotishlarga olib keladi.

Shu bois aytish mumkinki, shovinizm, pirovardida, davlatning o'ziga zarba beradi, uning poydevorini kuchsizlantiradi, ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi. U jamiyatni parchalab yuborishga va uning uchun ogir bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqarishga qodir. Garchi tarixiy davrlari va shartsharoitlari turlicha bo'lsada, Rim, Usmonlilar, Germaniya hamda Rossiya va Sovet imperiyalarining tarixidan bunga ko'plab misollar topish mumkin.

Shovinistik kuchlar butungi kunda, birinchidan, mamlakat aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, ikkinchidan, mintaqa davlatlari ichida ziddiyatlarni yuzaga keltirish, uchinchidan, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu yo'lda ular xilmaxil usul va vositalardan foydalanmoqdalar.

Buyuk davlatchilik shovinizmi ham jaholatning bir ko'rinishi. Unga qarash faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin. Bunda, ayniqsa, xalqaro hamjamiyat, jumladan, uning teng huquqli a'zosi bo'lgan har bir davlat bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish yaxshi omil bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina mintaqamiz hyech qachon sivilizasiyalar to'qnashmaydigan, balki ular birbiriga ijobiy ta'sir etib, birbirini boyitadigan makonga aylanadi.

Diniy aqidaparastlik esa siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk ya'ni mazkur din paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etmoq niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Aqidaparastlar diniy e'tiqod shakllanishining boshlangich davrida belgilangan, o'sha zamondagi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos bo'lgan barcha yo'lyo'riqlarning qat'iy hamda ogishmay bajarilishini talab qiladilar va shu tariqa diniy oqimlarni ifodalashda qo'llanadigan islohot shaklini shart qilib qo'yadilar.

Islom arkonlarini niqob qilib olgan aqidaparastlarning asosiy g'oyasi — «sof islom» qat'iyatlariga (prinsiplariga) qaytish, maqsadi esa islomiy davlat joriy etishdan iborat. Aqidaparast guruhlar haqiqatni tushuntirish, ishonitirish kabi usullar orqali targib etishni tan olmaydi. Ular o'z g'oyalari bid'atli, g'ayriinsoniy bo'lishiga qaramasdan, o'ta johil va boshqalarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'ladilar. O'zini shak-shubhasiz haq deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manyadanlik esa, zo'ravonlikni yuzaga keltiradi. Ya'ni, aqidaparastlik ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekistonda diniy ekstremizm va aqidaparastlikning islom dini niqobidagi ekstremizmi va aqidaparastligi shakli mavjud va aynan shu omil milliy xavfsizligimizga taxdiddir. Aqidaparastlarning g'oyalari o'ta zararli bo'lib, ularning fikricha, biz millatimizni jahonga tanitgan allomalarimiz Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulugbek va tariximizdagi barcha ulur zotlardan mahrum bo'lishimiz kerak. Chunki aqidaparastlar nazarida qayerda tasavvuf bo'lsa, komil inson g'oyasi bo'lsa, bularning barchasi islomga va bizga yot va begona emish. Ular komil insonni kufr, deb bilishadi. Ularning fikricha, inson komil bo'lishi mumkin emas. Imom Termiziy, Najmiddin Kubro, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy singari buyuk zotlar, jumladan, otabobolarimiz

xilxonalarini va muqaddas joylarni tavof va ziyorat qilmaslik kerak emish. Bularning barchasi bizning turmush tarzimiz, milliy xususiyatlarimiz, an'analarimizning o'ziga xos psixologiyasini ham barbod qilishga qaratilgandir. Tasavvufning komil inson g'oyasida insonning erki va taraqqiyoti ifodalanganligi diniy aqidaparastlar g'azabini keltiradi. Aqidaparastlik — jaholatdan boshqa narsa emas. U insonni bir mute, qul, taqdirning o'yinchog'i deb qaraydi, inson qalbi, ma'naviy ehtiyojlari bilan mutlaqo hisoblashmaydi.

Fundamentalistlar esa tasavvuf ta'sirida shakllangan adabiyot, falsafa, san'atdan ham voz kechish, umuman aql va his bilan yaratilgan barcha narsalarni yo'q qilishni talab qiladilar.

Aqidaparastlik va fundamentalizmning namoyon bo'lishini dunyoning ba'zi mamlakatlarida bugungi kunda mavjud Hukmron dindan boshqa dini tarshb qilganlar jazolanganligi, boshqa din va uning madaniy yodgorliklariga murosasiz Munosabatda bo'lib, uni yo'q qilishga urinishlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Afgoniston hududidagi buddizm Diniga mansub 15 asr ilgari bunyod etilgan Bamiyon shahridagi madaniy yodgorliklar ham yo'q qilinishiga fatvo berilib, dunyodagi eng yirik va noyob Budda yodgorliklari tutilib, buzib tashlandi. Bu johilona xatti-harakatlar islom dini va tasavvuf ta'limotining o'zga dinlarga nisbatan bag'rikenglikka asoslangan munosabatlariga mutlaqo zid bo'lganligi uchun ham butun dunyo musulmonlari va barcha taraqqiyparvar kuchlar tomonidan qoralandi.

Islom dinining tasavvuf ta'limoti ahli esa hayotga va inson masalalariga keng qaraganlar. Bu chin ma'nosi bilan insonparvarlik ta'limotidir. Chunki sufiylar, garchi chin musulmon sifatida shuhrat qozonib, islom dini uchun kurashgan bo'lsalarda, ammo hych qachon o'zga dinlarni kamsitmaganlar. Shu sababli ham tasavvuf diniy bag'rikenglik ta'limoti, inson kamolotiga yo'l qidirgan hamda jaholatga qarshi kurashib kelgan ma'rifiy ta'limotidir.

Aqidaparastlikka qarshi turadigan kuch — bu ilm-ma'rifatdir. Asrimiz boshida ham jadedlar yangi maktablar tashkil etib, yoshlarga dunyoviy bilim berib, aqidaparastlikka qarshi kurashgan edilar. Aqidaparastlar «dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqot olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar sodir etish, jamiyatni xavf ostiga qo'yishga urinmoqdalar. Ularning bu xatti-harakatlari yosh mustaqil davlatimizga ochikdanochiq tajovuzdan boshqa narsa emas, u milliy mustaqilligimizga ham qatta tahdididir.

Diniy ekstremizm — ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruvchya guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar va qarashlar majmuini anglatadi.

Boshqacharoq aytganda, diniy ekstremizm — muayyan diniy yo'nalish va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib unsurlar siyosiy faoliyatining mafkurasidir. Bu fikrning isboti sifatida «Musulmon birodarlari» va undan ajralib chiqqan ko'plab diniy ekstremistik ruh-dagi guruh va tashkilotlar tayanadigan asosiy g'oyalarni eslab o'tishimiz mumkin.

«Musulmon birodarlari» hych qanday ma'muriy-jugrofiy hududni tan olmaydilar va pirovard maqsadda yer yuzidagi barcha mamlakatlarda yagona musulmonlar birligi va ularning diniy va dunyoviy hokimiyatini o'zida mujassamlashtirgan «xalifa» rahbarligidagi yagona musulmon davlati qurishni ko'zlaydilar. Bu shartni bajarmoq, niyatga yetmoq uchun xar kanday xunrezlikka va birodarkushlikka fatvo beriladi.

Diniy ekstremizm namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintakaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hych qachon chegara bilmagan, shillat, hududni tan olmagan, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistlar qayerda va qaysi din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsad diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar.

Bu esa mustaqillikka ham, taraqqiyotga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lida ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar. Bugungi kunga kelib ekstremizm nafaqat islom dunyosida, balki boshqa dinlar tarqalgan hududlarda ham, to'lato'kis namoyon bo'lib qolmoqda.

Dunyoda inson huquqlari va demokratik tamoyillar ustuvor bo'lib borayotgan, qonun hamda xalqaro huquq qoidalari mamlakatlar, xalqlar, davlatlar orasidagi munosabatlarning asosiy tamoyiliga aylanayotgan hozirgi davrda diniy ekstremizmga o'rin qolmayapti. Ammo, bu unga qarshi kurashmaslik hushyorlikni oshirmaslikni bildirmaydi. Mazkur sohada ham Prezidentimiz uqtirganlari kabi ogohlik ezgu g'oyalar yo'lida kurash olib borish hayot va faoliyatning asosiy mezon bo'lib qolmoqda.

Diniy ekstremizmni keltirib chiqaruvchi sabablar:

dindan foydalanib, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy Hamda boshqa tajovuzlar va maqsadlarni amalga oshirish

uchun intilish;

— dinni niqob qilib, turli siyosiy mojarolar, ziddi

yatlarni keltirib chiqarishga urinish;

— inson, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash Huquqini emas, balki dinning yashashga bo'lgan huquqini e'tirof etish; dinni dunyoqarash, tafakkurning yagona vositasi deb xisoblash.

O'z-o'zidan ravshanki, bu hodisalar O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda butunlay zararli g'oyalardir.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatigazga nisbatan qilinayotgan ma'naviyma'rifiy hurujlarning turli usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g'oyalarni turli kinofilmlar, televideniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazetajurnallar,¹ internet tarmog'i va boshqa yo'nalishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirib, bizning milliy qadriyatlarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni soxta g'oyalarning ta'siriga olishga muntazam harakat qilinmoqda. Yot, zararli g'oyalarning mamlakatimizga kirib kelishi xalqning milliy g'oyasini (maqsad va intilishlarini), taraqqiyot yo'lini o'ziga xos va mos bo'lmagan yo'nalishga burib yuborish, mamlakatlarning ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Begona g'oyalarning mamlakatga kirib kelishi va fuqarolar o'rtasida tarqalishi katta xavf, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini e'tiborga olib, Abu Nasr Forobiy o'z vaqtida begona toylarning zarari to'grisida: «O'zga, begona g'oyalar kirib kelib, xalqning turmush tarzi, urfodatlari, an'analarini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin»¹, deb yozgan edi.

Sobiq ittifoq davrida yurtimizga begona g'oyalar kirib keldi. Begona ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy hayot qaror topdi. Turmush tarzimizdan begona urfodat, an'analar joy oldi. O'zimizga xos va mos bo'lmagan kommunizm toyasi bilan yashay boshladik. Xalqimizning azaliy turmush tarzi, urfodatlari psixologiyasi, qadriyatlari, insoniy munosabatlari, tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bunday g'oyalar inson tabiatiga zid bo'lib, uni salbiy tomonga o'zgartiradi, unda nosog'lom turmush tarzini shakllantiradi, fikrlar xilmaxilligini cheklaydi, qaramlik tobelik mutelik muhitini yaratadi. Milliy tafakkur tarzini o'z negizlaridan begonallashtiradi, begona urfodat, an'analarni targib qiladi, ularning kirib kelishiga muhit yaratadi, mamlakatni, xalqni o'z milliy qadriyatlaridan, oxiroqibat o'z taraqqiyot yo'lidan begonallashtiradi, jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlik dinlararo bagrikenglikka rahna solib, ichki ixtiloflar, parokandalikka olib keladi.

Oilada yoshlarga sog'lom tarbiya berish, fuqarolarning imon e'tiqodini mustahkamlash, milliy gurur va iftixor bilan yashashga erishish, har tomonlama komil shaxslar qilib tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, fuqarolar ongida milliy istiqlool g'oyalarini shakllantirish orqali uning oldini olishi mumkin.

Milliy istiqlool g'oyasiga zid salbiy holatlar: Befarqlik maqtanchoqlik xushomadgo'ylik hasadgo'ylik manmanlik haqiqatni mensimaslik tanishbilibchilik mahalliychilik mansabparastlik. Ularni bartaraf etish uchun jamiyatda erkin fikr va fikrlashlar, g'oyalar xilmaxilligi, tanqid va o'zo'zini tanqid muhitini yaratish, demokratiya va oshkoralik muhitini kuchaytirish, sog'lom va erkin raqobat muhitini yuzaga keltirib, jamiyatda ilm-ma'rifatning mavqyeini yanada oshirish zarur.

Kommunistik mafkura iskanjasidan ozod bo'lganimizdan so'ng turli g'oyalar hayotimizga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilmoqsa. Otabobolarimizdan qolgan buyuk merosni anglay boshlagan bir paytimizda uning barchasini barbod qilishga qaratilgan zararli g'oyalarga qarshi turadigan kuch milliy g'oyadir. Milliy g'oya bugungi kunda xalqimiz, jamiyatimiz uchun hayotiy zaruriyat, mamlakatimizda fuqarolar totuvligi va birdamligini ta'minlaydigan taraqqiyotimizga kafolat bo'ladigan, insonlarga ezgu maqsadlariga erishishda ma'naviyruhiy kuchdir. Milliy g'oya ezgu maqsad yo'lida jamiyat a'zolarini birlashtiradi, ularga ruhiy madad beradi, har qanday ko'rinishdagi zararli illatlarni inkor etadi. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi roya bilan, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishga da'vat etadi. Jamiyatda osoyishtalik tinchlik o'zaro ishonch, barqarorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, milliy istiqlool yuyasi mamlakatimizning buyuk kelajagi poydevorini yaratishda muhim vosita, insonning ongi va qalbini Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaqolatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarurligi.

3MAVZU
GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA
MILLIY G'OYAGA EHTIYOJNING ORTISHI

Reja

1. Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati.
2. Globallashuv va milliy ma'naviyat.
3. Globallashuv va milliy g'oyaga ehtiyoj.
4. Milliy istiqloq g'oyasi va shaxsiy e'tikod.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihtolalanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolipsh mumkin. Bunday gayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bogliq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz kayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sir o'tkazadi. Xar qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga yetarli ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Aynan u jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilarning to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun yamkoniyat yaratish mumkin.

Globallashuv — turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv ekarayonishshg uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- globallashuv — muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv — jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- globallashuv — milliy chegaralarning "yuqilib ketish" jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchalasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazipsh mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Xindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyimning darvoza va e'pshklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni agdarto'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

Shuning uchun ham milliy istiqloq toyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, "dovullar"dan saqlash omili ekanligini anglash muhim.

Hozirgi zamon globallashuv jarayoni o'ta murakkab hodisa. Uning turli mamlakatlar iqtisodi,

siyosati va 11 ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana Ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonda birbiriga nisbatan raqobatda bo'lgan ikki guruh: globalistva aksilglobalistlar guruxlari vujudga keldi.

Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib, ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari bor. MDX hududida aksilglobalistlar Rossiya Federasiyasi hududida faol harakat olib bormoqda. Bu yerda ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turadilar.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va shiddatli tus oldi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki tashkilotlarining vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Globallashuvning tezlashishi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchaydi. Ular globallashuvning faqat salbiy oqibatlariga emas, umuman uning o'ziga ham qarshi chiqqa boshladilar. Masalan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovyev "Aksilglobalizm vektorlari" nomli anjumanda so'zlagan nutqida shunday deydi: "Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarpshlik ko'rsatishda boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!" degan edi.

"Aksilglobalizm vektorlari" anjumanidagi yana bir ma'ruzachi A.Parshev esa globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: "Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarni o'zlashtirishdan iborat".

Albatta, bu fikrga turlicha munosabat bildirilishi mumkin. "Globallashuv"ni faqat salbiy hodisa sifatida baholash va unga qarshi turish ijtimoiy hayotdagi turli xil tabiiy, ijtimoiy bog'liqliklarni inkor etishga olib kelishi mumkin. Globallashuv jarayoni "mafkrulashishdan", uning maqsadlaridan holi bo'lishi kerak.

Taxlil shuni ko'rsatadiki, globalizm tarafdorlari ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatga ta'siri va ma'naviy globallashuv masalalari sosiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini yetarli darajada topishi kerak.

Albatta, globallashuvning hatto eng asosiy jihatlari va yo'nalishlarini ham to'liq qamrab olish qiyin. Shuning uchun mazkur bo'lim Globallashuv va Nyailiy ma'naviyatda globallashuvning milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan va o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'siri haqida fikr yuritamiz, xolos. Ma'naviyatni ham bir uyga to'plangan boylikka qiyoslasak tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostinustin qilib tashlashini hyech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliY ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ixrtalangan bo'lsa. Xatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy Amerika changalzorlarida turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamonaviy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa, tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan baxramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilganidan guvohlik beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va Garbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham ITarq, ham Garb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz Garb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib, ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarildi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy qismlari bo'lgan ilmiy bilimlar, diniy e'tiqod, san'at misolida ham ko'rish mumkin. Faqat Vatanimyz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o'rin egallagan allomalarimiz ijodi ham shu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xixoy, Hindiston, Yunoniston va rim falsafasi, tabiiy fanlarini chuqur o'zlashtirgan edi. Hindistonda bo'lgan paytida u hind fani va madaniyatini o'rganar ekan, manbalarni o'rganish uchun qadimgi hind tili sanskritni bilish lozimligini anglaydi. U sanskritni o'rganishga kirishadi va qisqa fursatda uni chuqur o'zlashtirib, qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o'rgana brshlaydi. U, shuningdek yunon va rim madaniyati va fanini o'rganish uchun yunon, lotin hamda qadimgi yahudiy tillarini o'zlashtirgan edi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, o'sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari ma'naviyatini o'rganibgina qolmay, ularni chuqur tahlil qilishdi, tegishli joylarini rivojlantirib, olamshumul kashfiyotlarni ochishdi.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Bizga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ana shunday tahlilni o'tkazish uchun esa ba'zan erinchoqligimiz, ba'zan uquvsizligimiz xalaqit bermoqda. Buning oqibatida esa qabul qilish lozim bo'lgan toylarni rad etish va rad etish lozim bo'lgan g'oyalarni qabul qilish hollari ham uchrab turibdi.

Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib, kirib keladi. Shunday g'oyalar ham borki, ular "o'g'ri" kabi tuynuk qidiradi.

Eshik qoqib keladigan royalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu umuminsoniy ezgug'oyalardir. Chunki milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar tashlansa, uning boshqa xalqlar udum va an'alarini qanchalik o'zlashtirib va rivojlantirib borganini ko'rish mumkin.

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqindagi qo'shnilarning ilg'or an'alarini o'zlashtirish natijasida boyib bordi. Ma'naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati hamda uning asrlaridagi holati o'rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yurishturish va kiyimkechak turmush sohalarida ham kuzatish mumkin.

XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi. Demak milliy teatr san'ati to'grisida so'z ham yuritish mumkin emas edi. Munavvar qori Abduradshxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning sa'yharakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millati uchun yot, begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatrni rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan. San'atning bu turlarini O'zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazax qilish, masxaralash, hatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari, deyuvchilar tomonidan amalga oshirilgan edi. Xamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san'ati milliy ruhiyatimiz va ma'naviyatimizga yot, deyuvchilarning o'zlari milliy ma'naviyat rivojiga g'ov bo'lganini ko'rsatdi. Hozirgi kunda har million kishiga hisoblaganda teatrlar soni bo'yicha O'zbekiston dunyodagi eng ilg'or o'rinlardan birini egallaydi va teatr milliy ma'naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning ham tadrijini kuzatsak g'aroyib hodisalarning guvohi bo'lamiz. O'tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak yoki etikdan iborat edi. Yozgi kiyim esa do'ppi, ko'ylak yoki yaktak oq lozim va shippak yoki kavushdan iborat edi.

Sport sohasidagi atamalarni globallashuv jarayoniga ham tadbqiq qiladigan bo'lsak vayronkor royalardan himoyalalanishning eng samarali yo'li ularga qarshi hujumga o'tishdir. Ya'ni, biz yot g'oyalardan himoyalalanish bilangina shug'ullanmay, o'z g'oyalarimiz, an'alarimiz, turmush tarzimizni Dunyoga yoyish uchun harakat ham qilishimiz zarur.

Tariximiz ilmfan, din, san'at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan, demakki, butun dunyo ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilardi hissa qo'shgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulurbek singari allomalarimiz jahon fanini yangi pog'onalariga ko'tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviylar esa hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Amir Temur va Mirzo Boburning harbiy san'ati naqadar yuksakligini butun jahon e'tirof etadi.

Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish u yoqda tursin, o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha toptalgan qadriyatlarimizni tiklash, milliy qadriyatlarimizni targib qilish imkoniga ega bo'ldik.

O'zbek milliy kurashini dunyoga yoyish bo'yicha qilingan ishlar, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida o'zbek kurashi federasiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli.

Dunyo bugun O'zbekistonni milliy madaniy merosi, boy tarixi, tili, madaniyati, urfodat va an'analarning umuminsoniy g'oyalar bilan mujassamligi, san'at va arxitektura, fan va madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlari orqali ham kashf etmoqda. Demak biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo'lmay, faol tarshb qiluv chilarga ham aylanishimiz mumkin.

Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqloq g'oyasidan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. Shu masalada milliy istiqloq g'oyasining juda muhim funksiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash kabi muhim funksiyasi namoyon bo'ladi. Milliy istiqloq g'oyasi ana shu funksiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Milliy istiqloq g'oyasining shakllantirilishi va uning o'quvchilar, talabalar, keng aholi tomonidan o'rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida, milliy istiqloq g'oyasi «yang negizlari chuqur. U xalqimizning milliy madaniy merosidan, ezgu g'oyalaridan oziqlanadi. Lekin, bu g'oyani yoshlar ba axrli ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. Ya'ni, avvalo milliy qadriklarni, milliy ma'naviyatni tiklash, milliy rurni uyg'otish, bir so'z bilan aytganda, ziyalliy istiqloq g'oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlalashi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan buyon o'tgan davr ichida ma'naviyat sohasida ulkan nazariy, ma'rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o'tkazildi, ta'lim to'g'risida milliy dastur qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, milliy istiqloq g'oyasini keng targ'ib qilish uchun zamin yaratildi.

Milliy istiqloq g'oyasini targ'ib qilishda, bizningcha, ba'zan bir tomonlamalikka yo'l qo'yilmoqda. Bu g'oyani targib qilishda ishtirok etayotgan murabbiy va o'qituvchilar, tadqiqotchilarning chiqishlarida, maqola va risolalarida ma'rifatchilik bilan cheklanish ko'zga tashlanmoqda. Holbuki, ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham, milliy istiqloq g'oyasini targ'ib qilishda bu yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu hol milliy istiqloq g'oyasining xususiyatlari bilan borliq.

Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy taxdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayoni bo'lmasa, milliy toyaga ham ehtiyoj oshmas edi. Chunki, globallashuv bo'lmaganda har bir xalq va millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat Darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va taxdidning yo'qligi esa milliy g'oyaga ehtiyojni ham dolzarbligini sezdirmas edi.

Milliy istiqloq G'oyasining mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida toyaligicha qolmay, amaliyotga, hayotga aylangan taqdiridagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqloq g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagana u globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosoglom royaviy taxdidlardan ximoya qiladigan kuchga aylanadi.

4. Milliy istiqloq g'oyasining hayotimiz jarayoniga singib ketishini ta'minlash uchun g'oyalar amaliy harakatlarga aylanishi jarayonini sinchiklab o'rganish lozim. Buning uchun dastavval, g'oya bevosita amaliyotga, amaliyot dasturiga aylanishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bu jarayon qanday yuz beradi? degan savollarga javob topish zarur.

Zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtai nazaridan bu savolga "aylanmaydi" deb javob berish kerak. Chunki inson ongida, miyasida o'nlab, yuzlab va hatto minglab g'oyalar bo'ladi. Ularning barchasi ham amaliyotga aylanavermaydi. Chunki, alohida inson ongida ayni bir paytning o'zida o'nlab turli xil, jumladan, diniy, ahloqiy, siyosiy, ilmiy, badiiy va boshqa xil g'oyalar bo'lishi tabiiy. Ular birbirlarini to'lg'azishi va ko'pincha birbirlariga to'la mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs bu g'oyalardan eng zarurlarini va o'zi eng to'g'ri, deb bilganlarini ajratib hayotga tadbiiq qiladi yoki unga amal qiladi. Ana shu tanlash, ya'ni g'oyaning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichni to'laroq va chuqurroq anglash uchun shu tanlash mezonlarini aniqlab olish zarur.

G'oyalarni saralashda shaxs foydalanadigan mezonlarning eng muhimlaridan biri, saralab olinayotgan g'oyaning yoki maqsadning shaxs, millat, xalq yoki jamiyat manfaatlariga, ehtiyojlariga, qurilmalariga, e'tiqodiga mosligidir. Bu hodisalar, ya'ni manfaatlar, ehtiyojlar, e'tiqodlar va ularning

g'oyalar bilan o'zaro aloqadorligi murakkab. Buning ustiga bu muammo jahon fanida ham kam o'rganilgan. Mamlakatimiz psixolog olimlari bu muammo ustida endi bosh qotira boshladilar.

Muammoning murakkabligini hisobga olib biz uning faqat bir jihati, ya'ni g'oyalar va e'tiqod aloqadorligi to'grisida fikr yuritmoqchimiz. E'tiqod shaxs ongida juda muhim o'rin tutadi, insonning hayot yo'nalishi, hayot tarzi, intilishlari uning shaxsiy e'tiqodi bilan belgilanadi.

Inson ongiga yo'l topayotgan g'oyalar ham mana shu e'tiqod chig'irigidan o'tkaziladi. E'tiqodga mos kelmaydigan g'oyalar rad etiladi. Lekin, g'oya va e'tiqod aloqadorligi favt bir tomonlama jarayon emas. Ularning aloqadorliga faqatgina e'tiqodning nazoratchiligi, g'oyalarni elakdan o'tkazishi bilan cheklanmaydi. Shunday holatlar ham bo'ladiki, inson ongiga kirib kelayotgan g'oya undagi e'tiqodni mustaxkamlaydi yoki bo'shashtiradi, ba'zan esa shu g'oyaning o'zi e'tiqodga aylanadi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, mamlakatimizda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar boshlandi. Bu islohotlar jarayonida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy lashtirish, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish singari ko'plab tadbirlarni amalga oshirishga kirishildi. Islohot ijtimoiy ruhiyat sohasida ham amalga oshirila boshladi. Bu sohadagi eng muhim vazifa odamlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish edi. Buning uchun esa ularni sobiq sho'rolar tuzumi qoliplaridan, boqimandalik o'zibo'larchilik kayfiyatidan, yot va begona g'oyalarga bo'lgan e'tiqoddan xalos qilish kerak edi. Bu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirildi. Biroq bu jarayon mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari shakllanishi bilan o'zining yakunlovchi pallasiga kirdi. Chunki, tabiatda bo'lmagani singari inson ongida ham mutlaq bo'shliq bo'lmaydi. Sobiq totalitar tuzum sarqitlarini inson ongidan supurib tashlash uchun kuchli ma'naviy qurol kerak. Bunday qurol vazifasini faqat milliy istiqlol g'oyasi bajarishi mumkin. Chunki, hayotbaxsh g'oya bilan qurollanmay turib, eski g'oyalar ta'siridan to'la qutilish mumkin emas. Shunisi ham borki, milliy istiqlol g'oyasidan jamiyat a'zolarining ko'pchiligi xabardor bo'lishi eski tuzum sarqitlarini supurib tashlash uchun kifoya qilmaydi. Milliy istiqlol g'oyasi ishonch va e'tiqodga aylangandagina eskilik sarqitlarini supurib tashlashi mumkin.

Jamiyatda g'oyaning e'tiqodga aylanishi uning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichdir. Shaxs e'tiqodiga aylangan g'oyani ro'yobga chiqarish uchun harakat qila boshlaydi. E'tiqod qanchalik kuchli bo'lsa, uni amalga oshirish uchun shaxs shunchalik ehtiros bilan harakat qiladi. Kuchli e'tiqod yo'lida shaxs bilimini, kuchini, boyliklarini, hatto hayotini ham ayamaydi. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. AQSh Prezidentlaridan biri T.Jefferson "Ozodlik Shunday daraxtki, u ba'zan odam qoni bilan sug'orib turishlarini talab qiladi", deganda xuddi shunday e'tiqodli odamlarning ozodlikni himoya qilish yo'lida ular o'z jonidan kechishga ham tayyor turishlarini nazarda tutgan edi. Yurtimiz tarixida ozodlik daraxtini o'z qoni bilan sug'organ yoki sug'orishga tayyor turgan qahramonlar ko'p bo'lgan. O'g'ixon, Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari shaxslar shular jumlasidandir. Ular e'tiqodlari tufayli ozodlik yurt mustaqilligi yo'lida butun kuchg'ayratlarini, zarur bo'lganda jonlarini ham ayamadilar.

Mustaqillikni ham ozodlikka o'xshatish mumkin. Ular — egizak. Mustaqilliksiz ozodlik bo'lmaydi va aksincha ozodliksiz mustaqillikka erishib bo'lmaydi. Mustaqillikni himoya qilish uchun jon fido qilishga tayyor o'gayunlar bo'lishi kerak. Mustaqillik daraxti gullabyashnashi uchun uning poyiga ko'proq ter to'kish kerak. Vatan o'g'ilqizlari qanchalik ko'p mehnat qilib ter to'ksalar, mustaqillik daraxti, uning ildizlari, ildizlari orasidagi o'qtomir — milliy istiqlol g'oyasi shunchalik barq urib rivojlanadi. Lekin faqat ma'rifat bilan qanoatlanilsa, nari borganda istiqlol royasini izohlab, tushuntirib berish mumkin, izohlash va tushuntirish yo'li bilan esa odamlarning faqat fikriga, xotirasiga ta'sir o'tkazsa bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasini yaxshi tushunib olgan talaba yoki o'quvchi imtihonda "a'lo" yoki "yaxshi" baho olishi mumkin, lekin unda bu g'oyaga e'tiqod shakllanmagan bo'lsa, bu bilimni u tezda unutadi. E'tiqod shakllanishi uchun faqat bilimning o'zi kifoya qilmaydi. E'tiqod, xususan, g'oyaviy e'tiqod bilim va histuyguning hosilasidir.

G'oyaviy e'tiqodning otasi bilim bo'lsa, onasi histuyg'udir. Ulardan biri bo'lmasa, shyaviy e'tiqod ham bo'lmaydi. Shu xususiyati bilan ROYAVIY e'tiqod e'tiqodning boshqa turlaridan, aytaylik diniy e'tiqoddan farq qiladi. Diniy e'tiqod shakllanishi uchun din arkonlari to'grisida chuqur bilim bo'lishi shart emas. Dindorlarning ko'pchiligida ana shunday chuqur diniy bilim yo'q, lekin ularning talay qismidagi e'tiqod bilimdon ulamolarning e'tiqodidan kuchliroq bo'lishi mumkin.

Buning sababi shundaki, diniy e'tiqod bilimni inkor qilmaydi, lekin unda ehtiros ustuvorlik qiladi. Din bo'yicha juda ko'p bilimga ega bo'lgan odamning e'tiqodi sust va buning aksicha, oz

bilimga ega bo'lgan odam kuchliroq e'tiqodga ega bo'lipsh mumkin. Shuning uchun ilm, ma'rifat bilan birga unga amal qilish muhim. U e'tiqodni mustahkamlaydi.

Ilmiga amal qilmagan mulladan beshak Afzaldir ustiga kitob ortilgan eshak deganda Shayx Sa'diy bilimdon, lekin e'tiqodsiz mullalarni nazarda tutgan edi.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyatiga monand tarzda uni yoshlar va aholi ongiga singdirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ma'rifiylik bilan cheklanmay, e'tiqodni shakllantirish uchun amaliyotga yo'naltirilishi muhim. Buning uchun esa e'tiqodning o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishidagi bosqichlar, murakkabliklar, nozikliklarni doimo yodda tutish zarur bo'ladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yuqotib qo'yishi muqarrarligini unutmasligimiz lozim.

Bu masalaning yana bir jihati shundaki, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Millat o'zligini to'la anglagan taqdirdagina buyuk o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi».

Darhaqiqat, milliy istiqlol g'oyasi ham ishonch va e'tiqodni hamda unga amal qilib yondasha boshlagan kishilar faoliyatida samara beradi. Ishonch va e'tiqodning mustahkamligi kishilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlariga, madaniy merosi, urfodatlari, an'analarini, tili, tarixini hurmat qilishi, unga bo'lgan e'tiqodi va sadoqati orqali namoyon bo'ladi. Shunda u millatni globallashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ayrim tahdidlardan saqlaydi.

4MAVZU

G'UYAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH — XAVFSIZLIK VA BARQARORLIK OMILI

Reja

1. Ma'furaviy immunitet — xavfsizlikning ma'naviy asosi.
2. G'oyaviy manipulasiya.
3. Tarixiy bitiklarda ma'furaviy immunitet xakida.
4. Xavfsizlik va barkarorlikka taxdidlar xamda ma'furaviy immunitet.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun ma'furaviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, ma'furaviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil G'OYANI zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oqqorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. 1999 yil fevral, 2004 yilning martidagi Buxoro va Toshkent shahrida sodir etilgan terroristik voqyealardan to'gri xulosa qilish muhim. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. Ya'ni jamiyat, millat o'z royasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo'llashi mumkin bo'lgan g'oyaviy tahdidlardan qo'rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g'oyaviy parokandalik bo'linishlar bo'lsa (bunga tarixda misollar ko'p) dushmanlarga, ularning yot ma'furalariga yo'l ochib beradi. Bunday millatni yengish, mustamlaka qilish oson kechadi (bunga ham tarixda misollar ko'p). Bu haqda A.Oripov:

Turkistonning bolalari, maktovimga kuloq, tutmang, Gina kilsam chidang, ammo gaplarimni xech unutmang.

O't ketsin u kora kunga — birovlariga kul bo'ldingiz, Shark Garbning o'rtasida oyok osti yo'l bo'ldingiz.

degan edi. Shunday ekan, barqarorlik va xavfsizlik — jamiyatning ongliligiga, anglangan to'g'ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishiga, fikriy, g'oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma'rifatiga tayanadi.

Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti hyech bir o'zbekistonlikni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki ular o'z Vatanining qanday mashaqqatli, azobli asrlarni o'tkazib, mustaqillikka erishganligini yaxshi biladilar. Shunday ekan, har bir O'zbekistonlik millatidan, dinidan, tug'ilgan joyidan, kasbu yoshidan qat'iy nazar Vatan posboni bo'lishi lozim. Demak mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat — o'zbekistonliklarning milliy istiqloq g'oyasi atrofidagi jipsligidir. Shu tariqa milliy g'oya bizni o'tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz bilan boglab turadi. Shu sababli O'zbekiston xalqining milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan immuniteti — Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanadi.

Milliy istiqloq G'OYASI xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, ijtimoiy hamkorlik millatlararo totuvlik dinlararo bag'rikenglik komillikka tayanar ekan, ana shu g'oyalarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi. Tashqi tahdidlar O'zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa O'zbekiston davlati, mamlakatning ichidan chiqayotgan tahdidlardir. Biz ko'p asrlar ana shu ichki tahdidlar tufayli mustamlakalikda yashab keldik.

Ichki tahdidlar — o'z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g'oya, fikr, xatti-harakatlardir. Nosoglom mahalliychilik yonidagilarni mensimaslik vatandoshlarning haqqiga xiyonat qilish, "ma'naviy emigrasiya" (baxtini o'z vatanidan emas, o'zga joylarda qidirish), odamlarni boy kambag'alga bo'lib muomala qilish, poraxo'rlik korrupsiya, qo'pollik ashaddiy millatchilik merkantilizm, ortiqcha moldunyoga hirs qo'yish, befarqlik loqaydlik o'zligini anglamaslik va boshqa illatlar bilvosita ichki tahdidlar vazifasini bajaradi. Ular qancha keng tarqalsa, o'zbekistonliklarning g'oyaviy birligiga shuncha ko'p zarar yetkazadi, parokanda qiladi, hamjihatlik bo'lmaydi. G'oyaviy birligi mo'rt millatning davlat xavfsizligi ham mo'rt bo'ladi.

Barcha zamon va makonlarda ma'naviyati kuchli, ishonch va e'tiqodi mustahkam millat bir jonu bir tan bo'lib, muammolarni tez va soz yechgan, peshqadam bo'lgan. Ma'furaviy birligi ichidan yoki tashqaridan buzilgan millatlar esa, mag'lub bo'lib, mustamlakaga aylangan. Buning tarixiy misolini Bilga xoqonning turk xalqiga bundan 1266 yil oldin toshga bitilgan murojaatida ham ko'ramiz. Bu bitik ma'furasizlikning ayanchli oqibatlarini tasvirlaydi. Bilga xoqon turk elining adashuvi natijasida uning

boshiga kanchalar falokat yogilganini kuyinib aytadi. «Tabgach xalki suzi shirin, nafis ipaklar bilan aldab, yirok xalkni shunay yakinlashtirar ekan... shirin suziga , nafis ipakligiga aldanib, kup turk xalki, ulding. Ey, turk xalki, ulding..»

2. Inson biror kasallikka chalinsa, uni davolash mumkin. Millat ma'naviyatining zaifligi, uning xarakteridagi xafsalasizlik befarqlik gayratsizlik o'zaro ichki munosabatlarda aldamchilik qo'pollik johillik xudbinlik yalqovlik va boshqa nuqsonlarda namoyon bo'ladi. Demak hozirgi o'zimizni o'zimiz barkamol qilishimizga to'yeqinlik qilayotgan ma'naviy jarohatlarimizni davolashimiz uchun masalaga aniq, ya'ni real milliy xarakterni o'rganish va o'zgartirish omili sifatida yondashmog'imiz zarur. Natijada, millatning o'z ahvoriga o'zining munosabati, ijobiy jihatlarni oshirish va qusurlarni ma'rifiy yo'l bilan davolab, kuchlantirib, jahonning ilgor millatlari safiga qo'shilishi mumkin.

Jamiyatning o'z ertasi va kelajagiga ishonchi o'zo'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zamirida millat baxt saodati yo'lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat — g'oyaviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tarbiya deganda gap, "kishilar dunyoqarashini boshqarish xaqida emas, balki odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish"ni anglatadi.

G'oyaviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o'zini himoya qiluvchi ham g'oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak qaysi tomonning yengishini, pirovard natijada, ilmga asoslangan targibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi targibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin. Shu sababli "Milliy istiqlool mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun qator talablarga javob berishi zarur. Ana shunday talablardan biri — har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob bera olishidir»¹.

Jamiyatga yot mafkuraviy g'oyalar birdaniga kira olmaydi. Ular, avvalo, mahv qilinishi kerak bo'lgan millat azaldan ishonib kelgan narsalarga ishonchini, umidini so'ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan narsalar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Natijada, mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi — millat o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo'la boshladi. Azaliy qadriyatlarga amal qilinmay qo'yiladi, odamlarda ularga amal qilmayotganlarga loqayd munosabat urf bo'ladi. Qadriyatlar, g'oyalar qadrsizlanadi, ahamiyatsiz narsalarga aylanib qoladi. Bo'shliq ana shunday yaratiladi, "ochib olinadi".

G'oyaviy bo'shliq ochib olingach, endi uning o'rnini to'ldirish uchun o'z g'oyasini jozibali qilib tasvirlay boshlanadi. Buzg'unchi toyaga xos "yangilik" va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i hamda ko'zi orqali ong va qalbiga kira boshlaydi. Mafkuraviy bo'shliq shu tariqa to'ldira boshlanadi. Yolg'on roya odamlar ongiga kirs, u ham katta kuchga aylanadi.

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, garaz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyasiya (tapiz — qo'l) so'zi, ya'ni «obyekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik mahorat talab qiliyushsh ko'zda tutiladi. Shu sababli, "manipulyasiya"ni ko'chma ma'noda "odamlar bilan obyekt sifatida munosabatga kirishish" deb ham tushunish mumkin. 1969 yil Nyu Yorkda chop qilingan "Zamonaviy sosiologiya lug'ati"da bu haqda "boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan xulqatvorni shakllantirish" deyiladi.

Biz uchun muhim jihati shundaki, ushbu vaziyatda shaxs va uning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni manipulyasiya tushunchasida aks etadi. Chunki, "da'vatchi"ning ta'siri birinchidan shaxsga nisbatan zo'rlik kuch ishlatilmaydi, balki ma'naviy, psixologik xususiyatga ega; ikkinchidan, bu ta'sirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham "islom dini niqobida" degan ibora ishlatiladi; uchinchidan, g'oyaviy manipulyasiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. Shunday ekan, g'oyaviy manipulyasiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan ta'sir texnologiyasining tarkibiy kismi, deb atash mumkin. Ya'ni manipulyasiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targibot va tashviqotdan farqli), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga qiladi.

G'oyaviy manipulyasiya jarayonlari qanday kechadi? Avvalo, g'oyaviy manipulyator (da'vatchi) ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan odam) tasavvurlarini o'zgartirishga olib keluvchi bilimlar bera boshlaydi. Natijada, obyekt (shaxs)ning dunyo qarashida qadriyatlari tizimida da'vatchimanipulyator kutayotgan tartib paydo bo'ladi va yetakchilik qila boshlaydi. Bu esa shaxsning xulqatvoriga ta'sir ko'rsatadi, shaxs o'z xarakteridagi o'zgarishlarni sezmaydi va "men to'g'ri yo'l tutayapman, chunki ...", degan asosga ega bo'lib qoladi¹.

Shu o'rinda Prezident Islom Karimovning "80-yillarning oxirida mamlakatimizda o'zini "do'st",

"dindosh", millatdosh qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofliги uchun kurashga "da'vat" etuvchi ayrim kimsalar kirib keldi... Juda "chiroyli da'vat"lar bilan chiqib, ayrim yoshlarni o'ziga mahliyo qilishga erishdi ham. ... ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining bir to'dasi ekani oshkora bo'ldi...", degan fikrlarini eslash o'rinlidir. Bu o'gitlar bizni nafaqat ogohlikka, balki mafkuraviy kurash maydoniga chorlamoqda.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin. Butun xalqni birlashtiradigan bayroq bo'lmish milliy ROYANI shakllantirish ahamiyatini ifoda etuvchi fikrlar insoniyat tarixining turli davrlarida bitilgan bitiklarda ham o'z ifodasini topgan, uning yorqin ifodasini qadimgi Sharq va islom falsafasining buyuk namoyandalari ijodida ham uchratish mumkin.

Insoniyat tarixida mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, bunga erishilmaganda bu qanday fojialarga olib kelishi mumkinligi haqida bitiktoshlarda qoldirilgan millatga ogohlantirish da'vatlari mavjud. Mana shulardan biri:

Samimiy, nosamimiyni ajratmaysan, kim krttik gapirsa, samimiyni xam tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat silgan xokoningning so'zini olmayin nomnishonsiz ketding.

Kul tigin bitigi

"Azizim, sen dushman so'zlariga darhol ishonib qo'ya qolma, uning so'zlari hiyla va aldovdan iborat bo'lib, u o'z maqsadiga erishish uchun o'zini nihoyatda muloyim qilib ko'rsatadi. Ichki olamini tashqi olami bilan bo'yab ko'rsatadi. Seni gaflatda ko'rgach, tadbir o'qini maqsad nishoniga uradi. U paytda sen uchun choratadbir ko'rish fursati o'tgan bo'lib, hasrat va nadomat yordam bermaydi. Chunonchi aytadilar:

*Dushman ishi avval xiylayu, nayrang
So'ng xujum boshlaydi kiladi garang.
Bu selning yo'llari to'silmasa gar,
Yuzlanar bexisob fitnayu zarar.
Fitna yo'lin bugun to'smasang maxrsam,
Ertaga kuchayar bo'lib mustausam!*

Xo'ja Samandar Termiziy

Xalqchil talqinda mafkuraviy tahdidni — da'vatchining suhbatdoshini o'ziga og'dirib olish uchun qshshnadigan urinishlariga, mafkuraviy immunitetni esa shaxsning "og'masdan", o'zligida sobit va sodiq tura olishiga o'xshatish mumkin. Shuning uchun o'z qarashiga, shaxsiy fikriga ega bo'lmagan ogmachi odamlarni o'zbeklar "betuturiq", "subutsiz", "unga ishonib bo'lmaydi", "ikkiyuzlamachi", "sotqin", "xoin" kabi so'zlar bilan ataydi.

Bu kabi misollar mafkuraviy immunitetni sindirish, bo'shliq hosil qilib, o'z g'oyasini singdirib, xalqning ongi va qalbini egallash, g'oyani ommalashtirishning juda ko'p namunalari uchraydi. Chunki targ'ibotchilar olishuvi, kurashi ekuda uzoq tarixga ega. Bu haqda xitoylik faylasuf va harbiy qo'mondon Sun Szi (e.o. VI asrda) shunday degan edi:

- "Siz raqib mamlakatdagi barcha yaxshi narsalarni buzing, ayniting;
- Raqib davlatdagi atoqli arboblarni sherik qilib olib, jinoyatga boshlang;
- Raqib davlat rahbariyatining obro'sini to'king, qulay paytda ularning jamoat oldida sharmandasini chiqaring;
- Bu ishda o'sha mamlakatdagi eng past, maraz odamlar bilan sheriklik qiling;
- Raqib mamlakat odamlari orasida kelishmovchilik janjal chiqaring;
- Yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang;
- Hukumatni yaxshi ish yuritishiga har qanday yo'l bilan qarshilik ko'rsating;
- Raqib qo'shinlarining ta'minoti, tartibiga to'siqlar qo'ying, buzing;
- Askarlarini qo'shiq va kuyga oshifta qilib, irodasiz qiling;
- Dushmaningizning an'analarini qadrsizlantiring, xudolariga ishonchini sindiring;
- Buzuq ayollarni yuborib, ularni yanada kuchliroq ayniting;
- Raqib tomon haqida ma'lumot olishga, bu ishda ular orasidan sheriklar topishga, ularga pul to'lashda juda saxiy bo'ling;
- Umuman pulni ham, va'dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalarni beradi".

O'zbeklar bir-biri bilan salomlashgach, "Nima gaplar?" yoki "Egan-ichganing o'zingga, ko'rganeshitganingdan gapir", — deydi.

Ayniqsa, o'z shaxsiy manfaatlariga tegishli muammolarga duch kelganlarida odamlar uning sabablarini axtara boshlaydilar. Shu sababli, gazetalar sharhi, televideniyaning kelasi hafta ko'rsatuvlari haqidagi xabarlari, iqtisodiyot, masalan, valyuta kursi, siyosiy hayot yangiliklari oldindan tarqatiladi. Xar bir kishi, o'ziga kerakli ma'lumotni tanlab tinglaydi, eshitadi va o'z savollariga javob topadi. O'zining suvga chanqogani qondirgani kabi "axborot chanqog'ini" ham qondiradi.

Agarda rasmiy ommaviy axborot vositalari odamlarda tug'ilgan savollarga javob topib bera olmasa, odamlar bu savollarga javoblarni o'zlari "to'qiydilar". Bu tarixda ko'p ko'rilgan.

Mafkuraviy kurashlar tarixida targibot usullaridan, jumladan, mishmishlarning kelib chiqish sabablari, maqsadlari haqida ulug' allomalarimizdan Abu Rayxon Beruniy bundan ming yil burun o'z davri uslubida shunday yozgan edi:

"Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolgoshshk tusini oladi. Chunki odamlarning maqsadlari xilmaxil; xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p"¹, — deb yozadi va mishmish tarqatuvchilarning yolg'on so'zlashi zahirida aniq maqsad, garazli manfaatlar yotishi haqida shunday deydi: "...bir kishi o'zini ko'rsatish maqsadida boshqa bir zid jinsni ayblab, yolg'on gap yoyadi, chunki u shu bilan (zid jins ustidan) galaba qozongan va o'z istagiga erishgan bo'ladi.

Bu ikki xil xabarning yomon istak va g'azab taqozosidan kelib chiqishligi ma'lum. Ikkinchi bir kishi esa o'zi sevadigan bir tabaqaga minnatdorchshshk bildirmoqchi bo'lib yoki yomon ko'radigan bir sinfni xafa qilmoqchi bo'lib, ular o'rtasida yolg'on xabar tarqatadi. Bu xil xabar tarqatuvchi avvalgi xabar beruvchi "muxbirga" yaqin bo'ladi. Chunki bu xabarni do'stlik yoki dushmanlik natijasida tarqatgan bo'ladi.

Uchinchi bir kishi o'zining past tabiatliligi sababli biron yaxshilikka erishish yoki o'zining yuraksiz va qo'rqokligi sababli yomonlikdan qutulish uchun yolg'on xabar tarqatadi.

Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'chen xabar tarqatish o'rnapshb qolib, go'yoki unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va yolg'on xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuv fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi. Ba'zi kishi (yolg'on xabar tarqatuvchiga) taqlid qilib, bilmasdan yolg'on xabar tarqatadi....".

XIX asrning ikkinchi yarmidan o'zbek xalqi milliy madaniyati, ma'naviyati taraqqiyotida mustamlakalik davri boshlandi. Mustamlakachshshk siyosatida Turkistonni nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki ma'naviy mustamlakaga aylantirish rejasi turardi. Buni ularning o'zlari ham yashirmas edilar. Bu haqda M.A. Muropiyev 1882 yil 30 avgust kuni Toshkent O'qituvchilar seminariyasidagi yig'ilishida "...musulmonlarimiz maorifining asosida ularni ruslashtirish... islomni buzish... umuman diniy jihatlarni buzish... yotmog'i lozim (344151) degan bo'lsa; Turkiston general gubernatori I.A.Kuropatkin esa kundaliklarida; "Biz 50 yil tubjoy aholini taraqqiyotdan chetda... tutdik", — deb qayd' etgan edi (344-165).

Agar fashizm o'z mafkuraviy xurujlarini "endi bosib olinishi kerak bo'lgan xalqlar"ga qarshi tashkil etgan bo'lsa, sobiq mustabid tuzum egallab olingan aholi uchun tuzdi. Lenin mafkurani odamlar tafakkurini o'zgartirishda qanchalik kuchli omil, kuch ekanligini hisobga olib, "partiya siyosiy faoliyatda ideologiyaga tayangan va tayanadi", deb uqtirdi. Sobiq sovet mafkurasi o'zbek xalqining "eski odatlarini yo'qotish" shiori ostida milliy g'ururni, mustaqillik g'oyasi, uning kurashchilarini mafkuraviy zaiflashtirish maqsadida maktabdan tashqari minglab ma'rifiy-siyosiy oqartuv bo'limlarini ochdi. O'zbek xalqining tafakkurini sovetlashtirishga bunday yondashuv ularning manfur maqsadlariga tezroq yetkazdi: sovet dekretlari, partiya dasturi, Konstitutsiya tarkibotiga bag'ishlangan mitinglar, miting konsertlar, tashviqiy sudlar, tashviqiy mavsumlar, qishloqlarda yurib sho'ro tuzumi mohiyatini tushuntirishga urinib, teatr, konsert, ko'rgazma, ma'ruzalar, kino, qiroatxonalarni ishga soldi. Agitpoyezd, agatparoxod, klub, "qizil choyxonalar", siyosiy suhbat, "siyosiy kun", disput, kechalar, jangovar varaqalar, "Chaqmoq", kinolektoriy, og'zaki jurnallar kabi targibottashviqotning yuzlab usullaridan foydalanib, makkor sho'ro xalqimizning ongiga soveting soxta g'oyalarini singdirdi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida fashizm esa o'zining "ommaviy psixologik qirgin quroli"ni yaratdi. Uning nishoni insonning ongi, tuyg'ulari va ularga tayanuvchi ma'naviy, mafkuraviy immuniteti edi. Gebbelsning "targ'ibotchilar qo'shini" ana shu ong va tuygularni hamda ularga tayangan immunitetni zabt etishga kirishdi.

Nasistlarning targ'ibot vazirligi targabotchilari ovozi soxta nazokat, joziba barq urdi. Yolg'on va aldov me'yori oshirildi. Sodda, mo'minqobil sharqliklarning hushyorligini susaytirish maqsad qilib qo'yildi. Shu maqsadda ular Sharq xalqlarining "ogir ahvoli"ga "qaygurib", mustamlakachilikdan

qutshshshlari (o'sha paytda sharq mamlakatlarining ko'pchiligi Angliyaning mustamlakasi edi) uchun o'z "begaraz" yordamlarini taklif qildilar.

Vatan xoinlarini yollab, ulardan yozma va ogzaki targibotda foydalanildi. Maqsad xalqni o'zlariga og'dirib, sherik qilib, undan so'ng uni qulga aylantirish edi. Agar busyang iloji bo'lmasa, bu ish hyech bo'lmasa, sharq xalqlarining fashizmga qarshi birlashuvining oldini olishda asqotishi kerak edi. Masalan, fashistlar o'zlarining Berlin va Rimdan uzatiladigan radioovozlarida milliy ozodlik kurashi olib borayotgan "do'st Hindiston xalqi"ga samimiy hurmatlarini, boy va qadimiy hind madaniyatini juda sevishlarini, Hindistonni Angliya mustamlakachiligidan ozod qilish ishtiyoqida ekanliklarini" har kuni takrorladilar.

Shuningdek fashist mafkurachilari ham islom dinini niqob qilib, foydalanishga urindi. Ular o'sha paytlarda ayrim Sharq mamlakatlarida panislomizm g'oyalari ko'tarilganligini bilib olishdi. Natijada, barcha sharq mamlakatlarini yagona panislomizm bayrogi ostida (Germaniya va Italiya homiyligi ostida) birlashtirishga harakat qilishdi. Maqsad aniq edi: yo o'ziga sherikka aylantirish, yo bo'lmasa, sharq mamlakatlarining fashizmga qarsh birlashuviga yo'l qo'ymaslik ularni tushovlab turish edi.

Targibot shu qadar andishasiz ediki, ular nasistlarni azaldan musulmonlarning homiysi, g'amxo'ri bo'lib kelganliklarini, shu sababli Mussolinining xalifalik davlatini tuzib jamiki musulmonlarning rahbari bo'lishga rozi ekanligini e'lon qildilar. Bu haqda "Popolo d'Italiya" gazetasi o'zining 1937 yil 20 mart sonida: "Musulmon dunyosi azalazaldan yagona dohiy, homiyga muqtoj bo'lib kelmoqda... Bo'shab qolgan haliflik "islom dinining rahnamosi" lavozimini duche (Mussolini. M.Q) o'z zimmasiga olishga tayyor", Deb yozgan edi. Biroq sharq xalqlari bu aldovdan o'zlarini Himoya qiluvchi mafkuraviy himoya tizimi (hozirgi ibora bilan aytganda mafkuraviy immuniteti)ni yarata oldilar. Bu haqsa Suriyada chiqadigan "At-Tariq" (Yo'l) gazetasi 1942 yildagi 6sonida "Fashizmga qarshi kurashish har bir arabning milliy burchidir! Biz fashizmga qarshi kurashar ekanmiz, bizning hayotimizga xavf solayotgan tahdidga qarshi kurashamiz", degan umummilliy shiorni ko'tarib chiqdi. Sharq mamlakatlaridan fashist da'vatchilarini birin-ketin haydab chiqara boshladilar.

Yakka mantiq, rasmiylik yopiq jamiyat, tabaqalashtirilganlik sistemalilik tazyiq, ommaviylik prinsiplariga qurilgan kommunistik mafkura davri o'tgach, ayrim mamlakatlarda mafkuraga qo'shib, targ'ibottashviqot tizimidan ham voz kechildi. Chunki, mustaqillik qo'lga kirgach, yosh davlatlar o'z mustaqilliklariga tahdid solayotgan ichki va tashqi xavflarni dastlab kutmadilar, shu sabab ularga qarshi tayyorgarlik ham ko'rmadilar. Bunday vaziyat, vaqt va imkoniyatdan foydalangan siyosiy guruhlar o'z g'oyalarini targ'ibtashviq qilishda ancha ishlarni qilib olishadi. Natijada, nafaqat odamlarning mafkurasida, balki ayrim davlatlarning axborot maydonida ham bo'shliq paydo bo'ldi. Bu tezda o'z asoratlarini ko'rsata boshladi. Chunki yagona axborot maydoni ta'minlanmagan edi. Din niqobida hokimiyat uchun kurash xalqlar qalbi va ongini egallashga harakat ham shunday vaziyatda boshlandi. *"Tomchida kuyosh aks etgani singari alozumda olingan a;ar bir shaxsda millat yashaydi.."*

Gaybullox AsSalom

Xavfsizlik va barqarorlikka taxdidlar xamda mafkuraviy immunitet .Hozirgi voqyelikda Milliy istiqlol g'oyasi va yot mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy qarshi turish, psixologik urush shakllarida kechmoqda. Yot mafkuralar mafkuraviy kurashlarning ming yillik uslublarini, shuningdek zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot maydoyugai egallab olish; mafkuraviy diversiya, siyosiy indoktrinasiya, mafkuraviy infiltrasiya, dezoriyentasiya, mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarini qo'llash orqali xalqimizda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg'otishga, davlat siyosatini obro'sizlantirishga, odamlarning o'zini Vatan, millat himoyasidan chetga tortishga, loqaydlikka erishishga intiladilar. Bunda ular biror xususiy faktni umumlashtirish (ekstralolyasiya), yolg'onni haqiqatga o'xshatib tasvirlash, kichik muammodan katta yolg'on yasash, bir narsani takrorlayverish, tuyguni aqldan ustun qo'yish, tinglovchining shaxsiy manfaatni birinchi o'ringa qo'yib, (unga do'st bo'lib ko'rinish) "hasratlashish", hukumatlarni xalqlarga yomon ko'rsatish, millat dushmanlariga rahmdillik hamfikrlik tuygularini uyg'otish, odamlarga tanish ma'lumotlarni ishlatib «falon joyda falon voqyea bo'ldi», deb rostga yolg'onni ulab yuborish uslublaridan mafkuraviy kurashda foydalanayapti.

Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni yengishi uchun o'zida ogohlik mafkuraviy xavfsizlik to'kislik jangovarlik safarbarlik umummilliy birlik kabi ijtimoiy sifatarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun Milliy istiqlol mafkurasining yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzgunchi g'oyalar mohiyatini fosh qilishga qaratilgan targ'ibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar

mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga yetkazish, jaholatga qarshi ma'rifat tarqatish uslublaridan doimo va hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi.

Sobiq sovet mustabid tuzumi davrida yosh avlodlar ongini kommunistik tarbiya o'z iskanjasida tutdi. Kommunistik mafkura insonlar ongi va qalbini egallagan edi.

XXI asr boshida mafkuraviy kurashlarning Sho'ro davrida Iso'rilmagan, yangi taxdidlar bilan va ilmiytexnologik asosga qurilgan tarshbotlar kurashi davri, deb ham tavsiflash mumkin. Chunki Sho'ro davrida qo'llanilgan targibottashviqot, mafkuraviy kurash usullari hozir ishlamaydi. Bizga tahdid solayotgan mafkuralar "maftunkor" ko'rinsada va "ommabop" bo'lsada, puxta, ilmiy texnologik asosga qurilganligi sir emas. Chunki ularning targiboti oldingi va hozirgi zamonaviy mafkuraviy kurash usullariga ega. Faqat g'oya, maqsadning shakli o'zgargan. Masalan, ana shunday g'oyalardan biri "xalifalik davlatini tuzish" g'oyasidir. Bu toyaning mazmun va mohiyat jihatdan zararli ekanligani chuqur anglash zarur.

«Xalifa» so'zining lugaviy ma'nosi — «o'rinbosar», terminologik ma'nosi «musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshligi» deb talqin etiladi. Xalifalik davlati mutlaq monarxiya tipidagi davlat bo'lib, Davlatni xalifa boshqaradi. Xalifalik davlatini boshqaRuv tizimi islomshariat qonunlari bilan belgilanadi. "Xizbuttahrir" da'vo qilgan xalifalik davlati esa "Islom Nizomi" nomli kitobida bayon qilingan qonunlarga asosan boshqariladi. Vaholanki, Paygambarimiz Muhammad (s.a.v.) dan rivoyat qilingan ushbu Hadisi sharifda aniq aytilgan: "Xalifalik mendan so'ng, ummatim ichida 30 yildir, undan keyin podshohlik bo'ladi". Bu mo'tabar sahih Hadiyo Imom Termiziy va Abu Dovuddan rivoyat qilingan. Hozirda "Xizbut-tahrir" tarafdorlari minglab begunoh kishilarning nohaq qoni to'kilsada, xalifalik barpo etilishini majburiy, deb da'vat etmoqdalar. Ularning bunday xatti-harakatlaridan ko'zlangan maqsad konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan agdarishdan boshqa narsa emas. Shu sababli ulardan sof islomiy qadriyatlarimizni, o'zbekligimizni (chunki Xalifalik davlatida o'zbek degan so'z o'chirib tashlanadi, davlat tili — arab tili, poytaxt ham boshqa joylarda bo'ladi), otobobolarimiz dini haqiqiy islomni himoya qilishga qodir bo'lishi muhim. Shunday lahzalarda beixtiyor olovqalb Cho'lponning vatanparvarona xayqirig'i esga tushadi: *"...Ulardan bizga do'st yo'k... Bizning do'stimiz — o'zimiz! Bizning do'stimiz — millat! Ular — mgshlat dushmanlari... Biz ularga dushman! Shuni unutmangiz!"* («Kecha va kunduz»). Millatni, Vatanni, otobobolarimiz iymonini, o'zbekligimizni, mustaqilligimizni himoya qilish har bir fuqaroning burchidir. Agar ularning ruhlarni chirqiratib, millatni, Vatanni din niqobidagi yovuz g'oyalardan himoya qila olmasak nima bo'ladi? Qaytib ozod bo'la olmaymiz. Uzbek ham bo'la olmaymiz, Vatanda begona bo'lamiz. Chunki, Xalifaga o'z otobobosi udumlarini unutgan manqurtlar kerak. Ular xalifaning paxtasini ekishi, terishi kerak. Ularning mehnatidan xalifalikka oltinlar oqib borishi kerak. Xalifa esa o'zi bu dunyo lazzatini suradi. Qullariga U Dunyo lazzatlarini beradi. Aks holda xalifalik g'oyasi bunchalik siyosiy maqsadlarni ko'zda tutmagan bo'lardi. Bu dunyo, o'tkinchi dunyo saodatiga qiziqmas, kurashmas edi. Toatibodat, besh vaqt namozga da'vat qilib qo'ya qolar edi. Shunday emasmi?!

"Xizb ut-tahrir" sunniylik doirasidagi diniy-siyosiy partiya bo'lib, 1952 yilda Quddus shahrida tashkil etilgan. Bu partiya falastinlik Taqiyiddin Naboxoniy (1909-1978) tomonidan, "AlIxxvon al musliman" rahbari Sayid Qutb bilan kelisha olmay qolganlaridan keyin tashkil etilgan.

1952 yilda Taqiyiddin Naboxoniy tomonidan yer yuzining musulmon davlatlarida mavjud bo'lgan tuzumni o'zgartirib, "xalifalik" davlatini tuzishlik va bu maqsadni amalga oshirishlik uchun "Islom dini" niqobi ostida "Xizbuttahrir" (Ozodlik) partiyasiga asos solinib, bu partiyaning idoraviy to'plamlari va boshqa qonunlari ishlab chiqilgan edi. Uning a'zolari yoshlarni diniy fanatizm va ekstremizm ruhida tarbiyalashning barcha usullari — da'vat, ishontirish, baraqa va mishmishlar tarqatish, halqa dars uslublarini qo'llab, fuqarolar o'rtasidagi, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirishga harakat qildi. Ular go'yo faqat "haqiqiy" musulmonlar hokimiyatga kelsa, "islomiy tartib"ni o'rnatish uchun keskin va agressiv harakatlarga imkoniyat yaratiladi, deb o'ylaydilar.

Bu harakatlar mohiyati haqida Prezident Islom Karimov "Insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, buzgunchi kuch, hatto, fanatizm (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Aynan fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'liqini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar"¹, deya alohida ta'kidlaydi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi o'rnini hisobga olib, ular diniy oqimlar O'zbekistonda rivojlantirilsa, buning ta'siri tezda Markaziy Osiyoga yoyilishga umid qiladilar. Chunki diniy allomalar ayni Movarounnahrda chiqqanligi, bu o'lka xalqi milliy xarakteri, ma'naviyatining shakllanishiga

sezilarli hissasini qo'shganligini biladilar. Shu asosda ular diniy niqob ostida yoshlarning mafkuraviy immunitetini susaytirib, ularga davlatimizning demokratik siyosati tamoyillarini qoralab, davlat va xalq o'rtasida ziddiyat keltirib chiqarishga umid qiladilar. Shu sababli "Xizbut tahrir" dastlab yoshlarda soxta islomiy fikrlarga ishonchni oshirishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi. Buni Ular saqofiy (tushunchaga oid) amallar, ya'ni siyosiy amaltadbirlaridan eng muhimi, deb hisobladi. Boshqacha qilib aytganda, yoshlarning mafkuraviy immunitetini susaytirish, yengish va o'zlarining soxta g'oyalarini singdirishni birinchi vazifa qilib oldilar.

Bunday soxta g'oyaning ta'siriga tushgan, aldangan bir yoshning xatini e'tiboringizga xavola etamiz:

"Men turli aldovlarga uchib, "Hizb ut Tahrir"dek manfur oqimning qora girdobiga tushib qolganman. Dinni o'rganishga bo'lgan qiziqishim va bu yo'lda qabih niyatli "soxta mulla"lar da'vatiga ko'rko'rona ergashganim tufayli, oxiroqibatda, xiyonatkor kimsaga aylandim. Nadomatlar bo'lsinkim, biz yopshar Olloxding buyuk ne'mati bo'lgan tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetmadik. Maktubimni yo'llashimdan maqsad, halihanuz yoshlarni yo'ldan urayotgan kimsalarning qora qilmishidan tengdoshlarimni ogoh etishdir. Mening qismatim gafpatda qolgan tengdoshlarimga saboq bo'lsa, ajab emas.

1999 yilning oxirlarida Laziz meni Saidkarim degan bolaning uyiga taklif qildi. U yerda Saidkarim besholti nafar bolaga "Islom nizomi" degan kitobdan dars o'tar edi. O'sha kungi dars so'ngida u: "Mana shu bolalar ham qasam ichib, "Hizb ut Tahrir"ga a'zo bo'ldi, sening o'rtog'ing ham a'zo. Sen ham a'zo bo'lgin", dedi. Hali ilmim yo'qligini tushuntirsam, ilmni keyin olaverishim, qasam ichib, "Hizb ut Tahrir"ga qancha erta a'zo bo'lsam, savobi shuncha ko'p bo'lishi, hozir esa go'yoki savobsiz yurganligim, ilmni ishlatganim bilan savobim yo'qligi kabi gaplar bilan boshimni qanday qilib aylantirib qo'yganligini sezmabman. Shundan so'ng haftada bir marta darslarga qatnaydigan bo'ldim... Hozir o'ylab qarasam, qaysi bir kimsa yozgan "Islom nizomi" kitobini Qur'on bilan tenglashtirar ekanmiz...

"Hizb ut Tahrir"ga asosan maktabda yaxshi o'qimagan, tarbiyasi bo'sh oilalarning farzandlarini da'vat qilardik. Chunki ularni boshqarish juda oson. Ilmli odam "Hizb ut Tahrir"chilarning faoliyati jinoyat ekanligini tushunadi. Ilmi yo'qlar esa o'zlari qilayotgan da'vatlarining mazmunini ham anglab yetmasdi. Yana qanday qilib bozorlarda, aholi ko'p bo'lgan joylarda g'avg'o chiqarish, fitna uyushtirish kerakligi haqida ham aytib berilar edi. Bu ishlar odamlarda davlat tuzumiga nisbatan norozilik tugilib, bizga ko'proq qo'shiladi, "Hizb ut Tahrir" kuchayadi, degan maqsadda qilinar edi.

...Jamoat transportida axrlini davlat tuzumiga nisbatan norozilik keltirib chikarish uchun "ochik da'vat"lar kildik. Endi o'ylab ko'rsam, "Xizb ut Taqrir" boshliklari yuragimizga ko'rkuv solib, jinoyatga undagan ekan. Ilmsizligim meni ana shu yo'lga boshladi..." deydi bu xakda nomini aytmaslikni so'ragan, xidoyat yo'lga kaytgan yoshlardan biri¹.

Odamlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon. Bunda tarshbot subyektlari (targyabotchilar, TV, radio, matbuot) va targ'ibot obyektlari (shaxs, aholi) ishtirok etadi. Targ'ibot va tashviqotning samaradorligi xalq, jamoa siyosiy ongida targ'ibotgacha va targ'ibotdan keyingi darajalar orasidagi farkda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi o'zgarishlar ilmiy yutuqlarga asoslangan holda olib borilsa, targ'ibot va tashviqot samarasini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Mafkuraviy tarbiya samaradorligi, eng avvalo, jamiyatni mafkuraviy tarbiyalashdan natija qanday bo'lishi kerak ekanligini aniq belgilanishiga bogliq.

XXI asrda ham yuyaviy tortishuvlar to'xtamayapti. Shu bois xalqimizning ertangi mafkuraviy birligani ta'minlash g'oyaviy tarbiyaning izchil, doimiy asosga qo'yshshshini taqozo etdi. Prezident I.A.Karimov mafkura jabhasiga oid muhim fikrlarni bildirib, quyidagilarni aytdi. Jumladan, "Mintaqamizda "Hizb ut tahrir" kabi ekstremistik ayirmachilik tashkiloti faoliyati tobora xavfli tus olmoqda. U konstitusiyaviy, dunyoviy davlat tuzumiga qarshi chiqib, o'rta asrlardagi islom xalifaligini tuzish to'g'risidagi bo'limgur g'oyani targib qilmoqda... Lekin, taassuf bilan tan olish kerakki, bu yovuz kuchga qarshi kurashdagi harakatlarimizda Hamjihatlik va izchillik ko'zga tashlanmayapti..."².

Milliy mafkuraviy immunitet har bir yigitqiz, fukarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati, Prezident Islom Karimov asarlarida ko'tarilgan siyosiy g'oyalar, islohotlar yutuqpari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanadi. Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetini besh darajaga bo'lib o'rganish, baholash va shu asosda takomillashtirish mumkin: Bunda:

birinchi, ya'ni mafkuraviy immunitetning kuyi darajasi shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas; buzrunchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd;
ikkinchi darajasi bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarsh ishlatishga tayyor emas;
uchinchi daraja — mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi;
to'rtinchi daraja — asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi; ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immuniteti shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi;
beshinchi — oliy daraja — mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bimalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo hamma joyda faol fosh qila oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'kis xayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'ururning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.
«Sening xavfsizliging, sening xuzurXilovating, sening farovonliging uchun vatan kerak bo'lsa, munosib fusaro bo'l».

K.Gel'vesiy.

Shaxsning mafkuraviy immunitetini, uning ijtimoiysiyosiy faolligi, pozitsiyasini mamlakat, davlat uchun favquloddagi holatlarda kuzatish mumkin.

1999 yil 11 may. Yugoslaviyadagi Xitoy elchixonasi yoniga bomba tushdi.

Xitoy shaharlarida o'n minglab yoshlarning norozilik namoyishlari boshlandi. Odamlar ko'kraklariga "Men-inshonaman! Meni ot" degan plakatrasmlarni yozib chiqishdi. Boshqa mamlakatlardagi musofir xitoylar ham shunday namoyishlar uyushtirishdi. Xitoy yoshlarining milliy birligi, milliy oriyati, siyosiy, mafkuraviy birligi namoyon bo'ldi. Milliy davlatchilik vatanparvarlik fidoyilikni o'zidamujassam qilgan Xitoy milliy xarakteri o'zini ko'rsatdi. Bu birlikka xavas qilish kera. O'zbek xarakterini millat, davlat, Vatan sha'ni daxlsizligi uchun istagan paytda namoyon bo'ladigan ishonchli fazilatlar bilan qurollantirish kerak¹.

Mafkuraviy immunitet shaxs tomonidan Vatan, millat uchun ko'ngilli, g'oyaviy asoslanib amalga opshriladigan kundalik ishlarda namoyon bo'ladi. Bu faollik milliy birlik ma'naviy yuksalishga xalaqit berayotgan sifatlar, yot qarashlar, milliy xavfsizligimizga, ichki va tashqi tahdidlarga ochiq va mardona qarshi turishni ham o'z ichiga oladi Boshqacha qilib aytganda, — Elim, yurtim deb yashashning har bir kishida, jamoada, jamiyatda namoyon bo'lishini anglatadi. Bu esa milliy g'oyani amaliy kuchga aylantirish va buzgunchi mafkuraviy ta'sirlardan aholini, yoshlarimizni himoya qilishning shartlaridan biridir. Zero «Fikr va so'z amaliyotga yo'naltirilganda ularning har ikkisi ham moddiyatga — narsaga aylanadi»².

Yot mafkuralar targ'ibotining «mehribonligi», «xolisligi» va «betarafligi», «yoqimliligi», «do'stonaligi»ning ortida nima yotganini doimo bilishlari lozim. Ya'ni ularning zamirida O'zbekistonning rivojlanib ketishiga qarab muntazam taktikasini o'zgartirib turuvchi jonsarak aqidaparastlik targiboti natijasi va amaliyoti yotganini, ularning an'anaviy fundamentalistik nazariya va royalarni zamonaviy usullarda «jonlantirayotganini» tushunish zarur.

Shu bilan birga, ayrim yoshlar har xil yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganliklarini ham ta'kidlash kerak. Yot mafkuralarni ko'rko'rona qabul qilish zararli.

5 MAVZU.
O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY G'OYANING
ZARURLIGI VA AHAMIYATI
Reja

1. Mustaqillikni mustaxqamlashda milliy g'oyadan ko'zlangan maqsadlar.
2. Milliy g'oya Uzbekiston xalkining asosiy maksad va muddaolarining ifodasi.
3. Milliy istiqlol g'oyasining mustaqillikni mustaxdsamlashda namoyon bo'lishi

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, mavjud muammolarni xolisona tahlil qilish, tegishli xulosa hamda saboqlar chiqarish — milliy g'oyaning zarurligi va ahamiyatining tobora ortib borishini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirish zarurati haqida mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fikr yuritishi tasodifiy hol emas edi. Negaki, "Milliy mustaqil davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urfodatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmroshshk qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar"¹.

Demak milliy g'oyaning zarurligi, eng avvalo, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash uchun zarurdir. Uning zarurati quyidagi maqsadlarni amalga oshirish bilan bogliq holda namoyon bo'ladi.

- oldimizga qo'ygan olijanob maqsadmuddaolarimizga, ya'ni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish;
- eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish;
- g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- uzoq davrlar mobaynida odamlar ongida hukmron bo'lgan begona va yot g'oyalarning yanada qaytadan tiklanishiga yo'l qo'ymaslik;

— xalqimiz tabiatiga zid bo'lgan o'zga g'oyalardan, ayniqyesh avlodni himoya qilish;

— har qanday tajovvuzkor g'oyalarga qarshi tura oladi^v; har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish zarur

ratining mustaqillikni mustahkamlashdagi o'rnini anglash orqali harakat dasturiga ega bo'lish;

— mustaqil davlatimizning har bir fuqarosida Vatan taqdiri uchun mas'ullik tuyg'usi bo'lishi uchun ham zarur.

Mustaqillikni mustaxdamlashda milliy g'oyadan ko'zlangan maqsadlarning keng qamrovli ilmiynazariy va amaliy yo'nalishlari Prezident Islom Karimovning asarlarida, nutq va ma'ruzalarida o'zinint aniq konseptual ifodasini topgan.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar yuz bermoqsa. Ana shunday sharoitda xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiysiyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim sharti hamda zaruratiga aylandi.

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi va uning ahamiyati ham ichki, ham tashqi siyosatimiz istiqbollari, samaradorligi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan milliy ROYANING zarurligi jamiyatimizni taraqqiy topgan demokratik mamlakatlardagi kabi erkin va farovon hayot barpo etipsh bilan ham bogliq. Demak milliy g'oyaning negizidagi muhim ustuvor maqsad mustaqillikni bundan buyon ham asrabavaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaverar ekan, uning zarurligi hyech bir davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Hayotiy kuzatishlar ba'zan ziyolilarimiz o'rtasida ham bizga milliy g'oya, milliy mafkura nima uchun, kim uchun kerak uning ma'nomohiyati nimadan iborat, degan muhim masalaga yana bir bor oydinlik kiritish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bunda, ya'ni Milliy royada O'zbekiston xalqining mamlakatimiz rivojiDa belgilab olgan asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi Mujassamlashgan.

Birinchidan, o'zining kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarurligi bilan bogliq;

Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat, avvalo, aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmogi lozim. Ya'ni, oldin davlat qurilishi va undan keyin mafkura paydo bo'lishi o'zi g'ayritabiiy hol. Buni yaxshi anglab olishimiz lozim. Ya'ni, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi"¹. Demak o'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrar.

Ikkinchidan, milliy g'oya O'zbekiston xalqining asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi sifatida shuning uchun ham zarurki, odamlar ongini, tafakkurini o'zgartirmasdan turib, ko'zlangan oliy maqsad — ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon hayotni barpo etib bo'lmaydi. Buning uchun esa, odamlar muayyan g'oyaga ishonishi va tayanishi zarur. Bu jarayon o'zo'zidan harakatga kelmaydi, albatta. Negaki, keng xalq ommasini biron bir g'oyaning ilgor va insonparvar ekaniga ishontirmoq uchun, avvalo, mazkur toyaning to'g'ri, hayotiy va ilgor ekanligiga ishontirish zarur. Ishontirmoq uchun uning ilmiy va hayotiylikiga alohida e'tibor qaratish bilan birga milliy g'oyaning o'zi mamlakatimiz xalqining asosiy maqsad va muddaolari hamda manfaatlarini ifodalashi kerak.

Uchinchidan, milliy g'oyaning zarurligi millatning o'zligini to'la anglash jarayoni bilan bogliq. Negaki, millat o'zligini to'la anglamas ekan, bironbir buyuk o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Milliy o'zo'zini anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga emas, balki o'zligini anglagan millatlarning ma'rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Ana shunday o'ta murakkab vaziyatda milliy o'zlikni anglashda milliy g'oyaga asosiy tayanch kuch, ilmiynazariy va amaliy dastur sifatida har bir insonning ruhi, kayfiyati, hissiy kechinmalariga kirib borish orqali uning qalbi hamda ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bu milliy g'oyaning xalq qayotiga yaqin, unga bevosiyata daxldor ekanligini ta'kidlash lozimdir.

Demak O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyada bugungi hayotning eng dolzarb muammolari, uning strategik maqsadlari bilan dialektik boglanishi uning yashash shartidir.

To'rtinchidan, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi yana bir muhim holat bilan, ya'ni bugun bizning tarixiy o'zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariga asoslangan demokratik tuzumga o'tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda.

"Bu o'tish davri o'ziga xos, juda katta g'ov va to'siqlarga duch kelishi, qattiq kurashlar orqali kechishi barchamiz uchun ayon bo'lmog'i darkor. Xalqimiz va jamiyatimizni mana shu davrida yangi ufqlar sari boshlash, da'vat qilishda maqsadlarimiz aniq bo'lish kerak. Bunday maqsadlarga esa, avvalo, chuqur o'ylangan va puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin". Demak milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlash ROYASINING o'zagi bo'lgan — tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishontirish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qiladi.

Mustaqillikni asrabavaylash, himoya qilishda milliy yuyaning o'rnini boshqa biron bir omil bosolmaydi. Shu nuqtai nazardan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ma'naviy jihatdan ta'minlash, bugungi kunda mamlakatimiz taqdiri uchun o'ta dolzarb masaladir. Buning yorqin ifodasi Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasi (2004 yil 29 aprel)dagi "Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuchqudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bogliq"ligi haqidagi nutqiDa hamda Oliy Majlisning mamlakatimiz fuqarolariga muRojaatnomasida bayon etdi. Xususan, unda shunday deyilgan: "Bugun bashariyat o'ziga xos va ziddiyatli bir davrda yasha. Bir tomondan ilmfan va texnika, yuksak texnologiyataraqqiy etib, insonparvarlik g'oyalari, demokratik qadriyatlar, o'zaro hamkorlik dunyo bo'ylab qaror topib bormoqda. Ayni vaqtda, yer yuzining turli mintaqalarida qurolli mojarolar ro'y berayotgan, xalqaro terrorizmning yangi-yangi xurujlari oqibatida mingminglab odamlarning hayotdan ko'z yumayotgani ham shu zamonning ochiq haqiqatidir"¹.

"Mafkura xar kanday jamiyat xayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'sotishi mukarrar. Q,ayerdaki, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura xukmronlik silishi xam tayin".

"Jamiyatimiz mafkurasi xalkni — xalk, millatni — millat kslishga xizmat etsin".

I.A.KARIMOV

Ma'lumki, mustaqillik tufayli boshqa xalqlar qatori biz ham o'z milliy tabiatimiz va ming yillik an'analarimizga, urfodatlarimizga zid bo'lgan soxta kommunistik g'oyadan voz kechdik. Lekin insoniyat tarixi shu narsani qat'iy ravishda isbotlaganki, mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmas ekan. Qayerda shunday holat yuz bergan taqdirda bo'sh qolgan mafkura maydonini bizga begona, orzuintilishlarimizga mutlaqo yot g'oyalar egallashga urinishi ham tarixan isbotlanganligi, shubhasiz. Agarda yonatrofimizdagi voqyelikka teranroq nazar tashlaydigan bo'lsak tabiiy zaxiralarga boy, geopolitik nuqtai nazardan g'oyat qulay hududda joylashgan yurtimizga ko'z olaytiradigan, bizga ta'sirini o'tkazishni istaydigan turli nosog'lom kuchlar mavjudligini inkor etolmaymiz. "Ular, — deb ta'kidlaydi, Prezident Islom Karimov, — o'z niyatlarini amalga oshirish uchun hiech narsadan tap tortmasligi bugungi kunda ayon bo'lib qoldi. Bu kuchlar katta mablag va zamonaviy qurolaslahalarga ega. Lekin ularning eng yovuz quroli — milliy qadriyatlarimizga to'rri kelmaydigan, eng yomoni, ertaga o'rnimizni egallaydi.

Hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda". Shu o'rinda nega aynan uanimlarimiz hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, oqqorani tanib ulgurmagan yoshlarga qaratmoqda, degan savol tug'iladi. Chunki aynan yoshlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda asosiy tayanch kuch. Ayni paytda, yoshlarimizning ko'ngli ochiq, sodda, ishonuvchan.

Milliy istiqlol g'oyasiyushg mustaqillikni mustahkamlashda namoyon bo'lish jarayoni o'zining bir qator xususiyatlariga ham ega. Ular quyidagilardan iborat.

- Butungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olisyaqin manbalardan tark^ladigan, turli ma'nomazmundagi mafkuraviy kuchlarshshg ta'sirini doimiy ravishda sezib yashashi. Axborot asri, elektronika asri deb atalayotgan XXI asrning bugungi kunida bu ta'sirlardan xoli bo'lish deyarli imkonsizdir. Demak butungi kunda "mafkura poligonlari yadro poligonlari"ga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Bu uning xususiyatlaridan biridir.

- Agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin. Ammo g'oyaviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin.

- Milliy g'oya — millat tafakkuri va ongining mahsuli. Lekin, ayni vaqtda, siyosiy ong darajasi har bir millatning rivojini belgilaydigan omil hamdir. Demak ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib hiech bir jamiyat o'zining oliy maqsadiga erisha olmaydi. Biz ham kishilar ongi va tafakkurini o'zgartirmasdan turib ozod va obod jamiyatni barpo etolmaymiz.

Milliy istiqlol g'oyasi mustaqillikni mustahkamlashda namoyon bo'lishi uchun u o'zida nimalarni mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi lozim.

Milliy mafkura, — avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglashga yordam berishi, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'ygan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

- Jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilmaxil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini mushtarak milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, elyurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan milliy istiqlol g'oyasi — mafkura bo'lishi kerak.

- Milliy mafkura har qanday tajavvuzkor millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqdarni mensimaslik ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor bo'la olishi lozim.

- Milliy ROYA, birinchi navbatda, yosh avlodimizni vatanparvarlik elyurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga milliy ma'naviy qadriyatimizga mos insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qshgashdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'la oladi.

Milliy g'oya Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oyadir.

Demak milliy g'oya, milliy iftixor kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga rayrat qo'shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bagishlaydi.

Mustaqil O'zbekiston uchun, uning taraqqiyoti va buyuk kelajagi uchun endilikda bir qancha muxim vazifa va muammolarni hal etish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ana shunday vazifalardan biri milliy istiqloq mafkurasiga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashdan iboratdir. Milliy istiqloq mafkurasini mustahkamlash zarurligi, fikrimizcha, bir qator shartsharoitlardan kelib chiqadi. Ular asosan quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan dastlabki paytlarda — eski, yagona mafkuradan butunlay voz kechilayotgan, yangi mafkura esa hali ishlab chiqilmagan, ilmiy asoslab berilmaganligi bilan bog'liq edi.
- Umumbashariy tarixiy taraqqiyot tahlili shuni ko'rsatadiki, hyech qanday jamiyat mafkurasiz yashay olmagan. Dunyodagi har bir jamiyatning, har bir davlatning o'ziga xos, o'ziga los keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, tub maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'lgan. Demak odamlar qaysi bir jamiyatda yashamasin nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir bir sog'lom g'oyaga, ta'limotga asoslanib ish ko'rish, faoliyat ko'rsatishi tarixiy zaruratdir.
- Mustaqil O'zbekiston uchun, milliy istiqloq mafkurasining tarixiy zarurati shundaki, demokratik jamiyat qurish uchun uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun o'zimizga xos va mos milliy mafkura suv va havodek zarur. Buni bizga mustaqilligimizning hayotiy tajribasi ochiqravshan ko'rsatib turibdi. Demak milliy g'oya — jamiyat hayotining barcha jabhalarini o'zida qamrab oladi va uning ma'naviy negizining mezoniga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaralsa, kishilarga ma'naviy ta'sir etishyushg asosiy vositasi hamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov keng jamoatchshshkni, olimlar, shoirlar, yozuvchilarni mafkura masalasiga jiddiy e'tibor berishga chaqirib, 1993 yildayoq, ya'ni mustaqillikning dastlabki yillaridayoq "oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiiq etishdir" — deb uqtirgan edi¹.

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi oldida buyuk maqsadmuddaolar, o'ta dolzarb vazifalar turibdi. Uning asosiy maqsadlaridan biri O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat va elat kishilarini barkamol inson qilib tarbiyalash, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishdir. Negaki, jamiyat taraqqiyoti, mustaqillik bilan bogliq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga ommani safarbar etishni milliy g'oyasiz tasavvur etish mumkin emas. Insonning faolliigi uning ilgor, bunyodkor, o'zimizga xos va mos milliy g'oyaga qat'iy amal va e'tiqod qilishiga bogliq. Demak istiqloq mafkurasi butun O'zbekiston xalqining milliy ruhini, madaniy merosini, histuyg'usini, milliy gurur va iftixorini kuchqudratini, orzu-intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ana shunday qudratli omil bo'lgan mafkuraning shakllanishida tarixiy bilimlar, tarixiy xotiralarning ahamiyati beqiyosdir. Shu o'rinda N.Ostroumov afsus bilan aytgan xulosalarini keltirish maqsadga muvofiq: "Beixtiyer o'ylab qolasan kishi, — deb yozadi u o'z kundaliklarida qoloq va ojiz, qurollanmagan begona xalqlarni bosib olishimiz mumkin ekanu, biroq boshqa kamchiliklarimizni hisobga olmaganda, o'zimizga ortiqcha baho berishimiz, beparvo tanballigimiz hamda davlat idora usulidagi qoloqligimiz tufayli ularni boshqarishni bilmas ekanmiz. Biz chet mamlakatlarga nisbatan madaniyatimiz pastligicha qolmoqdamiz... Biz mahalliy aholining na tilini, na urfodatlarini, na dinini o'rgandik".

Mustaqillikni mustahkamlashda O'zbekiston uchun milliy istiqloq mafkurasining tarixiy zarurligi va uning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni yana bir qator mavjud muammolarni hal etish bilan bog'liq. Ular quyidagilardan iborat: birinchidan, milliy istiqloq mafkurasi kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'ururning o'sishi va rivojlanishini ta'minlash omili sifatida mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega; ikkinchidan, milliy istiqloq mafkurasi kishilarda milliy birdamlik va hamjihatlik tuygusini shakllantirish orqali yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalaydi va mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi; uchinchidan, mustaqil O'zbekiston uchun milliy istiqloq mafkurasi xalqni mehnatni sevis va qadrlashga da'vat etish, mehnatsiz rizqnasiba, moddiy ma'naviy boylik va kelajak yo'q ekanligini, mustaqilligimizning barqarorligi va taqdiri ham unga bog'liqligini odamlar ongi va qalbiga chuqur singdiradi.

Milliy istiqloq mafkurasi bir millat o'zbeklarning manfaati bilangina bog'langan emasligini alohida ta'kidlash zarur. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklar, qozoqlar, qirgizlar, tojiklar, turkmanlar, ruslar, ukrainlar, yahudiylar, xullas, Respublikamizni o'zining jonajon Vatani deb bilgan, u bilan faxrlanadigan barcha millat va elatlarning teng huquqligini, milliy g'ururini manfaatlarini himoya qilish mafkuramiz mohiyatida asosiy urinni egallaydi. Shuningdek milliy istiqloq mafkurasi inida

jahondagi barcha ilg'or davlatlar, xalqlar tomonidan e'tirof etilgan umuminsoniy qadriyatlarni, ijobiy ta'riflarni ham hisobga oladi va tayanadi.

Mustaqil O'zbekiston uchun milliy istiqlol mafkurasining tarixiy zarurligi va uning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni — Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mutlaqo yangi g'oyalarning ishlab chiqilishi bilan bir qatorda, bir qancha davlatlarning tajribalari o'rganilmoqda. Fikrimizning isboti sifatida birgina O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlashda 30 ga yaqin xorijiy davlatlardagi qonunchilik tajribalari o'rganilganligini keltirish o'rinlidir. Natijada, kommunistik mafkuradan, sinfiylikdan, partiyaviylikdan xoli bo'lgan asosiy qonun yaratildi.

Mustaqillik tufayli birinchi marotaba Konstitutsiyamizda mafkuralar va fikrlarning xilmaxilligi qaror topishi uchun shartsharoit yaratildi. Masalan, Konstitutsiyaning 12-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilmaxilligi asosida rivojlanadi. Hеч qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emas", deb yozib qo'yilgan. Bu qoida Respublikada ijtimoiysiyosiy barqarorlik va istiqlol mafkurasini ishlab chiqishda hamda mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotidan shu narsa ma'lumki, har qanday SOGLOM yangi g'oya keng jamoatchilikning ongiga chukur singsa, hayotda chuqur ildiz otsa, amaliyotda o'zini to'la oqlasa o'shanda real voqeylikka, katta ijtimoiy kuchga aylanadi, Ayni paytda, odamlarimizda mustaqilligimiz haqida bilim va g'oya, milliy istiqlol mafkurasini to'g'risida tasavvur bo'lsayu, lekin ana shu bilim va g'oya imon va e'tiqodga, dunyoqarashga aylanmasa, bunday mafkuraning zamini bo'sh bo'ladi, mustaqillikni mustahkamlashda, asrab avaylashda amaliy ahamiyati bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan Prezident Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyo'li", "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat", "Yangi uy qurmay turib, eskini buzmay", "Buyuk maqsad yo'lidan ogishmaylik", "O'zbekiston XX asr bo'sagasi: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik sharoitlari va taraqqiyot kafolatlari" "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Jamiyatimiz mafkurasini xalqni — xalq millatni — millat qilishga xizmat qilsin", "Milliy istiqlol mafkurasini xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" va uning Oliy Majlis 2-chaqiriq 9-sessiyasida qilgan ma'ruzasida hamda asarlaridagi bebaho ilmiy-nazariy qoidalar, dasturiy yo'lyo'riqlar xalqimizning g'oyaviysi siyosiy, umuman, butun ma'naviy dunyosini milliy istiqlol g'oyasi negizlari asosida boyitishda, unga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashda, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Ushbu kitoblarda mustaqilligimizni mustahkamlashning eng dolzarb muammolari, nazariy asoslari, ilmiyamaliy yechimlari chuqur va har tomonlama yoritilibgina qolmay, ayni bir paytda milliy istiqlol mafkuramizni odamlar ongi va qalbiga singdirishning yo'lyo'riqlari ham ko'rsatib berilgan.

Biroq bu ancha murakkab, mas'uliyatli jarayondir. Shoshma shosharlik qilish, o'ylamasdan ish tutish, o'zibo'larchilik asosida harakat qilish, yuksak mas'uliyatni unutib qo'yish milliy istiqlol mafkurasini turmushga joriy etish masalasiga katta ziyon yetkazishi hеч gap emas. Bundan juda ehtiyot bo'lmoq lozim. Chunki "Mafkura — o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir"¹. Shu o'rinda biz yana insoniyat jamiyati o'z taraqqiyotida erishgan barcha yutuqlar, eng avvalo, umum- milliy mafkuraning barchani birlashtiruvchi kuch bo'lganligini ta'kidlamochimiz. Prezident Islom Karimov bu masalaning dolzarbligini Oliy Majlisning 2-chaqiriq I sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida (22 yanvar 2000 yil) "Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat. Bu — lo'nda qilib aytganda, rivojlangan davlatlarning tajriba va taraqqiyot modellaridan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmagan holda, ularga xos yuksak hayot darajasi va sifatiga erishish demakdir. Bu mamlakatimizda millati, tili va dinidan qat'iy nazar har bir insonning barcha xukuq va erkinliklari kafolatlanadigan, farovon turmush zi ta'minlanadigan demokratik rivojlanish yo'lini izyl davom ettirish demakdir". Bu borada quyidagi muhim yasalarga alohida e'tibor berildi:

- Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish. Bunda jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qaramaqarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirsak hayotimizning barqaror va mustaxdam taraqqiyotini mukammal kafolatlagan bo'lar edik. Doilliy istiqlol mafkurasini va uning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni, eng avvalo, mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi bilan bog'liqdir. Bu borada Prezident Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida quyidagi vazifani qo'ydi: "Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak.

Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim.

- Amaldagi ko'ppartiyaviylik — bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahsmunozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir"¹. Biroq, bizning fikrimizcha, o'tish davrida, har qanday jamiyatda bo'lganidek muxolifat, basharti u jamiyatni yangilashning tashkilotchisi bo'lishga intilayotgan bo'lsa, aholining muayyan ijtimoiy qatlamlari va guruhlarining manfaatlari va intilishlarining haqiqiy ifodachisi va himoyachisi bo'lishi lozim.

- Muxolifat konstitutsiyaviy mezonlar doirasida faoliyat ko'rsatib, aniq dasturiy hujjatga ega bo'lishi kerak. Ana shu dasturiy maqsadlaridan kelib chiqib, aholini, ayniqsa, saylov davrida, o'zi taklif etayotgan islohotlar va yangilanish yo'li hozirgi sharoitda jamiyat uchun eng to'g'ri va eng maqbul yo'l ekanligiga ishonтира olishi lozim.

- Xaqiqiy muxolifatning vujudga kelishi uchun, uning

hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatimizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqa oladigan muxolifat bo'lishi uchun siyosiy vaziyat va barqarorlikni ta'minlovchi mexanizm va sistemalar kuchli bo'lishi kerak. Bugungi kunda barcha soglom fikr yurituvchi, mustaqilligimizni mustahkamlash va Vatanimizning buyuk kelajagi uchun kurashayotgan kishilarning barchasi siyosiy muxolifatni, aynan shunday holdagi muxolifatni ko'rishni istaydi. Albatta, buning uchun matbuot, axborot vositalari demokratik tamoyillarga tayanib astoydil ishlashi lozim.

Binobarin har bir davlat, jamiyat o'zi bajarayotgan tarixiy vazifani asoslovchi va barcha ijtimoiy qatlamlar, millatlar va elatlar, diniy e'tiqodlar vakillarini shu vazifa atrofida birlashtiruvchi, jipslovchi umummilliy mafkuraga ega bo'lganlar. Chunki shunday qilingandagina, birinchidan, biron bir mafkura davlat mafkurasi darajasiga chiqmaydi. Ikkinchidan, bunday ish umummilliy mafkurani yanada boyitishga xizmat qiladi, uning har bir fuqaroga yetib borishini ta'min etadi. Bunday fikrga kelishimizning ilmiynazariy asosi, uchinchidan, hozirgi davrda ilg'or davlatlarda barcha ijtimoiy qatlamlar o'z g'oyalarini demokratiya, insonparvarlik ijtimoiy adolat qoidalari hamda talablari asosida yaratishga intilayotganliklaridir. Ularning orasidagi murosasizlik o'rniga har bir masalada *konsensus*, ya'ni murosayumadora tamoyillaridan kelib chiqish tobora ustun kelmoqda,

Mustaqil O'zbekiston xuddi shu yo'ldan bormoqda. Bu mafkura xalqimiz tarixini, madaniyatini, falsafasini, axloqini, siyosiy ongini, badiiy didini, diniy an'alarini va kelajak istiqbollari aniq belgilab berishi bilan ham alohida ajralib turadi. "O'zbekiston Rossiyadan keltirilgan kommunistik mafkurani qabul qilmaydi, qabul qila olmasdi ham. Yevropada ildiz otishi mumkin bo'lgan narsa Sharqda unib o'sa olmaydi. Buni hamisha hisobga olmoq kerak. Bu o'rinda Sharqning turmush tarzini, ruhiyatini, falsafasini, uning buyuk Islom dinini hisobga olmoq zarur. Asosiy vazifamiz hyech qanday ijtimoiy larzalarsiz, ochlik qashshoqliksiz, odamlarga ziyon yetmaydigan tarzda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishdan iborat. Bu ma'noda ham O'zbekistonning o'z yo'li bor".

Bu mustaqilligimizning o'ziga xos poydevoridir. Shunga tayangan holda qurilayotgan jamiyat mustaqil va mustahkam bo'ladi. Demak mustaqillikni mustahkamlashda O'zbekiston milliy istiqloq mafkurasining ilmiynazariy jihatlarini quyidagi xulosalarda o'z ifodasini topadi:

Mafkura O'zbekiston jamiyati hayotida juda zarur, chunki mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar.

— O'z poyoniga yetgan XX asrda yashagan zamondoshlarimizning ko'p sinovlar, azobu uqubatlar, xatolar fojialar, urushlar, qatag'onlarni boshidan kechirishining asosiy sabablaridan biri YEYOYAVIY kurashlar, milliy madaniy meros va qadriyatlarni inkor etish, o'zga g'oyalarni zo'rlab kiritish zaminida ro'y berdi. Bu haqiqatni hyech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak.

— Insoniyat tarixida axborot asri deb tan olinayotgan, ya'ni XXI asrda ham, turli mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ko'ra shiddatli tus olmoqda. Darhaqiqat hozirgi davrda dunyoda ikki qaramaqarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil maqsad va manfaatlarini ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Natijada, bugungi kunda ham ba'zan birbiriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahsmunozara doirasidan chiqib qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda. Bu mustaqillik uchun katta xavfxatardir. Ana shunday fojialarning oldini olish, ularni tinch yo'l bilan Hal etishning birdan bir vositasi mafkuraviy tahdidlarDan saqlanishdir, o'z milliy istiqloq g'oyasiga ega bo'lishDir. Negaki, g'oyaviy kurash va tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad — inson, avvalambor, yoshlar

qalbini egallash, ularni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Prezident Islom Karimov iboraot bilan aytganda, "fikir qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir"¹. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, axborot va elektronika asri deb atalayotgan yangi XXI asrd_a inson har qachongidan turli ma'nomazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'siridan xoli bo'lishi deyarli imkonsizdir. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Ikkinchidan, mafkuraviy kurashning kishilarni doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin. Ammo g'oyaviy tazyiq, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyinligi bilan ajralib turadi. Uning ilmiynazariy asoslari haqidagi yana bir xulosa bu tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmaganidek mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmasligidir. Bu mustaqillikni asrabavaylash, mustahkamlashning muhim shartidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy g'oyaning zarurligi 21 asr vabosi bo'lgan xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek «islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xom xayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak». Demak milliy g'oyaga ishonch va e'tiqod qancha mustahkam bo'lsa, u insonlarning shaxsiy, oilaviy hayotida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari orqali mustaqillikni mustahkamlab berishga xizmat qiladi.

6MAVZU MILLIY G'OYA— XALQNING ISHONCHI VA E'TIQODI

Reja

1. Milliy g'oyaning xalq ishonchi va e'tiqodiga aylanish zarurligi.
2. Milliy g'oyani xalk ishonchi xamda e'tikodiga aylantirish vazifalari.
3. Milliy g'oyaning xalk ishonchi va e'tikodiga aylantirish mezonlari..
4. Milliy g'oyaning ishonch xam e'tikodiga aylanishida obyektiv va subyektiv omillar.

Milliy g'oya xalqning ishonch va e'tiqodiga aylansa, u o'zining kutilgan samarasini beradi. Shuning uchun ham ishonch va e'tiqod masalasi milliy g'oyada muhim mezon hisoblanadi. Mamlakatimiz rahbari «FIDOKOR» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida «mafura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiyijtimoiy masala, har qanday jamiyatni soglom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviyruhiy kuchquvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan» deb ta'kidlaydi. O'zbekistonning hozirgi davlat hududida yashagan halqlarning uch ming yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak aksariyat hollarda bosqinchilar zulmi ostida yashaganligini ko'ramiz. Darhaqiqat, eramizdan avval VI asrda — eronlik ahmoniylar, IV asrda — Yunon bosqinchisi Aleksandr Makedonskiy, eramizning birinchi asrlarida xitoyliklar, VII asrlarda arab badaviylari, XII asrlarda — mo'gul istilochilari, XIX asrdan boshlab, avval Chor Rossiyasi, keyin «Qizil imperiya» iskanjasida ezilib yashaganligiga ko'hna tariximiz guvoh bo'lgan.

Shulardan kelib chiqib fikr qiladigan bo'lsak tabiiy ravishda, nega xalqimiz bunchalik ezilib yashagan, sababi nima, degan savol tugiladi. Uning turli sabablari faylasuflar, tarixchilar, siyosatshunoslar tomonidan u yoki bu tarzda izohlangan. Lekin uzoq davom etgan bu milliy fojeaning asosiy sababi millatning g'oyaviy tarqoqligi, parokandaligidir. Zero, milliy tariximizda ozodlik mustaqillik uchun kurashib yorqin iz qoldirgan: Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Maxmud Tarobiy, Temur Malik va boshqa buyuk milliy qahramonlar xalqni ozodlik mustaqillik g'oyalariga sobit ergashtirishga harakat qilganlar. Milliy g'oyaning, jamiyat mafkurasining xalq ishonchi, mukammal e'tiqodiga o'la aylanmaganligi sababli mag'lub bo'lganlar.

2. Jamiyatning mafkurasini, turli ijtimoiy ong shakllari va amaliyot yo'nalishlari: ta'limtarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va ma'naviyta'rifat, adabiyot va san'at, din, jismoniy tarbiya va sport sohalarida integrasiyalashgan kompleksistemali faoliyatni taqozo qiladi. Bu vazifaning murakkabligi: Birinchiidan, uzoq tarixiy davrlarda davom etgan mustamlakachilik siyosati xalqni tarixiy xotiradan, milliy qadriyatlardan mahrum qilish chegarasiga keltirib qo'ygan edi.

Ikkinchiidan, shu davrlarda totalitarizm, volyuntarizm siyosatining tashkiliy institusional tizimi xalq ongida mustamlakachilikka nisbatan «ko'nikish effektini» vujudga keltirib: bo'ysunuvchanlik qullik stereotiplarini shakllantirgan. Boshqacha qilib aytganda, «uzoq yillar davomida bu tuzum faqat jamiyat unga zo'r lab bo'ysundirilgani uchungina emas, balki jamiyat zo'rlik yo'li bilan mafkuraviy qolipga moslashtirilgani uchun ham totalitar deb atalib kelindi¹.

Uchinchiidan, yangi vujudga kelgan mustaqil davlatlar ustidan hukmronlik qilishning mukammal mafkuraviy usullaridan, vositalaridan foydalanishga tayyor turgan davlatlarning «g'oyaviy emansipasiyasi», «mafkuraviy agressiyasi» keng miqyosda hujum boshlashi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, milliy g'oya va jamiyat mafkurasini shakllantirish, ularni xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirishning birbiri bilan bogliq ikki vazifasi kun tartibiga qo'yildi. Ularni, shartli ravishda, ijtimoiysiyosiy makon, tarixiy zamon nuqtai nazaridan *ichki* va *tashki* yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, jamiyatning ijtimoiysiyosiy, ma'naviy hayotini erkinlashtirmoqda. Ma'lumki, jamiyatni tashkil qilgan ijtimoiysiyosiy qatlamlarning manfaatlaridagi xil maqsadlarni ham keltirib chiqaradi. Jahondagi rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribalari shu manfaatlar ussggarakligini o'z vaqtida, oqilona hal qilishning yo'llarini, vositalarini topish jamiyatning barqaror taraqqiyoti garovi ekanligini va aksincha, mamlakatlarning g'oyaviy ojizligi, noshudligi milliy parokandalikka olib kelib, xalqni qullikka mahkum qilishini qaytaqayta isbotlab bergan. Ana shu holatni oldini olishda mamlakat ichida xalqning milliy g'oyaga bo'lgan ishonch va e'tiqodi ularni umummilliy maqsad yo'lida jipslashtiradi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, mamlakatimizda yashayotgan barcha ijtimoiysiyosiy qatlamlarni, tabaqalarni, millat va elatlarni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi soʻyishtaligi, xalq farovonligi gʻoyasi atrofida jipslashtirishga alohida eʼtibor berib kelmoqda. Bu milliy rivojlanishning istiqbollarni kafolatlaydi. Buning asosiy omili, umumiy nuqtasi mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarni: millatidan, irqidan, diniy eʼtiqodidan, iqtisodiy ahvolidan, siyosiy mavqeyidan, qaysi partiyalarga mansubligidan qatʼiy nazar, umummillat manfaatlarini ifodalaydigan istiqlol joyalari ularning ishonch va eʼtiqodidan joy olishi hamda shu joya asosida birlashtirishdan iborat. Bu vazifani bajarish, mamlakatimizda demokratik adolatli huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zaruriy sharti boʻlib qolmoqda.

Bu vazifalarni bajarilishida oʻtmish jamiyatning gʻoyaviy stereotiplaridan voz kechish, mustabid tizimning soxta tenglikka asoslangan, «qaychilab tekislash» siyosati oqibatlarini bartaraf qilish, amalda mafkurasizlashtirishdan iborat boʻlgan hukmron siyosiy mafkura tazyiqining kishilar ongida hadik shubha tarzida saqlanib qolishini siqib chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kishilarning boqimandalik kayfiyatini batamom yoʻqotish — gʻoyaviy mafkuraviy faoliyatning tarkibiy qismidir. Ana shu asoratlardan qutulish milliy gʻoyaga ishonch va eʼtiqodni mustahkamlaydigan ichki omillardan hisoblanadi. Totalitarizm tuzumining: «Davlat seni boqayapti, sen davlatga qul boʻliShing darkor», degan tamoyili gʻoyaviy qaramlik va mafkuraviy mahdudlikka olib kelgan. Boqimanda odamning fikr erkinligi, siyosiy faoliyati chegaralangan boʻlib, hukmron mafkura nimani aytsa, shuni hiladigan passiv, loqayd, gʻoyaviy kaltabin kishilar qilib tarbiyalashga asoslangan edi.

Milliy gʻoya va jamiyat mafkurasini shakllantirishning muhim ichki vazifalaridan biri — qurilayotgan jamiyatning munosib gʻoyaviy mafkuraviy zaminini yaratishdir. Xalqimizda: «Suv boʻlmagan joyda qamish oʻsmaydi», degan hikmatli soʻzlar mavjud. Maʼlumki, qamishni oʻrib tashlasangiz ham, yoqib yuborsangiz ham, bari bir oʻsib chiqaveradi. Uni yoʻq qilishning yagona chorasini suvni quritishdir. Shunga koʻra, milliy taraqqiyotimiz jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan gʻoyalarning mamlakatimiz hududiga oʻtishi va ildiz otishiga imkoniyat bermaslik uchun milliy gʻoyaga ishonch va eʼtiqod alohida ahamiyatga ega. Buning uchun milliy istiqlolimizga yot boʻlgan gʻoyalarning yurtimizga kirib kelishi, Vatanga eʼtiqodi sust, imoni, irodasi boʻsh kishilarning ongini tezroq zabt etadi. Chunki, gʻoyaviy tarbiya choratadbirlari gʻoyaviy-mafkuraviy «infeksiya»ga nisbatan immunitetni vujudga keltirish, uning salbiy oqibatlariga qarshi kurashishga koʻra samaraliroqdir. Buning uchun har biri nisbatan mustaqil, lekin bir-biri bilan oʻzaro bogʻliq boʻlgan: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy hayotni milliy maʼnaviy negizlarimizga tayangan holda, unga mos tarzda qurilishi muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekistonning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga oʻtish davridagi ijtimoiy vaziyatini tahlil qiladigan boʻlsak bir tomondan, etnografik demografik strukturasi, diniy eʼtiqodlar xilmaxilligi uning xalqining hayot tarzi negizlarining rangbarangligi yagona milliy istiqlol gʻoyalari doirasida birlashtirishga xalaqit qilmasligi lozim. Oʻzini Oʻzbekiston fuqarosi deb bilgan har bir insonni umumiy Vatan tuygʻusi, xalq farovonligi, erkin va farovon hayot qurish, millatlararo totuvlik bilan ugviy bogʻliq milliy gʻoya birlashtiradi. Ikkinchi tomondan, agar shunday eʼtiqod va ishonch boʻlmasa, aynan shunday ijtimoiy muhit xususiyati gʻayriinsoniy, gʻayrimilliy gʻoyalarving mamlakatimizga kirib kelishiga, maʼlum maʼnoda qulay imkoniyatlar yaratish ehtimolini qoldiradi.

Mamlakatning bosqichmabosqich yangi jamiyatga, bozor munosabatlariga oʻtishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq boʻlgan qiyinchiliklar, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan taʼminlash muammolari, agrar sohadagi islohotlarda erishilayotgan yutuqlar nisbatan sust kechayotganligi, aytish mumkinki, yot gʻoyalarga nisbatan kishilarning ruhiy barqarorligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham milliy istiqlol gʻoyasini kishilar ongiga, hayot tarziga singdirishda iqtisodiy hayotdagi ijobiy oʻzgarishlarning salmogʻini oshirish zarur.

Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish, siyosiy sohani erkinlashtirish, uning qonuniy huquqiy asoslarini va turmushga tadbiq etishning mukammal mexanizmlarini yaratish bir tomondan, milliy istiqlol gʻoyasining ijtimoiysiyosiy hayotdagi ifodasi boʻlsa, ikkinchi tomondan, shu asos milliy gʻoyalarni xalq ishonchi va eʼtiqodiga aylantirish va hayotga joriy etishning imkoniyati hisoblanadi. Shu bois aytish kerakki, mamlakatdagi siyosiy partiyalar, turli diniy konfessiyalar milliy istiqlol gʻoyasi asosida kishilarni umumxalq manfaatlarini yoʻlida mushtarak maqsadlarga safarbar etishlari uchun imkoniyatlari mavjud.

Mustaqillikka erishgandan keyin milliy qadriyatlarining, muqaddas dinimizning tiklanishi milliy taraqqiyot uchun maʼnaviy muhitni yaratib bermoqda. Buyuk ajdodlarimizning maʼnaviy merosi

g'oyaviy barkamollik uchun oziq bo'lmoqda, lekin shuni ham aytish kerakki, bizning tariximizga mahliyo bo'lib, kelajakni unutishga haqqimiz yo'q. Tarixiy tajribalardan saboq olish, undan xulosalar chiqarish milliy g'oyani, jamiyat mafkurasi sifatida xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirish uchun zarur. Shuning uchun Ham I.A.Karimov: «Jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi»¹, deb ta'kidlaydi. Bu haqiqatni anglash muhim. Bu milliy Yeoyaga ishonch va e'tiqodni mustahkamlaydigan negiz — poydevordir.

3. Milliy g'oyani «tashuvchilarning» ehtiyojlari va manfaatlari umumiylikiga qaramasdan ularning har biriga individual va differensial yondashgan holda, uni xalqning ishonch va e'tiqodiga aylantirilishining o'ziga xos mezonlari mavjud. Ya'ni:

- millatning o'zligini, jahon umumiy tarixiy taraqqiyotiga mansubligini anglashi ayni tarixiy jarayonga qo'shayotgan hissasini e'tirof qilinishi;
- millatning ijtimoiysiyosiy, g'oyaviymafkuraviy mustaqilligi va uni mustahkamlash imkoniyatlarining yaratilishi, Vatanga sadoqati;
- jahon hamjamiyatidagi mavqeyini mustahkamlanishi, o'ziga xos va mos nufuzga ega bo'lishi;
- milliy taraqqiyotning istiqbollarini belgilaydigan faoliyat strategiyasini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishning taktikasini belgilashda milliy ma'naviy qadriyatlariga va umuminsoniy madaniyatning uygunligiga milliy istiqbol g'oyasining negizlari sifatida qarash zaruriyatini hisobga olish.

Umuman, insonning ishonch va e'tiqodi mezoni jamiyat taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlariga mos kelishi bilan belgilanadi. Xususan, milliy g'oyaga ishonch va e'tiqod, muayyan jamiyatning mavjudlik holati hamda rivojlanish istiqbollarini anglash asosida amaliy faoliyatni tashkillashtirish, boshqarishning motivi, subyektiv omili tarzida namoyon bo'ladi. «Bu masala haqida chuqurroq o'ylab ko'radigan bo'lsak shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy shaklshamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo'llari, ustuvor xususiyatlari to'g'risidagi aniq tasavvur turli fikrlar, bahsmunozaralar orqaligina ayon bo'lishini e'tirof etishimiz va buni o'zimizga mezon qilib olishimiz zarur».

Millatning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqqan va manfaatlarini ifodalaydigan g'oyalarga sadoqat-ishonch e'tiqod mezoni hisoblanadi. Shu nuqtai tarakkiyot manfaatlariga zid bo'lgan e'tiqodi umuminsoniyat ishonchi, e'tikodi bilan xech kanday alokasi yuk. Soxta ishonch va e'tikod bilan xakikiy ishonch va e'tikodni farklash muxim.

Ma'lumki mamlakatlar urtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning samaradorligi eng avvalo, g'oyaviy qarashyaarning mutanosibligiga bogliq buladi. Bunda ikki tomonlama manfaatdorlik umumiy munosabatlarning samaradorligini belgilaydi. Ya'ni O'zbekiston o'z istiqbol g'oyalarini boshqa mamlakatlarning g'oyaviymafkuraviy andozalariga mexanistik moslashtirmasdan, ularni ijodiy o'zlashtirishi, shu jumladan, boshqa millat va davlatlarning ham bizning g'oyaviymafkuraviy qarashlarimizga hurmate'tibor bilan munosabatda bo'lishini taqozo etadi. Sosialistik tuzum yemirilishi, xususan, bu sistemada siyosiy-mafkuraviy gegemonlik rolini bajarib kelgan SSSRning parchalanib ketishi bilan jahon mafkuraviy jarayonida quyidagi xususiyatlar namoyon bo'lmoqda:

Birinchisi — milliy mustaqillikka erishgan davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, mafkuraviy va boshqa sohalarida hamkorlik qilish mumkin bo'lgan mamlakatlarni tanlashdagi muayyan qiyinchiliklar (shakllangan stereotiplar, shubhalanish) bilan bogliq edi. Chunki, biz bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida hamkorlik qilishni xohlagan davlatlarning o'z manfaatlarini bo'lib, ular hamma vaqt ham tomonlarning manfaatdorligida, muvozanatni o'zlari tomonga og'dirishga moyil ekanligi sir emas.

Bunday sharoitda O'zbekistonning o'z yo'lini tanlashi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi, demokratik jamiyat qurishning «o'zbek modeli»ni ishlab chiqishi, mafkuraviy sohada faoliyat strategiyasi va taktikasini belgilab olishi qiyin kechadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston xalqaro hamjamiyatga kirib borar ekan: ijtimoiysiyosiy, ma'naviy-mafkuraviy tizimi turlicha bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarda xalqaro huquq qonunlarini, urfodatlarini, milliy manfaatlarini hurmat qiladigan hamdo'stlarini topishga harakat qildi.

Ikkinchisi hozirgi davrda ilmiytexnika taraqqiyoti millatlararo munosabatlarning texniktexnologik asoslarini, aloqa vositalarini, ommaviy axborot infrastrukturasini va murakkab kommunikatsiyasini

vujudga keltirishi bilan xalqaro mafkuraviy munosabatlarni intensivlashtirib, universallashtirib yubordi. Xususan, axborot ayirboshlashning kompyuterlashtirilib: elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarning rivojlanishi, bu sohalarda intellektual salohiyatining miqdor va sifat o'zgarishlari bilan mafkuraviy munosabatlarning globallashtirish jarayoni vujudga keldi. Bu jarayonning muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, turli mamlakatlarni inson ongini va qalbini egallash orqali uni zabt etish g'oyat tta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganligida ya'ni, jamiyatni mafkurasizlantirishga, g'oyasizlantirishga yo'naltirilgan axborotlar bozorida ma'naviy madad, g'oyaviy mafkuraviy jihatlardan saviyasi g'oyat past, o'lgan audio va video kassetalar, axloqsizlikka, tubanlikka: b keladigan adabiyotlar va boshqa «san'at asarlari yushg» lishi juda katta iqtisodiy foyda manbai bo'lib qolatanligi, ayrim kishilarning ishonche'tiqodiga putur yetazayotganligi hammaga ma'lum.

Uchinchi — birinchi va ikkinchi xususiyatlardan kelib chiqn bo'lib, millatning tarixiy xotirasi, an'analari, ma'viy merosi asosida jamiyatning hozirgi davr rivojlanish darajasiga, istiqbol tendensiyalariga xos ongini, tafakkuni shakllantirish va mustahkam ishonche'tiqodga aylantirishdir. Chunki g'oyat xilmaxil «axborot bosimi» tar•idan milliy taraqqiyot manfaatlariga mosini tanlab olish, ishonche'tiqodga aylantirish muayyan nazariy metodologik bilimlarni talab qiladi. Shuning uchun ham ommaning dunyoviy va diniy bilimlarini rivojlantirishga, intellektual salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan milliy ta'lim tarbiya tizimini shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Milliy g'oyani xalqning ishonchi, e'tiqodiga aylantirish asoslarini, shartli ravishda, obyektiv ishtirak sharoitlar va subyektiv omillarga ajratish mumkin. Milliy g'oyani xalq ishonchi va e'tiqodiga aylantirishning obyektiv shartsharoitlari sifatida: ijtimoiy iqtisodiy hayot negizlari, madaniy hayotni rivojlantirish manbalari, inson saloxiyati, millatning tarixiy merosi va Unga bo'lgan munosabat; xalq yashayotgan hududning tabiiy Jo'grofiy joylashishi hamda tabiiy resurslari; millatning tarixiy shakllangan mentalitetiga xos xususiyatlar; jamiyatning demografik holati, etnik tuzilishi; xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlardagi o'rni va mavqeyi boshqa shu kabi shartsharoitlarni ko'rsatish mumkin.

7MAVZU
MILLIY G'OYA— O'ZLIKNI ANGLASH
VA TARAQQIYOT OMILI
Reja

1. Milliy g'oya o'zlikni anglash omili
2. Uzlikni anglashning turli talqinlari.
3. Tarixiy xotira va milliy uzlikni anglash.
4. Milliy istiqloq g'oyasi-milliy uzlikni tarbiyalash, kadrlash, saklab kolish omili.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o'zo'zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqeyelik sha'n, qadrdimmat, obro'e'tibor, ornomus orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Hayotning ma'nomazmuni, maqsadini tushunib yetish, o'zlikni anglashdan boshlanadi, Milliy g'oyada uning negizlari mujassam bo'lganligi uchun ham o'zlikni anglashga xizmat qiladi va birbiri bilan uzviy bogliq

«O'zlikni anglash deganda men tarixiy xotirani tiklash, naslnasabimiz kim ekanini, kimlarning vorisi ekanligimizni anglab yetishni, shundan kelib chiqib, o'zimizga xos va mos jamiyat barpo etishni tushunaman», deydi I.A.Karimov.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish. davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish, avvalambor, har bir fuqaroning va butun jamiyatning oliy maqsadlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oya atrofida jipslasha olishi, o'zini xalq, millatning ajralmas qismi ekanligini anglab yetishiga ham bogliq. Zero, buyuk bobokalonimiz Amir Temur o'git berganlaridek: "Birliksiz kuch bo'lmas". Binobarin, "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" qurishdek ulug' ish, avvalo, o'zlikni anglamagan joyda amalga oshmaydi. Millat birligida insonni o'zligini anglash omili alohida o'ringa ega. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek: *"Chinakam insoniy fazilatlariga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va ximoyachisiga aylanadi. Demokratiya, fukarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson xak%ukuklari va erkinliklarini ta'minlashi mumkin bo'ladi. Shundagina inson o'z mamlakatining tom ma'nodagi munosib fukarosi bo'la oladi"*¹.

Bunda tilga olingan insoniy fazilatlar insonning ma'aviy olamini tashkil etadi. Ma'naviyat esa fikr, so'z va iSh birligida namoyon bo'ladi. O'zligini anglamagan odamda imon va e'tiqod zaif bo'ladi. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" g'oyasida mukassam bo'lgan milliy g'oya oddiy da'vat emas, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanmog'i uchun, u o'zligini anglagan har bir fuqaroning ongidan chuqur joy olmog'i va yashash tamoyiliga aylanmogi lozim.

Demak mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish davrida o'zlikni anglashning o'ziga xos ko'rinishlarini anglamasdan ma'naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini aniqlab bo'lmaydi.

Jamiyat ma'lum bir hududda jamlangan odamlarning oddiy yigindisi emas. Inson martabasiga xos bo'lmagan o'zligidan mahrum, tarixiy xotirasi zaif, o'zining kelib chiqishi va kimlarning vorisi, avlodlari ekanligini anglamagan, bilmagan odamlarni xalqimiz "to'da", "olomon" deb ataydi;

Yuksak rivojlangan jamiyat esa o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e'tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o'zgarlar va butun borliq oldidagi mas'uliyat tuyg'usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. "Men kimman?", "Bu yorug' dunyoga nima uchun keldim?", "Menga ato etilgan buyuk ne'mat — hayotimni nimalarga safarbar etmogim lozim?". Inson borki, ertamikechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo'l oladi. Bu yo'lni o'zlikni anglash deb aytish mumkin. O'zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko'tariladi. Demak o'zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, alohida «meni» bilan bogliq

"Kimki o'zligini tanisa, robbini taniydi". Bu hadisda buyuk xdkmat yashiringan. O'ni bugungi kun muammolari nuqtai nazaridan quyidagicha talqin etish mumkin: har bir inson o'zi intilmasa, maqsadlar qanchalik ulug' bo'lmasin, birorbir natija bermaydi. Shuning uchun ham islom ahli, mutasavvif allomalar insonni "olam mexrari" deb bilganlar.

Milliy istiqloq mafkurasi va milliy g'oya jahon xalqlarning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan merosidan ham ozuqa olganligi bejiz emas. Zero, insoniyat jamiyati paydo bo'libdiki, turli xalq allomalari insonss o'zlikni anglashga da'vat etadi. O'zlikni anglash borasidagi Sharq va Garb allomalarining fikrlari milliy g'oya va o'zlikni anglash bilan chambarchas bogliq ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Delfadagi Appolon ibodatxonasining devorlariga o'yib yozilgan va an'ana bo'yicha yetti yunon donishmandlaridan biri spaxalik Xilonga tegishli deb hisoblangan "O'zligingni angla" ishori qadimgi yunon falsafasining o'zak masalasi bo'lib qoldi. Yunon mutafakkirlarini bu borada izlanishga da'vat etdi. Eramizdan avvalgi V asrda Protogor, "inson barcha narsalarning o'lchovidir", degan fikrni ilgari surdi. Suqrot uchun esa "o'zligingni angla" hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. O'zligini anglagan inson ma'naviy yuksalishga erishadi, har qanday sharoitda ezgulikka choglanadi. Shu nuqtai nazardan, inson ruhiy quvvatining ramziga aylangan Suqrotning hayoti va o'limi hammamizga saboq bo'la oladi. Sharq Garb allomalari o'zlarini va o'z davrlarini anglashga harakat qilishar ekan, takror va takror Suqrotga murojaat etishgan. Suqrot davri bilan bugungi kunni qariyb 2,5 ming yil ajratib turgan bo'lsada, biz ham yana bir bor bu ulug' siymoni eslasak foydadan holi bo'lmas. Suqrot bir guruh kishilarning fitnasi tufayli fuqarolik me'yorlarini, yoshlar tarbiyasini buzganlikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm etilgan edi. Hukm ijrosini kutayotgan Suqrotga shogirdlari qamoqdan qochishni taklif etishadi. Garchi hukm adolatsiz bo'lsada, Suqrotning fikricha, har qanday, hatto eng yuksak va adolatli maqsad ham unga erishmoq yo'lidagi past va jinoiy vositalarni oqlamaydi. *"Bizni o'ldirishga Kodir bo'lgan ko'pchilik bu fikrga ko'ishladimi, ko'ishlmaydimi, bundan biz ko'prok yoki kamroq ozor chekamizmi, baribir, adolatsiz ish uni qilgan kigii uchun xar kanday sharoitda sharmandalikdir"*, deydi u shogirdiga, *Yoki bunday kdraylik agar biz bu yerdan juftakni rostlashga shay . lamsaku, Konun va Davlat ro'paramizdan chiksada, so'rasa: "Aytchi, Sukrot, nima kilmokchisan? O'z kilmokchi bo'lgan ishing bilan bizni, Konunlar va butun Davlatni xalok kilmokchimisan? Yoki sud x.ukmlari x.yech 'anday kuchga ega bo'lmagan, balki ular alox.ida odamlarning istagi bilan bekor kilinadigan bo'lsa, davlat butun va beziyon kolishi kin deb o'ylaysanmi?"*. O'z yurtini sevgan va chinakam vatanparvar bo'lgan Suqrot uchun qamoqdan qochish butun hayoti davomida o'zi rioya etgan qoidalarga, o'zining umr ishiga va yayemak Vataniga xiyonat bo'lar edi. Afina davlatidagi u yoki bu tartiblar bilan kelishmagan bo'lsada, chinakam vatansarvar bo'lgan Suqrot o'limni afzal ko'radi.

*"O'zini anglagan inson, degan edi u, o'zi uchun nima foydaliligi va nimalarga kodir ekanligini yaxshi tushunadi. U ko'lidan keladigan ish bilan shugullanish asnosida o'z extiyojini krndiradi va saodatga erishadi. .Qar 'kdpday xato va baxtsizliklardan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'larok, u o'zga odamlarni kadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Okibatda o'zini kulfatlardan asraydi"*¹.

Hazrat Navoiyning "El netib topqay menikim, men o'zimni topmamon", — degan so'zlari bugungi kunda ham chuqur ma'no kasb etadi.

Jamiyatning tayanchi — oddiy inson. Shuning uchun ham yurtboshimiz "Tafakkur" jurnali bosh muharriri bilan suhbatda "Mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari va qarashlari yuzaga chiqishi kerak", degan savol qo'yib, shunday javob bergan edi: *"Dastavval O'zbekistonda yashayotgan, o'z takdiri timsolida mingminglab kishilarning takdirini mujassamlashtirgan vatandoshimizning xagtini, uning orzuutilishlarini, bugun va ertangi kunga bo'lgan umidvorligini o'zimcha tasavvur kilishga urinib ko'rardim. O'zimni shu odamning o'rniga ko'yib, uning ko'zi, idroki, tafakkuri, yondashuvi bilan kelajakka karardim"*².

"O'zlikni anglash", "milliy o'zlikni anglash" va nihoyat "umumbashariy o'zlikni anglash" tushunchalari birbiridan ayri emas, balki birbiri bilan uzviy aloqador, birbirini taqazo etadi. Zero, inson otaona, oila, millat, ahli bashar, boringki, butun borliq bilan munosabatlar asosida o'zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllangan va o'z navbatida, milliy g'oya ularni zamon talablari asosida boyitib boradi.

O'zlikni anglashning turli talkinlari Insoniyat falsafiy tafakkuri tarixida o'zlikni anglas masalasi turlicha talqin etilgan. Inson jismining o'tkinchiligi, ruhining esa abadiyligi (cherkov otasi Avgustinning "tan ruh uchun qafasdir" fikrini eslang) masalasini zohiriy (dunyoviylik nuqtai nazaridan) talqin etganlar inson o'zligini dunyodan yuz o'girib, yolg'izlikda ibodat bilan kun o'tkazgandagina, oddiy so'z bilan aytganda, tarkidunyo qilgandagina topishi mumkin degan fikrga keladilar.

Islom Sharqida dunyoni o'tkinchi bilib, ijtimoiy faollikdan qochish, faqat Olloh zikri bilan yashash tamoyili alohida o'ringa ega. Ularning falsafasida *"tarkidunyochilik g'oyasini targib etib, ijtimoiy faollikdan butunlay chetlashganlar, surunkali toatibodat bilai shugullanganlar"*¹. Tasavvufdagi "uzlatga chekinish" g'oyasini ham ba'zan to'gridanto'g'ri tarkidunyochilik ma'nosida talqin etishga urinishgan. Ammo "o'zlikni anglash" bosh maqsadi bo'lgan tasavvuf ahli va tasavvuf g'oyalaridan quvvat olgan ulug' mutafakkirlarimiz insonni insonga, Vatanga, xalqiga bo'lgan, har qanday garazdan holi, pok mehrni targib qilganlar.

Xususan, ulug' mutasavvif alloma Bahouddin Naqshband inson o'z-o'zini anglab yetish orqali Haqni, Haqiqatni taniydi, Alloh vasliga yetishadi, deydi. Ammo hayotining yakuniy maqsadi bu emas. Dilida Alloh ("dilda yor") jo bo'lgan kishi ishga kirishmogi ("dast ba kor"), ezgu ishlarga qo'l urishi lozim, U aslo eldan, xalqdan o'zini ayirmasligi, aksincha, Orif odam Haqni dilda tutgan holda xalq bilan birga bo'lishi lozim. ("Xilvat dar anjuman").

Shu nuqtai nazardan, Fariddin Attor dunyoni qaynab turgan qozonga mengzab, insonni ana shu "qozon"da qaynashga undagan edi. Shundagina inson pishib yetiladi, komillikka erishadi. Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va yurt qaygusida yashagan jadid ziyolilar yana o'nlab, yuzlab ulug' ajdodlarimiz hayoti, o'z taqdirilarini xalq, millat, butun insoniyat taqdiri bilan uzviy bogliqlikda ko'rganlar. Inson o'zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq kilib shunday ifoda etgan edi:

"Odame ersang demagil odame Onikim yo'k xalk gamidin gami".

«O'zlikni anglash», «Milliy o'zlikni anglash» va «milliy istiqloq g'oyasi» uzviy birbiri bilan bog'liq. Mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'zo'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, chorakam bir asr davomida hukmronlik qilgan istibdod nazariyasi va mafkurasi o'zo'zini anglash hissini yo'qotib bordi. Milliy o'zligini anglash masalasi falsafada ishlanmadi. Buning sababi milliy o'zlikni anglash mustaqillik g'oyasi bilan bog'liq edi. Shunga ko'ra, milliy istiqloq g'oyasi tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishidan saboq chiqarish va o'zlikni anglash mezoni sifatida xalqimizning tub maqsadlari ifodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi royaga aylanishi mumkin. Sharq va Garbda, Osiyo va Yevropa xalqlari hayotida ham o'zlikni anglash tuygusining uyg'onishi, pirovard natijada, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy, o'zaro manfaatli hamkorlikka kirishuviga turtki bo'lgan. TTTu nuqtai nazardan, milliy g'oyani milliy o'zlikni anglatuvchi omil deyish mumkin. Demak millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamasa, u o'zining sha'ni, qadrqimmati, ornomusi haqida qayg'urib, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini to'la xis eta olmaydi.

Sharq donishmandlarining falsafiy g'oyalarida sinkretik (ya'ni turlicha yuyalarning bir butunlikda joylashuvi) va sinergetik (o'zo'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p o'lchovli va ochiq tizimli) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zero, ma'naviy qadriyatlarga, hayotni e'zozlashga undaydigan yuksak a'mollarga e'tibor susayganda, jamiyat, davlat taraqqiyotdan to'xtaydi, inqiroz tomon yuz tutadi. Bu Haqda Alisher Navoiy shunday yozgan edi:

To hirsu xavas xirmani barbod o'lmas, To nafsu havo qasri baraftod o'lmas, To zulmu sitam jonga bedod o'lmas, El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Demak mamlakatimiz obod bo'lishi, ravnaq topishi, xalqimiz farovonligi uchun ma'naviyat va ma'rifat sohasida, xususan, shaxsni kamol toptirish borasida izchil ish olib borish kerak. *"Bu x.ayotiy x.akikat biz x.amisha amal kiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmogi xamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmoyei lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axlokodob, ma'rifat kabi o'lmas kadriyatlar turmogi kerak"*¹.

Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi. Shundagina inson o'zining qadrqimmati xalqning, millatning qadrqimmati bilan nechog'lik bogliq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqyealarga daxldorligini anglaydi. Yurtimiz mustamlakachilik asoratiga tushgan XX asr boshlarida yurt qaygusida yongan Fitrat o'lkaning boshiga yogilgan balolarda, avvalo o'zini aybdor deb hisoblagani bejiz emas. Amir Temur ruhiga murojaat etib, u shunday yozgan edi: *"Yukorida aytdigim ishlarning xammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim kildim. Sening Turoningni o'zim talatdim, Sening turkligingni o'zim ezdirdim, Sening omonatlaringga xiyonat o'zim kildim"*².

Shu emasmi komillikning belgisi? Milliy o'zligini anglagan insongina, Fitrat kabi:

*"Turonim, sendan ayrilmoq — mening uchun o'limim, Sening uchun o'lmos mening tirikligimdir"*³, — deya baralla ayta oladi, Najmiddin Kubro singari jonini saqlashni emas, yov bosgan yurtini himoya qilib, jon taslim berishni afzal ko'radi.

Bu o'zlikni anglashning aniq ifodasi, yurt, Vatan uchun o'zini bag'ishlash hamdir. Tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida: «Tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» deb ta'kidlaganlar. Demak tarixni bilmasdan, yaxshi bilmasdan turyab, yuksak ma'naviyatga eriishsh mumkin emas. Sobiq ittifoq davrida millatimiz ongiga shunday g'oya

singdirildiki, u o'z yurtida boshini baland ko'tarib yurishi taqiqlangan edi. Xalqimizning shunday ahvolda tushib qolishiga asosiy sabablardan biri — uning tarixiy xotirasidan judo bo'lishi edi.

Milliy g'oya xalqimizga nafaqat o'z tarixini odilona, obyektiv va xolisona o'rganish imkoniyatini yaratadi, balki millat sifatida shakllanish davridagi murakkab sharoitlardan kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Chunki, milliy YEOYA xalqimizning qadimiy va boy tarixidan, ulug' alloma ajdodlarimizning hikmatlari va hayotiy o'gitlaridan, bunyodkor g'oyalaridan, yashash ibratidan ozuqa olgan. Shuning uchun ham, tarixni buyuk murabbiy, tarbiya va ibrat manbai deyiladi.

Dono xalqimizning "Yetti pushtingni bilgin", degan o'gitlari bekorga kelib chiqmagan. Shuning uchun ham qadimgi Sharq donishmandlari insonni gavdasi oldinga, yuzi esa ortga qaratgan holda tasvirlaganlar. Ya'ni, ularning nazdida insoniyat kelajak sari intilar ekan, o'tmishini doimo yodda saqlamogi shart. Bu ko'hna haqiqatni teran anglagan Prezident I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida istiqboldagi vazifalarni belgilab berar ekan: *"Tarix xotirasi, xalkiing, jonajon o'lkaniing, davlatimiz xududining xolis va xakkoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashgsh, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni pgiklash va o'stirish jarayonida g'oyat mux.im o'rin tutadi"*¹, deb ta'kidlaydi.

Bu yurtimizning uzoq va ROYAT murakkab tarixida qaytaQayta isbot etilgan haqiqat. Birgina Amir Temur va temuriylar davri tarixi buning yorqin isboti bo'la oladi. "Insonlik olamini qanotlari ostinda olgan" (Fitrat) temuriylar saltanati bir necha asrlar mobaynida gullab yashnadi, ulug' allomalarni dunyoga keltirdi, ilmfan, madaniyatda yetakchilikka erishdi. Buning sababi nimada edi? Javob bitta: Amir Temur mamlakat ijtimoiysiyosiy bo'hron iskanjasiga tushib qolgan, feodal tarqoqlik va o'zaro nifok avj olgan bir sharoitda xalqni o'z g'oyalari atrofida birlashtira oldi. *"Men o'z saltanatimni dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustax.kamladim,* — degan edi uluj sohibqiron, *Saltanatni boshkarishda uchragan xar kanday vokea va ishni tuzuk asosida bajardim"*¹.

Amir Temur nazdidagi "tuzuk" bizning kundagi "milliy g'oya" mazmunida kelayotganini anglash qiyin emas va buyuk bobokalonimiz fikricha: *"Davlat agar dinu oyin asosida 'urilmas ekan, bunday saltanatning shukuxi, kudrati va tarkibi yo'koladi. Bunday saltanat yalangoch odamga o'xsharkim, uni ko'rgan xar kimsa, nazarini olib kochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chikddigan tomsiz, eshigito'sigi yo'k uyga o'xshaydi"*^p. Amir Temur «dinu oyin» deganda adolatli jamiyatni nazarda tutmoqda.

Tarixiy xotira millatga kuchqudrat bagishlaydi, hayotning ogir sinovlarini munosib yengib o'tishga, o'zligini saqlab qolishga yordam beradi. Shuning uchun ham o'zga xalqlarni tobe etishga uringan bosqinchilar xalqni ana shu qudrat manбайдan ayirishga, shahar va tarixiy obidalarini, madaniy yodgorliklari va ajdodlarning ma'naviy merosidan mahrum etish orqali tarixiy xotirasini zaiflashtirishga harakat qilganlar.

Demak jamiyat hayotida bunyodkor yuyalarga tayansagina, taraqqiyotga erishadi, ma'naviy jihatdan yuksaladi. Bunyodkor g'oyalar madaniy meros va tarixiy xotiraga tayanadi.

Yovuz maqsadni ko'zlagan g'oya tarafdorlari esa, aksincha, yo'l tutgan. Masalan, Turkiston o'lkasini o'z mustamlakasiga aylantirgan Chor Rossiyaning generali M.G.Chernyayev podshoga yozgan maxfiy xatida bildirgan fikri buning yorqin dalilidir: *"Bu yerda xar kdnday kushinni to'zgatib yuboradigan bir kudratli kuch bor: bu turkistonliklarning kechmishi xotirasi... Demakki, turklarning birgina o'zini yengish kifoya emas. Ularning xotiralarini, tarixini xam yengmok kerak"* deb yozadi. Darhaqiqat, chor Rossiyasi bosqinchilari har bir o'lkani egallashda o'sha xalq tarixiga hujumning asl mohiyatini tushungan holda faoliyat ko'rsatganligi uning milliy taraqqiyotda kuchini anglaganidan edi.

G'oya xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini boglab turuvchi fikr ekan, u, avvalo, milliy ma'naviyatimizga tayanadi. Xalqimizning ma'naviy merosidan ozuqa oladi, milliy o'ziga xosligini saqlab turishga, milliy manfaatlarni amalga oshirishga va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Bunga turli mamlakat mutafakkirlari alohida e'tibor berishgan. Masalan, Yevropa jamiyati hayotida ulkan siljishlar sodir bo'layotgan XVIII asrda mashhur fransuz ma'rifatchisi Jan Jak Russo milliylik milliy xarakter haqida shunday yozgan edi: *"Biz tayanishimiz kerak bo'lgan birinchi tamoyil — milliy xarakterdir: xar bir xalk milliy xarakterga ega yoki ega bo'lishi lozim; xalkda u bo'lmagan takdirda ishni unga bunday xarakterni berishdan boshlash kerak bo'lardi"*¹. Bir qarashda Russoning fikrida ma'lum bo'rttirish bordek tuyuladi. Lekin uning vatani Fransiya tarixiga nazar tashlansa, bu fikr tarixiy asosga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Dastlab qirol Genrix IV Fransiyaning milliy davlat sifatidagi yaxlitligini tikladi. Uning ishini davom ettirgan va Fransiyaning amalda boshqargan Lyudovig XIII ning birinchi ministri — kardinal Rishelye "Vatan va millat manfaatlari barcha narsadan ustun", degan

g'oyani ilgari surdi. Mamlakatdagi ichki nizolarga barham berdi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, o'zi asos solgan Fransuz Akademiyasiga umumfransuz adabiy tili lugatini tuzishni topshirdi, san'at va adabiyotga homiylik qilib, davlat yaxlitligi va xalq birligini ta'minlashga qaratilgan o'ziga xos milliy YEOYANI targib etishga safarbar etdi. Shu tariqa Vatan va xalq yo'lidagi fidoiylikni oliy burch, darajasiga ko'tardi, ishonch bilan aytish mumkinki, Fransiyaning o'sha davrda qudratli mamlakatga aylangani hamda keyingi asrlar mobaynida Yevropaning o'ziga xos madaniy markazs bo'lib qolganligi ayni shu davrda shakllana boshlagan "milliy xarakter" bilan bogliq bo'ldi. Ana shu tarixni chuqur bilgan Russo: *"Xar 'anday yaxshi o'zgarishlarning umumiy maksadlari x.ar bir davlatda maxalliy shartgiaroit yea axolining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigap munosabatlarga muvofik shakl olishi kerak"*¹, degan fikrga keldi. Yurtboshimiz I.Karimovning: *"Biz xalkni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orkali bilamiz, tarixining tagtomirigacha nazar tashlaymiz"*², degan so'zlari ham ayni fikrning naqadar chuqur asosga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ammo bu — milliy g'oya yoki milliy o'zlikni anglashni o'z mlliy qobiriga o'ralish, o'zga xalqlardan o'zini ustun qo'yish degani emas, albatta. Qolaversa, O'rta Osiyo hududida azalazaldan turli elat va millat vakillari yonmayon inoqlikda yashab kelishgan. Bagrikenglik mehmondo'stlik o'zbek xalqining qonqoniga singib ketgan qadriyatiga aylangan. "Mehmon otangdek ulur", deydi xalqimiz va ostonasidan xatlab o'tgan begona odamni ham uyining to'riga olib chiqadi, o'zi yemasada, mexmonni siylaydi.

O'zligini anglagan odamda mehr, muruvvat kuchli bo'ladi. Manmanlik kabi salbiy qusurlarni xush ko'rmaydi. *"Manmanlik"* degan edi mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniy, — *joxilona kibru gururdan paydo bo'ladurgan eng yomon xulklarning biridurki, kishini xar yerda ma'yus va maxjub kilur*. Avloniy inson manmanligi haqida gapirayapti. Agar manmanlik kasaliga millat, xalq yoki biron bir din vakillari uchrasa ne oqibatlarga olib keladi? Misollar talaygina. Birgina o'z xalqi ongiga "oliy irq"qa mansublik ROYASINI singdirishga uringan fashizmning butun insoniyat boshiga yog'dirgan balolarni yoki buyuk davlatchshshk shovinizmi sobiq Ittifoqsa yashagan elat va xalqlarga keltirgan azobuqubatlarni eslash kifoya. Ayrim siyosatdonlar butungi kunda ham diniy, irqiy, milliy ziddiyatlarni avj oldirishga harakat qilayotgani va oqibat o'laroq dunyoning turli chekkalarida olovi alangalana yotgani barchaga ma'lum.

Mashhur fransuz gumanist yozuvchisi fashizmga qarshi urushda jonini fido qilgan Antuan desent Ekzyuperi qayg'u va hasrat bilan odamlarni birbiridan ayiradigan tajavBuzkor millatchilik irqchilik mustamlaka bosqinlari va urushlar haqida fikr yuritib: *"Turli sivilizasiyalar birbiridan farklanishi yomon emas, ... daxshatlisi, ularning birbirini yeyishga xarakat ^ilishidir"*, — degan edi. Ko'pni ko'rgan, eng oshr ishlarni zimmasiga olishdan qo'rqmagan SentEkzyuperi insonning o'zligini anglashni ahli bashar oldidagi mas'uliyat hissi bilan boglaydi. *"Inson bo'ligi — bu mas'uliyat sezishingdir, yozadi u, o'zingga aloka sizday tuyulsa xam kashshoklik oldida andisha kilishingdir. O'z gashtingni ko'ya turib, dunyodagi bunyodkorlikka ko'maklashganingni xis etishingdir"*¹. Lo'nda qilib aytganda, o'zga millat va xalqlarni kamsitgan millat hyech qachon buyuk bo'lolmaydi. Buyuk Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi:

"Naf'ing agar xalka beshak erur, Balki bu naf o'zingga ko'prak erur".

Shuning uchun ham milliy g'oya, bir tomondan, *"O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning kadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tik.odi, urfodati va an'nalarini xurmat kilish, ularni asrabavaylash va rivojlantirishga ko'maklashish"* ni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, *"O'zbekiston o'z tashki siyosatida barcha davlatlar bilan teng xukuklilik va o'zaro manfaatdorlik asosida xamkorlik kilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik umuminsoniy kadriyatlarga sodiklik tinchlik va xavfsizlikni asrabavaylash, xalkaro xukuk me'yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal kiladi"*². Demak milliy istiqlool g'oyasi o'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash va umumbashariy o'zlikni anglashni uzviy bog'liqlikda ko'rishga da'vat etib, milliy va umuminsoniy mohiyat ham kasb etadi. Bu borada ma'rifatparvarlik YEOYASI, jadid bobolarimiz faoliyati va ma'naviy merosi muhim o'rin tutadi.



ABDULLA AVLONIY

Yangi davr o'zbek madaniyati, adabiyotining asoschilaridan biri, bolalar adabiyoti, o'zbek milliy teatri, dramaturgiyasi, matbuoti, o'zbek milliy pedagogikasining tamal toshini qo'ygan, xalqimizning asl farzandi Abdulla Avloniydir.

Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi Miravlon aka oilasida tavallud topdi. Avval O'qchidagi boshlang'ich maktabda, so'ng shahar madrasalaridan birida tahsil oldi. Biroq ko'proq mustaqil o'qibo'rgandi, tez orada o'z davrining savodxon, ma'rifatparvar kishisiga aylandi. Avloniy asrimiz boshlarida o'lkamizda avj olgan jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodxon qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko'rish, farovon etish yo'lida fidoyilik bilan mehnat qildi. Ana shu maqsadda juda ko'p sohalarda faol ish olib bordi. 1907 yilda o'z uyida «Shuhrat» nomli gazeta nashr qildi.

U mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi. «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy she'rlar», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yohud axloq» kabi darslik va o'qish kitoblari tuzdi. Maktabmaorif ishlariga yordam ko'rsatish maqsadida xayriya jamiyati tashkil qildi «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do'konini ochdi.

Abdulla Avloniy o'zbek teatrining taraqqiyotida ham alohida xizmat ko'rsatdi. Uning «Turon» truppasi (1913) o'lkamizda tashkil etilgan birinchi professional teatr truppasi edi. Adib dramaturgiyada ham unumli faoliyat olib bordi. Tatar, ozarbayjon dramaturglarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi, o'zi ham «Pinak», «Advokatlik osonmi?», «Biz va siz» nomli pesalar yozib, sahnaga qo'ydi. fevral va oktyabr voqyealaridan so'ng Avloniy «Turon» nomli gazeta nashr etib, unda ilgor qarashlarni ilgari surdi.

1919—1920 yillarda Afgoniston elchixonasida bosh konsul vazifasida ishladi. Xizmatdan qaytgach, ma'rifatparvarlik faoliyatini davom ettirdi. Harbiy o'quv yurtida, O'rta Osiyo davlat universitetida o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi, professor darajasiga ko'tarildi.

Ma'rifatparvar adib, dramaturg, pedagog, noshir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1934 yil 25 avgustda Toshkentda vafot etdi. Toshkentdagi Botkina qabristonida dafn etilgan.



ABDULLA QODIRIY

Abdulla Qodiriy yangi davr o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, o'zbek milliy romanchilik maktabining tamal toshini qo'ygan buyuk adibdir.

U 1894 yil 10 aprelda Toshkentda bogbon oilasida tugilgan. 910 yoshlarida eski usuldagi maktabda tahsil ko'radi. So'ng rustuzem maktabida o'qiydi. 1718 yoshlarida bir savdogarga prikazchilikka yollanib, uch-to'rt yil ishlaydi. So'ng bogbonlik bilan tirikchilik o'tkazadi.

Abdulla Qodiriy ijodi 1913—1914 yillarda boshlands U shu yillari barcha iltor fikrli yoshlar qatori jadidchilik harakatmga qo'shilgan va o'zining ilk asarlarida ma'rifat, millat taraqqiyoti va hurligi g'oyalarini targ'ib eta boshlagan. Qodiriy dastlab ma'rifiy she'rlar yozdi. «Ahvolimiz», «Millatimiz», «To'y» kabi she'rlari jadid matbuotida e'lon qilindi.

1915 yili u Behbudiyning «Padarkush» fojiasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» pesasini yozadi. So'ng o'zi «milliy ro'mon» deb atagan «Juvonboz» hikoyasini yaratadi. Bu asarlar ham, avvalo, ma'rifatparvarlik qarashlari mahsuli bo'lib, jamiyatdagi chirkin illatlar va qoloq urfodatlarni keskin tanqid qilishga yo'naltirilgan.

1916 yilda yozilgan «Uloqda» hikoyasi A.Qodiriy ijodida badiiy izlanishlar rivojini ko'rsatadigan muhim hodisalardandir.

1917 yil fevral va oktyabr voqyealaridan keyin A.Qodiriy hayotida ham, ijodida ham o'zgarishlar ro'y berdi. U sho'ro idoralarida ishladi. «Ishtirokiyun» va «Qizil bayroq» gazetalarida adabiy xodmm, «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan bo'ldi. Moskvada V.Bryusov nomidagi jurnalistlar institutida tahsil oldi.

A.Qodiriy 1925—1926 yillarda «O'tgan kunlar» romanini e'lon qiladi. Bu to'laqonli realistik ilk o'zbek romani bo'lib, Qodiriyning jadidona siyosiy qarashlari yuksak badiiy ifodasini topgan asar edi.

1928 yili yozuvchi «Mehrobdan chayon» romanini e'lon qildi. Bu roman ham adibga katta shuhrat keltirdi. Bundan tashqari, A.Qodiriy «Obid ketmon» qissasining, «Toshpo'lat tajang nima deydi?», «Kalvak maxzumning xotira daftaridan» turkum satirik hikoyalarning, rus va Yearb adabiyotidan o'girilgan qator tarjimalarning ham muallifidir.

Abdulla Qodiriy 1937 yil oxirlarida hibsga olinib, 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda Bo'zsuv bo'yida qatl etilgan.



ABDURAUUF FITRAT

Yirik davlat va siyosat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, ma'rifatparvar Fitrat 1886 yili Buxoroda ziyoli oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda o'qidi, keyin Mirarab madrasasida tahsilni davom ettirdi.

Asrimiz boshlarida vujudga kelgan «Tarbiyai atfol» jamiyati ko'magida 1909—1913 yillarda Istambulda tahsil oldi. Bu yerda qizg'in ijod qildi. Shuning samarasi o'laroq, 1911 yili «Sayha» («Faryod») nomli she'riy to'plamini chop ettiradi. Turkiyadan qaytgach, Buxoroda o'qtuvchilik qiladi. «Yosh buxoroliklar» harakatida faol ishtirok etadi, uning bosh mafkurachisi, g'oyaviy yo'lboshchilaridan biriga aylanadi.

1917 yil aprelidan 1918 yil martigacha Samarqandda chiqib turgan «Hurriyat» gazetasiga muharrirlik qiladi. 1918 yili Fitrat Toshkentga keladi.

U bu yerda asosan ilmiy, ijodiy, ma'rifiy ishlar bilan ko'proq band bo'ldi. U bir qator darsliklar tuzadi, «Chig'atoy gurungi» nomli ijtimoiyadabiy tashkilotda faol ishtirok etadi.

1921 yili Buxoroga taklif etiladi. U xalq xo'jaligining bir qator sohalarini yaxshilashda, ayniqsa, maorif sohasida sezilarli ishlarni amalga oshiradi. Uning tashabbusi bilan bir guruh iqtidorli yoshlar Istambul, Berlin, Moskva kabi shaharlarga o'qishga yuboriladi. Buxoro maktablari uchun o'quv qurollari, darslik va qo'llanmalar nashr etish yo'lga qo'yiladi.

Fitrat 1921—1922 yillarda bir qator yuqori lavozimlarda ishlab, o'zining davlat arbobi sifatidagi iste'dodini ko'rsata oldi.

U 1923—1924 yillarda Moskva va Leningradda yashads Sharq tillari institutida ishladi. Turk arab, fors tillari va adabiyotidan yoshlarga dars berdi. Leningrad dorilfununi professorligiga saylandi. «Abulfayzxon», «Bedil», «Qiyomat», «Shaytonning tangriga isyoni» kabi asarlar yozib, chop ettirdi. Moskvadan qaytgach, respublikamizning ilmiy, madaniyma'rifiy hayotida faoliyat ko'rsatadi.

Fitrat tilshunos olim sifatida o'zbek tilining qoidalari to'grisida «Sarf», «Nahv» asarlarini yozdi.

Musiqashunos olim sifatida «Shashmaqom», «O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi», «Sharq musiqasi» kabi tadqiqotlar yaratdi. 30yillarda u ilmiytadqiqot muassasalarida, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti va dorilfununda ishladi.

1937 yili «xalq dushmani» sifatida hibsga olinib, 1938 yili Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlgohda otib tashlangan.



ABDULVOHID BURHONOV — MUNZIM

Ma'rifatparvar shoir, davlat va jamoat arbobi Mirzo Abdulvohid Burhonov 1875 yili Buxoroda tavallud topadi. Dastlabki ta'limni eski maktabda oladi.

XIX asrning 90-yillaridan Abdulvohid Burhonov Munzim taxallusi bilan ma'rifiy she'rlar yoza boshlaydi, keyinchalik esa amaliy faoliyatida ham ma'rifatparvarlik bilan pgtullanadi. XX asrning birinchi o'n yilligida Munzim yangi usuldagi yaaktab ochish uchun harakat qila boshlaydi. Buxorodagi dastchabki jadid maktabining ochilishi ham uning nomi bilan bog'liq. U 1908 yili Samarqandga borib, jadid maktablaridagi o'qitish uslubini o'rganadi va shu yili o'z hovlisida jadid maktabi, 1909 yilda esa katta yoshdagilar uchun kechki maktab tashkil etadi.

Buxoroda 1909 yildan shakllangan jadidlar tashkiloti avval ma'rifatparvarlik ishlarini olib bordi. Munzim bu tashkilot ishiga faol qatnashib, shu yili bir qator hamfikrlari bilan «Tarbiyai atfol» jamiyatini tuzishda ishtirok etdi. Bu deamiyat buxorolik ma'rifatparvarlar va hur fikrli ziyolilar o'rtasida ilgor demokratik g'oyalarni targ'ib etib, xalqning siyosiy ongini uygotishda katta ahamiyat kasb etdi.

1917 yil fevral inqilobidan so'ng Buxoro jadidlari A.Burhonov boshliq eski jadidlarga, F.Xo'jayev va A.Fitrat boshliq yangi jadidlarga bo'linadi. Birinchi guruhning asosiy faoliyati ma'rifatparvarlik bo'lsa, ikkinchi guruh keng islohotlar tarafdori edi. Keyinchalik bu ikki guruhning birlashuvi natijasida «Yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilib, Munzim unga rais etib saylanadi.

1918 yildan 1920 yilning sentyabrigacha Munzim Toshkentda yashaydi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, u avval Markaziy ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari, keyinchalik Xalq maorifi noziri, Sog'liqni saqlash noziri lavozimlarida ishlaydi.

Xalq maorifi noziri lavozimida ishlagan Munzim 1922 yil iyunida milliy kadrlar, xususan, muhandislar tayyorlash maqsadida bir guruh buxorolik yoshlarni Germaniyaga yuborish to'grisidagi BXSRS xukumati qarorining qabul qilinishiga katta hissa qo'shadi. Shu qarorga asosan, u mazkur ishni tashkil etish bo'yicha komissiya raisi etib tayinlangan edi. 1922 yilning yozida Munzimning shaxsan o'zi buxorolik 44 kishini Germaniyaga olib borib, Berlindagi o'quv yurtlariga joylashtiradi.

1920 yillarning o'rtalaridan boshlab Munzim o'zini tamoman ijodiy va publisistik faoliyatga baxshida etadi,

Abdulvohid Munzim 1934 yilda uzoq davom etmagan kasallikdan so'ng vafot etgan.



ABDULHAMID CHO'LPON

Abdulhamid Sulaymon o'gli Cho'lpon yangi o'zbek she'riyatining asoschilaridandir.

Cho'lpon 1897 yili Andijon shahrida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Cho'lpon avval eski maktabda, so'ng madrasada o'qiydi. Andijondagi rustuzem maktabida ta'lim oladi. Sharq adabiyoti, arab, fors tillarini o'zlashtiradi, rus tili va adabiyotini o'rganadi. Cho'lpon 10-yillarning o'rtalaridan ijtimoiy va ijodiy faoliyat bilan shug'ullana boshlaydi. U «Qalandar», «Andijonlik», «Cho'lpon» taxalluslari bilan matbuot nashrlarida maqola, she'r va turli xabarlar bilan chiqib turadi.

Uning «Do'xtir Muhammadyor», «Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar», «Adabiyot nadir?» kabi ilk hikoya va maqolalarida hamda o'nlab she'rlarida jadidchilik g'oyalarining oshkora ifodalanganini kuzatishimiz mumkin.

Shoirning qisqa umri davomida «Tong sirlari», «Uyg'onish», «Buloqlar» kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. Uning teatr sohasida qilgan ishlari ham alohida e'tiborga sazovor. Cho'lpon o'zbek davlat drama teatrida adabiy emakdosh vazifasida ishlash bilan birga o'nga yaqin pyesalar, teatr maqolalari yaratgan, uning «Yorqinoy», «O'rtoq Qarshiboyev», «Cho'rining isyoni», «Mushtumzo'r», «Zamona xotuni» kabi sahna asarlari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Cho'lpon «Kecha va kunduz» nomli roman e'lon qilib, o'zbek romanchiligi rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu asarida xalqimizning asr boshlaridagi hayoti manzaralarini tasvirlar ekan, istibdod va jaholat millatning taraqqiyotini va hurligini bo'g'uvchi manfur hodisalar ekanmni badiiy aks ettiradi.

O'zbek adabiy tarjima maktabining rivojlanishida ham Cho'lponning beqiyos hissasi bor. U M.Gorkiyning «Ona» D.S.Pushkinning «Dubrovskiy», «Boris Godunov» hamda Shekspirning «Hamlet» tragediyasini va yana o'nlab xorijiy asarlarni o'zbek tiliga mohirlik bilan o'giradi.

Cho'lpon butun ongli hayoti davomida o'z Vatanining ozodligi, erki, kelajagi uchun qaygurdi va yonib she'rlar yozdi, turli janrlarda asarlar yaratdi. U 1928 yildan boshlab to umrining oxirigacha tazyiq ostida yashadi, chunki uning butun ijodida milliy g'oya qizil ip bo'lib o'tgan. U mustabid tuzum ostida ezilib yotgan millatni, xalqni kuylar edi. Lekin tazyiqlar nihoyatda kuchaygan bir sharoitda ham o'z e'tiqodidan qaytmadi. Ana shu e'tiqodi va irodasi tufayli 1937 yil qatagon qurboni bo'ldi.

Cho'lpon 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentdagi Bo'zsuv bo'yida qatl etilgan.



ASHURALI ZOHIRIY

Taniqli ma'rifatparvar, yirik tilsho'nos, lug'atshunos, adabiyotshunos olim, jurnalist va tarjimon, Turkistondagi jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Ashurali Zohiriy 1885 yili Qo'qonda tugilgan. U dastlab Qo'qondagi Madalixon madrasasida tahsil ko'radi, arab va fors tillarini puxta egallaydi, o'zbek va forstojik mumtoz adabiyotini o'rganadi. Xar tomonlama bilim sohibi bo'lgan A.Zohiriy 1907 yildan boshlab rustuzem maktabida, shuningdek jadid maktabida o'zbek tili va adabiyotidan dars beradi. 1912—1919 yillarda esa pedagogik faoliyat bilan birga jurnalist sifatida ham qizg'in ish olib boradi. 1917—1918 yillarda Turkiston Muxtoriyati xukumatining barpo etilishi

A.Zohiriy faoliyatiga yangicha yo'nalish bag'ishlaydi. U «El bayrog'i» gazetasiga muharrirlik qilib, Muxtoriyat g'oyalarining keng xalq ommasi o'rtasida tarqalishiga munosib hissa qo'shadi.

A.Zohiriy faoliyatining 1917 yildan keyingi asosiy yo'nalishi ma'rifatparvarlik bilan bogliq. U Qo'qondagi birinchi dorilmualliminning tashkilotchisi va dastlabki zamonaviy maktablarning muallimi sifatida Fargona vodiysi uchun ko'plab o'qituvchilarni yetishtirib berdi. U asos solgan dorilmuallimin keyinchalik pedagogik texnikumga aylantirildi. 1930 yili esa shu texnikum bazasida Fargona davlat pedagogika instituti tashkil etildi.

AZohiriy erkparvar g'oyalari uchun 1929 yil noyabrida hibsga olinib, o'n yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Qamoq muddatini tugatgach, alloma yana sevimli kasbi ma'rifatparvarlik bilan shurullanadi. Ammo 1937 yilda qatagon bo'roni avj olgach, u yana qamoqqa olinib, o'sha yilning 4 dekabrda otib tashlanadi.

A.Zohiriy qabrining qayerdaligi noma'lum.



ABDUQODIR SHAKURIY

Ma'rifatparvar, pedagog Abduqodir Shakuriy 1875 yilda Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bogbon oilasida tug'ildi. Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o'qishga kiradi. Shakuriy rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o'qitish usullari bilan tanishadi. Shundan keyin yosh muallimda o'z xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo'ladi.

Abduqodir Shakuriy Samarqand gimnaziyasida ko'rgan va o'zi orzu qilgan yangi o'qitish usullari Rossiyaning turli yasoylarida yashagan boshqa turkiy xalqlarda ham mavjudligini gazetalardan bilib oladi.

Shakuriy do'stlari yordamida Qo'qon shahriga boradi va u yerda yangi maktabdagi o'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, o'z qishlosh Rajabaminda 1901 yilning kuzida birinchi yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi.

Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, O'rta Osiyodagi boshqa ma'rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Shakuriy faqat o'qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolmagan, u o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni shaxsiy mablaglari hisobiga nashr qildirgan. Masalan, uning «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish qo'llanmasi») deb atalgan kitobi shu tariqa chop etilgan.

Shakuriy, dastlab, qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilgan. Unda o'zi rahbarligida rafiqasi muallimalik qilgan. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlagan.

1921 yilda Samarqand shaxradagi 13maktabga mudir qilib tayinlanadi. U bolalarni tarbiyalash, o'qitishga katta g'ayrat bilan kirishdi, ko'p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o'qituvchisi vazifalarida ishladi.

1925 yilda AShakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o'z mablag'lari xisobiga to'rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi.

Abduqodir Shakuriy 1943 yilda vafot etgan.



BOBOOVXUN SALIMOV

Davlat va siyosat arbobi, ma'rifatparvar Boboovxun Salimov 1874 yili Gurlan bekligida qozikalon Salimovxun oilasida dunyoga keldi.

Asli ismi Muhammad bo'lib, unga hurmat yuzasidan Boboovxun deb taxallus berilgan. U boshlangich ta'limni olgach, Xiva shahridagi Olloqulixon madrasasida tahsilni davom ettiradi. Arab, fors, rus tillarini o'rganadi, she'rlar mashq qiladi. 1910—1918 yillarda Xiva xoni Asfandiyorxon saroyida otasi o'rnida shayxulislom lavozimini ado etadi. 1917 yil Xivadagi inqilobiy voqyalarda ishtirok etib, parlament sifatida tashkil etilgan Majlis a'zoliciga saylanadi. 1918-1920 yillarda To'rtko'lda yashab, «Yosh xivaliklar» partiyasiga a'zo bo'lib kiradi. 1920 yili xalq vakillarining Butunxorazm I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Adliya noziri lavozimiga saylanadi. Keyinchalik u Xorazmdagi maktab, maorif ishlarida qatnashadi. 1924 yilda Xorazm ruhoniylarining I qurultoyi chaqirilishi va o'tkazilishiga rahbarlik qildi.

B.Salimov islom g'oyalari asosida yangilikka intilishga, shariatda tenglikka erishishga, xon amaldorlarining huquqlari bilan o'sib kelayotgan savdogarlar va sanoatchilar, hunarmandlar va ziyolilar huquqlarini tenglashtirishga intildi. Dastlab u xonlikda mayda huquqiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan taraqqiyotga erishiSh mumkin, deb hisoblagan.

Boboovxun Salimov 20yillar oxirida kommunistik totalitar tuzum tomonidan ziyolilarning ta'qib qilinishi natijasida davlat ishlaridan chetlashtiriladi. Uning qarashlari, maqsad va g'oyalari bolshevistik siyosatga zid edi. Shuning uchun u 1929 yil 10 may kuni kechqurun sovet hokimiyati tomonidan sudsiz, so'roqsiz otib o'ldiriladi. Boboovxun Salimov qabrining qayerdaligi noma'lum.



ISXOQXON TO'RA IBRAT

Isxoqxon Ibrat ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaatchilaridan bo'lib, 1862 yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlogida tugilgan.

Dastlabki ma'lumotni eski maktabda, so'ngra onasining qo'lida oladi. Keyinroq Qo'qonga borib madrasaga o'qishga kiradi.

Isxoqxon Ibrat 1886 yilda madrasani tugatib, To'raqo'rg'onga qaytib keladi. U o'z faoliyatini pedagog sifatida qishloqda ma'rifat tarqatish bilan boshladi. O'sha yili eski mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi.

Isxoqxon Ibrat 1887 yilda haj safariga o'tlanadi. So'ng U Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatni davom ettiradi. Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo'ldi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qilaDi, Bombay va Kalkuttada yashaydi. Isxoqxon u yerlarda ko'p ishlatiladigan arab, fors, hindurdu va ingliz tillarini mukammal o'rgandi. U 1896 yilda o'z vataniga qaytib keldi. 1901 yilda «Lug'ati sitta alsina» asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lutat jadid maktablarida sharq va rus tillarini o'rganishda birdanbir qo'llanma sifatida foydalalanib kelindi.

Isxoqxon Ibrat 1912 yilda yozuvlar tarixiga bag'ishlasgan «Jome' ulxutut» («Yozuvlar majmuasi») asarini yaratdi va o'z matbaasi «Matbaai Ishoqiya»da bosmadan chiqardi.

Ibrat chin qalbdan o'z xalqining ilmi, ma'rifatli bo'lishini istadi. Keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiytarixiy, lingvistik asar yozdi. 30 yillik poyetik ijodining maekmui bo'lmish «Devoni Ibrat» she'rlar to'plamini tuzdi. Tarixshunoslikka oid «Tarixi Fargona», «Tarixi madaniyat» va «Mezon uzzamon» ilmiy asarlarini yaratdi.

Ibratning so'nggi yillardagi hayoti ancha taxlikali o'tdi. 1935 yildan e'tiboran u hamma lavozimlardan olib tashlandi. 1937 yilning aprel oyida 75 yoshli keksa shoir va ma'rifatparvarni hibsga oladilar. Ibrat Andijon turmasida vafot etadi.

Isxoqxon Ibrat qabrining qayerdaligi noma'lum.



MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

Jadidchilik harakatining dargasi, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarqandda ruhoniylar oilasida tugildi.

Togasi Muhammad Siddiq yordamida xatsavod chiqaradi. Eski maktabmadrasada o'qiydi. Arab tilini o'rganadi. Qozixonalarda mirzalik qozilik vazifalarida ishlaydi. 1893-1900 yillarda Makkaga haj safariga boradi.

1903-1904 yillarda Moskva, Peterburg, keyinroq Qozon Ufa shaharlariga boradi. 1914 yilda Arabiston, Misr, kabi bir qator mamlakatlarda bo'ladi.

U o'z davrining yirik islomshunoslaridan biri, muftilik rutbasiga erishgan zot edi. Behbudiy shu bilan birga xamisha bid'atga qarshi kurash olib bordi va o'z asarlarida piyani to'g'ri tushunishga va targ'ib etishga da'vat etdi.

Vaqtli matbuot sahifalarida zamonasining dolzarb mavzulariga bag'ishlangan ijtimoiysiyosiy, tarixiyadabiy maqolalari bilan faol ishtirok etadi. Uning 10yillar Turkiston matbuotida 300 dan ortiq maqolalari e'lon qilingani ma'lum. Ushbu maqolalarning markazida maktab, maorif, madaniyat, ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'iboti turadi.

1913 yilda u Samarqandda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini tashkil etadi. Har ikkala nashrning asosini ma'rifatmadaniyat, millat va ozodlik g'oyalari tashkil qiladi. U 1911 yili «Padarkush» dramasini yaratdi.

Behbudiy yangi usuldagi maktablarning ilk targ'ibotchi va asoschilaridan biri, shuningdek ana shu maktablar uchun darsliklar ham yaratgan yirik ma'rifatparvardir.

Behbudiy 1917 yilgi fevral va oktyabr voqyealaridan keyin Turkistonning mustaqil, ozod bo'lishi uchun tinmay kurashdi va shu yo'lda o'z jonini fido qildi. U Turkistonning milliy davlat qurilishi masalasini o'rta tashladi. O'z xalqi taraqqiyotini nafaqat ma'rifatda, balki uning siyosiy maqomining keskin o'zgarishida, o'z mustaqilligini qo'lga kiritishida deb bildi. Uning «Haq olinur, berilmas!» degan so'zlari jadidlarning shioriga aylandi. U Turkiston Muxtoriyatini olqishladi. Uning hukumatiga a'zo sifatida saylandi. Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgandan so'ng u siyosatdan bosh tortdi va Samarqandda maorif bo'limi mudiri bo'lib ishladi. Lekin mustaqillik umidlaridan voz kechmadi.

Sovetlar hukumatining qirg'inlari, adolatsizliklari avjiga kelganda, bu holni jahonga ma'lum qilish uchun yo'lga otlangan Behbudiy Buxoro amiri tomonidan hibsga olinib, 1919 yilning bahorida Qarshi shahrida qatl etiladi.

M.Behbudiy qabrining qayerdaligi noma'lum.



MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV

Adib, murabbiy, muharrir, ma'rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxon o'gli 1878 yilda Toshkent shahrining Shayx Xovand Tohur dahasi Darxon mahallasida mudarris oilasida tugildi. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida o'qidi, so'ngra tahsilini Buxoroda davom ettirdi, Toshkentga qaytgach, Darxon masjidida imomlik va Xifasini bajaradi.

Munavvar qori XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladi. 1901 yilda o'z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi. Bu maktablar uchun 1907 yilda «Adibi avval», «Adibi soniy» darsliklarini yaratadi. «Tajvid alQur'on», «Yer yuzi» singari qo'llanmalarni tuzib, nashr etadi. Bolalar uchun qator she'riy va nasriy hikoyalar yozadi.

U 1909 yili Toshkentda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tuzadi va «Turon» nomli jamiyatni ochadi. Munavvar qori 1906 yilda dastlabki o'zbek matbuoti namunalaridan biri «Xurshid» gazetasini nashr etdi. Keyinchalik «Najot», «Kengash» gazetalarda bosh muharrir, «Sadoi Turkiston»da esa bo'lim muharriri bo'lib xizmat qiladi.

Munavvar qori 1917 yil fevral inqilobidan keyin Turkistonda demokratik milliy davlatchilikni tuzish g'oyasini ilgari surdi. U Qo'qonda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatini qo'llabquvvatladi.

Sho'ro davrida u o'zining ochiq ma'rifiy ishlarini BZ yashirin siyosiy harakatlarini davom ettirdi. 1918 yilning aprelida Turkiston xalq dorilfununining asoschisi va rektori etib saylanadi. Uning sa'yharakati bilan 1918 yil 2 yayunda dorilmuallimin ish boshlaydi. U 1918 yilda «Turk o'chogi» ilmiyma'rifiy jamiyatini tashkil qiladi.

Munavvar qori 20yillarda o'zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini o'z oldiga qo'ygan «Milliy ittihad» va «Milliy istiqlol» yashirin tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

20-yillarning o'rtalarida milliy ziyolilarni ta'qib qilish kuchayishi natijasida Munavvar qori hamma lavozimlardan chetlashtiriladi. Biroq hatto qatagon ham Munavvar qori Abdurashidxon O'YELINI istiqlol g'oyalaridan qaytara olmadi.

U 1929 yilda qamoqqa olinadi va 1931 yilda otib o'ldiriladi. Uning xoki Moskvadagi Vagankovo qabristonidadir.



MUSO SAIDJONOV

Buxoro jadidchiligining yirik namoyandalaridan va taraqqiyot yo'lida milliy harakatning faol qatnashchilaridan biri. Muso Saidjonov 1893 yili Buxoro shahrida savdogar oilasida tugilgan. Mirarab madrasasini bitirib, Kogondagi rustuzem maktabida o'qigan. M.Saidjonov ilmga qiziqib, arab, fors, turkiy tillar, adabiyot, tarix va geografiya bilan jiddiy shug'ullanadi. 1913 yildan jadidchilik harakatiga qo'shilib, 1917 yilda «Yosh buxoroliklar» partiyasining tashkilotchilaridan biri bo'ladi.

U partiya markaziy qo'mitasining a'zosi etib saylangan. Lekin Muso Saidjonov tabiatan inqilobiy harakatlarga qarshi bo'lib, islohotlarni tadrijiy yo'l bilan o'tkazish tarafdori edi. Shuning uchun ham u 1917 yil Buxorodagi jadidlar tomonidan uyushtirilgan namoyishga qarshi bo'lgan. Amir bilan jadidlar

o'rtasidagi muzokarada qatnashgan. Muso Saidjonov o'zbek xalqi o'zgacha milliy taraqqiyot yo'lidan borishiga ishongan. Uning siyosiy qarashlari kommunistik mafkuraga zid bo'lgan, shuning uchun ham u 1920 yilda Yosh buxoroliklarning kommunistik yo'nalishdagi guruhiga kirmagan. Keyinchalik u siyosatdan uzoqlashib, maorif sohasida faoliyat ko'rsatgan.

Muso Saidjonov umrining oxirigacha ilmga sadoqatli bo'lgan va O'zbekistondagi tarix fani bo'yicha yirik olim va birinchi professorlardan edi. Uning safdoshlari Saidjonovni zehni baland, zakovati yuksak madaniyatli, pokiza axloqli inson sifatida bilishgan.

U 1935 yilda o'zbek olimlaridan birinchi bo'lib sharqshunoslarning III kongressida qatnashadi. Uning ilmiy asarlari tarixning eng muhim davri o'rta asrlar arxitektura yodgorliklari va nodir qo'lyozmalarini tadqiq etishga bagishlangan.

O'zbek milliy ziyolilarining ko'zga ko'ringan vakili sifatida totalitar tuzumning jadidchilik tarixini buzib ko'rsatganiga qarshi chiqqani, o'zbek davlatchiligi tarixiga xolisona yondashgani uchun u 1937 yilda qatagon qilingan.

Muso Saidjonov qabrining qayerdaligi noma'lum



MUXAMMADSHARIF SO'FIZODA

Ma'rifatparvar ziyoli, shoir Muhammadsharif So'fizoda o'zbek madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan zotlardandir. Muhammadsharif Egamberdi o'g'li 1869 yil 29 yanvarda Chustda tugaldi, uning otasi pichoqchi — hunarmand edi. U mahallasidagi qo'shnisi Manzura otinda savod chiqardi. 1893—1898 yillarda u Qo'qonda yashadi va madrasada ta'lim oldi. Qo'qon adabiy muhitining mashhur shoirlari Muqimiy, Muhiy, Zavqiy, Nodim Namangoniy bilan yaqin munosabatda bo'ldi. Bo'lajak shoir dastlabki she'rlariga Muqimiy tavsiyasi bilan «Vahshiy» taxallusini qo'lladi.

So'fizoda 1893 yilda ona shahri Chustda boyonlarni, chor amaldorlarini, mutaassiblarni hajv qiluvchi she'rlari uchun «badasl», «beadab», «dahriy» deb ayblanadi va o'limga hukm qilinadi. Shoir o'z vatanini tark etishga, 14 yil turli mamlakatlarda istiqomat qilishga majbur bo'ldi.

So'fizoda 1900—1913 yillarda O'rta Osiyoning turli shaharlarida, Tiflis, Boku, Arabiston, Hindiston, Turkiyada bo'ldi. U qayerda yashamasin, Toshkent, Kavkaz, Qrim, Orenburg, Turkiyada chop etiladigan gazetalar bilan aloqasini uzmad. Uning maqolalari, she'rlari «Turkiston viloyatining gazetasi», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» gazetalari muntazam chiqib turdi.

1913 yilda So'fizoda chet el safaridan Chustga qaytib keladi va usuli jadid maktabi ochadi. Kamarsada qishlogida yetim bolalar uchun «Dorulaytom» («Yetimlar uyi») va kattalar uchun kechki maktab tashkil qiladi. Bu maktablarda u ona tili, handasa kabi fanlarni o'qitdi.

1914 yilda So'fizoda Turkiston miqyosida hukm surayotgan ijtimoiysiyosiy, ma'naviy tanazzulni fosh etuvchi «Chustilar bizlar» she'rini e'lon qiladi. She'r boshidan oxirigacha «usuli qadim»chilarga mutaassiblarga nisbatan achchiq kinoya, asar qahramonlarining o'zini o'zi fosh etishi uslubida yozilgan edi.

Bu to'qnashuvdan keyin So'fizoda o'z vatani Chustdan quvtan qilindi. U To'raqo'rg'on yaqinidagi Shahand qishlog'ida usuli jadid maktabi ochdi. So'fizodaning bu ishida To'raqo'rg'on Qozisi, ma'rifatparvar, shoir, pedagog Ishoqxon to'ra Ibrat yaqindan yordam berdi.

So'fizoda sho'rolar hukumati davrida ham xalqiga chin Dildan xizmat qilaverdi va adabiyijodiy, pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi. 1937 yilda shoir «xalq dushmani» Deb e'lon qilinib, qamoqqa olindi.

M.So'fizoda qabrining qayerdaligi noma'lum.



OBIDJON MAHMUDOV

Davlat, jamoat va siyosat arbobi, Turkistonning yirik sarmoyadorlaridan biri. Obidjon Abdulxoliq o'g'li Mahmudov Farg'ona taraqqiyparvarlarining peshqadam vakilidir. U Peterburg universitetini tamomlagan, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan birinchi togkon muhandisi edi.

Uning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida 1914 yili Qo'qonda bosmaxona tashkil qilinadi va Fargona jadidlarning «Sadoi Fargona» gazetasi nashr etila boshlaydi. Mazkur bosmaxonada «Sadoi Fargona» bilan birga rus tilida «Ferganskoye exo» gazetasi ham nashr etiladi. «Sadoi Farg'ona» gazetasi nafaqat Turkistonda, balki Rossiya musulmonlari orasida ham mashhur bo'lgan.

Obidjon Mahmudov jadid matbuotida dolzarb maqolalari bilan qatnashib, ma'rifat, ozodlik hurlik toylarini targ'ib etishga, xalqning ongini, saviyasini ko'tarishga iytildi.

O.Mahmudov Turkistonning mustaqil respublika bo'lyshi tarafdori va bunga yetishish uchun faol harakat qilgay jadidlardan biri edi.

1917 yilda Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil etilgach, O.Mahmudov Oziqovqat noziri vazifasiga saylanadi. Oradan ko'p o'tmay, 1918 yil fevral oyida Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan zo'rlik bilan ag'dariladi. Shundan so'ng jadidlarning bir qismi o'z g'oya va maqsadlar. Ya'ni sovet hokimiyati idoralariga joylashgan holda amalga oshirmoqchi bo'ladilar. O.Mahmudov ham shu kezlarda sovet davlati idoralarida xizmat qilib, millatparvarlik taraqqiyparvarlik faoliyatini davom ettirdi.

Atoqli ma'rifatparvar Obidjon Mahmudov 1936 yilning 21 noyabrida vafot etgan.



POLVONNIYOZ XOJI YUSUPOV

O'zbek xalqining taraqqiyparvar siymolaridan, Xiva jadidlari va «Yosh xivaliklar» partiyasining rahbarlaridan biri Polvonniyoz hoji Yusupov 1863 yili Xiva shahrida savdogar oilasida tug'ilgan. 1871 yilga qadar otaonasining, ular vafotidan keyin esa amakisi Yusufboyning qo'lida tarbiyalangan. 13 yoshida eski maktabda o'qib, savod chiqargan. Maktabni bitkizgach, savdo ishlari bilan shugullangan.

Polvonniyoz 1877 yilda amakisi bilan Moskvada bo'ladi. Keyinchalik 1885 yilda jadid maktabini tugatadi. U arab, fors va rus tillarini yaxshi bilgan. 1904 yilda Turkiya, Misr, Suriya mamlakatlarida va Makka shahrida bo'ladi. Polvonniyoz 1917 yil 4 aprelda Xiva xoniga taqdim etilgan davlat boshqaruvida islohotlar o'tkazish to'g'risidagi manifestning tuzuvchilaridan biri edi. Xiva xonining jadidlarga qarshi siyosati natijasida u 1918-1920 yillarda Toshkentga o'tib ketadi va u yerda muhojirlikda bo'lib, «Yosh xivaliklar» partiyasini tashkil qiladi va unga rais etib saylanadi. Xiva xonligi tugatilgach, 1920 yil 30 aprelda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar kengashi raisi lavozimiga tayinlanadi. 1926 yil 10 yanvardan Xorazm viloyat Ijroiya qo'mitasi Raisining xo'jalik bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlaydi. Keyinchalik Ichanqal'a muzeyida xizmat qiladi.

Polvonniyoz Yusupov 1936 yilda vafot etgan.



SAIDAHMAD XO'JA SIDDIQIY — AJZIY

Milliy uyg'onish davrining yirik vakillaridan biri, shoir.

Saidahmad Siddiqiy Ajziy 1864 yil Samarqand viloyatining Jomboy tumani Xdlvoyi qishlogida hunarmand oilasida tavallud topdi. Yoshligida otasi vafot etib, bobosi qo'lida voyaga yetdi. Yangasi qo'lida savod chiqardi. Keyin Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsilni davom ettirdi. Sharq klassik adabiyotini qunt bilan o'rganadi, arab, fors, ozarbayjon va keyinchalik rus tilini o'zlashtiradi.

1880-yillardan o'zi ham an'anaviy usuldagi she'rlar mashq qila boshladi. Biroq zamonasining buyuk kishilaridan biri sifatida e'tirof etilishiga uning ma'rifatchilik faoliyati va ijodi sababdir.

1901yil haj safariga o'tlanadi. Bir qator Sharq mamlakatlarida bo'lib, islom dunyosidagi yangiliklar bilan tanishadi, bir necha muddat Jiddadagi Rusiya elchixonasida tilmochlik qiladi. So'ng Moskva, Peterburg shaharlarini aylanib, Tiflisga o'tadi. Nihoyat, Samarqandga qaytib, 1903 yil Halvoyi qishlogida yangi maktab ochadi.

Shoir keyingi butun hayotini ana shu muqaddas ishga sarf etdi. O'zi ochgan maktabda tabiiy fanlar, arab hamda rus tillaridan saboq berdi, darsliklar tuzdi.

Siddiqiy vaqtli matbuot nashrlarida ham faol ishtirok etdi.

Vatan, ilm ma'rifatga bagishlangan maqolalari bilan Qozon, Orenburg va Kavkazdagi nashrlarda ham qatnashdi. 1914 yili o'z tashabbusi bilan «Zarafshon» nomli kutubxona ochdi.

1910-yillarda shoir «Ayn uladab» («Adab ko'zi») va «Ganzkinai hikmat» («Hikmatlar xazinasi») nomli o'zbek va tok tillaridagi ikki she'riy to'plamini hamda «Mir'oti ibrat» («Ibrat oynasi»), «Anjumani arvoh» («Ruhlar yig'isi») nomli dostonlarini yaratdi.

Siddiqiy 1917 yili «Ittifoq» tashkiloti tomonidan shahar dumasiga vakil qilib saylandi. Samarqand musulmon sho'rosining rais muovini, viloyat adliya noziri bo'lib ishlaydi. Sekin u 1921 yildan barcha rasmiy ishlardan voz kechib, qishloshda, o'zi ochgan maktabda muallimlikni davom ettiradi.

1926 yili qattiq kasallanib, 1927 yilning iyul oyida Samarqandda vafot etgan.



SAIDNOSIR MIRJALILOV

Atoqli ma'rifatparvar, Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalardan biri Saidnosir Mirjalilov 1884 yili Turkiston shahrida tavallud topgan.

Yoshligidan o'ta ziyrak tadbirkor va mehnatkash bo'lgan Saidnosir tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do'konini ochishdan boshlagan. Ko'p o'tmay, u Turkistonda birinchi jadid maktabini tashkil etgan. 1914 yilda paxta zavodini Qurib, Turkistonning taniqli boylari va savdogarlaridan biri sifatida shuhrat qozongan.

S.Mirjalilov 1917 yil siyosiy faoliyatga o'tadi. Fevral inqilobidan so'ng u Toshkentda tashkil etilgan «Sho'roi isLomiya» tashkilotining faol a'zolaridan biriga aylandi. Turkiston mustaqillikka erishishini orzu qilgan Saidnosir Mirjalilov tijoratchi sifatida topgan sarmoyasining katta qismini milliy ittihad va istiqlool uchun olib borilgan kurashga bagishladi. Turkiston Muxtoriyati hukumatining barpo

etilishida faol ishtirok etdi va hukumat a'zosi etib saylandi. Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarlari ta'qib ostiga olingach, S.Mirjalilov xorijga ketishga majbur bo'ldi va dastlab Samaraga borib, Turkistonda ro'y berayotgan xunrezliklarga chek qo'yish yo'llarini axtardi, so'ng Turkiya va Tiflisdan bir muddat yashadi. Bolsheviklar e'lon qilgan umumiy afvga ishonib, u 1921 yili vataniga qaytdi. U «Turkiston» savdosanoat shirkatini tashkil qilib, undan tushgan foyda evaziga «Ko'mak» jamiyati orqali iste'dodli yoshlarni Germaniya va boshqa mamlakatlarga o'qishga yuborish, «Nashri maorif» jamiyati faoliyatini avj oldirish ishiga o'z ulushini qo'shdi. Lekin bolsheviklar kuzatuvidan ozrd bo'lmagan S.Mirjalilov 1925 yil 12 dekabr kuni hibsga fshnib, Solovsk orollariga qamoqqa yuborildi. U uch yillik qamoq muddatini o'taganidan keyin 1932 yili yana besh yil muddatga qamaladi, nihoyat 1937 yil 21 iyul kuni takror hibsga olinib, o'sha yilning 25 oktyabrida otib tashlandi. Saidnosir Mirjalilov qabrining qayerdaligi noma'lum.



TO'LAGAN XO'JAMIYOV — TAVALLO

To'lagan Xo'jamiyov Tavallo XX asr boshlari Toshkent adabiy muhitining ko'zga ko'ringan namoyandaligidan edi. U 1882 yili Toshkentning Ko'kcha dahasida ziyoli oilada tug'ildi. Avval eski maktabda, so'ng Beklarbegi madrasasida tahsil oldi. Beklarbegi madrasasi bu davrlarda Toshkent adabiy hayotining markazlaridan biri edi. Tavallo shu yerda Karimbek Kamiy, Miskin, Xislat, Yusuf Saryomiy kabi zamonasining atoqli shoirlari bilan tanishadi. Ayniqsa, Yusuf Saryomiy bilan yaqin aloqaga kirishib, uni o'zining piri, ustoz sifatida e'tirof etadi. «Tavallo» deb taxallus olishi ham mazkur ustoz da'vati bilan bo'ladi.

Tavallo o'zi yashab turgan voqyelik mohiyatini, Turkistonning chor istibdodi ostida xuquqsiz, zabun bir qismatga mahkum ekanligini anglagan pallada, ya'ni 1905 yillardan boshlab jadidchilik harakatlariga qo'shiladi. Bu harakatning barcha muhim jabhalarida ishtirok etadi. Xususan, milliy matbuotimizning ilk namunalari hisoblangan «Taraqqiy», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Fargona» gazetalarida uning she'r va maqolalari muntazam chiqib turadi. 1914 yil avgustida toshkentlik taraqqiyparvar yoshlar tomonidan tashkil etilgan «Nashriyot» shirkati muassislari qatorida To'lagan Xo'jamiyov nomi ham uchraydi. 1913 yilning o'rtalarida Toshkentda birinchi milliy teatr truppasi faoliyat boshlaydi. 1914 yilning 27 fevralida «Kolizey» teatr binosida namoyish etilgan «Padarkush» spektakli shu truppaning ilk milliy teatr tomoshasi edi. Tavallo bu harakatning ham tashkilotchilari va jonkuyarlari qatorida ko'rinadi. Ana shu voqyeaga bag'ishlab maxsus she'rlar yozadi.

1916 yili Tavallo o'zining matbuotda e'lon qilingan va bosilmagan she'rlarini to'plab, «Ravnaq ulislom» nomi bilan chop ettiradi. To'plamda yetmishga yaqin she'r jamlangan bo'lib, ularning deyarli barchasi ma'rifatparvarlik ruhi bilan yo'grilgan.

Tavallo 1917 yil oktyabr to'ntarishidan so'ng turli idoralarda ishladi. «Mushtum» jurnalida hajviy she'rlar bilan faol ishtirok etdi.

Shoir 1937 yili ko'plab safdosh hammaslamlari qatori haqsizlik qurboni bo'ldi. Hibsga olinib, qamoqda vafot etdi.

Tavallo qabrining qayerdaligi noma'lum.



UBAYDULLA XO'JAYEV

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, davlat va siyosat arbobi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'li 1880 yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Rustuzem maktabini tamomlagach, davlat muassasalarida tarjimonlik bilan shug'ullangan. Keyinchalik Saratov universitetining huquqshunoslik fakultetini muvaffaqiyat bilan tamomlagan. Ubaydulla Xo'jayev dastlabki o'zbek advokatlaridan biri edi. O'qishni tugatgach, u Toshkent okrug sudida advokat bo'lib xizmat qiladi. O'z atrofiga yoshlarni to'plab, «Umid» yashirin jamiyatini tuzdi. Keyinchalik bu tashkilot «Taraqqiyparvar» deb nomlanib, jadidlarning asosiy tashkilotlaridan biriga aylandi.

Ubaydulla Xo'jayev 1914 yilda mahalliy sarmoyadorlarning ko'magiga tayangan holda «Sadoi Turkiston» gazetasini o'z muharrirligi ostida chop etadi. U ushbu gazeta sahifalarida milliy o'zlikni anglashga da'vat etuvchi, mahalliy xalqning siyosiy ongini oshirishga xizmat qiluvchi ko'plab maqolalar e'lon qiladi. Gazeta yopib qo'yilgach, Ubaydulla Xo'jayev Andijonga keladi va rus tilida «Turkestanskiy golos» gazetasini nashr etadi.

1917 yil fevral inqilobidan keyin u Turkistondagi mustaqillik va taraqqiyot uchun milliy harakatning faol rahnomalaridan biriga aylanadi. Toshkent «Sho'roi islomiya» tashkilotiga rais, Butunrossiya musulmon sho'rosiga esa a'zo etib saylanadi. U 1917 yilda bo'lib o'tgan barcha Turkiston va Butunrossiya musulmonlari syezdlarida ishtirok etadi. Ko'qonda bo'lib o'tgan favqulodda o'lka musulmonlarining syezdi uni

Turkiston Muxtoriyatining Xarbiy noziri etib saylaydi. Turkiston Muxtoriyati tormor etilgach, Ubaydulla Xo'jayev Orenburgga boradi va Boshqirdiston Muxtoriyati hukumatini tuzishda faol ishtirok etadi.

1920—1938 yillarda sovet hokimiyatiga zid bo'lgan siyosiy qarashlari uchun uni bir necha bor tazyiq ostiga oladilar 1938 yilda barcha taraqqiyparvar o'zbek ziyolilari qatori u ham qatatoniga uchraydi va otib tashlanadi.

U.Xo'jayev qabrining qayerdaligi noma'lum.



FAYZULLA XO'JAYEV

Atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, «Yosh buxoroliklar» partiyasining rahbarlaridan biri Fayzulla Xo'jayev 1896 yili Buxoro shahrida yirik savdogar oilasida turilgan. U yoshligida eski maktabni bitirib, Buxoro madrasasida o'qigan. 1907—1912 yillarda F.Xo'jayev Moskvada shaxsiy o'qituvchilardan ta'lim olgan. 1913 yildan jadidlar safida faoliyat ko'rsatgan va xalq orasida ma'rifat tarqatish bilan shutullangan. 1917 yildan u «Yosh buxoroliklar» partiyasi tashkilotchilaridan biridir. Buxoro jadidlari so'l qanotining inqilobiy ruhdagi a'zolaridan bo'lib, 1920 yilda amirni taxtdan ag'darishga harakat qiladi.

1920 yilda Turkistonda muhojirlikda bo'lib, «Yosh buxoroliklar» partiyasining Turkiston byurosini tashkil qilgan. F.Xo'jayev tomonidan tuzilgan partiyaning dasturi shariat asosida bo'lib,

xalqning milliy an'analari va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda Buxoroda xalq demokratik respublikasini tashkil etishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Milliy istiqlool g'oyasi — milliy o'zlikni tarbiyalash, qadrlash, saqlab qolish omili milliy istiqlool g'oyasi mustahkam hayotiy zaminga, xalqimizning chuqur tarixiy ildizlariga tayanadi. "Kim edik?" degas savolga javobni tinimsiz izlashga da'vat etib, milliy o'zligimizni teran idrok etishga yordam beradi.

Inson "bir parcha go'sht" bo'lib dunyoga keladi va u dastlab tabiiy instinktlar bilan yashaydi. Sekinasta o'zi yashaydigan oila muhiti keyinroq mahalla, ta'lim olgan bilim dargohi, jamiyat ta'sirida inson dunyoqarashi shakllanadi shaxsga aylanib boradi. Jamiyatdan tashqarida esa, u hayvonot dunyosining boshqa vakillaridan unchalik farq ham qilmaydigan, o'zligini anglashga qodir bo'lmagan oddiy jonzodligicha qoladi. Jamiyatdan tashqarida o'zining insoniy sifatlarini yoaqlab qolgan Robinzon Kruzo yoki Maugli kabi adabiy qahramonlar faqat hayotot mahsulidir.

Mashhur ingliz yozuvchisi Daniel Defoni Robinzon obrazini yaratishga turtki bergan real shaxs — Aleksandr Selkirk tarixi bunga yorqin misol bo'la oladi. O'zi bilan ziddiyatga borgan bu matrosni kema kapitani kimsasiz orolga tushirib qoldiradi. U atigi 4 yildan sal ko'proq vaqtni yolg'izlikda o'tkazadi. Ammo shu qisqa vaqt ichidayoq u odamdek so'zlashni, muomala qilishni unutadi, bir so'z bilan aytganda, butkul insoniy qiyofasini yo'qotadi.

Demak kishining Inson martabasiga erishmog'i, o'zligini tanishida ma'naviyijtimoiy muhit va jamiyatda o'ttirgan tajribasi, bilimlari, tarbiyasi muhimdir. Inson tafakkuriga oila, jamiyatdagi tarixiy shartsharoit, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy holatlar o'z ta'sirini ko'rsatar ekan, uning o'zligini milliy o'zligini anglashda ta'limtarbiyaning ahamiyati benihoya katta. *"Fa'atgina chinakam ma'rifatli odam inson kadrini, milliy kadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustakil davlatimizning jaxon xamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin"*¹.

Shuning uchun ham, milliy g'oya voqyelikka aylanishi, taraqqiyotga xizmat qilishi uchun milliy ma'naviy tiklanish zahirida fuqarolarimiz ongutafakkurini o'stirish zarur. Milliy o'zlik tuyg'usini, uni qadrlashni tarbiyalash lozim. Abdulla Avloniyning aytgan *"tarbiya bizlar uchun yo xayot yo mamot, yo najot — yo falokat masalasidir"*, — degan so'zlari bugungi kunda yangi mazmun kasb etib, o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Avloniy yana deydi:

Xudoning raxkati fayzi x&ma insonga yaksardur, Va lekin tarbiyat birla yetushmak shart akbardur. Tugub tashlov ila bo'lmas bola bo'lgay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul raxnamo sizga. Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim, Buzulsa xulsi, Lukmon o'gli bo'lsa, bo'lgusi zolim. "Yomonlarga ko'shildi Nuzrshng o'gli, bo'ldi beimon, Yurudi Kaxf iti xo'blar ila bo'ldi oti inson".

"Ma'naviyat bilan quvvatlanmagan bilim yovvoyi odam qo'lidagi cho'qmorga aylanadi", degan edi bir alloma. Kishilik tarixida o'z bilimi, iste'dodini nopok ishlarga, buzgunchilikka sarf etib, o'z yaqinlari, xalqi, butun insoniyat boshiga kulfat yog'dirgan kimsalar oz bo'lgan deysizmi? Yozuvchimiz O'lmas Umarbekov shu ma'noda "Odam bo'lish qiyin" degan qissasini yozadi va unda jamiyatimizdaga ma'naviy qashshoqlik jarayoni ko'rsatilgan. Shu jihatdan jadid ziyolilaridan biri Muhammad Sa'id "Oyina" jurnalidagi maqolasida (1914 yil 31son) komil inson tarbiyasi haqida fikr yuritir ekan, Ibn Ma'sudning gaplarini keltiradiki, jadidlarning bu boradagi fikrlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganini ko'ramiz: *"Xar kishining iymoni ilmi kadar, xar kishining ilmi sa'yi kadar, x.ar kishining sa'yi nomusi Kadar, xar kishining nomusi yeijdoni kadar va xar kishining vijdoni xam aning adab va tarbiyasi kadardir!"*².

"Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy axlokiy kadriyatlarisiz yashay olmaydi. Ularni pisand kilmagan jamiyat piroyeard — okibatda tanazzulga yuz tutadi". Prezident I.Karimovning hikmatga aylangan bu so'zlari bashariyat tarixs xususan, xalqimizning ming yillik ma'naviy axloqiy yuksalish tarixi borasidagi chuqur bilimlar e'tirofi natijasidir. Shuning uchun ham yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq IX sessiyasida (29 avgust 1997 yil) so'zlagan nutqlarida ta'limtarbiya sohasidagi islohotlar mazmunini shunday belgilab bergan edi: *"Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kgrak"*¹.

Ayni shunday ta'lim va tarbiya ko'rgan shaxslargina "kim edik?", "kim bo'ldik?", "kim bo'lmoqchimiz?" degan savollarga tinimsiz javob izlaydi. Shunda kishilarimiz milliy madaniyatimiz sarchashmalariga avaylab y^unosabatda bo'lishni o'rganadi, jahon madaniyatini chuqurroq bilishga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib yashashga intiladi. An'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uygunlikda ko'ra biladi. Shundagina xalqimiz milliy o'zligini kundankunga teran anglab, ma'naviy yuksalishga erishadi, kelajakka ravshan ko'z bilan qaraydi. Ana shunda milliy g'oya ijtimoiy hayot sohalariga tadbiq etilib, moddiylashadi va taraqqiyot omili bo'lib xizmat qiladi.

8MAVZU MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY QADRIYATLAR.

Reja .

1. Milliy ma'naviy qadriyatlar tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi.
2. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning uzviy bog'liqligi.
3. Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, kurinishlari.
4. Milliy qadriyatlar milliy g'oyaning ma'naviy negizi.

Har qanday ijtimoiy hodisaning, shu jumladan, milliy g'oyani va milliy ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish uchun quyidagilarga aniqlik kiritish: tushunchaning ta'rifi (definitsiyasi); tushunchaning tavsifi (xarakteristikasi); milliy ma'naviy qadriyatlarning mazmuni; ularning kelib chiqishi va rivojlanishi (evolyusiyasi); ijtimoiy maqsadi va vazifalari (funktsiyalari); tuzilishi (strukturasi); amal qilish usul va vositalari (texnologiyasi); shakllari va ko'rinishlari tasnifi (klassifikatsiyasi) va nihoyat, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta'sirini bilish lozim.

«Qadriyat» tushunchasi — juda keng tushuncha. Uning bir qismi — ma'naviy qadriyatlardir. Milliy ma'naviy qadriyatlar «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Muayyan millat vakillari uchun zarur va aqamiyatli, aziz va ardokli bo'lgan, manfaati va maksadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, yeoyalar va me'yorlar milliy ma'naviy Qadriyatlardir.*

Xar bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va Qadrini yo'qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'az xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqand Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urfodat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bular millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzuuvidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasmrusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'rianoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Milliy G'OYA va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

birinchidan, milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi;

uchinchidan, milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi.

Yuksak ma'naviyat — kelajak poydevori.

Islom Karimov

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya — jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

O'zbekiston istiqbolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiynazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ayni paytda, buyuk kelajakni yaratish yo'lida xalqni birlashtirib, yakdil qila oladigan, bunyodkorlik ishlariga safarbar etib, ruhiy tayanch bo'la oladigan milliy g'oyani shakllantirish muammosi yurtboshimiz Islom Karimovning diqqat nazaridan bir daqiqa ham chetda qolmadi.

«O'zining eqayotini, oldiga ko'ygani maksadlarini anik tasavvur kiladigan, o'z kelajagi xakida kayeuradigan millat xech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»¹.

Islom Karimov

Binobarin, ma'naviyat, qadriyat va milliy g'oya — xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyijtimoiy sohalardir.

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, butungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mexdati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega.

O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urfodat va marosimlarni tahlil kilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o'n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bo'nga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi kiyinish, ovqatlanish, to'yxashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo'ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'raydi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uygotish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osoriatiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilmfan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urfodat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'limtarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *tarixiy meros* va *tariosiy xotira* muhim o'rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

O'zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. *Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunolari, kadimiy ko'lyozmalar* — milliy ma'naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrli va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylabasrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.

Ilm-fan va uning yutuchushri — milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutushga aylantiradi.

Milliylilik xalqning ruhiyati va ma'naviyati, ayniqsa, *san'at va adabiyot* rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *axlokiy sifat, diniy 'adriyatlar* munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Shularni hisobga olib, prezident Islom Karimov «TurkistonPress» agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddanavlodga yetkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtiradi: «*Diniy kadriyatlar, islomiy tushunchalar es&yotimizga shu k&dar singib kgtganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'kotamiz*»¹, deb ta'kidlaydi.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, *urfodat va marosimlarda* to'laonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan royalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'zo'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar — milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya — millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir.

Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsadmuddaolarini, orzuumidi va ishonche'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfa

at va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlool g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi, Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

«Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagi milliy xususiyatlar qayd etilgan:

- xalqimiz hayotida qadimqadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, elyurt tushunchalarining muqaddasligi;
- otaona, mahallako'y, umuman, jamoatga yuksak hurmate'tibor;
- millatyushg o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga — hurmat, kichikka — izzat;
- mehrmuhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi — ayol zotiga ehtirom;
- sabrbardosh va mehnatsevarlik;
- halollik mehroqibat va hokazo»¹.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehroqibat, muruvvat, andisha, ornomus, sharmuhayo, iboiffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik mehmondo'stlik oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligani ta'kidlash lozim.

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

O'zbek oilalarida uchto'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobobuvilar, otaonalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar.

Har bir bo'g'inning o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqeyi bor.

Oila — muqaddas. Oila qurish — o'ta mas'uliyatli ishdur. «Oila eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga yetkazish, ilmhunar berish, uylijoyli qilish — aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi — bolachaqli bo'lish, bularning to'yini, orzuhasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlanish nuqta — start pozitsiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadur. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga yetgach, oilasi, otaonasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda — u ham avlodlar vorisligiga chek qo'yib, oilasini tark etadi.

O'zbeklarda yoshlar uchun juda yuqori start pozitsiyasi yaratib, hayotga yo'llanadi. Uylanayotgan yigitga kamida 12 xonali uy, turmushga chiqayotgan qizga mebel jihozlari va uy anjomlari taqdim etiladi. Ikki yosh farzandli bo'lgach, o'z navbatida, estafetani qabul qilib, keyingi avlodni hayotga tayyorlay boshlaydi. Ushbu milliy qadriyat oilaviy munosabatlarda ham vujudga kelishi mumkin bo'lgan begonalashuv jarayonini bartaraf etadi, avlodlar vorisligi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda, bu qadriyat, yoshlardagi boqimandalik begamlik o'z hayoti uchun mas'uliyatni faqat kattalarga topshirib qo'yish kabi illatlarni inkor etadi, o'z kelajagani o'z qo'li bilan yaratishga ishtiyoqni ragbatlantiradi. Ahil oilalarda aksariyat masalalar o'zaro fikr almashuv, maslahat va kengash orqali hal etiladi. Erxotin, qaynonakelin, akaukalar orasida sodir bo'ladigan ba'zi ixtiloflar mahalla va qarindoshurug'lar vositachiligada bartaraf etiladi.

Maqalla o'zo'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla — tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. O'zbek xalqining hayoti, kundalik turmush, qadriyatlari bilan tanishgan xolis fikrli xorijliklar mahallani noyob qadriyat, buyuk kashfiyot sifatida e'tirof etmoqdalar.

Ko'niko'shnicilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim yerlarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatning oldini olish muhim.

O'zbek xalqining qadriyatlari tizimida qo'shnilarga munosabat katta o'rin egallaydi. Xalq yaratgan maqol va matallar (mas, «Yon qo'shnim — jon qo'shnim», «Uzoqdagi karindoshdan yaqindagi qo'shni afzal», «Hovli olma — qo'shni ol» va xq) uning bu masalada o'ziga xos falsafasi borligidan dalolat beradi.

Yaxshi qo'shnicilik munosabatlari buzilgan, arziyas sabab bilan qo'shnilar yuz ko'rmas bo'lgan hollarda qanchalar teran milliy qadriyat oyoq osti bo'lganligi, bag'rikenglik va murosa tamoyili lat yeganligi ayon bo'ladi.

Keksalarga xurmat inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azguncha jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehmuruvvat ko'rsatish — insoniy fazilatdur. Bularsiz milliy g'oyamizni tasavvur eta olmaymiz.

Rivoyat qilishlaricha, bir qabilada shunday odat bo'lgan ekan: otasi qarib, kuchdan qolgach, o'gai orqalab, kimsasiz toqqa eltib tashlarkan. Bir farzand otasiga rahmi kelib, yashirincha ovqat olib borib, padarini o'limdan saqlabdi. O'yutani parishon ko'rgan ota buning sababini so'raganda, yurtda vabo tarqalgani, chorasini topilmayotganini bilibdi. Donishmand chol aytgan yo'lyo'riq tufayli balo daf bo'libdi. Yana bir payt tabiiy ofatdan, keyingi safar dushmanning hujumidan qariyaning maslahatlari qabilani qutqaribdi. Yigitning «dono»ligi sabablarini yurtdoshlari so'raganda, u o'lim jazosi xavf solsa ham, otasini asrab qolganini, uning o'git va maslahatlari as qotganini aytibdi. Shushu keksalar hurmatini joyiga qo'yish rasm bo'libdi. «Keksani qopda saqla, o'ligani hafta saqla».

Kattalarni hurmat qilishdek milliy qadriyat, ba'zan yoshi va ilmi ulug'lar qolib, mansabi yuqorilarga qulluq qilish kabi salbiy holatlarni e'tirof etmaydi. Ayni paytda, xalq tomonidan ko'rsatiladigan yuksak ehtirom keksalarga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Ayol zotiga ehtirom — insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning eng yuqori faqat ismlari qolganligi hammaga bilgulidir», deb uqtirgan. Insonning jamiyatdagi o'rnini, qadriyatini, erkinligi, manfaatlari — hozirgi jamiyatimizda adolat mezonini bo'lib hisoblanadi. Adolatga intilish xalqimiz ruhiy dunyosiga xos eng muhim xususiyatdir. Adolatparvarlik toyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi lozim. Milliy mafkura — g'oyaviy ta'sir ko'rsatish yo'nalipsharidan biri — adolatni ulug'lash, adolatparvarlik xis-tuyrusini rivojlantirish bo'lsa, uning mavqeyi, qudrati oshgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlar milliy g'oyaga ma'naviy zamin, negiz bo'lib xizmat qilmoqsa. Unga xalq, millat, jamiyat amal qilish uchun kuchli, qudratli, ta'sirli milliy mafkura kerak.

9MAVZU
MILLIY G'OYANING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI.
Reja

1. Milliy g'oyaning milliy tamoyillari
2. Milliy g'oyaning umumbashariy tamoyillari.

Milliy istiqlol g'oyasining ma'nomazmunini va uning millat hayotidagi o'rnini mukammal tushunib yetish uchun eng avvalo, unga zamin bo'ladigan nazariy va amaliy negizni aniqlab olish muhim ahamiyatga molik. Shu nuqtai nazardan, milliy istiqlol g'oyasining tarixiy, falsafiy ildizlari uning tamoyillari ham birbiri bilan uzviy bog'liqlikdadir. Ularning uzviy bogliqligi negizida umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi yotadi. Demak uning asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik g'oyasi bilan bogliqdir. Darhaqiqat, bugungi kunda bu so'zni juda ko'p ishlatamiz. Shu o'rinda nega insonparvarlik milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolmoqda, degan savol tutiladi. Buning birinchi sababi mustaqillik tufayli insonparvar va demokratik jamiyat barpo etish imkoniyati paydo bo'ldi. Ana shu imkoniyatni voqyelikka aylantirishda ikkita muhim masalani hal etish zarurati vujudga keladi.

Ulardan birinchisi — odamlarning ongi va tafakkuridagi mustabid tuzum asoratlardan, uning g'ayriinsoniy g'oyalaridan, shuningdek yakka mafkurachilik tamoyilidan tozalashdir. Bunga eripshshning bir qator yo'nalishlari mavjud. Eng muhimi, yangi jamiyatda insonning tub manfaatlariga mos ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdan iboratdir. Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik tamoyillari inson va jamiyat manfaatlari uyg'ushshgini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi kuch hisoblanadi.

Ikkinchi sababi — insonparvarlik tamoyilida umumbaShariy tamoyillar bilan bir qatorda millat tafakkuri, ruhiyati va fikrlash tarzi, qarashlar xilmaxilligi o'zaro uyg'unlashtiriladi. Bu jarayon mamlakatimiz taraqqiyotida barqarorlik xavfsizlik masalalari bilan hamjihatlikda tutashgan holda namoyon bo'ladi.

Milliy g'oyaning umumbashariy tamoyillari haqida fikr yuritganda mustaqillik yillarida insonparvarlik masalasining ustuvor yo'nalishga ega bo'layotganligi tasodifiy h₀₁ emas. Ma'lumki, insonparvarlik haqida juda ko'plab Sharq va Garb mutafakkirlari o'z fikrlarini bayon etishgan. Masalan, qadimgi Xitoyda ilk insonparvarlik ROYASINING ijtimoiy fikrlari Konfusiy (e.o. 511-479 y.y.) ta'limotida, qadimgi Markaziy Osiyoda «Avesto» kitobida, buddizm dinida, Xristian dinining ajr g'oyasida, ya'ni jafokashlar va bechoralarga ilohiy saltanatda baxt va ozodlik berishni va'da qilganligi, islom dinida yetti aqidada o'z ifodasini topgan. Shuningdek xalqaro huquqdagi «Inronparvarlik huquqi» atamasi ham mavjudki, ushbu atama birinchi marta qurolli mojaro yuzaga kelgan holatda madaniy qadriyatlarni himoya qilish to'grisidagi konvensiyada ishlatilgan edi¹. Millat taadiriga daxldor bo'lgan g'oyalar eng avvalo, milliy zamin bilan bogliq bo'ladi. Unga tayanmagan, undan bahra olmaydigan yoki undan uzilib qoladigan g'oyalar millat manfaatlariga ham xizmat qila olmaydi.

Bu jarayonda ikki muhim qonuniyat amal qiladi:

Birinchi qonuniyat millatning o'ziga xos xususiyatlar va mentalitetga ega ekanligi. Ular millat taraqqiyoti va istiqboli uchun asosiy manba hisoblanadi. O'z negizlari asosida rivojlanish yo'lidan bormaydigan millat istiqbolda, o'zligini yo'qotadi. Uni hisobga olish, amal qilishini millatning o'z negizlariga tayanib rivojlanish qonuniyati deb aytish mumkin bo'ladi.

Ikkinchi qonuniyat har qanday jarayonda bo'lgani kabi milliy rivojlanishda ham vorislik qonuni amal qiladi. Uning mazmuni shundaki, barcha jarayonlar o'zo'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular shu yo'nalishda mavjud bo'lgan oldingilari bilan bogliq bo'ladi. Uning negizida yuzaga keladi, undan keyingi taraqqiyot uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan elementlarni qabul qilish asosida, yangisi shakllana boshlaydi. Bu jarayon vorislik qonuni hisoblanadi.

U millatning o'z negiziga asoslanib rivojlanishi shart bo'lgani uchungina emas, balki barcha jarayonlar uchun ham amal qiladi. Bu vorisliqlik qonuniyatning xarakterli xususiyatidir.

Uning milliy taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, u millatning o'z negizlari asosida rivojlanishi uchun imkoniyatlar salmog'ining mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.

Milliy G'OYA shakllanishida ana shu ikki qonuniyatning uyg'unligi asosiy hisoblanadi.

Albatta, milliy g'oya negazlari faqat millatning tor doiradagi zaminlari bilan cheklanmaydi. Shuning bilan bir qatorda, umumbashariyat erishgan ilg'or yutuqlarga ham tayanadi.

Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ijtimoiy rivojlanishning quyidagi to'rtta asosiy negizini belgilab bergan edi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹ kabilardir.

Ko'rinib turibdiki, ular da milliy g'oya tamoyillari umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro uyg'unlaishib ketgan.

Ana shu negizlar asosida milliy g'oyamizning asosiy tamoyillari shakllanadi. *Xo'sh, bu prinsip nima? Tamoyil biror bir ta'limopg, dunyokarash yoki faoliyatning kat'iy amal kiladigan koidasi va me'yorini anglatuvchi tushuncha xisoblanadi.*

Shu ma'noda ham milliy g'oyaning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, ular asosida milliy rivojlanishning dolzarb vazifalari amalga oshirilmoqda.

Milliy G'OYANING asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

- milliy ong, milliy tafakkurning va milliy o'zlikni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- millatni birlashtirishga qaratilganligi;
- millat manfaatini ifodalashi;
- ilgor milliy urfodatlar, an'analar va qadriyatlarning mustahkamlanishi va rivojlanishiga asos bo'lishi;
- milliy gurur, iftixor va mas'uliyatning shakllanishi va mustahkamlanishiga zamin bo'lishi;
- ko'p millatli mamlakatimiz aholisida yagona Vatan ruhiyatining shakllanishiga asos bo'lishi;
- milliy meros, tarixiy xotirani asrash, o'zlashtirish va keyingi avlodga yetkazishning ma'naviyruhiy manbasi bo'lishi;
- yoshlarimizda Vatanparvarlik millatparvarlik xalqparvarlik va umuminsoniylik ma'naviy, ruhiy salohiyatini shakllantirishga qaratilganligi;
- millatimizning mustaqil subyekt sifatida maqomini aks ettirish;
- millatimizning ozodligi, mustaqilligi va taraqqiyotiga ma'naviyruhiy tayanch bo'lish;
- millatimizning o'zi bilan yonmayon yashayotgan millat va elat vakillarini o'z atrofiga uyushtirish, ular bilan tinchtotuv yashash, ularga hurmat, ehtirom bilan qarash, yordam ko'rsatish, hamkorlikni mustaxdsamlash va ular asosida yagona o'zbekiston xalqi tuyg'ularining shakllanishiga manba bo'lishi;
- millatimizning zamonaviy sivilizasiyalariga munosib hissa qo'shishiga ma'naviyruhiy kuchqudrat va ilhom bagishlashi;
- O'zbekiston xalqida milliy xavfsizlik va milliy taraqqiyot ruhiyatini shakllantirish va mustahkamlashning nazariy asosi bo'lish;
- komil inson g'oyasini o'zida aks ettirish kabilarni tashkil qiladi.

Milliy g'oya milliy ong va tafakkur mahsuli hisoblanadi. Ularning rivojlanishi natijasida milliy o'zlikni anglash yuzaga keladi. Milliy tafakkur millat hayot tarzi, xususiyatlari va faoliyati, uning maqsadlari va manfaatlari negizlarining milliy ongda namoyon bo'lishidir.

Milliy ong millatning o'ziga xosligi asosida rivojlanib borishidagi ko'rsatkichi bo'lsa, milliy o'zo'zini anglash manfaatlarni himoya qilishda harakatga keltiruvchi ichki ma'naviyruhiy salohiyatidir¹.

Aslida, milliy ong, milliy tafakkur va milliy o'zlikni anglashdan iborat bo'lgan uchlikka amal qilmagan, uni o'zida aks ettirmagan yoxud uni rivojlantirishga va mustahkamlanishga yo'nalmagan g'oya o'ziga milliy g'oya maqomini ham olaolmaydi. Chunki, ana shu uchlikning millat mavjudligining ham real ifodasi hisoblanadi. Milliy g'oya milliy ong va milliy tafakkurning oliy ko'rinishi, uning reallikka aylanishining belgisi hisoblanadi. Ularning o'zaro ta'siri natijasidagina milliy o'zlikni anglash omili shakllanadi va millatning «men»i yuzaga keladi. Millat o'zo'zidan shakllanmaydi, balki u jamiyat tarixiy taraqqiyotining mevasidir. Uning to'laqonli millat maqomiga yetishi uchun har bir etnik birlik milliy tilning, madaniyat, urfodat, an'analar, qadriyatlardagi o'ziga xosligini ya'ni, milliy o'zligini anglashi lozim¹.

Ana shu o'ziga xoslik orqali milliy g'oya namoyon bo'ladi. Milliy g'oya o'ziga xoslikni mustahkamlaydi, va uning millat vakillari dunyoqarashiga aylanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, milliy totuvlik hamjihatlikning vujudga kelishiga olib keladi. Shu ma'noda uning eng muhim tamoyili millatni birlashtirishga qaratilganligi hisoblanadi.

Milliy manfaatlar milliy g'oyada mustahkam ifodalangan bo'lsagina milliy hamjihatlik mustahkam bo'ladi. Shu ma'noda ham milliy g'oyaning qudrati milliy manfaatlarni to'laqonli ifodalashi bilan belgilanadi.

Milliy ROYANING yana bir tamoyili, uning milliy urfodat, an'ana va qadriyatlarni mustahkamlash va rivojlanishiga asos bo'lishi hisoblanadi. Ular millatgogag o'ziga xosligini eng yuksak darajada ifoda etadi. Uning mustahkamlanishi va rivojlanishi milliy g'oyaga bog'liq bo'ladi.

Milliy gurur, iftixor va mas'uliyat kabi tuyg'ularning shakllanishi ham milliy g'oya bilan bogliqdir.

Milliy gurur har bir insonning millat vakili sifatida o'zo'zini anglaish natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy holat hisoblanadi. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlodajDodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosDan, o'z millatining jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasidan, o'z Vatanining taraqqiyotda erishgan yutuqlaridan, Millatining o'zga millatlar oldidagi qadrqimmat, obro'e'tiboridan ruhining ko'tarilish hissiyotidir.

Milliy iftixor har bir millat vakilining o'z millatining, taraqqiyotning barcha yo'nalishlarida erishgan yutuqlaridan faxrlanish, shodlanish kayfiyati hisoblanadi.

Milliy mas'uliyat esa har bir millat vakilining o'z millati bugungi, ertangi kuni va istiqboli uchun o'zini dahldor ekanligini his qila bilishdir.

Bu tuyg'ular negizida milliy g'oya turadi. Uning asosiy vazifasi ham ana shu tuygularni shakllantirishga yo'nalganligi bilan belgilanadi. Chunki, ular har bir millatning taraqqiyotga erishish va yuksalishida asosiy omil bo'ladi.

Insoniyat aql zakovati yuksalib borayotgan, uning oldida yechish murakkab bo'lgan global muammolar ko'lami kengayib borayotgan butungi kunda milliy g'oya tor manfaatlar emas, balki mamlakatda yashayotgan barcha halqlarning manfaatlarini ifoda etib yagona Vatan tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Albatta, umumiy Vatan tuyg'usini shakllantirish bu har bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarning barbod bo'lishiga emas, balki umumxalq ruhiyatining shakllanishiga olib keladi. Yagona Vatan rux^shti nafaqat mamlakat nomi bilan ataluvchi millat vakilida, xuddi shuningdek unda yashayotgan o'zga millat va elat vakillarida ham vatanparvarlik unga egalik qilish, uning istiqboli oldida mas'ullik kabi hissiyotning shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun ham milliy g'oya bugungi kunda bir millat doirasidan umumxalq doirasigacha bo'lgan manfaatlarni uygunlashtirishga asos bo'lmoqsa.

Milliy meros, tarixiy xotirani asrash, o'zlashtirish va ularni keyingi avlodga yetkazishda milliy g'oya ma'naviyruhiy manba hisoblanadi. U ana shu ma'naviyruhiy salohiyatdagi milliylikni «asrash», ularga kuchquvvat bagishlab turish vazifasini amalga oshiradi. Shuning bilan bir qatorda, millat vakillarini milliy ma'naviy boyliklar bilan oziqlantiradi, ularda o'z merosini asrash va uni keyingi avlodga yetkazish ruhiyatini ham shakllantiradi.

Bu jarayonda milliy g'oya bir tomondan milliy ma'naviy boyliklarni asrash omili bo'lsa, ikkinchi tomondan, millat avlodlarini o'zaro bog'lab turish vazifasini ham bazkaradi. Undagi mavjud milliylik omili avlodlarni o'zaro ma'naviyruhiy jihatdan boglab turadi va shu tariqa milliy meros va tarixiy xotiraga umrboqiylikning baxsh etylishida milliy g'oya asosiy omildir.

Milliy g'oyaning milliy meros va tarixiy xotiraning asosi bo'lishi nafaqat milliy o'ziga xoslikni, shuningdek millat vakilida yuksak iroda, e'tiqod kabi fazilatlarni shakllanishida manba rolini bajaradi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek «Tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson... Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi» *.

Mamlakat yoshlarida vatanparvarlik millatparvarlik xalqparvarlik va umuminsoniylik kabi tuygularni shakllantirish ham milliy g'oyaning muhim tamoyili hisoblanadi. Chunki, boshqa har qanday g'oyalarga qaraganda ham unda o'zini anglaran har qanday inson qalbi, yuragi va ongiga ta'sir etuvchi nozik tuygular mujassamlashgan. Xususan, inson o'zinio'zi anglab, men kimman, mening avlodajdodlarim kim, qaysi millatga mansubman, mening ona zaminim qayerda, — degan savollarni o'ziga berish va unga javob topishni milliy g'oyadan, uning ulkan negizlaridan izlaydi. U savollarga boshqa birona g'oya javob bera olmaydi.

Milliy g'oyaning yana bir tamoyili, birining ikkinchisiga o'xshamaydigan xususiyatlarga ega ekanligi, o'zgalarning ma'naviyruhiy holatini aynan qabul qilaolmasligi bilan bogliqdir. Bir millatning ma'naviyruhiy salohiyati shakl va mazmun jihatdan ikkinchisida takrorlanmasligi ularning har biriga o'ziga xos individuallik baxsh etadi. Ana shu individuallik milliy g'oyada o'z ifodasini topadi. Bu har

bir millatning mustaqil subyekt sifatidagi maqomini ta'minlab turadi. O'ziga xos individuallik milliy ma'naviy taraqqiyot go'zalligini ifodalaydi va ularning ilgor qirralari orqali umumbashariylikka daxldor bo'lgan ma'naviy boylik vujudga keladi.

Milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan yana biri millatning ozodligi, uning mustaqilligini ta'minlashda ma'naviy-ruhiy manba bo'lishidir.

Millatning mustaqil bo'lishi, uning o'z taqdirini o'zi hal etish imkoniyatiga ega bo'lishida milliy g'oya asosiy manba bo'ladi. Chunki, u nafaqat millatga mustaqil subyekt maqomini baxsh etadi, shuning bilan birga, uning mustaqil taraqqiy qilishini zaruriyat va ehtiyojga aylanishini ham ta'minlaydi.

Chinakam milliy taraqqiyot g'oyalari, har doim o'zida adolat, tenglik tinchlik va demokratiya tamoyillarini aks ettiradi. Ular har bir millat uchun eng zarur ehtiyoj hisoblanadi. Chunki, adolat buzilgan joyda ziddiyat, tenseizlik mavjud bo'lgan sharoitda ishonchsizlik tinchlik bo'lmagan joyda parokandalik demokratiya bo'lmagan joyda insonning erkin nafas olishi imkoniyatini yuzaga chiqarish mumkin bo'lmaydi.

Ko'rinib turibdiki, ularning har biri millatning istiqboli uchun zarur bo'lgan omillardir. Milliy g'oya shu ma'noda ham ularni o'zida mujassamlashtirishi hamda milliy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlariga aylanishiga xizmat qilishi zarur.

Ular har qanday ilgor milliy g'oyaning umumbashariylikka daxldor bo'lgan qirralari hisoblanadi. Ulardan mahrum bo'lgan milliy g'oya, chinakam umummilliy g'oya darajasiga ko'tarila olmaydi.

Milliy g'oyaning umumbashariy tamoyillari Milliy g'oya millatning manfaatlari va ehtiyojlarini umuminsoniy tamoyillarni o'zida uyg'un holda aks ettirishi bilan xarakterlanadi. U umuminsoniy tamoyillarga zid emas, balki uning negizida, shakllanadi. Ya'ni, milliy g'oyaning tamoyillari umuminsoniy tamoyillar negizida shakllanmaydi, aksincha milliy tamoyillarning ilgor, barcha xalqlar manfaatlari va ehtiyojlariga javob beradigan jihatlari hisobiga umuminsoniy tamoyillar shakllanadi. Ana shu xulosaga muvofiq milliy g'oyaning umuminsoniy tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

- milliy mahdudlik agressiv millatchilik va shovinizmdan xoli bo'lish;
- urush olovini yoqish, o'zga millatlarga zulm o'tkazishdan xoli bo'lish, mamlakatlararo beqarorlikni vujudga keltirish vositasiga aylanmaslik;
- adolat, tenglik tinchlik bunyodkorlik va demokratiya g'oyalarini o'zida ifoda ettirish;
- jahon xalqlari yaratgan sivilizasiya yutuqlarini asrash va keyingi avlodga yetkazishda ma'naviy-ruhiy omil bo'lish;
- insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashviqot qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishga xizmat qilish;
- diniy bagrikenglik toylarini o'zida ifodalash;
- inson xaqhuquqlari, shaxs erkinligi va hur fikrlilikni himoya qilish;
- qonun ustuvorligini, millatlararo hamjihatlashishni va siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va mustahkamlashga asos bo'lish;
- har bir millatning urfodatlarini, an'analari va qadriyatlarini hurmat qilish, ilgor tajribalarini o'rganish va o'z millati erishgan yutuqlarini ularga yetkazish;
- vayronkor va turli garazli g'oyalarga qarshi kurash va bunyodkor g'oyalar rivojlanishining omili bo'lish kabilardir. Ular o'z mazmun va mohiyati jihatdan har bir milliy g'oya uchun xos bo'lgan umuminsoniy tamoyillardir.

10MAVZU
MILLIY ISTIQLOL G'OYASINING
BOSH MAQSADI — OZOD VA OBOD VATAN, ERKIN VA FAROVON XAYOT QURISH
Reja

1. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot qurish g'oyasining negizlari.
2. Milliy g'oya- erkni va farovon xayot kurish omili sifatida.
3. Jamiyat barkarorligi- erkin va farovon xayot kurish omili.
4. Urta ijtimoiy katlamning shakllanishi va farovon xayot kurishning uzaro alokadorligi.

Xalqimiz asrlar davomida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot orzusida yashab keldi. Bu g'oya xalqimizni o'z mustaqilligidan judo bo'lgan davrlarda ham tark etmads. Bugungi kunda O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi asosiy maqsadi — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lib, bu g'oya millatimizning azaliy orzuomidlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatining ma'nomazmunini ifodalaydi. Moddiy olamda inson muayyan makonda tugiladi va hayot kechiradi, shaxs sifatida shakllanadi. Ana shu makon unga Vatan sanaladi. Dilida Vatan tuyg'usi shakllanmagan, kindik qoni to'kilgan zaminga mehr tuyg'usi jo'sh urmagan kishini chinakam Inson deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, inson baxtsaodat uchun tug'iladi. U ana shu baxtsaodatga o'zi tug'ilibo'sayotgan Vatanida erishmoqni orzu qiladi. Bu unga o'z baxtsaodatini yurt rivoji, uning ozod va obodligi bilan uyg'un ko'rishni anglatadi.

«Ozod Vatan», «Obod Vatan», «Erkin va farovon hayot» tushunchalari shu jihatdan o'ziga xos ma'no va mazmun kasb etadi.

Ozod Vatan o'z taqdirini o'zi mustaqil hal etish huquqini to'la ro'yobga chiqara olgan millatning yashash makoni bo'lib, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga, nufuziga va mavqeyiga ega bo'lgan mamlakatdir.

Obod Vatan — fuqarolari erkin va ozod, yaratuvchilyag faoliyati bilan band bo'lgan, to'la ijtimoiysiyosiy xavfsizlikda farovon hayot qurish ishtiyoqida yashayotgan hududdir

Erkin va farovon xayot — odamlarning yuqori darajadagi moddiy va ma'naviy ne'matlarga erkin tarzda, o'zlarining bor qobshshyatlari va imkoniyatlari evaziga erishishidir.

Mustaqillik milliy qadriyatlar, madaniyat va an'analarni, ma'naviyatni tiklab, odamlarimiz qalbida milliy gurur va iftixor hamda vatanparvarlik tuygularini kamol toptirishga zamin yaratdi. Shuningdek mustaqilligimizning o'ziga xos mafkurasiga aylangan milliy istiqloL g'oyasi ming Yillar davomida shakllanib, sayqallanib kelgan millatimiz ma'naviyati sarchashmalaridan, butun insoniyat to'plagan tajriba va qadriyatlardan oziq oladi. Shu boisdan ushbu g'oyaning milliy va umuminsoniy jihatlari haqida batafsilroq to'xtalib o'tish joiz.

«Bu sohadagi eng asosiy vazifamiz, — deb ta'kidlaydi Prezident Islom Karimov, — milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy ROYA va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdaga o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligani kuchaytirishdir.

Lekin turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos maqsadlarini uygunlashtiruvchi g'oya — yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati barchamiz uchun birdek muqaddas bo'lishi shart.

Tom ma'noda mana shunday olijanob tuyg'ular milliy g'oya va milliy mafkuramizning ma'nomazmuniga, mana shu yurtda yashaydigan har qaysi insonning hayot dasturiga aylanishiga erishish darkor¹. Yurtimizda yashab ijod qilgan islom falsafasi namoyandalari — imom Buxoriy, imom AtTermiziy, Ahmad Yassaviy, Abulqosim Zamaxshariy, Abduxoliq Yeijduvoni, buyuk qomusiy olimlar — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek Mutfakkir shoirlar — Yusuf Xos Hojib, Alisher Navo ulug' sarkardalar va davlat arboblari Amir Temur, Abdullaxon ijodida va amaliy faoliyatlarida erkin, farovon jamiyat royalari aks etganligi bejiz emas. Shu bilan birga, Sharq mutfakkirlari insonparvar jamiyat qurish toyasini odil shohga bog'laydilar (Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumi, Bahoviddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Yeazzoliy, Bedil va b.). Bu kabi mutfakkirlar hokim va xalq, shoh va saltanat munosabatlarida adolatli ish tutish, davlatni qonunlar orqali boshqarish, qabul qilinayotgan tadbirlarning xalq tomonidan qo'llanishi kabi ijtimoiy muammolarni ko'taradilar². Bu ozod Vatan, xalqparvar tuzum ydeallarini asoslash edi.

Tasavvufning ko'pgina namoyandalari ham o'z ilmiy va amaliy faoliyatlarida erkin jamiyat g'oyasini ilgari surganlar. Xasan Basriy, Abdulla Ansoriy, Abulhasan Haraqoniy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xo'ja Ahror Valiy, Mahdumi A'zam Kosoniy adolat, haqiqat kuychilari bo'ldilar.

Darhaqiqat, barcha davrlar va xalqlar mutafakkirlari baxtsaodat keltiradigan tuzum haqida orzu qilib kelganlar. Bu haqda ko'plab mutafakkirlarimiz qarashlari to'grisida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Lekin birgina Forobiy qarashlari misolida baxtsaodatga, farovonlikka jamiyat ahli qanday erishadi, degan yuanning milliy g'oyamizda aks etgan jihatlariga to'xtalib o'tish joiz.

Forobiy fikriga ko'ra, har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shu ma'noda, Forobiy fikriga ko'ra, haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kipshlarni birlashtirgan jamiyat fozil jamiyatdir.

Abu Nasr Forobiy o'zining «Talxisu Navolisi Aflotun» («Aflotun qonunlari mohiyati») asarida fozil jamiyat konsepsiyasini bayon qilishni qonunlar haqida fikr yuritishdan boshlaydi. Buyuk mutafakkirning fikriga ko'ra, insonning xavfsiz yashashi uchun birgina farovonlikning o'zi yetishmaydi. Inson jasorati esa tashqi urushdaga jasorat emas, balki odamlarning o'z illatlari ustidan rolib kelib, tinchlikni ta'minlashlaridir¹. Demak insonlarning o'zaro munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan harakatidan farovon jamiyat sari intilishning ilk bosqichi kelib chiqadi.

Forobiyning qarashlariga ko'ra, «eng mushkul ish — qonunni joriy qilishdir. Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa eng oson ishdir.» Bugungi huquqiy davlat barpo etish jarayonlarida bu kabi o'gitlarning o'ziga xos o'rni bor. Ayniqsa, uning qonunga hurmat bilan qarashning ahamiyati haqidagi fikrlari e'tiborga molik. Buyuk alloma shunday deb yozadi: «Qonunning o'zi o'z holicha oliyjanob va yuqori martabali bo'lishi kerak va uning nomidan hamda u (qonun) haqda nimaiki gapirilsa ham mo'tabar hisoblanishi lozim... Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o'rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradilar. Aks holda qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi»².

Demak Forobiy har qanday odamda ham tahsinga loyiq insoniy quvvat ham hayvoniy kuch mujassamligini ta'kidlagan holda qonun aynan tahsinga sazovor insoniy quvvatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarurligini uqtiradi. Shaharning hamma aholisiga kelganda, agar ular tahsinga sazovor quvvat kasb etishga kuchlari yetmasa, yo'l ko'rsatuvchi qonun sohiblarining adolatlariga bo'ysunishi kerak bo'ladi.

Fozil jamiyat haqidagi tasavvurlarni bugungi kunda demokratiya deb nomlanayotgan qadriyatlar tizimiga ko'p jihatdan mosligini ko'ramiz. Xususan, demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan qonunlarni joriy qilish muammasi ham bundan mustasno emas. Uning fikriga ko'ra, chinqonun o'rnatuvchi yangi qonun qabul qilayotganida mamlakatdagi barcha tabaqalar, avlodlarga, viloyatlar aholisiga baxtsaodat, shodhurramlik erkinlik va farovonlik keltirishini hisobga oladi. Qonun turlituman fe'latvor hamda xislatlarga ega bo'lgan odamlar xayrixohlik bilan kutib olishiga arziydigan bo'lishi zarur¹.

Ma'lumki, Forobiy fozil jamiyatning asosiy xususiyati deb baxtsaodatga intilishni tushunadi va baxtsaodatga intilmaydigan jamiyatni johil jamiyat deb baholaydi. Baxtsaodat esa oliy darajadagi ezgulik bo'lib, unga ssshaq, go'zallik boylik kabi qadriyatlar yetaklaydi. Johil va adolatsiz odamlar uchun ezgulik yo'q va ular baxtga erisha olmaydilar. Ular uchun hatto hayot ham bir kulfatdir. Mutafakkir fikriga ko'ra, saodatga oqillik va unga hamisha intilib yashash orqali erishish mumkin. Shunday ekan, qonun mustahkam ruh va oqil idrok tarbiyasiga yo'naltirilgandagina farovonlik tomon yetaklaydi. Demak rahbar xalq, ommani tarbiyalashga, uning ruhi va idrokini mustahkamlashga harakat qilmog'i zarur.

Bugungi kunda biz barpo etayotgan jamiyatning oliy maqsadlaridan biri insonlarning farovon hayotini ta'minlashdir. Jamiyatni boshqarishda odamlarni farogatda yashashga imkon beruvchi, birdamlikka yetaklovchi, intizomni shakllantiruvchi qonunlarni yaratish ayni biz ko'zlagan maqsadga xizmat qiladi. Shunga bog'liq tarzda aytib o'tish joizki, XX asr boshlarida ozod yurt qayg'uyeida yashagan Abdulla Avloniy bu haqda shunday degan edi: «Intizom deb, qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi.

Insonlar bir daqaqa yasholmas edilar... Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartib ila yuritmakga bog'liqdur... Ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkarurlar»².

O'z yurtlarini ozod va obod ko'rishni orzu qilgan jadiD ziyolilar ham tarbiya masalasiga alohida e'tibor qilganlari bejiz emas edi. Yana bir bor Avloniyning Forobiy fikrlariga hamohang mulohazalariga e'tibor beraylik. «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati, deb ta'kidlaydi Avloniy, — yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bogliqdur».

Ko'rinib turibdiki, Forobiy va Avloniy turli davrda yashaganliklariga qaramay, odamlarni erkin va farovon jamiyatga *tarbiya* orqali yetaklashga da'vat qilganlar.

Forobiy yuyasiga ko'ra, fozil jamiyat faqatgina odamlar jamoasi borligi uchungina fozil deb atalmaydi, balki adolatli qonunlarga va boshqaruv qoidalariga rioya qilgani, dono rahbarga ega bo'lishga, odamlarning tahsinga loyiq odatlari va axloqini ro'yobga chiqarishga shartsharoit yaratgan jamiyat bo'lgani uchun ham fozildir.

Mamlakatdagi tuzumning go'zal va yaxshi bo'lishi xukmdorning bilimdonligi va o'zga tuzumlardagi farovonlik va boshqa ijobiy jihatlardan xabardorlik bilan borliv; degan fikr ham Forobiyni zamonaviy demokratiya nazariyotchilari qatoriga qo'yishimizga imkon beradi. Buning ustiga, fuqarolik jamiyati haqidagi hozirda ko'plab bildirilayotgan fikr mulohazalar ham mutafakkirning nazaridan chetda qolmagan. Forobiy mamlakat aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan takdirda kuchli hokimiyatga ehtiyoj turiladi deb ta'kidlaydi. «...Xrkimiyat ixtiyoriy qabul qilinganda ko'proq ma'qul va har tomonlama qulay hisoblanadi... johil odamlar ustidan hukmronlik va ularni hokimiyatga bo'ysundirish haqiqatan to'g'ri ish bo'lishi bilan birga, erkin va mehrshafqatlilarni bo'ysundirish o'ta bema'nilikdir»¹. Darhaqiqat, komil inson ustidan hukmronlikka ehtiyoj yo'q. Komillikka intiluvchi insonlar faoliyati fozil jamiyatni shakllantiruvchi omillardan biridir.

Mutafakkir fozillar shahrining ziddi bo'lgan shaharlar (jamiyat) haqida ham fikrlar bildiradiki, bu holat Hozirgi zamon jamiyatining ayrim jihatlari tanqidiy Munosabatda bo'lishni talab qiladi. Forobiyning ogohlantirishi shundaki, johil jamiyat aholisi baxtsaodatga intilmaydi, baxtsaodat nimaligini bilmaydi ham. Chunki, Johil odam hyech qachon baxt topmagan va baxtsaodatga ishonmaydi xam. Farovonlikka kelsak johil odam (haqiqiy obodonlikni bilmasdan) ba'zilar nazarida baxtu davlat bo'lib ko'rinadigan o'tkinchi, yuzaki narsalarni, moldunyoni, jismoniy lazzatlarni, xirsu shahvatni, obro', amal, shonshuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylaydi. Shu ne'matlardan har biri johil odam nazarida hayotdan maqsad, baxtsaodat bo'lib ko'rinadi.

Moddiy va ma'naviy ne'matlaryugag barchasi birgalikda uykunlashgan chog'dagina haqiqiy baxtsaodatga erishish mumkin. Bu ne'matlaryushg teskarisi tan kasalliklari, kambagalchilik zavq va lazzatdan mahrumlik hurmat va obro'ning yo'qligi — baxtsizlikdir. Yolgiz jismi talablarini, hirsini qondirish, ishlat, kayfsafoga intilish baxtsaodatni bildirmaydi. Ehtiroslar tizginini jilovlamay, shaxsiy istaklarini tinimsiz qondirishga intilishlar ham shular jumlasidandir. Forobiy, shuningdek birbirlarini maqtashni, ko'kka ko'tarish, birbirlarining oldida yoki begonalar ko'ziga ulug'vor, shonshavkatli bo'lib ko'rinishga soxta urinishlarni ham johillikning ko'rinishi sifatida baholaydi.

Farovonlikka intiladigan jamiyat a'zolarining o'z g'oyalari, ixtiyoriy amal qilishga jazm etgan qadriyatlariga sobitligini talab etadi. Forobiy fikriga ko'ra, fozil jamiyat aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlariga nisbatan begona g'oyalar asta kirib olib, ularning qarashlarini o'zgartirib yubormasligi kerak. *Zgro, inson baxtsaodat nimaligini Shushungan bo'lsayu, unga erishishni maksad kilib olmasa, g'oya va xox'ishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsada, ishv va zavk sezmasa, istak va mulox.azasini, kuch va kuvvatini boshka narsalarga sarflasa, bu kilmishlari noo'rindir.* Insonlik mohiyati haqiqiy baxtsaodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxtsaodatga erishadi. Inson, avvalo, baxtsaodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxtsaodatga olib boradigan amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So'ngra esa baxtsaodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmogi lozim bo'ladi. Forobiyning ushbu fikrlari bugungi kunda o'z milliy g'oyasining pirovard maqsadi sifatida fuqarolik jamiyatini barpo etishni ko'zlayotgan jamiyatimizning maqsadlariga hamohang ekanligini anglash mushkul ish emas.

Xullas, farovon jamiyat g'oyasi mustaqil va barqaror taraqqiyot yo'liga kirayotgan jamiyatlar uchun ikki hissa qadrlidir. Shu ma'noda, uning umuminsoniy jihatlari, demokratik mohiyatiga ulkan e'tibor berilayotganligi tabiiydir. Prezident Islom Karimov milliy va umuminsoniy qadriyatlarga

tayangan holda ozod va obod Vatan, demokratik yasamiyat qurish jarayoniga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratayotganligi ham shundan. Zero, *mamlakatimizda farovon, ilgor jamiyat barpo etish — maksad, amalga oshirilayotgan isloxo'tlar — vosita bo'lib, jamiyatimizda xukm surayotgan ijtimoiysigsiy barkarorlik o'z navbatida, isloqotlar uchun shartsharoitdir.*

Milliy g'oya — erkin va farovon hayot qurish omili sifatida Mamlakatimizda demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati asoslarining shgkllanishi haqida fikr yuritar ekan, Prezident Islom Karimov jamiyatning demokratiyalashuvini uzoq muddatli jarayon sifatida baholaydi, demokratiya royalarini shunchaki bayon qilish, yuqoridan tushirish bilan uni odamlarimiz hayotiga singdirib bo'lmasligini uqtiradi. «Demokratiya, — deb ta'kidlaydi I.A.Karimov, — jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmosh kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratkya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashgirishtan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir»¹.

Demokratiyani jamiyatning ustuvor qadriyatiga, uning barQaror taraqqiyoti omiliga aylantirish uchun adolatli jamiyat orzusi yo'lida insoniyat to'plagan tajriba va amaliyotni muttasil o'zlashtirish zarur. Bunda sharqona demokratiya tamoyillari tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, inson tabiati ziddiyatlidir. U boshqalar intilishlariga teskari bo'lgan intilishlarga ega bo'lishi va shu vaqtning o'zida o'zgalar bilan hamkorlikka moyil bo'lishi mumkin. Inson tabiatiga xos ana shu qaramaqarshshsk uning jamiyatdagi hayoti va xatti harakatlarini ham belgilaydd. Odamlar bir tomondan shaxsiy erkinlikka intilsalar, ikkinchi tomondan ijtimoiy tenglikni talab qilishga moyil bo'ladilar. Odamlar o'z manfaatlarini ko'zlashlari bilan birga umumijtimoiy manfaatlariga ham intiladilar. Ammo bu qaramaqarshi mayl (tendensiya)larni, shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaatlarini qanday qilib muvofiqlashtirish mumkin? Jamiyat bu muammoshshg yechimiga demokratiya mexanizmlarini ishga solish orqaligina kela oladi. Aynan demokratiya va umumiy manfaatlar vobastaligi ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishga xizmat qiladi. Demokratiya doimiy qutb «ziddiyat — kelishuv — birdamlik» orqali o'ziga yo'l ochar ekan, kishilarning o'zaro roziligi, kelishuviga tayanadi. Gap shundaki, demokratiya — bu yolg'iz o'z maqsad va talablarini amalga oshirish vositasi bo'lmay, balki o'zaro munosabatlarning maqbul qoidalariga rioya etishdir. Umuminsoniy, xususan, demokratik qadriyatlarga tayangan milliy istiqlool g'oyasi ana shu qutbiy intilishlarni muvofiqlashtirish orqali umumiy manfaatlarni o'zida ifoda etadi.

Jamiyat barqarorlig'i — erkin va farovon qayot qurish omili Uzbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillarida shu narsa aniq isbotini topdiki, ozod va farovon hayotni barpo etishning asosiy omillaridan biri barqarorlikdir. Oxirgi yillarda jahon hamjamiyatida barqaror rivojlanish konsepsiyasi keng ommaviylashmoqsa. Xususan, BMT hujjatlarida ham barqaror taraqqiyot oliy qadriyat sifatida talqin qilinishi barobarida uning universal xususiyatlari, turli modellarining kuchli va zaif tomonlari tahlil etiladi.

Mutaxassislar orasida barqarorlik deganda demokratik tuzilmalarning tez o'zgaruvchan ijtimoiy jarayonlarga nisbatan aksta'sir ko'rsata olish qobiliyati tushuniladi. Bunda barqarorlik demokratiyaning vazifasi deb qaraladi, u kishilarning fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlatni boshqarishdagi ishtirokini ham o'z ichiga qamrab olishi zarur. «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyatga o'tish» qoidasi hozirda demokratik institutlarni joriy etishni yasadallashtirish, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik jamoatchilikning faolligiga asoslanishi zarurligini ko'rsatmoqda.

O'z o'rnida aytib o'tish joizki, «barqarorlik» tushunchasi ko'plab yondashuvlarni o'ziga jamlagan. Ularni quyidagi ko'rinishda umumlashtirib keltirish mumkin: a) jamiyatda noqonuniy zo'rlik va kuch ishlatish tahdidining bo'lmasligi; b) birmuncha uzoq vaqt davomida bir hukumatning amal qilishi, uning o'zgaruvchan sharoitlarga samarali tarzda moslashuvchanligi; v) konstitusion tartibning barqarorligi; g) legitim hokimiyatning barqaror mavjudligi; d) siyosiy tizimda tuzilmaviy o'zgarishlarni boshqarish imkoniyatining mavjudligi; i) siyosiy kuchlarning muvozanati va b.

Fikrimizcha, bunday xususiyatlar demokratlashuv jarayonini boshdan kechirayotgan jamiyatlarga xos umumiy me'yorlardir. Ammo umumiylik doimo xususiylikdan tarkib topadi. Bizning mamlakatimizda barqaror taraqqiyot, uning asosiy omillari va shartlari Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida batafsil keltirilgan. Mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti mavjud shartsharoit bilan bogliq holda tahlil etilgan va uning shartlari ko'rsatilgan. Bular: a) ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi; b) davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash; v)

demokratik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish; g) bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinfining shakllanishi; d) kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligining ortishi¹.

Bir so'z bilan aytganda, barqarorlik birorbir siyosiy obyekt yoki institutning holatinigina emas, balki ichki va tashqi munosabatlar tizimini ham ifodalashi zarur. Ijtimoiysiyosiy barqarorlik demokratik tartib bilan birga uzviylikni, davomiylikni ham talab etishini aytib o'tish zarur.

Shunday qilib, demokratiyatni ta'minlash boshqaruv tizimini, fuqarolik tartibini, boshqaruvning qonuniyligi va ishonchliligini ifodalovchi ijtimoiysiyosiy barqarorlik sharoitidagina amalga oshirilishi mumkin. O'z navbatida, demokratik taraqqiyot ozod va obod Vatan barpo etish yo'lini ta'minlaydi.

Demokratik jarayonlar samarasi faqatgina siyosiy institutlarga emas, fuqarolarning ushbu jarayonlarda ishtirok etishiga ham bogliq. Siyosiy hayotdagi ishtirok demokratik tartibot va jarayonning muhim mezon bo'lib, unda siyosiy subyektlarning siyosiy munosabatlar va hokimiyat tizimiga jalb etilganligi darajasi, ayniqsa, saylovlar jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda, demokratiya jamiyatda saylovchilar ovozi uchun oshkora, barchaning ko'zi oldida halol raqobatga kirishishni va aholining keng guruhlarining siyosiy jarayonga «kiritilganligini» taqozo etadi.

O'rta ijtimoiy qatlamning shakllanishi va farovon hayot qurishning o'zaro aloqadorligi Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot 'qurish g'oyasi erkinlashtirish, erkin mehnat faoliyati va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bo'liq. Boqimandalik yoki soxta «umumiy tenglik» g'oyasiga asoslanib erkin va farovon hayot kurib bo'lmaydi. Dunyodagi birorta jamiyat bu yo'l bilan farovon hayotga erishgan emas. Erkin iqtisodiy faoliyatga asoslangan bozor iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan erkin va soglom raqobat muhitida o'rta mulkdorlar qatlami shakllanib boradi. Bu esa, o'z navbatida, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishning sosial negizi hisoblanadi.

Xo'sh, o'rta ijtimoiy qatlamning o'zi nima? O'rta ijtimoiy qatlam bu o'z shaxsiy mulki, ya'ni turar joylari, shaxsiy transport vositalariga ega bo'lgan, o'z oilasining hayotini munosib tarzda ta'minlay oladigan, o'zining va oila a'zolarining fundamental ehtiyojlarini (ta'lim olish, dam olish, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish) qondirish uchun yetarli moddiy imkoniyatlari mavjud bo'lgan, ma'naviy hayoti mazmunli bo'lgan va eng muhimi — bu imkoniyatni o'z ish haqi va daromadlari evaziga ta'minlay oladigan hamda faol ravishda jamiyat ijtimoiysiyosiy hayotida ishtirok etadigan fuqarolardir.

Jamiyatning aynan o'rta qatlami milliy boylikning asosiy qismini yaratadi, davlat qaramog'ida boqimandalarcha kun kechirmaydi va jamiyatning "umurtqa suyagi" ni tashkil etadi. Bunday qatlamning shakllanishi, shuningdek jamiyatning keskin tabaqalashuviga — oshib-toshib ketgan boylari, kambag'alqashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirish, fuqarolar birdamligini ta'minlash asosida umumiy farovonlikni o'rnatishning eng sinalgan vositalaridan biri ham jamiyatda o'rta qatlamni barpo etish ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining shakllanib borishi jarayonida daromadlari, turmush darajasi va sifatiga ko'ra birlaridan farqlanuvchi qatlamlar shakllanmoqda. Bu tabiiy hol. Ammo bunday holatni hamma ham to'g'ri baholayvermaydi. Bunga ayrim shaxslarning boylikka ruju qo'yishi, ochko'zlik isrofgarchilik o'zaro yordam va qarindoshurug'chilikning yaxshi jihatlari mensimaslik o'zini ko'zko'z qilishdek illatlar ham sabab bo'lmoqda. Bunga ayrimlar uchun hayot tarziga aylangan ta'magirlik poraxo'rlik to'rachilik kabi jirkanch qiyofaga kirayotgan holatlarni qo'shadigan bo'lsak halol mehnat kishisining ruhiy izzatlarini tushunish qiyin emas. Shu ma'noda Prezidentimizning bozor mexanizmlarini hayotga tatbiq etish bilan birga qonunchshgakni mustahkamlash va bunda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladigan axloq normalarini ham ijtimoiy Hayotda keng yoyish to'g'risida kuyunib gapirishi bejiz emas. Uning qalb so'zlari adolatli jamiyat qurishga nisbatan xalqimizning intilishini ifodalaydi.

11MAVZU
MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK RIVOJLANISH
Reja

1. Demokratik rivojlanishda milliy mustadillik g'oyasi
2. Milliy g'oya demokratiya va milliy davlatchilik.
3. Milliy g'oya, erkin fukaro va ozod shaxs. Ozod shaxs- demokratiya rivojlanishining mezonlaridan biri.
4. Milliy g'oya demokratiya va milliy rivojlanishning axamiyati.

Istiqlol, demokratiya va taraqqiyot o'zaro vobasta tushunchalar. Chunki agar milliy mustaqillik bo'lmasa, erkinlik ham, erkin rivojlanish ham bo'lmaydi. Shaxs erkinligi millat erkinligidan ayri tushuncha emas. Shu bois, O'zbekiston o'tgan asr boshlarida istiqlolni qo'lga kiritganda birbiri bilan vobasta ikki vazifa kun tartibida turardi: biri — mustaqillikni mustahkamlash bo'lsa, ikkinchisi bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish.

Hozirgi paytda O'zbekistonda bu ikki jarayon muvaffaqiyat bilan davom etmoqda va mamlakatimiz tobora iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar safiga kirib bormoqda. Yana shu narsa ham aniq bo'ldiki, iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiysiyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yuksalish bilan uzviy aloqada kechishi shart ekan. Boshqacha aytganda, iqtisodiy taraqqiyot osmondan tushadigan mo'jiza emas, balki uni O'zbekiston xalqining o'zi amalga oshiradi. Ya'ni xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, bilim va malakasi, salohiyati, umummadaniy darajasi qanchalik baland bo'lsa, iqtisodiy taraqqiyot ham shuncha tezlashib, «erkin, faravon hayotni ta'minlashga shartsharoit yaratiladi»¹. Aholining har bir qatlami, har bir fuqaro buni yaxshi anglab yetib, shunga qarab faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. Ammo bu jabhada muammolarimiz ko'p. Zero, demokratiya — erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, o'z irodasini ifodalash, haququqlaridan bimalol foydalanish va jamiyat ishlariga faol qatnashishni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bunga to'la kafolat beradi va har bir fuqaroning huquqini himoya qiladi. Biroq, ayni vaqtda, demokratiya yuksak ma'naviyat egasi bo'lish, mas'uliyat va jamiyat oldidagi burchni his qilishni talab etadi. Qonun, huquq imkoniyatlar bersa, axloq, burch, o'zgarlar manfaati bilan hisoblashish, insoniylik udumlari, vijdon esa mas'uliyat yuklaydi, har bir individual shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati chambarchas bogliq ekanini har soatda bizga bildirib turadi. Shu bois *osukuk va burch, erkinlik va mas'uliyat qamma vakt birga, uzviy oloqada amal qiladigan tushunchalardir*. O'zaro raqobat, aqlu zakovat kurashi va tadbirkorlik ishbilarmonlik xislatlari ham shu zaminda adolat o'zaniga tushadi, kishining kishi tomonidan nohaq ezilishi, zo'ravonlik qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Demokratiya hamma sohalarda shaxsiy qobiliyatni charxlaydi, raqobat va «kim o'zar»ga bardosh berqshni talab qiladi. Bu muttasil va muntazam ravishda izlanish, ixtirolarni amalga oshirishni, har doim olga intilishni talab qiladi. Sustkashlik qilgan, yangilik yaratishga noqobil odam taraqqiyotdan orqada qolib ketaveradi. Buning oqibatida shaxsda xudbinlik shaxsiy manfaatni ustun qo'yishga mayllik vujudga kelishi muqarrar. Xudbishshkning bir necha jihatlar bor: o'z iste'dodi va qobiliyatini ishga solib, fikri va rejalarini hayotga tadbiiq etish ham aslida xudbishshk ya'ni shaxs sifatida o'zlikni namoyon qilishdir. Buni ijobiy ma'nodagi xudbinlik deb atash mumkin. Bunday xudbinlik individual sa'y harakat jamiyat rivojiga yordam beradi. Ammo faqat o'zini o'ylaydigan, boshqalar mehnati evaziga boyishga intiluvchi shaxslar ham bor. O'lar o'zlarini eng dono, eng kuchli hisoblab, atrofda qilarga bepisand munosabatda bo'ladilar, kibru havoga beriladilar va jamiyat rivojiga naf keltirmaydilar. Mana bunday manmanlik va hukmfarmonlikka asoslangan xudbinlik aslida ma'naviy kashshoklik tufayli paydo bo'ladigan axloqiy qusurdir. Zero, «o'zim bo'lay» falsafasi milliy vatanparvarlik tuyg'usini so'ndiradi. «O'zim bo'lay» deb intiladigan odam iymone'tiqodni xam poymol etadi. Bunday odam haromhalol, yaxshiyomonni ham farklamaydi, qanday bo'lmasin, qayerda bo'lmasin o'zlashtirib olsa bo'lgani, boshqasi bilan ishi yo'q

Shunisi ma'lumki, bizning ulug' shoirlarimiz, mutafakkir bobolarimiz, avliyoshayxlarimiz hirs va hasadga, shaytoniy nafsga berilish, bu yo'lda odamlarga jabrzulm qilishga qarshi chiqqanlar. Xalqimiz axloqining eng yaxsh yasiatlari shu bois hozir ham o'z kuchini ko'rsatmoqsa. Biz tariximiz, ulug' madaniyatimiz obidalar, ma'naviy qadriyatlarni tikladik. Xalqimizning ruhiyati tiklandi. Ulur ma'naviy merosimiz bilan faxrlanamiz, ulug' Vatan farzandlari ekanligimiz dilimizni g'ururga to'ldiradi. Buning o'ziyoq Vatanimizning buguni va kelajagi uchun qayg'urish hissini uyg'otadi. Biz chinakamiga uygoq xalq sifatida dunyoga boqmoqdamiz, do'stu dushmani ajratib, milliy manfaatlarimiz uchun kurashmoqdamiz.

Milliy g'oya, demokratiya va milliy davlatchilik

Sir emaski, demokratiya erkin fuqarolik jamiyati ekan, unda ochiq muloqotlar, qonun asosidagi munosabatlar qat'iy asosga qo'yilib, u oshkoralikni yuzaga keltiradi va qonun asosida ijtimoiy adolat tiklanishiga erishiladi. Inson huquqini ta'minlash va xdmoya qilish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Boshqacha aytganda, jamiyat ichidan turib faollashib, mustahkamlanib boradi, o'zo'zini boshqarish sari dadil qadamlar qo'yiladi. Ammo, bundan demokratiya sharoitida davlatning boshqaruvchilik tashkilotchilik roli barham topadi, degan xulosani chiqarmaslik kerak. Ayrim Yearb faylasuflari (chunonchi, Karl Popper) o'zining «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» kitobida mustahkam milliy davlat demokratiya taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi, degan fikrni olga suradi. Uning nazarida davlatning kuchayishi «ochiq jamiyat» kishilarining erkin faoliyat ko'rsatishi, fikri, irodasini ifodalashi, qobiliyatini ishga solishga xalaqit beradi. Uning asosiy sababi davlat hukmron mavqeyeni egallab, hokimiyat, mansab ideallashtiriladi. Natijada, davlat rahbarining fikri asosiy fikr bo'lib, qolgan fikrlarni bo'gadi. Uning fikricha, bu avtoritarizmni yuzaga keltiradi. Demak chinakam demokratiyaga amal qilmay qoladi, deydi. Uning nazarida, shunday qilib, milliy YEOYA ham oxiroqibatda millatchilikka olib boradi va totalitarizm xavfini tug'diradi. K.Popper Platon, Aristotel va ayniqsa Gegel falsafiy qarashlarini tanqid qilib, har bir shaxsning fardiy (individual) fikri, intilishi va dunyoqarashini e'tiborga olmay, balki muayyan qolipdagi g'oyalarga hammaning bo'ysunishini talab qilib kelganlar. Odamlarni «Oliy haqiqat» tarzida taqdim etiladigan g'oyalardan xalos etish kerak. Shunda shaxs erki ta'minlanadi, deydi K.Popper. Bunday fikr bilan to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Yeoyalarning mutlaqlashtirilishi davlatning va davlat rahbari bo'lgan yakka shaxslarning mutlaqlashtirilishiga olib keladi. Natijada, bunday shaxslar o'zlarini nuqsonlardan xoli, tanqiddan yuqori deb his eta boshlaydilar. Bu esa jamiyat va davlat orasida begonalashuvni yuzaga keltiradi, Natijada, totalitar g'oya hukmronlik qilib, turg'unlik yuz beradi. Maddohlar, axloqiy nopok odamlar mansablarni egallab, sog'lom fikrni bo'gadilar. Bunday sharoitda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot to'xtab qoladi.

«Davlatni ilohiylashtirish qullik va istibdod hukmron bo'lgan davrlardan qolgan kishilar sajdaparastligining eng yomon ko'rinishidir», deb yozadi K.Popper.

Umuman, K.Popperning ko'pgina fikrlari ancha bahsli. Biroq, demokratik tamoyillarga amal qiladigan jamiyatda bunday ilohiylashtirishlarga o'rin qolmaydi. Ammo, shunisi borki, demokratiya sharoitida ham davlat ijtimoiysiyosiy institut sifatida saqlab qolinadi va uning funksiyalari to'la amal qiladi. Davlatning obro'e'tibori, nufuzi baland bo'lishi jamiyat taraqqiyoti uchun zarur. Kuchli, adolatparvar jamiyat davlatsiz yashay olmaydi. Negaki, davlat jamiyat barqarorligi, millat osoyishtaligi va iqtisodiy taraqqiyotining bosh islohotchisidir.

Har bir xalq o'zining milliy mustaqil davlati bilan o'zligini ko'rsata oladi. Xalqaro rivojlanish sharoitida boshka mamlakatlar bilan raqobat qila oladi. Xullas, xalq (millat), mamlakat va davlat tushunchalari ajralmas yaxlitlikdir.

O'zbekistonning mustaqil mamlakat sifatidagi mavjudligi uning milliy davlatchiligi taraqqiyoti bilan birgalikda olib qaralgandagina mazmunmohiyatga ega bo'ladi. Tarixiy tajribalar aynan o'tish davrida davlatning islohotchilik roli benihoya katta bo'lishini tasdiqlamoqda. Shu ma'noda, mustaqil O'zbekiston davlatini xalqimizning irodasi va ruhini ifodalaydigan, uning birligini ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir.

Davlatni shunchaki ma'muriy instrument, boshqaruv apparati, xolos deb talqin etish yetarli emas. Bu ta'rif demokratiya sharoitida ham milliy birlik va xalqning ma'naviy yaxlitligi, demak uyushib, jipslashib, rivojlanigs yo'lga chiqnshiga xalaqit beradi. Qolaversa, taraqqiyot ham, demokratiya ham o'zo'zidan sodir bo'lmaydi. Mamlakat xavfsizligini, osoyishtaligini ta'minlash, siyosiy manfaatlar to'qnashuvida dadil turib, milliy manfaatni himoya qilish davlat zimmasidadir.

Demokratiya sharoitida, albatta, davlat va uning tarkibiy qismi bo'lgan hokimiyatga munosabat o'zgaradi. Chunki hokimiyat jamiyat nazorati ostida bo'ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi, matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining faolligi — bularning hammasi davlatning mutlaq g'oyalarga berilishiga yo'l qo'ymaydi. Ya'ni shaxs, jamiyat va davlat o'zaro yaqinlashib boradi, birbiriga hisob berish kuchayadi. Natijada, shaxs va davlat manfaatlari uyg'unlashib boradi.

Ana shunday sharoitda milliy g'oya qanday ahamiyatga ega bo'ladi, u demokratik qadriyatlarining xalq ongiga singashi va joriylanishiga to'sqinlik qiladimi yoki davlatning ilohiylashuviga sabab bo'ladimi?

Bunga faqat «yo'q» deb javob berish mumkin.

Birinchidan, milliy G'oya — bu har bir shaxs va butun jamiyatga tegishli g'oyadir. Milliy istiqlol g'oyasi fikrlar va mafkuralar xilmaxilligiga asoslanadi; milliy g'oya jamiyat mafkurasi, davlat mafkurasi emas;

Ikkinchidan, milliy G'oya negizida vatanparvarlik millatparvarlik tuyrusi yotadi. Demak milliy g'oya va milliy taraqqiyot, yurt rivoji vobasta. Shu nuqtai yazardan ham yurtboshimiz Islom Karimovning «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish — pirovard maqsadimiz» degan hikmatli so'zida ma'no ko'p. Bu jumlada mustaqillikning abadiyligi, demokratik erkinliklar, Vatan ravnaqi, har bir fuqaro hayotining farovonlashuvi ko'zda tutiladi.

Uchinchidan, milliy g'oya hyech narsani, jumladan, davlatni ham, alohida shaxslarni ham ilox'ylashtirishni nazarda tutmaydi, balki xalqning eng ezgu histuygulari, intilishlarini ifodalab, bunyodkorlik ishlariga rag'batlantiradi.

To'rtinchidan, milliy g'oya allaqanday totalitar xususiyatga ega mafkura emas, u biron bir shaxs ishlab chiqqan va zo'rlab jamiyatga tiqishtirayotgan yoki tepadan tushirilgan «yagona g'oya» ham emas. U xalqning o'z tafakkuri mevasi bo'lib, milliyma'naviy negizga tayanadi.

Beshinchidan, milliy g'oya umumbashariy fikrlar, ilmiy yutuqlarni jamlab singdirishni ham ko'zda tutadi. Yevropa mutafakkirlaridan biri K.Gelvesiy yozgan edi: «Vatanga muhabbat butun dunyoga muhabbat bilan muvofiq keladi. Ilmu ma'rifat nuridan bahramand bo'lgan har bir xalq bu bilan o'z ko'shnilariga zarar yetkazmaydi. Aksincha, davlatlar qanchalik ma'rifatli bo'lsalar, ular o'zaro gayalar, bilimlar almashishga moyil bo'ladilar va oqibatda shu tufayli butun dunyo aqli ortib boraveradi». Shu bois, milliy g'oya mamlakatni yakkalab qo'yadi, taraqqiyotni susaytiradi, deguvchilar xato qiladilar.

Shunday qilib, milliy toya — milliy rivojlanish lokomotivi. Turgan gap, bunda davlatchilik YEOYASI, davlat va uning rahbariga hurmat, milliy davlat salohiyati bilan faxrlanish ham muhim o'rin tutadi. «Bu — mening xalqim, bu — mening «Vatanim», deb faxrlangan odam «Bu — mening davlatim» deya faxralana olishi ham kerak. Davlat bir organizm sifatida o'zini takomillashtirib, demokratik jamiyatni tashkil etuvchi kuch sifatida har doim millat ravnaqiga rahnamo bo'lib turadi.

O'zbekistonning istiqlol davridagi rivojlanishi, o'ziga xos taraqqiyot yo'li buni isbotlab turibdi. Donishmand Gegel yozgan edi: «Xalq (millat)ning tub maqsadi davlat bo'lish hamda o'zini shu holatda saqlashdir. Xalq (millat) davlatsiz hyech qanday tarixga ega bo'lmaydi... Davlat xalq hayotining, ya'ni san'at, axloq, din, fanning asosi va ularni atrofiga to'playdigan xalq ruhidir».

Gegel nazarida o'zlikni anglashning oliy ko'rinishi ham milliy o'zlikni anglashdir. Chunki, toki kishilar o'zlarini bir tarix bir ruhiyat, bir makon kishilari deb his etmasalar va shu asosda birlashmasalar, tarix sahnasiga chiqa olmaydilar, zero tarixning o'zi «millatlar ruhining raQobatlashuvidir» (Gegel). Demak milliy rivojlanish omillari quyidagilardan iborat:

1. Milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan bunyodkorlik fiDoyilik va vatanparvarlik.
2. Milliyma'naviy yuksalish va ilmiy salohiyat, madaNiy darajaning balandligi.
3. Milliy yakdillik siyosiy barqarorlik.
4. Mustahkam milliy davlatchilik asoslarining mavjudligi.
5. Milliy o'zlikni anglashning yuksak darajada bo'lishi va boshqalar.

Milliy g'oya demokratiya va milliy davlatchilikning negizlarini tashkil etadi.

Prezident Islom Karimov birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida¹ qo'lga kiritilgan yutuqlarni sarhisob etib, tahliliy nazardan o'tkazar ekan, yaqin yillardagi muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida «jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish» deb e'lon qildi. Xo'sh, buning eng ustuvor yo'nalishi hisoblanmish «mamlakat siyosiy, iqtisodiy, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish» vazifasi bilan qanday aloqasi bor? Aytish mumkinki, bevosita aloqasi bor. Chunki siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish degan gap jamoat tizimlarini, fuqarolarning o'zo'zini boshqaripshi rivojlantirish demakdir. Buni kim amalga oshiradi? Albatta, fuqarolarning o'zi. Shunday ekan, fuqarolar o'z haququqini tanimasdan, faollashmasdan, siyosiy ongi oshmasdan, chinakamiga vatanparvar, fidoyi bo'lmasdan bu vazifalarni ado eta olmaydi. Bu ulkan vazifani bajarish uchun har bir fuqaro chinakamiga fuqarolik burchini anglagan, kurashchan va faol bo'lishi lozim.

Erkin fuqaro va ozod shaxs quyidagi to'rt jihatni, ya'ni:

- 1)o'z haququqini taniydigan va buning uchun kurashadigan;
- 2)o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib uning samarasini ko'radigan;
- 3)atrofida sodir bo'layotgan voqyeahodisalarga mustaqil munosabat bildiradi;

4)shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyğun holda ko'rib faoliyat yuritadigan bo'lishi lozim.

Bu — O'zbekiston o'rilqizlari fazilatlarini haqidagi zamonaviy aniq va to'liq ta'rifdir. Diqqat qilinsa, bunda so'z har kun bizga kerak bo'ladigan, har birimizni va butun jamiyatni bezaydigan xislatlar haqida borayotgani ma'lum bo'ladi. Ushbu talablar o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Demoqchimizki, o'z haququqini tanigan odam, o'z kuchiga tayanib imkoniyatlarini ishga sola oladi. O'zi ham foyda ko'radi, jamiyatga va davlatga ham foyda yetkaza oladi. Ikkinchidan, o'z haququqini tanigan odam o'z yurtida bo'layotgan va uning atrofida kechayotgan voqrealarni tahlil qilishni o'rganadi, oqqorani ajratib, yaxshini nima, yomon nima — farqiga boradi. Eng muhimi, mamlakat va millat manfaatini himoya qila oladi. O'z haqini tanimagan odam millat haququqini ham tanimaydi, xalqaro maydonda O'zbekiston manfaatini himoya qilishga qurbi yetmaydi. Masala ana shu tarzda olib qaralishi kerak. Fuqaroning kamoloti bu yurt kamoloti, fuqaroning erkinligi — bu yurt erkishshigi, deb tushunish muhim. Aynan ana shunday erkin, ozod fuqarolar ijtimoiy hayotni yangilash, isloh etishning peshqadam kishilari bo'ladilar. Kuyunchaklik fikriy izlanuvchanlik yangilik yaratishga ishtiyoq, bunyodkorlik yangi avlodning fazilatidir. Bunday shaxslar bezovta qalbi, beorom tafakkuri, ezgulikka yo'naltirilgan shuur va shukhi bilan xalqni olga boshlaydilar, millat ruhini uyg'otadilar, kuchiga kuch qo'shadilar.

Milliy tarbiya bunday odamlarni qanchalik ko'p yetishtirib chiqarsa, olg'a borishimizga shuncha imkoniyat vujudga keladi. Islom Karimov mamlakatimizda yashayotgan barcha yoshlar ana shunday peshqadam, o'zini o'zi uddalaydigan, o'z ishidan, faoliyatidan rozi bo'ladigan kishilar bo'lishini xohlaydi; karaxtlik boqimandalik noshudlikni insonga xos bo'lmagan illat va nuqson deb biladi. Prezident o'zining O'zbekiston Milliy axborot agentligi muxbiri savollariga bergan javoblari («Hushyorlikka da'vat») buni aniq tushuntirib beradi: «Agar biz o'z kuchi, salohiyatiga ishonadigan, boqimandalikni or deb biladigan, eng rivojlangan mamlakatlarning ilg'or kishilari bilan tepateng muomala qila oladigan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, bu murakkab, beshafqat hayotning pastu baland, changu tor ko'chalaridan Alloh bergan aqlzakovati bilan to'g'ri yo'lni topa olilgga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirsak o'ylaymanki, o'z maqsadimizga to'la erishgan bo'lamiz»¹.

Demokratiyaga xos bo'lgan amaliyotchilik raqobat muhiti ayni vaqtda shaxsda kuchli aqliy salohiyat, ilmiytahliliy qobiliyat bo'lishini ham talab qiladi. Buning natijasi o'laroq ilm-tarbiyatning qadri ortib boradi. Ayniqsa, axborot almashish tezlashib boraveradi. Ilmiy tafakkur, fundamental tadqiqotlarga talab kuchayadi. Kishining ma'rifati va ma'naviyati yuksak bo'lsagina, amaliyotchilik qobiliyati samara berishi mumkin. Internetga, kundalik xabarlariga tashnalik bilan birga, kitobga muhabbat ham susaymasligi lozim. Chunki kitobdan olinadigan bilimni hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Axborot nazariy bilimni emas, ma'lumotiy bilimni (xabardorlikni) oshiradi. Nazariy bilim, tahliliy muhokamaviy malaka kitob asosida hosil qilinadi. Bundan tashqari, kitob ruh va qalbga ham oziq beradi. Aqliy qobiliyat ham ma'naviy tarbiya, qalb orqali to'lishsa yaxshi, aks holda u yovuzlik manbaiga aylanishi hech gap emas. Sovuq, beparvo mushohada insonni mehru shafqatdan mahrum etadi. Shu bois ham, aql qalb tufayli yuksalsa, axborotlar hissiy fazilatlar bilan qo'shilsa, kamolot yuz berishi, komil inson voyaga yetishi mumkin. Shu bois ham shaxsni ma'naviyatloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy o'nglanish ma'naviy o'nglanishdan ajralgan bo'lmaydi.

Hayot shuni ko'rsatadiki, inson avvalo, muayyan mafkura, dunyoqarash tizimiga, asrlar davomida shakllangan ma'naviy tajribaga tayanib yashaydi. Odamni shakllangan dunyoqarashdan ajratib bo'lmaydi. Agar dunyoqarash to'g'ri ezgulik asosida shakllangan bo'lsa, inson shu yo'lda harakat qilaveradi, ilmi, qobiliyatini ham shunga sarflaydi. Agar buning aksi bo'lsa, demak noto'g'ri yo'lni tanlaydi, adashadi yoki o'zini «haq» deb buzgunchilik qiladi. Bunyodkor shaxs ezgulik g'oyalari ruhida tarbiyalangan erkin shaxsdir. Shu bois milliy g'oya har bir fuqaroning va butun xalqimizning qalbidan joy olgan bo'lishi, uni ruhlantirishi, chidamli va shijoatli qilib tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Milliy g'oya bizning tariximiz, bugunimizni va kelajagimizning birlashtiradi.

Umuman milliy g'oya, erkin fuqaro va demokratiya yuqori darajada rivojlangan kishilar jamiyati, insoniyat erishgan buyuk ne'mat, ko'pchilikka ma'qul yashash tarzi. Ammo uning amalga oshirish barcha mamlakatlarda bir xil emas. Har bir mamlakat demokratiyaning umumiy qadriyat va tamoyillarini o'z milliy qadriyatlari zaminida, o'z xalqining uzoq tarixi davomida shakllangan an'analar bilan qo'shib qabul qilganini bilamiz. Masalan, AQSh yoki Angliya, Fransiya (boshqa

Yevropa mamlakatlari ham) demokratik davlatlar bo'lsalarda, lekin har biri o'z milliy ruhi, an'analarini ham saqlagan. Shu kabi Yaponiya, Koreya, Malayziya kabi mamlakatlarda ham demokratik tuzum milliy va diniy e'tiqodiy udumlar negizida amal qilmoqda.

Shubhasiz, O'zbekistonda ham biz ana shunday bo'lishi uchun intilmoqdamiz. Yurtboshimizning jamiki asarlarida bunga alohida e'tibor qilinib, milliy qadriyatlarni tiklash, milliy axloqodobni mustahkamlash uchun jiddu jahd qilinayotir. Xalq o'zligini yo'qotmasligi kerak. Bu esa haqiqiy vatanparvarlik zaminida, har bir fuqaroning yuksak ongliligi asosida qo'lga kiradi.

Shunday qilib, milliy g'oya hayotiy va istiqbolli toyadir. U taraqqiyotga va mamlakat fuqarolarini chinakam hamjihatlikka, ma'rifatga olib boradigan insonparvar va taraqqiyotparvar g'oyadir.

Shunga ko'ra milliy g'oya, har qanday «izmlar» (kommunizm, panislomizm, panturkizm kabi) zararli va umrini o'tab bo'lgan fikrlarni ham rad etadi. Vatanga, xalqiga muhabbatli odamgina yetuk ma'naviyatli, ma'rifatlidir. Ma'rifatli odam o'z erkini boshqalar erki bilan birga deb biladi, o'zgalarning yashash tarzi, e'tiqodi huquqini hurmat qiladi. Bizning ulug' ajdodlarimiz Forobiy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy ana shunday yetuk ko'mil odamlar uchun kurashganlar. «Naqshband uchun shohu gado barobar edi, u qul saqlamas va o'zi ham hyech kimga qul emasLigidan faxrlanardi», deb yozadi Navoiy. Hazrat Navoiy asarlarida kuylangan g'oyalar bugun ham bizga ibrat va saboqdir.

Milliy tarbiya butun ma'naviy boylikni, bashariy yutuqlarni qamrab oladi, erkin shaxsga qanot bag'ishlaydi. Uni ruhlantiradi.

XXI asr har jihatdan murosas va kelishuvlar asri bo'ladi. Dinlar, mazhablar, ta'limotlar orasida murosasozlik yuzaga kelishi, inson baxti uchun xizmat qiladigan narsalar eng muhim qadriyat deb qabul qilinishi lozim. Nimaiki inson uchun yaroqli bo'lsa, u maqbul, nimaiki insonlar hayotiga xavf solsa, taraqqiyotga, o'zaro yaqinlashishga xalaqit bersa, u nomaqbul va zararlidir. Insoniyat tarixi shunga guvohki, dunyo ilmima'rifati jamlangan, sintezlashgan joyda yuksak taraqqiyot vujudga keladi, inson shaxsi kamol topadi.

Zotan, Islom Karimov o'zining «Istiqlool va ma'naviyat»¹ nomli to'plamida umumbashariy royallarni milliy ma'naviyatning negizlaridan biri deb ko'rsatgan edi. Chunki milliy ma'naviyat quruq yerda paydo bo'lmaydi, u xalqning tarixan shakllangan urfodatlari va umuminsoniy qadriyatlar bilan qo'shib boyib boradi. Boshqacha aytganda, umumjahoniylik milliylik ruhida ongiga mazmun kasb etadi va rivojlantiriladi. Shu ruxda tarbiyalangan odam esa demokratik tamoyillarga moyil, ozod ruhli kishi bo'ladi.

Biz bolalarimizni chin ma'noda jahon bilan bahslasha oladigan o'ktam, dili va tilidan odamlar ozor chekmaydigan, sharqona odobaxloqli, ammo haqini birovga bermaydigan ham jisman, ham aqlan, ham ruhan soglom, bardam qilib tarbiyalashimiz lozim. Ular Forobiy, Ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' bobolarimiz merosini ham Shekspir va Dante, L.Tolstoy va Gyote, Bayron va Gyugo merosini ham o'rgansin, bahra olsun, xalqiga va zamonaga munosib farzandlar bo'lib yetishsin.

Milliy tarbiyaning bosh maqsadi deganda:

- a) eski totalitar mafkuradan ozod;
- b) qullik mute'likni tan olmaydigan;
- v) ma'naviy zulmdan ozod;
- g) haququqini tanigan;
- d) o'z kuchi, imkoniyatlariga ishongan;

¹ L.A.Karimov. Istikdol va ma'naviyat. — T.: O'zbekiston, 1998, 64bet.

ye) o'z fikri, qarashiga ega bo'lib, atrofdaqi vokea xodisalarni xolisona taxlil qila oladigan;

j) xirsu havolardan qutulgan, salohiyatli, fidokor, ezgu niyatli shaxslar, komil insonni shakllantirish tushuniladi.

Shaxslari ana shunday kamolga yetgan yurt har yasihatdan taraqqiy topadi, xalqi ham to'q va farovon yashaydi. Gayratshijoat, qobiliyat, bilim va samarali tadbyrkorlik — mamlakat taraqqiyotining bosh mezonidir. Uluk fransuz adibi V.Gyugo aytgan edi: «Dunyoda kichik xalqlar yo'K Odamning ulugligi uning bo'ybasti bilan o'lchanmaganiday, xalqning buyukligi ham hyech qachon uning sonining ko'pligi bilan o'lchanmaydi». Ammo o'zlikni anglash barobarida uning o'ziga xos xususiyatini saqlash va takomillashtirish ha» muhim o'ringa ega bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlarni tiklaSh orqali, o'zbek xalqi o'z ajdodlari kim, dunyo xaritasida qayaday mavqyega ega ekanini bilib olmoqda. I.A.Karimov «Biz hyech kimdan kam emasmiz va hyech kimdan kam bo'lmaymiz» degayada ~~iki~~ jixatni nazarda tutadi:

- 1) Jahon madaniyatiga hissa qo'shgan, tariximiz ana shu milliy gurur, qobiliyat, intilish negizida jipslashib bir maqsad sari harakat qilishga zamin bo'lmoqda.
- 2) Endigi vazifa — ana shu zaminga imkoniyatni ishga solish, ya'ni o'qibo'rganib, bilimlarga hosil qilyab, dunyo maydoniga dadil kirib borish, hamda o'z o'rnini egallab olishdan iboratdir.

Ammo ana shu yo'lda o'zlikni yo'qotmaslik o'z milliy tafakkuri, an'analari, ajoyib xususiyatlarini saqlab qolish lozim. Bu esa ancha mushkul vazifa. Chunki taraqqiy etgan mamlakatlarning hammasi ham bizni quchoq ochib qarshi olayotgani yo'q. Bu — birinchidan. Ikkinchidan, ular har bir holatda ham o'z milliy manfaatidan kelyb chiqib munosabatda bo'ladi. Hatto, demokratiyani «eksport» qilishdan ham manfaatdor ayrim kuchlar bor. Chunki bu ularga Mamlakat boyliklarini o'zlashtirish, arzon ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Demokratiyani yagona, yevropacha turmush tarzi mezonlari bilan baholamoqchi bo'ladi.

Ana shuning uchun ham milliy tarbiya masalasi hozir dolzarb bo'lib turibdi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ayNan shu maqsad uchun qabul v^lindi. Farzandlarimiz yangicha yashashga tayyor bo'lishi va eng muhimi, O'zbekistonning gullabyashnashiga hissa qo'shishi kerak. Zamonaviy bilim, zamonaviy malaka, zamonaviy qobiliyat egalari bo'lib yetishsin. Milliy g'oyaning bosh maqsadi ham shu!

Lekin bu yerda gap faqat ta'limtarbiya tizimi haqida borayotgani yo'q Bu yerda gap umuman jamiyat tizimi, yaxlit olganda, O'zbekiston xalqini yuksaltirish ustida bormokda. Milliy o'zlikni anglash bilan milliy o'zlikni saqlash o'zaro vobasta, biri ikkinchisini rivojlantiradi. Ochigi, milliy o'zlikni saqlash hozir muhimroq bo'lib qoldi. Bu nima degani? Bu shundan iboratki, biz milliy qadriyatlarni tiklash bilan chegaralanmasdan, ular yetshgab kelayotgan avlod tomonidan qanchalik qabul qilinmoqda, sevilmoqda, davom ettirilmoqda, degan savollar ustida ham bosh qotirishimiz lozim. Zero, eng katta xavf ham ilgor mamlakatlar mafkurasidagi individualizm ta'siriga tushib o'zlikni yo'qotishdir.

Mana shuning uchun ham milliy g'oya ruhidagi keng miqyosdagi tarbiya benihoya muhim va biz uchun hayotmamo masalasidir. Bunda axloqiy va huquqiy tarbiya birga rivojlantirilishi, milliy o'zo'zini tahlil va tanqid ham muayyan o'rin egallashi lozim.. Chunki millat o'zini o'zi ma'nan tozalab, poklab borishi kerak.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar milliy toyaning eng muhim asoslaridandir. Milliy vatanparvarlik ruhi qanchalik baland bo'lsa, bu qadriyatlar shunchalik anglanadi, shuurimizga singib boradi. Oqibatda, qadriyatlar bizning o'zligimiz, shaxs sifatidagi borligimiz, namoyon bo'lishimizning belgisiga aylanadi.

Ammo bu hodisa hozir batamom sodir bo'layotgani yo'q. Hali milliy ROYA bizning hammamizning ongu shuurimiz, tafakkurimizni band etgan emas. Albatta, istiqlol yillarida tafakkurimizda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Chunonchi:

— mulkchilikka munosabat o'zgardi, xususiy mulk va uni ko'paytirish mumkinligi odatiy hol bo'lmoqsa;

— o'zbek millatining buyuk tarixi, ma'naviy boy merosi borligi ayonlashdi;

— shaxsiy tashabbus, sa'y harakat qilgan odam o'zini ham, yurtini ham obod qila olishi tobora his qilinayotir;

— xorij mamlakatlari bilan bemalol savdo-sotik qilish, shartnomalar tuzish, muloqotlar uyushtirish tajribasi o'zlashtirilmoqda va h.k. Lekin, baribir, ayrim kishilar faoliyatida hamon sustkashlik boqimandalikdan to'la qutulgani yo'q. Ko'pgina hollarda tadbirkorlikni faqat olibsotarlik darajasida anglash sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, dunyo bozorini egallaydigan mahsulot ishlab chiqarishi bilan e'tiborni qozonishi, servis xizmat sohalari yuqori darajada bo'lishiga erishilgani yo'q. Buning sabablaridan biri ichki, ongli intizom shakllanmagan, har bir odam vaqtdan foydalanishi, o'zgalar vaqtini band etmaslik har bir narsani belgilangandek aniq va to'rri bajarish shart ekanligini his etmayotganligidir. Eski odat bo'lib qolgan beparvoligimiz, mas'uliyatsizligimiz ko'p narsani boy berishimizga sabab bo'lmoqda. Aybni boshqalarga to'nkash, mas'uliyatni o'z bo'yniga olmaslik kasalidan qutulganimiz yo'q. Hali isrofgarchilik bor, tejamkorlikni o'rganganimiz yo'q va h.k.

Shu bois keng ma'noda tafakkurimizni, hayot tarzimizni qayta quripshmiz, hushyor, oqilu fozil kishilar kabi yuqori darajali mehnat, faoliyat va turmush intizomiga erishishimiz lozim. Qachongacha rahbar ko'rsatma yoki do'qpo'pisa qilsa ishlaymiz? Nega har bir odam tashabbuskor emas? Nega kimdir biz uchun o'ylasin, biz uchun fikr qilsin, hukm chiqarsin degan kayfiyatda yuramiz?

Sho'ro davrida mahalliy tashabbuslar inobatga olinmagan. «Fikr bizdan, buyruq bizdan, bajarish sizdan» deganday ish tutilardi. Ya'ni, Kreml siyosatdonlarining aytganini bajarish asosiy vazifa deb qaralgan. Milliy manfaat, milliy taraqqiyotga qaratilgan fikr «internasionalizm»ga qarshi deb

qoralangan. Endichi? Endi taqsimimiz o'z qo'limizda, endi yurtimiz, uyimiz, shahrimizni o'zimiz obod etishimiz, farovon turmush tarzini yaratishimiz har birimizning qo'limizda.

Prezidentimiz buning keng dasturini ishlab chiqib, ham nazariy, ham amaliy jabhalarda hayotga tatbiq etmoqda. Birgina iste'dodlar tarbiyasini oling. Bir nechta jamg'arma tuzilib, iste'dodli yoshlar orasida tanlovlar o'tkazilmoqda. Ammo iste'dodlar tarbiyasi bilan har bir ustaxona, korxona, o'quv muassasasi shurullanmog'i lozim. Iste'dodli yoshlar — bizning kelajagimiz. Hozir O'zbekistonga yuzlab muhandislar, eng yangi fan sohalarida ishlaydigan, yangilik qiladigan odamlar kerak. Mamlakatni iqtisodiy ko'taradiganlar ham shulardir.

Milliy G'oya adabiyot va san'at vositasi ila odamlar qad_ biga singadi. Bu sohada muammo ancha. Avvalo, taqlidchilik kasalidan qutilish zarur, yuksak professional san'at ru_ hida tarbiyalanish va tarbiyalash shart.

Yengil, masxarabozlik spektakllari, hazilmutoyiba ko'payib, jiddiy san'atga e'tibor susaydi. Yumor ham, mutoyiba ham kerak. Ammo jiddiy san'at unutilmasligi lozim. Kishilarning didi, tuygulari maydalashib, bachkanalashib bormasligi kerak. Chunki did maydalashsa, tafakkur ham maydalashadi, muhim, zalvorli fikru g'oyalar, chuqur falsafiy mushohadaviy asarlar qabul qilinmay qoladi. Bu esa, o'z navbatida, fundamental tadqiqotlarga e'tiborni susaytirib qo'yadi. Demak milliy tarbiyada maydachuyda narsa yo'q, urfodatlardagi nuqsonlarga nisbatan keskin choralar ko'rish vaqti keldi.

Biz inson qadri uchun jonbozlik qilaylik. Agar o'z bolang emas, qo'shning bolasi iste'dodli bo'lsa, o'shanga yordam qilib, tarbiyasiga hissa qo'shmoq ulug' savob ekanini anglab yetaylik.

Xullas, milliy g'oya demokratik qadriyatlarni oqilona hayotga tatbiq etish omilidir.

Hozir amaliyotchi tadbirkorlar jamiyatimizning yetakchi qatlamiga aylandi. Ular orasida bir necha xorijiy tilni biladigan, yangicha fikrlaydigan, dunyo kezib tajriba orttirganlar, xalqaro savdosotiq ishlarida ishtirok etayotganlar, bankirlar, biznesmenlar bor. Tan olish kerakki, ular orasida Garb turmush tarziga mahliyo bo'lganlari ham, tunu kun faqat pul ko'paytirishni o'ylaydigan «amaliyotchilar» ham yo'q emas. Biroq, masalaning diqqatga sazovor jihati shuki, ko'pchilik biznesmenlar, tadbirkorlar qadimiy udumlarimizga, dinu diyonatimizga sodiq qolishga ular butun vujudlari bilan O'zbekiston uchun qayguradilar. Zero, shunday kishilar ya'ni, insoniyligini, asil naslu nasabini unutmagan inson har qanday sharoitda ham o'zligini saqlay oladi, sharaflil bo'ladi.

Hozir yoshlarimiz iqtisodiy, huquqiy bilimlarni o'rganishga berilganlar. Bu yaxshi. Shu bilan birga tarix ona tili, adabiyot, san'atni ham sevib o'rganish lozim. Kishining ma'naviy dunyosini kengaytirishda musiqa, teatr, rassomlik san'ati va ayniqsa, badiiy adabiyotning roli benihoya katta. Adabiyot hislarni tarbiyalaydi, ko'ngil mulkini obod qiladi, tafakkur va shuurni boyitib ulgaytiradi. Qadimda madrasalarda «balogat ilmi» o'tilgan. Bu, asosan, adabiyotdan lazzatlanish, she'rni, so'zning kuchqudratini anglash va fasohatli so'zlash ilmidir.

Zotan, yetuk odam faqat ilmining ko'pligi bilan emas, uning kuchli mantiqi, voizligi, suxandonligi bilan ham ajralib turadi. Xar bir odam nimagadir mehr qo'yadi, nimadadir qobiliyat ko'rsatadi, o'z kasbining ustasi bo'ladi. Biroq hammadan talab qilinadigan narsalar borki, bu kasbiy sifatdan tashqari, insoniy sifatlardir. Ya'ni yuqorida zikr etganimiz vatanparvarlik millatparvarlik fidoyilik halollik rostgo'ylik haqgo'ylik Haq va haqiqatni sevishtir ana shunday sifatlir sirasiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yana saxovat, himmatbalandlik futuvvat ko'proq ko'zga tashlanadigan, qadrlanadigan sifatlir bo'lib qoldi.

Aytmoqchimizki, ma'naviy mezonlar davrlar o'tishi bilan to'ldirilishi, takomillashishi mumkin. Ammo umuminsoniy axloqiy qadriyatlar hamisha odamiylik sharaflil bo'lib qolaveradi. Chunki juda aqlli bo'lgan odamlarning hammasi ham yuksak ma'naviyat egasi emas. Ba'zan oddiy bog'bon, dehqon va hunarmandning himmati va saxovati kishini lol qoldiradi. Holbuki, behisob molmulki bo'laturib, qurumsoq, xasis va past bo'lganlar ham ancha. Ilgari ham bo'lgan, hozir ham bundaylar bor. Xalq tilidagi "yaxshi odam", "bama'ni odam", "beozor odam", "hamiyatli odam", "ko'ngli toza" odam kabi baho va sifatlashlarda ma'no ko'p. Xalq obdon sinab keyin bunday sifatlarni qo'llaydi. Bunday tushunchalar kishilar haqida avvalo, mahalla, guzarda shakllanadi. Mahalla ahli odamlarning yurishturishi, maishati, oila tutishi, xulqatvoriga qarab baho beradi. Ya'ni odamlar obro'e'tiborni, avvalo, mahallada qozonadilar. Odamning kamoloti, ma'naviy yetukligi ham shu mahallasi, jamoasidagi mavqeyi, obro'si bilan o'lchanadi. Mana shu obro'e'tibor kengayib, rivojlanib, butun jamiyat, mamlakat miqyosiga ko'tarilishi mumkin.

Bobokalon shoirimiz Alisher Navoiy komil inson sifatlari haqida fikr yuritib, iymon, vafo hayo, bilimdonlik adolat, saxovat ma'rifat, karampeshalikni tilga oladi. Chunonchi, u "Mahbubul qulub"

asarida saxovat haqida yozadi: "Saxovat insoniyat bogining mevali daraxtidir, balki ul daraxtning shirin mevasidir. Odamiylik kishvarining mavjli dengizi, balki shu dengizning gavhari desa arziydi. Saxovatsiz kishi yog'insiz bulut yoki hidi yo'q rayhonday gap. Saxovat odamiyg'a badandur va himmat anga ruh va himmat ahlidin olamga yuz ming futuh".

Ya'ni himmat orqali yangi shaharlar, qal'alar bunyod etiladi, kanallar qaziladi. Bir kishining himmati bilan nene ulug' zafarlarga muyassar bo'lishi, buyuk galabalar qo'lga kirishi mumkin. Himmat odamni olijanob qiladi, yuksaltiradi. Ulug' ishlarga safarbar etadi. Bunday zot qahramonliklarga o'zini choglaydi, eng qiyin paytlarda ko'kragini qalqon qilib, elyurtini himoya eta oladi. Ulug' ishlarni bajara olgan odam ulug'dir, komildir. Himmatli odamda hamiyat, nomus kuchli, u yaratish, bunyodkorlik ishq bilan yonadi, odamlarni xursand, baxtiyor etishdan ko'ngli yayraydi, o'z baxtini eli, yurti baxtida deb biladi, el baxtida o'z baxtini ko'radi. Qamisha ulug' ishlarga bosh bo'lish, yuksalish va yuksaltirish tashvishi bilan yashaydi. Jaloliddin Rumiy aytganiday:

Oqil ul bo'lgayki, mash'al birla ul, Necha karvon ahliga yo'l ko'rsatur. Payravi nuri Xudodir peshrov, *Elni boshlab o'zni etmishdir garov.*

Shunday najib insoniy xislatlar yurtboshimiz Islom Karimovda mujassam topganini ko'ramiz. Bu komil insonning mash'alday yoniq qalbi, ulug' ishlarga safarbar etuvchi nazariy ta'limoti, fidoyiligi hammamizga ibratdir. Vatanni sevishni, elyurt dardi bilan yonib mehnat qilishni, tafakkur teranligini shu insondan o'rgansak arziydi.

O'ylaymizki, komillik yo'li, chin insoniylik mana shudir.

12 MAVZU

MILLATLARARO TOTUVLIK MILLIY VA DINIY BAG'RIKENGLIK

Reja

1. Milliy g'oyaning millatlararo totuvlik milliy diniy bag'rikenglik bilan mushtarakligi.
2. Millatlararo totuvlik va bagrikenglikning asoslari.
3. Milliy-diniy bagrikenglik g'oyasi. Uning tarixiy va xukukiy asoslari.
4. Uzbekistonda milliy- diniy bagrikenglik va dunyoviylik.

Milliy g'oya keng mazmunga ega. U millatlararo totuvlik va milliy, diniy bagrikenglik g'oyalari bilan o'zaro mushtarak. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi.

Milliy g'oya — barcha sohalarda mavjud millatlar manfaatlarini o'zida ifoda etgan holda orzu qilingan kelajak jamiyatning asosini yaratish, mustahkamlash va rivojlantirish uchun bo'lgan umummaqsad yo'nalishidagi harakatlar majmuini milliy va diniy bag'rikenglikni uyg'otuvchi fikrlar, qarashlarni, g'oyalarni ham o'zida ifoda etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Bu jamiyatimizdagi milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi — umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Bu g'oya — bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirish va mustahkamlashning ma'naviy asosidir.

Milliy g'oya — har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi Ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka rahna soluvchi illat, bu — tajavvuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tushishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm yoki milliy xususiyatlar bilan xdaoblashmagan va soxta baynalmilalchilik g'oyasiga asoslangan kommunizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadimqadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bagrikengligini ko'rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday yozadi: "Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyjunlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqilar o'rtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'anoqqa aylanib qolmagan, aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergan millatlarning va madaniyatlarining birbiriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiyaqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan. Shunday qilib, bu mamlakatlarda ko'p millatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolar jamiyati qurilishiyushg ta'sirchan vasitasiga aylanib qolgan"

O'zbekiston Prezidenti bu fikrlarni yanada chuqurlashtirib, ko'p millatlilik bizning bebaho boyligimiz ekanligini, hamma narsa undan foydalanishda ekanligini qaytaqayta ta'kidlaydi. Darhaqiqat, har bir millat o'zining betakror madaniy ma'naviy qadriyatlariga ega. Bunday millatlar vakillarining bir mamlakat hududida yashashlari, birgalikda mehnat qilishlari, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zaro ta'sirda bo'lishlari xalqlarning har jihatdan taraqqiyotini tezlashtiradi.

Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xatti-harakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin,

Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishta yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. I.A.Karimov o'z fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, butunbutun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiysiyosiy falokatlariga olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butunbutun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan"¹.

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor Millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqloq royasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda. Millatlar o'rtasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun: etnik siyosatda shaxs xukuqlari ximoya qilinishining ustuvor bo'lishini. mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda xal qiladigan usullarga asor.ttanitti bosh yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urfodat va an'analari, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urfodatlari, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 100 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. BuniNg ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ipshari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganlikda ko'rinmokda¹.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rnini borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi — O'zbekiston fuqarosi ekanligani namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barQ urib turadi.

Milliy istiqloq g'oyasi o'z mazmunmohiyatiga ko'ra barcha millatlarning umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zotan, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikshshg asoslari

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, zahmatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzanlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega, Bu asoslar mamlakatimiz Konstitusiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, uning 18moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir", — degan qoida mustahkamlab qo'yilgan¹.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan;

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkor millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy aqidaparastlik va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Demak muayyan hollarda ular omuxtalashgan shaklda ham chiqishi mumkin. Axborot globallashuvi kuzatilayotgan bugungi kunda turli g'oyalar huch qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barkarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda 36 mamlakatda 40 ta, 2001 yilda esa 30 mamlakatda 36 harbiy nizo sodir bo'lgan Ularyugag 27 tasi, ya'ni 75 foizi bundan 10 yillar oldin boshlangan. Bu nizolarning aksariyati bir mamlakat ichida kechganini e'tiborga oladigan bo'lsak ularning milliy, diniy va irqiy asoslardan kelib chiqqan fuqarolik urushlari ekanini anglatadi.

Bemalol aytish mumkinki, jahonning turli nuqtalarida alangalanib turgan bunday nizolar aksariyat hollarda millatlararo munosabatlarda millatlararo totuvlik bagrikenglikning yo'qligi ham sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, respublikamiz milliy siyosatining asosiy tamoyillari hayotda ham o'z ifodasini topayotganini ta'kidlash zarur. Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqloq yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniy ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi.

O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikevtlikni yanada mustaxdsamlab boradi. Zero, milliy g'oya — barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir'

Respublikada istiqomat qilib turgan 130 dan ortiq millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgaras ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin¹.

Dunyoning qariyb barcha mamlakatlari ko'p millatli. Respublikamiz ham ana shunday boy, turfa madaniyatlar gullabyashnayotgan mamlakatlardan biri ekani har bir o'zbekistonlikka iftixor baxsh etadi. O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimizdan har biri buni dildan teran his qshshoqdalar. Olib borilzyotgan oqilona milliy siyosat tufayli respublikamizda k;aror topgan tinchlik ijtimoiy totuvlik o'zaro hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.

Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqyealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuygusini qaytaqayta his etish "O'zbekiston umumiy uyimiz" degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi,

Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, Qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston Hukumatining qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishs va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin botlandi. 1992 yilning yanvarida

Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi.

RBMM to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi byolgilab qo'yilgan. Markaz milliy-madaniy markazlarning faoliyatiga raxbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.

Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi.

3 Milliy-diniy bag'rikenglik g'oyasi. Uning tarixiy va xuquqiy asoslari.

"Dinlararo bag'rikenglik yuyasi — xilmaxil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi"¹. Din qadimqadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularni birbirlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga egaligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik yuyalariga asoslanadi, yaxshilik tinchlik do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik mehrshafqat va barrikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azalazaldan diyorimizda turli diniy ta'limotlar yonmayon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdishi.

Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qshgab yashab kelganlaridan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shartsharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida birbirlariga zid emas.

Diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonmayon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik iudaizm kabi dinlar yonmayon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etib kelingan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar birbiri bilan o'rganganlar, ustozshogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

Aytish mumkinki, diniy ong rivojlanib, dinning mohiyatini chuqurroq anglash bilan diniy bag'rikenglik ham rivojlana bordi. Bu hozirgi davrda diniy bag'rikenglikni yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro "eng huquqlilik hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli Dynlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir. U o'ziga berilgan umri davomida yashashga, ma'naviy aqliy jihatdan takomillashib, yerdagi hayot sharoitlarini yaxshilash uchun kurashishga, ijod qilishga haqli. Ma'naviy kamolotga eripshsh uchun inson yashashi, yaxshi sharoitlarga ega bo'lishi kerak. Demak yerdagi hayotni saqlab qolish, rivojlantirish barcha kishilaryushg umumiy maqsadlaridir. Diniylik dunyoviylikni inkor qilmaydi, u bilan ba'zan yonmayon yashasa, ayrim vaziyatlarda o'zaro yaqinlashadi, dunyoviylikning rivojiga xizmat qiladi. Dunyoviylik ya'ni shu moddiy hayotni rivojlantirishga yo'nalganlik diniylikning ham maqsadlari bilan mos tushadi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik yaxshilik halollik tinchlik do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Xdqiqatan ham diniy ta'limotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy BCHEYA va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

Aksincha, diniy batrikenglikni tor ma'noda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zaro guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. Shuningdek ayrim guruhlarining garazli manfaatlariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi. Bu haqida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: "Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari, avvalambor, o'z dinining haqiqiyiligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabada bo'lishdan iboratdir. Aynan fanatizmga yo'liqqan odamlar

yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'liqini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar"¹.

O'zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasida kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaasiblikka, ayirmachilikka hyech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, Garb sivilizasiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urfodatlar, rangbarang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog'liq orzu umidlari asrlar osha yonmayon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik barrikenglik qardoshlik tuyg'ulari uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rimkatolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yaxudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaMinimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va doshlararo murosas borasida faqat MDX davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Xillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, Yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari birbirilariga nisbatan hamjihatlik barrikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik osoyishtalik totuvlik millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday shamol, dovul, bo'ronlarda egilmaydigan bo'lib ulg'ayadi", degan so'zlari hayotga izchillik bilan tadbiiq etilmoqda. Ilgari surilgan mazkur g'oyani amalga oshirishda bugungi kunda ikki muxim masala, bir tomondan, tinchlik va ezgulik dini islomni "soxta islomchi"lardan, ya'ni ma'rifiy islomni siyosiyashgan jangari islomdan himoya qshgash, ikkinchi tomondan, ko'p millatli, ko'p dinli jamiyatimizda e'tiqod erkinligi kafolatlangan sharoitda ayrim jamoalarning missionerlik ruhida faoliyat yuritishlarining oldini olish muhim. Bu, o'z navbatida, yurtimizdagi millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgaya harakatlarga sabab bo'lmoqsa. Bu harakat va garazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir — dindandir niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz".

Xozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrabavaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik — turli milatga mansub kishilarning birbirlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urfodati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uygun ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, birbirlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida Milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanib turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik-totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon Hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

13 MAVZU
MILLIY G'OYA VA YOSHLAR.
MILLIY G'URUR VA OR-NOMUS.

Reja

1. Milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bogliqligi.
2. Yoshlarni milliy kadriyatdarga tugri yunaltirish bilan boglik vazifalar.
3. Uzbekiston yoshlaring tafakkur tarzi.
4. Yoshlar ma'naviyatiga taxdidlar va milliy g'oya.

Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamining milliy g'oya va qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongiga qanday ta'sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bog'liq. Yoshlar respublikamiz aholisining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Shuningdek yoshlarning milliy YEOYANI anglashi, ishonch va e'tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bogliq bo'ladi. Chunki miliy yuya bir tomondan, yoshlarni o'zining obykti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Bu holat milliy g'oya va yoshlarning o'zaro bogliqligini belgilaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak milliy YEOYA qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan o'zining ijobiy munosabati shakllanadi. Demak jamiyat milliy mafkura orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlarni taklif etsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan chiniqqan, vatanparvar. zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'ladi. Eng muhimi shundaki, har bir jamiyatda qanday maqsadda bo'lmasin yangi g'oya va konsepsiyalarga nisbatan yoshlar o'z munosabatini bildiradi va aholining boshqa qatlamiga nisbatan tezroq qabul qiladi. Chunki yoshlar fiziologik va psixologik jihatdan hali shakllanish bosqichida bo'lgani uchun ularda yangiliklarga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi va uni e'tiqodiga aylantirish ehtiyoji katta bo'ladi. Shuningdek yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra salbiy hodisalarga tez beriluvchig lik jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibli holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim "adolatsizlik"lar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon yetkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milliy g'oya, milliy gurur va ornomus bilan bog'liq ma'naviyruhiy holatlar muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiqoydin bayon etish lozim. Ayni paytda, davlatimiz rahbariyati olib borayotgan ijobiy ishlar va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlari va erishilayotgan amaliy natijalar xususida targibottashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor berish yoshlarning jamiyatimiz, davlatimiz, mustaqilligimizga bo'lgan ishonche'tiqodini mustahkamlash olimlarimiz, peshqadam ziyolilarimiz, ma'ruzachilarimiz, mafkuraviy ishlar bilan shugullanuvchi barcha targibottashviqotchilarning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi.

Milliy g'oyaning yoshlarni safarbar etish, ilhomlantirish, buyuk kelajak sari chorlash uchun ahamiyati, ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni va roli uning hayot haqiqatlariga, real borliqqa, xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

Hayot haqiqatlariga mos kelmaydigan, real voqyelikdan, borliqdan, xalq hayotidan, kundalik turmushdan ajralib qolgan suhbatlar, ma'ruzalar, muloqotlar, uchrashuvlar Qanchalik jozibador, obro'li bo'lmasin, baribir, uning amaliy samarasi bo'lmaydi. Yoshlarning ko'z o'ngida, qalbida turgan muammolarni o'zida aks ettirmagan, uni qiziqitirib kelayotgan savollarga yetarli darajada javob bermaydigan, odamlarning yuragiga jiz etib ta'sir ko'rsatmaydigan anjumanu Muloqotlar, mafkuraviy ishlar naf emas, zarar keltiraDi, uning obro'sini tushiradi, bunday uchrashuvlaru mashvaratlarga yoshlar ishonishmaydi, ixlos qo'ymaydi.

Yoshlarda haqiqatga moyillik yuqori bo'ladi, soxtakorlik ko'zbo'yamachilik so'z bilan amaliyoti boshqa kimsalarDan jirkanadi, nafratlanuvchi ruhiyati kuchli bo'ladi.

Milliy gurur va ornomus tuyg'ularini shakllantirishda xalqning madaniy merosi, milliy qadriyatlari, ulug mutafakkirlarning ibratli hayoti, bugungi erishilayotgan yutuqlar muhim. Yosh avlod

ongiga milliy istiqlool mafkurasining ijtimoiy adolat haqidagi g'oyalarini singdiritttda Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temur "Tuzuklari", Alisher Navoiyning "Mahbub ulqulub" nomli mashhur asarlari tarixiyilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati, milliy g'oya asosida erkin hayot, obod va ozod Vatan qurish yo'lidagi harakatlari, maqsad va manfaatlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g'oyalarni boyitish va ishonch, e'tiqodga aylantirish bilan bog'liq. Bu ishni yo'lga qo'ymoq uchun to'rtta masalaga alohida e'tibor berish lozim va zarurligi ko'rsatilgan:

Birinchidan, mavjud vaziyatni, yaqin istiqbolimizyugag rivojlanish tamoyillarini, kerak bo'lsa, undagi salbiy holatlarning ijtimoiy sabablarini xolis o'rganadigan nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ularning imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

Ikkinchidan, shiddatli sur'atlarda o'zgarayotgan, to'xtovsiz yangilanayotgan zamon, hayotimizda muttasil ravishda ro'y berib turgan voqyea, hodisa va jarayonlar, O'zbekiston davlat mustaqilligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy ma'naviy zaminlarini bundanda mustahkamlash va barqarorlashtirishga bo'lgan talab va ehtiyojlar ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirish, umumiy maqsad yo'lida safarbar etish;

Uchinchidan, milliy g'oyaning kuchi bir tomondan ma'rifattarg'ibot ishlari, uning samaradorligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlarning kundalik hayotda duch kelayotgan muammolarning tushunishlari, ularning munosabatlariga fikrga fikr bilan, g'oyaga g'oya bilan javob bera olish, uni qanday hal etayotganliklariga bevosita bogliqdir. Millat ravnaql) Vatanga kerak bo'lsa jonini jabborga berib faoliyat ko'rsatadigan yoshlar bo'lmasa, milliy istiqlool g'oyasida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Bu yoshlarda milliy g'ururni baland bo'lishini taqozo etadi.

Biz umumbashariy qadriyatlar, Sharq falsafasi, yuksak axloqiyestetik ideallar, milliy an'analar asosida tarbiya maktabini bunyod etgan mutafakkirlarimiz bo'lganidan faxrlanamiz.

Bizga bobokalonlarimizdan dinimiz, o'zbekona turmush tarzimiz meros qolgan. Ana shuning uchun ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berish, yoshlarning maqsadi va orzuumidlariga munosib go'zal hayot barpo etish juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki "Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarining madaniyati, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amho'rlik qilmosh zarur. Yosh avlodga ozod va obod Vatanni meros qoldirar ekanmiz, ular mutafakkirlarimizning, davlat rahbarlarining ulug' ishlarni davom ettirishlarini niyat qilar ekanmiz, yoshlarning ma'naviy uyg'oqligiga ahamiyat berishimiz lozim. Gaflat uyqusidan uyg'onib, yorqin ko'z bilan kelajakka nazar tashlaydigan zamon keldi".

Millat taraqqiyoti, ma'naviyati va ma'lumoti yuksak bilimli yoshlarga bogliq. Aks holda yoshlarning manqurtlik va faqat pulga sajda qiluvchi arzon ishchi kuchiga aylanib qolish xavfi tugiladi. Millatning istiqboli arzonarovga o'z kuchini sotadiganlar evaziga emas, aksincha, moddiy va ma'naviy mehnati, salohiyati yuksak qadrlanadigan kishilar, o'z hayotini ijodiy va jamiyat taraqqiyotida ijobiy rol o'ynaydigan mehnat asosida qurgan yoshlarga bog'liq. Kelajagimizga umid va ishonch katta. O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishi uchun shartsharoitlar mavjud: buyuk tarix va boy ma'naviy merosimiz bor. Jahonshumul ahamiyatga molik madaniyatning vorislarimiz; vatanimizning iqlimi, tabiati, ajoyib yer osti va yer usti boyligimiz behisob; xalqimiz mehnatkash, g'ayratli va bardoshli; ko'hna mamlakatimiz zo'r intellektual salohiyatga, boy aqliy merosga ega. Bu ma'naviy ne'matlar davlatimiz, mamlakatimizning tarixiy ildizlari sifatida kelajakda mo'lmo'l ma'naviy Hosil berishiga shakshubha yo'q. Buni yoshlar qadrlashlari, uni rivojlantirib, doimo boyitib borishlari o'zlaridan Keyingi avlodga qoldirish tuyg'usi baland bo'lishi, shunday milliy g'urur va iftixor ularni yangi-yangi yutuqlarga, ilmfan sirlarini egallashga da'vat etadi.

Mustaqillik mohiyati va ahamiyatini sarhisob qiladigan bo'lsak bu ijtimoiy o'zgarishda yoshlarning o'rni muhim.

Mustaqillik tufayli yoshlarning dunyoqarashi o'zgardi.

Ularning g'urur, oriyat, sha'n va nomus tuygulari kuchaymoqda. Hayotga va mehnatga munosabati, Vatanga, ona zaminga mehri, egalik va mas'uliyat hissi kuchaydi. Bir so'z bilan aytganda yoshlar o'zligini anglay boshladi. Qanday zaminda yashayotganimizni his qilish, umuminsoniy qadriyatlarga intilish bilan birga, Sharq falsafasi, o'zbekona tafakkur nuri barchaning dilidan o'rin ola boshladi. Milliy an'analarimiz va udumlarimizni tiklash va rivojlantirish tamoyili kuchaydi. Islom dinimizni qadrlash ma'naviyatimizni yangi ma'nolar bilan to'ldirishga olib keldi. Ulut bobokalonlarimiz madaniy xazinasiga haqiqiy vorislik qila boshladik. Ulardan faxrlanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yurtimizda

yashayotgan barcha millat, elat vakillarining tinchinoq yashashi uchun sharoit yaratildi. Bundan yoshlar bahramand bo'lmoqsa.

Yangi jamiyatning maqsad va ideallariga binoan yangi avlod dunyoqarashi shakllanmoqda. Yangi jamiyatning qaror topishi va rivojlanishi, o'z navbatida, ma'naviy yangilangan, rivojlangan va shakllangan avlodlar ruhining poklanishini ham taqozo etmoqda. Yangi jamiyat avval millat orzusida, qalbida pishib yetiladi. So'ngra u obyektiv realikka aylangan, keng jamoatchilikning hayot va taraqqiyot tarzini ifodalovchi YEOYA tarzida qaror topdi. Xuddi shu jamiyat yetishtirgan kishilar, keng jamoatchilikning ilgor dunyoqarashi va tafakkuriga zarurat sezadi. Birbirini taqozo etuvchi va birbirining taraqqiyotini belgilovchi g'oyaviy omillar mushtarakligi jamiyat va mamlakatning milliy manfaatlarini va istiqbolini kafolatlovchi kuchlardir. Ana shu ma'noda respublikamizda qaror topayotgan fuqarolik jamiyatini va bu jamiyatda istiqomat qiluvchi yoshlarning ongini, dunyoqarashini o'zgartirish va insoniylashtirish maqsadida nihoyatda ko'p choratadbirlar ko'rilmogda. Inson erkinligi va ozodligini kafolatlovchi O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilindi. Qator universitetlar tashkil etilib, o'quv tizimimizda jahon andozalari, tarbiya yo'nalishida ma'naviy merosimizning eng ilgor va insonparvar tamoyillari asos qilib olindi. Davlat va jamiyat qurilishi masalalarini o'rganish, yuksak malakali rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi tashkil etildi. Vatanimizning Qurolli Kuchlari va xavfsizligini mustahkamlash, fuqarolarning o'z uyi va ish joylarida tinchxotirjam bo'lishlari bo'yicha choratadbirlar belgilandi; ta'lim tizimimizdagi islohotlar zamonaviy lisey va kollejlarda ta'sis qilinishiga olib keldi; yoshlarning bilim va salohiyatlarini yuksaltirish maqsadida "Ulug'bek", "Umid", "Ustoz", keyinchalik "Iste'dod" jamgarmalari tuzildi; O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasbhunar ta'limini tashkil etish choratadbirlari ishlab chiqildi. Badiiy Akademiyaning tashkil etilishi, Imom Ismoil Buxoriy, Amir Temur, Bobur, Ulug'bek Bahouddin Naqshband, alFarg'oniy, Moturidiy, Xo'ja AxrorVali kabi milliy madaniyatimiz darg'alariga bagishlangan tantanalar, qurilgan majmualar yangi jamiyatning amalga oshirayotgan real ma'naviy ishlaridir. Ular yangi jamiyatning kuchqudratidan nishona bo'libgina qolmay, milliy ong va yangi dunyoqarash shakllanishida, yoshlarda milliy g'ururni mustahkamlashda juda katta ahamiyat kasb etmoqsa.

Yoshlarning ongi va tafakkuri o'zgarib, yangilanib bormogda. Tafakkur va ongimizda mustaqillik g'oyalari mustahkamlanmogda. Dunyoni, o'zimizni va o'zligimizni anglash imkoniyati qo'lga kiritildi. Bu yoshlar tafakkurini mustaqillik tafakkuri talablariga mos shakllantirmogda.

Mustaqillikning dastlabki va eng oliy ne'mati o'zligimizni anglab yetish bo'ldi. O'zligini anglab yetgan tafakkurning birinchi belgisi milliy g'oya, milliy mafkuradan bahramand bo'lishdir. Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik milliy mafkura doirasida uchrashi mumkin bo'lgan ichki ixtiloflarning oldini oldi va uni keng miqyosda yoshlar qalbiga kirib borishiga imkon yaratdi. Yoshlar ongi va tafakkurida o'zgarish kuchaygan ekan, ular o'z hayoti va istiqbolini millat hamda mamlakat istiqboli bilan bogliq ekanligini chuqur his qila boshlaganini anglatadi. Har bir sohada o'zgarishlar, yutuq va muvaffaqiyatlar kun sayin ko'payib, kengayib borayotgan ekan, mafkura sohasida endi ish qolmaydi, hamma narsa o'ylaganimizday davom etib boraveradi, deyish to'g'rimi? Albatta, yo'q. Negaki, dunyoda muallaq bir hududda yashamayotganimiz, atrofimizda turli tizim va tuzumdagi xalqlar va mamlakatlar mavjudligi, mafkuradek nozik ma'naviy jarayonning uzluksiz o'sish va o'zgarishda bo'lishini taqozo etadi. "Dunyoda yoshlar ongi va qalbini egallashga" urinishlar saqlanib qolmogda. Ayniqsa, yoshlarimiz tafakkuri, dunyoqarashini shakllantirish masalalariga befarq bo'lmaslik kerakligini nazarda tutmay iloj yo'q. Demak mafkuraviy tahdidning saqlanib qolishi yoshlarni ham o'ylashga undaydi.

G'oyaviy taxdid yuzaki qaraganda birdan va bevosita ko'zga tashlanmasligi mumkin. Chunki, g'oya inson ongi, tafakkurida shakllanadi. Shunga binoan, ongni, tafakkurni tahlilga soluvchi har qanday tahdidlarning oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik zarur.

Tinch va osoyishta mehnat qilib yashashga da'vat etuvchi milliy g'oyaga tahdid solishi mumkin bo'lgan o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan muayyan tashkilotlar mavjudki, ular katta mablag va mafkuraviy ta'sir vositalari yordamida yagona mafkuraviy makon barpo qilib, islom dsnini siyosiylashtirish va shu asosda hukmronlik qilish, hokimiyatni qo'lga kiritishga harakat qilmogda. Ular musulmonlar yashaydigan mamlakatlar o'rtasida hyech qanday ma'muriy chegaralar bo'lmasligi kerak. Bu davlatlarning barchasi yagona xalifalik markazi tomonidan boshqarilishi zarur, degan g'oyalarni yoshlar ongiga tiqishtirishga harakat qilmogda.

Bunday ekstremistik harakatlar orqali musulmon oilalarining yosh farzandlari ongi, dunyoqarashini zabt etishga, pirovardida milliy g'oya, milliy mafkura tushunchalarI o'rnini o'rta asr ruhidagi islom aqidalari bilan to'ldirishga harakat qilmoqdalar. Ayni paytda, diniy ekstremizm, vahhobiychilik va "Hizbi tahriri islomiya" qarashlarini inkor etish islom falsafasi, islom dini va uning inson ma'naviyatini poklantirish yo'lidagi g'oyalariga qarshi chiqish degan gap emas. Xalqimizning e'tiqod qo'ygan, tinchlik va osoyishtalikni yuksak qadrllovchi haqiqiy islom ta'limotiga hych qanday e'tirozi yo'q. Biroq dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga intilish bu boshqa masala. Siyosiy maqsadlar, demokratik tamoyillar va jarayonlarning o'z yo'li, qonunqoidalari mavjud.

Dunyoviy fuqarolik jamiyatida har kim o'z ishini qilishi, shug'ullanishi, shuningdek "din dinning ishini, davlat davlatning ishini qilishi kerak. Davlat diniy masalalarga aralashmaganiday, din ham davlat ishlariga, siyosiy jarayonlarga aralashmasligi kerak. Agar yoshlarimiz orasida o'z mamlakatida diniy qadriyatlarining rivoji, ma'naviy yuksalishning jamolini ko'rishga xayrixohlar bo'lar ekan, ular, birinchi navbatda, zamon farzandi, milliy g'oya va milliy mafkura egasi bo'lgan bilimdon va ma'rifatli inson bo'lmog'i lozim. Ular azaliy va abadiy ma'naviy qadriyatlarimizdan uzilmagan holda zamonaviy tafakkur darajasidagi bilim va idrokka ega bo'lishlari kerak.

Milliy g'oya, milliy tafakkur va milliy mafkura yo'lida yoshlar qanchalik birlashsa, jipslashsa jahon xalqlari ko'z o'ngida kuchimiz, mavqeyimiz va o'rnimiz shunchalik baland ko'tariladi. Biz boshqa davlatlarga suyalib, boshqa davlatlarni panoh tutib, ularning etagidan ushlab yuradigan davlat, xalq emasmiz, mustaqil siyosat, mustaqil tafakkur va mustaqil harakatlargina doimo boshqalarda hurmat va e'tibor uyg'otgan. Mutelik tobelik mevasi har qanday sharoitda millatning rivojlanishiga yo'l bermaydi. O'zimizning kuchimiz, qudratimiz, o'zimizning maslagimiz va o'zimizning ongimiz tufayli biz buyuk davlatga erishamiz. Hozirgi sharoitda kimda kim o'z mustaqil Vatani, o'z mustaqil fikri, mustahkam e'tiqodi bo'lsagina tenglar ichida teng bo'lady.

Hozirgi davr uchun dolzarb va asosiy hisoblangan milliy g'oya tamoyillari millat tarixi va uni idrok etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki milliy g'oya osmondan tushmaydi, u yerda yurgan odamlarning qalbida, shuurida yetilib, shu yer, shu zamin, shu Vatan xizmati uchun qaratilgandagina uning ahamiyati va mavqeyi ham ortib boradi.

Milliy g'oyaning yoshlar ongidan chuqur o'rin olganini aniqlashning asosiy mezon shu aziz Vatanimiz, shu aziz xalqimiz qadriyatlari barchamizniki, bu Vatan, bu millat uchun yashash va uning istiqboli uchun halol va pok mehnat qilish baxt ekanligini qanchalik his qilishlaridir.

Muayyan davrdagi milliy g'oya, milliy mafkura, ya'ni jamiyatning asosiy maqsadini ideallar, demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish masalasi ham juda muhimdir. Bu jarayon millatni o'z qobig'ida o'ralashib qolish xavfidan ozod etadi, unga jahon miqyosida tafakkur yuritish imkoniyatini beradi. Insoniyat uchinchi ming yillik sivilizasiyasida shunday taraqqiyot yo'lini qo'lga kiritdi. Har bir millat va mamlakat taqdiri insoniyat istiqboliga daxldor bo'lib qoladi. Davrimizning bunday o'ziga xos va murakkab ijtimoiytarixiy jarayonlarini unutish aslo mumkin emas. Insonning o'z millati hamda Vatani, shuningdek insoniyat oldidagi mas'uliyati va burchini har bir yosh avlodga singdirish, yoshlarda vatanparvarlik tuygularini insonparvarlik tamoyillari bilan uygun kamol toptirish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda.

XXI asrda yashayotgan bugungi yoshlarimizning ma'naviyati ana shunday keng va chuqur, sof va beg'ubor bo'lmog'i darkor. To'g'ri, inson va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi ma'naviyat tushunchasining aniq va mutlaq falsafiy mezonini belgilash qiyin. Lekin, bu degan so'z ma'naviyatning shakllanish va yuksalish me'yorlarini ko'rib bo'lmaydi, degan gap emas. Butun jamiyat miqyosida olib borilayotgan, inson ruhiyatini poklantirish va dadillashtirish bilan bogliq barcha ishlar uning qanchalik katta natijalar berayotganidan dalolatdir. Mustaqillikkacha bo'lgan tushuncha, tasavvur hamda kechinmalarimizdan bugungi ruhimiz, ma'naviyatimiz naqadar katta farq qilishi hammaga ayon. Buni har kim o'ziga o'zi beradigan "Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik?" degan javobdan, anglab olsa bo'ladi.

Yoshlar ma'naviyatini oshirish masalalarining birlamchi yoki ikkilamchi vazifalari yo'q, Ularning barchasi bir yo'la hamda doimiy diqqate'tibor markazida turmog'i kerak. Shuning uchun ta'limtarbiya, bilim va dunyoqarashga katta ahamiyat berilmoqda. Bola tarbiyasi beshikdan boshlaganidek ma'naviy barkamollik ibtidosini ham oila, bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlari va hokazo maskanlardan boshlanadi. U kechiktirilsa, egri ko'chatni sindirmasdan to'g'rilash qanchalik qiyin bo'lsa, ma'naviy kamolaltga erishish ham shunchalik kechikadi, yo ogir kechadi.

Biz bugun fuqarolarning erkinligi va mustaqil tafakkuriga asoslangan jamiyat qurayotgan ekanmiz, yoshlarimizga jamiyatda mutlaq erkinlik bo'lmashligini, mustaqil fikrlash mas'uliyatsizlik va burchni unutish emasligini tushuntirib borishimiz zarur. Fuqaro erkinligi yangi ijtimoiy tuzum tomonidan kafolatlansada, fuqarolarshshg jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan mutlaqo erkin xatti-harakatlarining kafolati emas. "Men mutlaqo erkin fuqaroman, mustaqil tafakkurli insonman, bilganimni qilaman" qabilida yashash tarzini o'zgartirish insonning ijtimoiy va milliy mohiyatiga zid aqidadir.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llabquvvatlash borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'grisida"gi Farmoni va 21 iyun kuni Oqsaroyda ushbu Farmonda belgilangan vazifalarni hal etish yo'llariga bagishlangan majlisda ta'kidlanganidek "Yoshlar o'rtasida diniy ekstremizm, aqidaparastlik giyohvandlik kabi illatlarning oldini olishda, farzandlarimizni bunday baloqazolardan asrash uchun kurashda, doimo sezgir va ogoh bo'lib yashashda hokimliklar, vazirlik va idoralar, xususan, Oliy va o'rta maxsus, Xalq ta'limi vazirliklari, Din ishlari bo'yicha qo'mita, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Oila" markazi, keng jamoatchilik barchamiz mas'ulmiz"¹. Shuning uchun yoshlar tarbiyasi va bu tarbiya zaminida ularning ma'naviyatini harakatga keltiruvchi mustaqillik g'oyalari, milliy qadriyatlarni asrabavaylash va rivojlantirish tuygusi, Vatan istiqboli yo'lida halol va pok mehnat qilish singari milliy mafkuraning o'zak tomirlarini singdirish yotadi.

Mustaqillik davri yoshlari ana shunday xalqimizning XXI asrdagi buyuk bunyodkorlik ishlariga o'zlarini safarbar aylaydigan fidoyi inson bo'lib yetishayotganini hayotning o'zi isbotlab bermoqda. Ular umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, zamonamizga tatbiq etgan holda, milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha imone'tiqod bilan yashash singari hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borgan holda bunday sharaflil ishlarni bajarishga harakat qilmoqdalar.

Bugun yoshlar mustaqillik tufayli "or", "andisha", "nomus", "vijdon", "insof", "g'urur" kabi tushunchalarning haqiqiy ma'nosini anglab yetmoqdalar.

Or. Or — bu nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan hijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Bundan tashqari, o'z o'rnida hazar qilish yoki bo'lmasa, obro'e'tibor, faxrlanish ma'nolarini ham bildirishi mumkin.

Andisha. Andisha bu oqibatini o'ylab yoki yuzxotir qilib yuritilgan mulohaza, ehtiyotkorlik hissidir. Andishali odam deganda, oqibatini o'ylab ish qiladigan, yuzxotirni biladigan, ornomusli, sharmhayoli, iboli insonni tushunamiz. Odatda andishali odam betgachoparlik qilmaydi, farosat bilan ish tutadi.

Nomus. Nomus — bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeyini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'ularini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ham ifodalaydi. Odatda, nomusli odam ma'naviy qadriyatni moddiy boylikka alishishni o'ziga ep ko'rmaydi. Qonun taqiqlay olmagan narsalarni goho nomus taqiqlay oladi, degan naql ham bor xalqimizda.

Vijdon. Vijdon — bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'latvori uchun oila, jamoat, jamiyat va Vatan, millat oldida ma'naviy mas'uliyat his etishidir. Shu yuksak axloqiy tushuncha shaxsni ijobiy xatti-harakatlarga undab va shunga moyil qilib, o'z faoliyatiga o'zi baho berishga olib keladi; o'z faoliyatining yaxshi tomonlaridan qanoatlanib, xursand bo'lsa, yomon tomonlaridan norozi bo'lib, ruhan eziladi, ya'ni vijdon azobiga uchraydi. Viekdon tugma xislat deyuvchilar ham bor. Vijdon — kishilarning yashab turgan sharoitiga, olgan ta'limtarbiyasiga bog'liq, deb hisoblovchilar ham mavjud. Vijdon ko'p yoki oz bi286

limlilikka, boy yoki kambagal bo'lishlikka, oddiylik yoki mashhurlik bilangina bog'liq emas.

Insof. Insof — bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda, kishilarga munosabatda halollik to'grilik barobarlik tenglik sofdillik va haqiqatgo'ylikdir. O'zgani o'z o'rniga va shuningdek o'z o'rniga o'zgani xayolan qo'yib ko'rish ham insofga kiradi. To'q ochni, boy kambagalni, baxtli baxtsizni, tolei baland tolei zabunni, omadli omadsizni, sog'lom bemorni o'z o'rniga qo'yib ko'rolsa, va aksincha, ham xuddi shunday bo'lsa, insofililar safi kengayib boradi.

Insof tushunchasi Sharq falsafasida shunday talqin etiladi. Insof — bu kishining ijtimoiy axloq me'yori nuqtai nazaridan o'z xulqodobini tartibga solishi va axlokday baqolashidir. Insof vmjdovshi odamning yoki ma'lum jamoatning jamiyatga yoki boshqa kishilarga nisbatan o'z xuldatvori uchun ma'naviy javobgarlik hissidir. Agar kishi biror ishni to'g'ri bajarsa, unda ichki qoniqish paydo bo'ladi,

vijdon pok bo'ladi, atayin noto'g'ri bajarsa, insofdan chiqdan bo'ladi. Insof kishini biror ishni qilishga undasa yoki kilishdan tortsa, bunda u qalb amri tarzida bo'ladi.

Muayyan kishining xoh shaxsiy, xoh ijtimoiy xulqatvorida uchragan xar qanday soxtalik har qanday munofiqlikni jamoa insofsizlik sifatida qattiq qoralaydi. Xullas, insof kishining jamiyat oldida, tevarakatofidagi kipshlar oldida o'z xatti harakati bilan ma'naviy mas'uliyatini his etishiyushg ifodasidir.

Gurur. Ona tilimiz asrlar bo'yi xalqimiz tomonidan zargarona sayqal berilib, shunday mukammal qilib yaratilgakki, u orqali har qanday ma'no va tushunchalarni, ularning eng nozik va harir jihatlarigacha aniq va tiniq ifodalash mumkin. Ya'ni necha ming yillar davomida xalqimiz ongi to'lishib boravergan, unda hosil bo'lgan tushunchalarni o'z tub so'zlarimiz bilan ham, o'rni da jahon tillariga oid so'zlar bilan ham, yangiyangi so'zlar yaratish vositasi bilan ham ifodalangan. Shu tariqa til bisoti boyib kelgan. Tilimizdagi vurur, faxr va iftixor so'zlarini olib ko'raylik. Bular birbiriga yaqin ma'nolarni anglatsada, ayni bir paytda, birbiridan muayyan darajada farqlanuvchi tushunchalarni ham bildiradi.

«Biz sharq farzandi ekanligimizdan, o'zimizning urfodatlarimizdan faxrlanamiz. Milliy qadriyatlarimizni asrash va hyech qachon unutmazlik haqida otabobolarimizdan tarbiya olganmiz. Endi esa buni bolalarimizga ham o'rgatayapmiz»¹.

O'tmishini bilmagan va e'zozlamagan xalqning kelajagi yo'q. O'tmish bizlar uchun ham, boshqa xalqlar uchun ham allaqachon qaytmas bo'lib ketgan. ko'z o'ngimizdan olislashgan, tarix mulkiga aylangan davrdangina iborat emas, balki ahamiyati hyech qachon yo'qolmaydigan tag zamin, o'q ildizimizdir. O'tmish bizning tayanch nuqtamiz ekaniga shubha yo'q. Agar ana shu tayanch nuqtaga, ma'naviy poydevorga suyanmasak o'tmishimizdan kuchquvvat, ruhiy ma'naviy ozuqa olmasak olga tomon rivojlana olmaymiz.

O'zbek xalqi o'zining o'tmishi bilan har qancha fahrlansa, gururlansa arziydi. U jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga shu qadar katta hissa qo'shganki, buni butun dunyo allaqachon tan olgan. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, AlXorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shganlar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib kelmoqdalar.

Inson mohiyati aql da, aqlning mohiyati esa xarakterda namoyon bo'ladi, degan edi buyuk mutafakirlardan biri. Demak insonning insonligini ifoda etuvchi yagona mezon aqlidrok ong va tafakkur darajasi bo'lsa, ularning mohiyatini ochib beruvchi, miqyosi va ko'lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti harakati, hayotga va atrof muhitga munosabati, o'zo'zini boshqarishdagi ichki qudratdir. Ana shu ichki qudratga tayangan xalq Sharq xalqlarining diyonat, ornomus, sharmhayo kabi fazilatlarini asrlar mobaynida oliy qadriyat sifatida avaylab asrab kelmokda.

14MAVZU
MILLIY ISTIQLOL G'OYASINING INSON ONGI
VA QALBIGA SINGISHI: YANGICHA USLUBLAR, YONDASHUVLAR VA
TEXNOLOGIYALAR

*«Albatta, mafkurani bir kun yoki bir yilda yaratib
bulmaidi. Chunki mafkura shakllanadi, shakllantirib
shdi. Uning asosiy tamoyillarini ishlab chisish
mumkin. Ammo bu tamoyillar real xayotda o'z o'rnini
topmasa, bunday mafkura fasat soqozda bo'ladi, xolos».*

Islom KARIMOV

Reja.

1. Milliy istiqlol lg'oyasini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish zarurati va ustuvor yo'nalishlari
2. Fukaro tarbiyasini tashkil etish: dunyo tajribasi va muammolari.
3. Ommaviy axborot vositalari va g'oyaviy ta'sir kursatish mexanizmlari.
5. Mafkuraviy tarbiyani samarali tashkil etish imkoniyatlari.

Nima uchun milliy istiqlol royasini inson ongi va qalbiga singdirish zarur va muhim? Milliy istiqlol YEOYASINING targiboti nimaga xizmat qiladi va bu jarayon qanday tashkil qilinishi kerak? Umuman, milliy g'oyaning targiboti bilan kimlar va qanday tuzilmalar shujullanishi kerak? Mazkur mavzuni o'rganish shu kabi savollarga javob topish imkonini beradi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb bora rasm bo'lmokda. Chunki asrimizda keng qamrovda jadal sur'atlarda tarqalayotgan informasiyalar insonning istaklarini, didini o'zgartirishga, fikriga ta'sir qilish mumkin. Tan olish kerak tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakkacha eoringki, o'qiyotgan kitoblarimiz ham qandaydir mafkurag ta'sir samarasiga ega ularda muayyan g'oyalar targib qilinadi. Bu holat «Eng asosiy narsani ko'z bilan ilgab bo'lmaydi» degan fikrni yana bir karra tasdiqaydi. Bunday ko'zga ko'rinmas qudratli tarshbot kuchlari kipshni hamma yerda va Har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi — insonni imogadir ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og'dish Tadbirkor mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi. Diniy arboblal o'z diniga e'tiqod qilishga chaqiraXalqaro maydonda ba'zi davlatlar o'zining «katta og'a» uqtirishga harakat qiladi. Lekin tangananing orqa tomoni ham bo'ladiku. Agar o'sha molini maqtayotgan tadbirkor tamaki sotayotgan bo'lsachi? Uning zarari haqida odamlarni kim ogohlantiradi? Agar o'sha dindor, din chetda qolib, davlat tuzumini ag'darishga chaqirayotgan bo'lsachi? Bunday buzgunchiliklardan xalqni kim qaytaradi? Yoki jahonda «katta og'a»largogag qo'lidani tutib emas, mustaqil odim tashlash kerakligani kim tushuntiradi? Bu kabi targ'ibotni yoki aksiltargibotni kim tashkil qilishi kerak?

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targibot tizimiga ega bo'lishga intilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, o'z faoliyatiyugag targibotiga AQSh hukumati yiliga 2,5 milliard dollar sarflashi bejiz bo'lmasa kerak. Fransiya ham o'z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frankni bekorga sarflamayotgandir? Bu ma'lumotlar targibot nafaqat dinda, biznesda muhimligini, balki siyosatda ham, ma'naviyta'rifiy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etishni ko'rsatadi. Demak rivojlangan demokratik davlatlar ham mafkuraviy faoliyatdan sira voz kechmagan.

Puxta ishlab chiqilgan strategik yo'nalish davlatning istiqbolini belgilaydi. O'zbekistonning strategik maqsadlari Islom Karimovning qator asarlarida, jumladan, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» hamda «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarlarida belgilab berilgan. Shu maqsadlar sari insonlarni safarbar qilish ularni g'oyalar shaklida singdirish zaruratini keltirib chiqaradi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri, so'zsiz, har bir fuqaro, aniqrori, insonning faolligiga bog'liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ'iboti «hukumat siyosatining tashviqoti» ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bosh islohotchi ekanligi ham O'zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targib qilishni talab etadi. Bunday targibot islohotlarni «mafkuraviy asosda ta'minlash»ga xizmat qiladi.

O'zbekiston hayotidagi o'zgarishlar insonlar ongida ham katta o'zgarishlar qilishni talab etadi. O'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat yangi zamon kishisi tarbiyalash haqida jiddiy qayrurishi, tabiiy. Demak O'zbekistonda ham «komil inson» g'oyasida e'tirof etilgan shaxs mos

sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko'ndalang turibdi. «Fuqarolik ahloqi»ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hych kimga sir emas. Shuning uchun yot g'oyaviy ta'sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona g'oyalarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg'ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari¹ ishlab chiqildi. O'zbekistonda milliy istiqlol g'oyasining targ'ibottashviquoti ana shu asosiy g'oyalar, tushunchalar va tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Milliy g'oya va targibot, tashviquot tushunchasi, milliy istiqlol g'oyasining targ'ibottashviquoti haqida to'xtalishdan avval "targibot" va "tashviquot" tushunchalarining o'zagiga e'tibor qaratish zarur. "Targ'ibot" tushunchasining o'zagini "ragbat" so'zi tashkil etgani bois ham, u insonni biror harakatga ragbatlantirishni nazarda tutadi. "Tashviquot" tushunchasining o'zagi esa "shavq" so'zidan olingan bo'lib, u kishida biror narsaga shavd uyg'otishga yo'naltiriladi. Ochigi, targ'ibot insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan. Targibotchilarni bekorga «inson qalbining sozlovchilari» deb atamaydilar. Demak targibottashviquotdan maqsad bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak "milliy istiqlol g'oyasi" haqida ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, mafkuraviy maqsadlarni aniq vazifalar shakliga keltirishimiz, milliy istiqlol mafkurasidagi asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur. Chunki milliy g'oya chuqur e'tiqodga aylangan taqsirdagina u ulkan kuch va qudratga ega bo'ladi. Buning uchun esa xalqda mafkuradan o'rin olgan g'oyalarga kuchli ishonch, e'tiqod va unga amal qilish bo'lishi lozim.

Milliy g'oyani singdirish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko'rilmagan darajada o'stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilmayapti, balki ma'naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondashish milliy istiqlol g'oyasini targib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Milliy istiqlol ROYASINI xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketmaketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muximligi shunda ko'rinadiki, masalan, targibotda me'yorning buzilishi, milliy mafkura to'g'risida hadeb va noo'rin gapiraverish, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targibot texnologiyasi milliy mafkura mazmunmohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- milliy istiqlol g'oyasining targaboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash;
- bu sohada eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik va majlisbozlik ko'rinishlariga barham berip
- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Milliy g'oyaning targibottashviquotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

— *keng kamrovlqshik* bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilmaxilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada, jamiyatning barcha bo'rinlari g'oyaviy ta'sir doirasida qamrab olinadi; — umumiy maqsadga

yo'naltirilganlik; — faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh maqsadi qilib olinadi;

— *uzluksizlik* — milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining makonda va zamonda doimiylikni, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili milliy istiqlol g'oyasini xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi, Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko'rgazmali qurollar milliy istiqlol g'oyasiga uygun bo'lishi talab etiladi;

ketmaketlik — har bir bosqich uchun taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qiladigan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

— *boskichma-boskichlik* — milliy mafkurani targ'ib qilishning ruhiy jihatlar bilan bogliq bo'lib, ham targ'ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi. Aytaylik boshlang'ich sinf o'quvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari to'grisida gapirish noo'rin bo'lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bogchada, boshlang'ich sinflarda, to'liqsiz o'rta maktabda, yuqori sinflar, lisey va kollejlar, oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalarida mafkuraviy ish tinglovchi va o'quvchilarning yoshi, bilimi, ma'lumoti kabi jihatlarini hisobga olib aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak;

me'yoriylik aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

— *shaxsiy ibrat* — milliy g'oyani targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlarini, orzuumidlari, intilishlari to'grisida balandparvoz gaplarni gapirayotgan, o'zi hayotda shu manfaatlariga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi. Mamlakat va millat ravnaqi to'grisida ogiz ko'pirtirib gapiradigan boshliq bo'shab qolgan lavozimga layoqatli va munosib xodim qolib, o'ziga qarashli, lekin bu o'ringa nomunosib odamni tiqishtirsa, u millatning yuziga oyoq qo'ygan bo'ladi va uning milliy mafkurani aksiltarg'ibot qilgan bo'ladi. Shuning uchun, milliy royni aholi ongiga singdirishda targ'ibotchilar faoliyatida ish bilan so'z birligini ta'minlash, ayniqsa, rahbar xodimlarning shaxsiy ibrat ko'rsatish tamoyiliga amal qilishi muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Korxona, tashkilot, muassasa rahbari, ular davlat sektori yoki xususiy sektorga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar o'z jamoasidagi ma'naviy g'oyaviy jarayonlarga mas'ul bo'lishi kerak;

ilgor targ'ibotlashviki to'g'ri texnologiyalaridan foydalanish ~ bunda g'oyaviy tarshbotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Milliy istiqlol g'oyasining targ'iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va'z aytish va ma'ruza o'qish kabi targ'ibot shakllari yordami bilangina keng xalq ommasi ongiga singdirib bo'lmaydi. Maqsadga erishish uchun tarshbotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Yoshlar orasida tarshbot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbat kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to'laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlari va'z va ma'ruzalarni emas, ko'proq interaktiv usullar va sanab o'tilgan targ'ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Mazkur targ'ibot tamoyillari milliy istiqlol g'oyasini inson ongi va qalbiga singdirishshg barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo'lib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari hisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Targ'ib qilayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rnamashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurakuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rnamashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchiyushg milliy g'oyaga chuqur ishonchi va qat'iyatini his qilishi kerak. Lekin tarshbotda g'oyalarga e'tiborki tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki e'tiborni jalb qilish — targ'ibotning birinchi bosqichi, xolos.

Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroflicha tushuntirishni, mafkura bilan bog'liq barcha savollarga javob topib berishni talab qiladi. Chunki milliy g'oyani tushunish — unga ishonish demakdir. Ana shu yerda bir savolga duch kelamiz: nima ko'proq ishonch uyg'otadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotmi yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi ma'ruzami? Targ'ibot davomida insonning hislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin ishonchli dalillar, e'tiroz

uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uytotadi.

Targ'ibot jarayoni shu yerda tugaydi, deb o'ylaydiganlar katta xato qiladilar. Zero, mafkura yangi ishlarga ilhomlantiradi, harakatga undaydi. Harakatsiz mafkura esa safсатаbozlikdan bo'lak narsa emas. Demak insonlar milliy mafkuradan o'rin olgan g'oyalarga mos harakat qila boshlaganlaridagina milliy g'oya xalqning e'tiqodiga aylanganligi haqida xulosa qilish mumkin.

«Tarbiya biz uchun yo xayot yo mamot, yo najot yo xalokat, "yo. saodat yo falokat masalasidir».

Abdulla Avloniy

Fuqaro tarbiyaga muhtojmi? Nahotki, tarbiyaga e'tiborsizlik kimlardir halokatga uchratishi mumkin? Umuman, alloma bu fikri bilan farzand tarbiyasini nazarda tutdimi, avlod tarbiyasini yoxud millat tarbiyasi haqida gapirdimi? Har holda yosh vaqtdan bolaning «maslakini tuzatmak» zarurligini ta'kidlaganida A.Avloniy fikr tarbiyasini nazarda tutgan ko'rinadilar. Va, tabiiyki, bunday tarbiya markazida birgina bola emas, bir oilaning farzandlari emas, balki butun millat, butun xalq turadi. Tarbiyani millat qismatini hal etuvchi darajaga ko'tarishning boisi ham shunda.

Avlodni kim tarbiyalaydi, millat qaysi sinflarda tarbiya topadi, fikr haysi kitoblar yordamida tarbiyalanadi? Bularning barchasi haqida kim qayg'urishi kerak? Bu savolga tayyor javob bor: otaona, muallim, maktab, ta'lim vazirligi va oxiroqibat davlat, jamiyat.

Darhaqiqat, har bir davlat o'z fuqarolari bilimli, haqhuquqini taniydigan, ma'naviy barkamol, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lib voyaga yetishi haqida qayg'uradi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bu xususda shunday deydi:

«Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor soxasi deb e'lon silganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak musta'vil fikrlay oladigan, xulsatvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz»¹.

Biroq ta'kidlash joizki, turli davlatlarda «barkamol inson» tushunchasiga turli sifatlar nisbat beriladi. Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg'uradigan yetakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas.

Xo'sh, jahonning yetakchi davlati sanalmish AQShda fuqaro tarbiyasi qanday yo'lga qo'yilgan? Amerikaliklarga qanday g'oya va qadriyatlar singdirilmoqda? Bu savollarga javob topish uchun fuqaro tarbiyasi qanday g'oyaviy ustunlarga tayanishini aniqlash kifoya. AQSh fuqarolari Konstitusiyani, Amerika davlatchiligining asoslari va demokratik tamoyillarni muqaddas deb biladilar va bu tuyguni yoshlar ongiga singdirish haqida tinimsiz qayguradilar. Yeshlarda erkin yashashga ishtiyoq, mustaqillikni qadrlash tuygusi shakllantiriladi.

AQSh nimaning evaziga fan va texnologiyalar sohasida boshqalardan o'zib ketdi? Bu savolning ham javobi bor: Amerikada erkin va ijodiy fikr qadrlanadi hamda o'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan bagrikenglik qaror toptirilgan. Lekin amerikalik fuqaroni tarbiyalashning eng asosiy jihati boshha bir g'oyada yashirin. U ham bo'lsa, har bir insonni noyob iste'dod egasi deb bilish, har bir shaxsга hazrati inson sifatida murojaat qilishdir. Insonga bunday munosabat, so'zsiz, uning saloxdyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Aynan shu g'oya ta'sirida amerikaliklar orasida o'zini «o'rtamiyona odam» deb biladigan yoxud «men bir oddiy odam» deb gapiradigan kishilar nihoyatda kam uchraydi. Amerika fuqarolari adolatni ham o'ziga xos tarzda tushunadilar: shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o'z aqli va iste'dodi bilangina yetishadi. Shunday qilib, har bir amerikalik bolaligidanoq kimgadir va nimagadir orqa qilishga emas, balki o'z kuchiga tayanishga o'rgatiladi. Lekin, eng asosiysi, har bir amerikalikda kelajakka ishonch uyg'otiladi. Xuddi ana shu «amerika orzusi» kishilarni yangi maqsadlar sari rag'batlantiradi, yanga g'oyalarni amalga oshirishga shavq uyg'otadi. Xulosa yasaydigan bo'lsak demokratiya qoidalari va erkinlik Amerika mafkurasining poydevorini tashkil etadi. Bunday tarbiya natijasida faqat o'z kuchiga ishonish, ruhiy ozodlik va mustaqil fikrlash kabi xislatlar amerikaliklarning qonqoniga singib ketgan.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar «AQShda bu borada muammo yo'q ekan» degan xulosa uchun asos bo'lmaydi. Oxirgi paytlarda erkinlikka hadeб urgu beraverish oqibatida amerikaliklar erkinlikni jamiyat oldidagi majburiyatlardan ham ozodlik sifatida idrok eta boshladilar. Shu bois hozirgi kunda AQShning ziyolilari tomonidan yangi mafkura «liberalnasionalizm» mafkurasini yaratish zarurligi haqidagi fikr o'rtaga tashlanmoqda. Bu mafkura milliy va irk'y jihatdan bo'linib ketgan ko'p sonli ijtimoiy guruhlarini «AQSh — millatlar hamjamiyatidir» g'oyasi atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. E'tibor beradigan bo'lsak yangi mafkurada milliy omilning ustuvorligi o'rnatilmoqda. Demak

gap AQShda astasekinlik bilan yagona milliy vujudni shakllantirish, xalqning birdamligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi mafkurani yaratish haqida borayotir.

Endi misol tariqasida Sharqqa murojaat qilaylik. Sharqning eng ilgor mamlakatlaridan biri — Yaponiyada fuqaroni tarbiyalashning eng samarali va ta'sirchan usulidan foydalaniladi. Bunday tarbiyaning asosiy maskani sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Kunchiqar mamlakatda fuqaro tarbiyasi «axloqiy tarbiya» tizimi doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy hujjatlarda «axloqiy tarbiya» tizimi quyidagicha nomlanadi: «xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim», «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat», «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash». Aslida, bu tizim millatni tarbiyalash tizimi vazifasini o'taydi. Undan qudratli toyaviy ta'sir vositasi sifatida ham foydalaniladi. Ko'pchilik olimlarning fikricha, aynan «axloqiy tarbiya» tizimi mamlakat iqtisodiy ravnaqining g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Chunki bu tizim ishlab chiqarishda ma'naviy salohiyatdan unumli foydalanishga yo'naltirilgan.

Ikkinchi jahon urushidan xaroba bo'lib chiqqan mamlakatning 3040 yilda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib olgani ko'pchilikning xayratini uygotadi. "Kichik bir orolning bunday qisqa vaqtda hunarmandchilik ustaxonalaridan avtomatlashgan sanoatgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganligini qanday tushuntirish mumkin?». Mazkur savolga javoban yaponlar quyidagicha javob beradilar:

«Salohiyat insonlarda yashirin».

Yaponiya menejmentining oltin qoidasiga ko'ra, insondan qimmatroq boylik yo'q.

Xo'sh, davlat yapon kishisida qanday qadriyat va sifatlarni qaror toptirishga harakat hiladi? Aslida, mehnatsevarlik intizomlilik va jamoaviylik yapon milliy xarakteriga xos xususiyatlar sanaladi. Biroq, davlat bu bilan hanoatlanmay, o'z fuqarolarida ushbu sifatlarni mustahkamlash va kuchaytirish vazifasini maorifga yuklaydi. Natijada, maktablarda guruhliy birdamlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda kollektivning yutug'i ham, maglubiyati ham guruhning har bitta a'zosiga bogliq ekanligi haqidagi g'oya singdiriladi. Muhimi, boladan umumii ishda o'z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko'rgan fuqaro jamoa muammolarini o'zining shaxsiy muammolari sifatida

(qabul qiladi. Olimlarning fikricha, aynan shunday guruhliy birdamlik (yaponchada «aydagarasyugi») tufayli mamlakat misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarga erishdi.

Mehnat yapon kishisi uchun axloqiy qadriyat sanaladi. Uning qadriyat darajasiga ko'tarilishida "axloqiy tarbiya" tizimining roli beqiyos. Gap shundaki, yapon kishisiga maktabdayoq quyidagi g'oyalar singdiriladi: «Faqat tirishqoqlik va mehnat bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin», «O'z ustingda tinimsiz ishla — shunda birovdan kam bo'lmaysan». Bu kabi g'oyalar ta'sirida ulgaygan yapon kishisi o'zining barcha harakatlarini quyidagi mantiqqa bo'ysundiradi:

Bor imkoniyatlaringni ishga sol!"

Shunday qilib, davlat o'z fuqarolarida tirishqoqlik va hafsala, qunt va gayratni maqsadli ravishda qaror toptiradi. Intizomdan jamiyat manfaatlarida foydalanish borasida esa yaponlar boshqalarga o'rnak bo'la oladi. "Axloqiy tarbiya" natijasida Yaponiyada fuqarolar mex^at intizomining buzilishini shunchaki salbiy illat deb xisoblamay, balki uni Vatanga xiyonat deb qabul qiladilar. Yaponiyada fuqaro tarbiyasi zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirib boriladi. Aynan shu tufayli yapon fuqarolari jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi qudratli kuch sanaladilar. Ko'rinib turibdiki, millat kelajagini o'ylaydigan hyech bir davlat fuqaro tarbiyasi masalasini e'tiborsiz qoldira olmaydi.

Milliy g'oya va O'zbekiston tajribasi ko'tarilgan masalaning muxdmligi O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak bizda "fuqaro tarbiyasi" haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas. O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan ikki yo'nalishda: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida va milliy istiqloq g'oyasini singdirish vositasida amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bizda ham fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Demak maorifga millatni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklangan.

Lekin ta'lim tizimida targibottashviquotdan maqsad__

faqat bilim berish emas, balki kishini biror harakatga undattgdan iborat ekanligini unutmashligimiz lozim. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak mklliy istiqloq g'oyasi o'qitilayotgani hali mafkura singdirilayapti degani emas. Demak mafkuraviy maqsadlarni aniq o'quv vazifalari shakliga

keltirishimiz, milliy istiqpol mafkurasidaga asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur.

Masalaning boshqa jihati ham bor. Aytaylik mafkuraga asos bo'lgan g'oyaning mohiyatini, dunyoning mafkuraviy manzarasini yaxshi biladigan yoshlar buni bilmaydigan tengdoshidan vatanparvarroq, fidoyiroq va yurtiga sadoqatliroq bo'ladimi? Aslida, vatanparvarlik milliy istiqpol g'oyasining ta'rifini yoddan bilish bilan belgilanmaydi. Shu o'rinda milliy istiqpol g'oyasini o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima o'zi, degan savolga javob izlab ko'rish lozim. Asosiy maqsad — zamon talablariga mos insonni tarbiyalashdan iborat. Shunday ekan, fuqarolarda qaysi sifatlarni shakllantirish evaziga mamlakatni yuksaltirish mumkinligi haqida jiddiy o'ylab ko'rish va g'oyaviy tarbiyani ana shu asosda tashkil etish lozim. Buning uchun fuqaroning istalgan modeli haqida o'ylab ko'rish, komil inson qiyofasini yaratish zarur.

Xo'sh, qaysi g'oyalar davlatimizning taraqqiyoti, iqtisodiy ravnaqi va ma'naviy yuksalishiga turtki beradi? Biz yosh avlodga qaysi qadriyatlarni singdirishimiz kerak? Ularda qaysi sifatlarni tarbiyalamogimiz darkor? Bunda, avvalo, har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bolaning iqtidorini rivojlantirishga urgu berish zarur. Buning uchun inson passiv ijrochilikdan emas, balki faol tashabbuskorlikdan ko'proq manfaatdor ekanligiga ishonirish kerak. O'quv jarayonida bu vazifani hal qilish uchun ta'lim jarayonini "yodlash"dan xalos qilish va uni muammolarni hal qilishga yo'naltirish zarur. Shaxsning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. G'oyaviy tarbiyani tashkil qilishda nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish, bilimlarni harakatlarga aylantirish muhim sanaladi. Buning uchun pragmatik fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari va toyaviy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari

Yoshlarda mehnatga ishtiyoq uy'otish, tirishqoq va sergayrat shaxsni tarbiyalash, shaxsni o'zi ustida qunt bilan ishlashga o'rgatish, unda o'ziga ishonchni qaror toptirit.ttdan ham manfaatdormiz. Shuningdek milliy gururi baland, mas'uliyat va burch hissiga ega, intizomli, demokratiyani hayot tarziga aylantirgan, kelajagi o'z qo'lida ekaniga ishongan mustaqil shaxsni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Inson ROYANI hayotdan uzilib qolgan, begona va mavhum narsa sifatida tushunmasligi kerak. Milliy istiqpol mafkurasini oddiy va yurakka yaqin g'oyalar orqali singdirish, ya'ni milliy g'oyaning inson ongidan o'rin olishi bilan qanoatlanmay, balki uning qalbiga jo qilish zarur. Bu sohada amalga oshiriladigan ishlar o'zining samarasini berishi, shubhasiz.

Ommaviy axborot vositalari — eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'iblashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Totalitar tuzumda ommaviy axborot vositalari axborot uzatish vositasi va yakka hukmron g'oyani singdirish quroli bo'lib xizmat qilganligini hammamiz yaxshi bilamiz. "Majburiy yakkafikrlash" davri deb atash mumkin bo'lgan bu pallada ommaviy axborot vositalarida hayot faqat yorqin bo'yoqlarda tasvirlanib, muammolar haqida gapirilmagan edi. Chunki o'sha paytda muammolar va illatlar haqida gapirish — kommunizm singari "benuqson" va "mukammal" tuzumga xalqning ishonchini pasaytirib yuborishi mumkin edi. Yakkayu yagona partiya, yakkayuyagona mafkura va yakkafikrlash siyosati har qanday plyuralizmni, fikrlar xilmaxilligini va, ayniqsa, g'oyalar xilmaxilligini mutlaqo inkor qilar edi. Barcha jurnalistlar sobiq Markazdagi "mutassaddi rahbarlar"ning ogzini poylab, buyrugini kutib, ularning ko'rsatmasiga qat'iy amal qilgan holda faoliyat yuritir edi. 1Pu davrlarni boshdan kechirganmiz, lekin ming afsuski, ayrim kishilar ishga ana shunday yondashishdan xalixanuz voz kecha olmayaptilar, o'sha davrlardan qolgan ayrim eski qolip va andozalardan qutula olmayaptilar.

Hayotiylik — butungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo'laverishi tabiiy. Bu — isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, o'zini ko'rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim.

Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'rt usuli ham emas. Demak mafkurani hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas.

Bunga bir misol. Bir vaqtlar AQSh fuqarolarida demokratik tamoyillarning bir oz qadrsizlanishi kuzatilgan edi. Mutaxassislar tomonidan bu muammoning turli yechimlari taklif qilindi, lekin targ'ibotning bir oz noan'anaviy usuli tanlab olindi: demokratiyaning kamchiliklari oshkora aytili, uning ba'zan «ishlamayotgani» ochiq tanqid qilindi va unga muqobillar sifatida kommunizm va monarxiya targ'ib etildi. Targ'ibotning bu usuli kutilgan samarani berdi: odamlar «yomon bo'lsa ham, demokratiyadan qo'ymasin» degan fikrga keldilar va demokratiyaning ashaddiy himoyachilariga aylandilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish muammosi o'ta dolzarb bo'lib turmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi shuni talab etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, jurnalistlarni tayyorlash masalasiga davlat darajasida e'tibor berilmoqda, jurnalistkadrnlarni o'zimizda tayyorlash bilan qanoatlanmay, bu soha mutaxassislarining xorijda ta'lim olishlaridan mablag' ayalmayotir. Ko'rinib turibdiki, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilgan.

Garbda ommaviy axborot vositalariga qo'lol bo'lsa ham jamiyat manfaatlarini "qo'riqllovchi ko'ppak", deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qaramaqarshi nuqtai nazarlardan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va ragbatlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining islohoti "g'oyalar bozori"da xali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Lekin o'rinli bir savol tug'iladi: bu "bozor" har qanday g'oyalar uchun ham ochiq bo'lishi kerakmi? Yo'q, albatta. Ekstremistik nuqtai nazarlar, g'ayriinsoniy tabiatga ega fikrlar va qo'poruvchilikka chaqiruvchi g'oyalarga bu "bozor"da o'rin yo'q. Lekin jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovonroq qilishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar, taklif va tavsiyalar bu "bozor"da bimalol raqobat qila olishlari kerak.

Biz demokratiyani qanday tushunsak ommaviy axborot vositalariga ham shunday vazifalarni yuklaymiz. Biz demokratiyani mustaqillik erkinlik va mas'uliyat deb tushunar ekanmiz, ommaviy axborot vositalaridan ham mustaqillik erkinlik va mas'uliyatni kutamiz. Demak jurnalistlar bu tushunchalarini anglashi, ularga ehtiyoj sezishi, ularni qadrlashi, ulardan foydalana bilishi va ular uchun kurashishi zarur

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat — axborot terroriga, mafkuraviy taxdidlarga munosib javob berish, ma'naviyafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: "Har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa "haqiqat" tayyor bo'ladi, odamlar unga chippachin ishonadilar".

Oxirgi paytlarda informasion hurujlarning teztez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf hilinganidan darak beradi. Bu qurol — axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informasion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasada, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirgin qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot mahsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informasion hurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kishlarni keltirib chiqarmasada, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bunday informasion qo’poruvchilikdan maqsad mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo’l bilan tazyiq o’tkazish, jahon afkor ommasida O’zbekiston haqida noto’g’ri tasavvur tugdirishga intilishdan iborat. "Milliy istiqlol toyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi ba’zi fikrlar ham bugungi hurujlarning maqsadini oydinlashtiradi. Ushbu risolada aytilishicha, geopolitik maqsadlar davlatning o’zga hududlarda o’z mavqeyi va ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosatdir. Ochigi, bu ta’rif ayrim ommaviy axborot vositalarining faoliyati nimaga yo’naltirilganligini fosh etib qo’ymoqda.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri Margaret Tetcher: "Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini o’taydi", degan. Bu gapning magzini chaqqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq o’ylab ko’rsakchi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o’ldirish orqali millionlarda qo’rquv va dahshat uygotishga intiladilar. Demak ularning maqsadlari — o’ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta’sir qilishdir. Taassufki, ba’zi ommaviy axborot vositalari o’zlari bilmagan holda terrorizmning buzg’unchilik qo’poruvchilik ta’sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo’yadilar. Ularning terror oqibatlariga haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo’rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksiltarg’ibotni uyushtirish zarurati tugiladi.

Aksil-targabot «g’oyaga qarshi bilan kurashish» tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g’oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Xususan:

- horijiy jurnalistlarning hukumat siyosatini buzib talqin qiluvchi chiqishlariga;
- diniy aqidaparastlarning tanlagan yo’limizga qarshi mafkuraviy qo’poruvchilik harakatlariga;
- rivojlangan davlatlarning o’z mafkurasi hukmronligini o’rnatish yo’lidagi urinishlariga;
- axborot xilmaxilligi sharoitidagi informasion tajovuzlarga;
- odamlar ongida saqlanib qolgan kommunistik mafkuraning asoratlariga qarshi faol kurashish zarur.

Aksil-targ’ibotni tashkil etishda tezkorlik qat’iyatlilik hujumkorlik murosasizlik talab qilinadi. Bu borada tayyorlangan materiallar dalillar bilan isbotlangan, haqqoniy, ommabop va barcha uchun tushunarli bo’lishi shart. Aksiltarg’ibot salbiy ta’sirning oldini oluvchi va fosh etuvchi shakllarda amalga oshiriladi. Oldini oluvchi yo’nalish asosan tarbiyaviy xarakterga ega bo’ladi. Bunda:

- fuqarolarning pozisiyalarini shakllantirishda g’oyaviy raqiblardan o’zib ketish;
- insonlarni begona g’oyalarning noto’g’riligini fosh etishga va ularning dalillarini rad etishga o’rgatish;
- pinhona ko’rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga nisbatan xushyorlikni oshirish;
- yot mafkuraviy ta’sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo’yiladi.

Aksiltarg’ibotning fosh etuvchi yo’nalishida:

- g’oyaviy dushmanlar tomonidan e’lon qilingan fikrlar va baholarni rad etish;
- «mafkuraviy urush» olib borayotgan taraf tashviqotining mohiyatini ochib berish;
- mafkuraviy tazyiq ko’rsatuvchi guruh yetakchilarini obro’sizla ntirish;
- raqiblarning ruhini susaytirish orqali ularning harakatlarini kuchsizlantirish asosiy maqsad qilib qo’yiladi.

Aksil-targ’ibotning har ikkala ko’rinishi o’zaro bog’liqlikda olib boriladi. Insonning ongi va qalbi uchun shiddatli kurash ketayotgan hozirgi paytda aksil targ’ibot bilan maxsus shugullanish zarurligi, shakshubhasizdir.

Butungi voqyelik milliy istiqlol g’oyasi targ’iboti masalasiga alohida e’tibor berishni talab qilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda g’oya targ’iboti eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini inobatga oladigan bo’lsak uning targ’ibottashviqotiga ham yangacha texnologayalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas. Milliy istiqlol g’oyasi tarshbotining ta’sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologayalarni keng qo’llash zaruratini kuchaytiradi. Mafkura targ’ibotida yangi texnologayalarni qo’llashda jahonning qator davlatlarida bu borada to’plangan ilg’or tajribalardan foydalanish ayni muddao bo’lur edi.

Masalan, jahonda keng tarqalgan «to’rt qadamli» universal modeldan ham mafkura targibotida foydalanish mumkiya Shu bois uning moxdiyatini batafsil yoritishga harakat qilamiz:

1Kadam: Muammoning qo’yilishi. Mafkura targibotida singdirilishi zarur bo’lgan g’oyalar belgilab olinadi. Bundan tashqari, «Nima uchun aynan bu g’oyalarni singdirishga ehtiyoj tugildi?», «Bu g’oyani singdirish ishlariga qaysi tuzilmalar jalb qilinishi kerak?», «Bu royalarni singdirish jarayonida

qaysi ijtimoiy guruhlar qamrab olinadi?» kabi savollarga javob topish lozim. To'plangan ma'lumotlar asosida singdirilishi zarur g'oyalarga jamiyatdagi ehtiyoj, jamoatchilikyugag fikri, ommaviy axborot vositalarida bu masalalarning qay darajada yoritilganligi va umuman, shu kungacha qilingan ishlar aniqlab olinadi.

2kadam: Rejalashtirish va dasturlashtirish. Bu bosqich uzoq muddatga mo'ljallangan kommunikativ (muloqot) vazifalar strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. G'oya tarribotida, avvalo, kishilarning milliy g'oyaga munosabatlari, uni qay darajada tushunishlari, ularning qadriyatlarini o'rganib chiqiladi. Bundan tashqari, kishilarni milliy istiqloq mafkurasining muayyan g'oyasi haqida doimiy xabardor qilib turuvchi axborot manbai yaratiladi. Singdirib borilayotgan g'oyalarga kishilarning munosabati o'rganilib, bu axborotlar chuqur tahlil qilinadi. Davlat idoralari va fuqarolar o'rtasidagi muloqotlar muntazam ravishda muvofiqlashtirib boriladi. Umuman bu bosqichda, dasturning maqsadi (harakatlar qanday maqsadga xizmat qiladi), ta'sir ko'rsatish auditoriyasi (kimlarga asosiy e'tibor beriladi), kutilayotgan natijalar (har bir auditoriya bilan ishlashdan ko'zlangan aniq maqsad) belgilab olinadi. Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotida auditoriyani segmentlash, ya'ni uni bir necha guruhlariga ajratib o'rganish, shu guruhga ta'sir ko'rsatish samarali usullarini ishlab chiqish zarur. Bu guruhlariga qadriyatlarini va manfaatlari bir-biridan farq qiluvchi hatamlarni, masalan, talabalarni, askarlarni, tadbirkorlarni, nafaqaxo'rlarni, ziyolilarni, erkaklarni, ayollarni, yoshlarni yoki keksalarni kiritish mumkin. Tabiiyki, milliy g'oyani singdirishda ziyolilarga mo'ljallangan axborotlar bilan tadbirkorlarning kayfiyatlariga ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda talabalarga ham, harbiy xizmatchilarga ham, ziyolilarga ham, dehqonlarga ham bir xil munosabatda bo'lish, bir xil usullardan foydalanish kutilgan samarani bermaydi. Chunki turli ijtimoiy guruh vakillarining dunyoqarashi, manfaatlari va qadriyatlarini bir-biridan farq qiladi. Mafkura targ'ibotida aynan mana shu qadriyatlarga, manfaatlarga mos yuyalarni ilgari surish ko'proq samara berishi mumkin. Umuman olganda, ushbu bosqichda kishilarning ongida, ularning harakatlarida o'zgarishlar yasash uchun nimalar qilish kerakligi aniqlab olinishi zarur.

3kadam: Muloqotga kirishish Milliy istiqloq mafkurasi targ'ibotini samarali tashkil etish uchun asosiy kommunikativ vazifalar rejalashtirilgan va aniq maqsadlar sari yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, kommunikator (axborot beruvchi) va auditoriyaning qarashlari bir-biriga yaqinlashtirilishi lozim. Ushbu yo'nalishdagi ishlarda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur: 1) auditoriya fikrini eng ko'p ifoda etayotgan ommaviy axborot vositalari turiga e'tibor qaratish; 2) auditoriya shonini eng ko'p qozongan ommaviy axborot vositasi turidan keng foydalanish; 3) biror muammo xususidagi kommunikator va auditoriyaning qarashlaridagi farqlarni kamroq ko'rsatish zarur (jumladan, mavjud muammolarni xolis yoritish va auditoriyaning ishonchini qozonish); 4) voqeahodisalarni yoritishda auditoriyaning manfaatlaridan kelib chiqib yondashish; 5) kommunikatorning pozitsiyasini ko'pchilikning pozitsiyasi sifatida talqin etish; 6) jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarining manfaatlariga mos holda alxqida yondashish. Axborotni yetkazishning e'tiborli jihati shundaki, u yangiliklar ko'rinishida bo'lsada, faqat bir tomonlama maqtov shaklida emas, balki ko'pchilikni qiynayotgan muammolarning yechimi sifatida, barchaga tushunarli tilda bayon etilishi lozim. Shunday qilib, uchinchi bosqich o'z ichiga quyidagi elementlarni qamrab oladi: harakat strategiyasi, kommunikativ strategiya, dasturni amalga oshirish rejasi.

4kadam: yakuniy xulosalar yasash. Yakuniy xulosalar yasash ikki yo'nalishda: baholash mezonini ishlab chiqish va qayta aloqa kanalidan olingan ma'lumotlarni o'rganish shaklida amalga oshiriladi. Baholash mezonini ishlab chiqishda kishilarga singdirilgan g'oya ularga qay darajada ta'sir etganligini aniqlashning obyektiv mezonlari belgilansa, qayta aloqa kanalidan olingan materiallarni o'rganishda berilgan axborotlar soni, unga nisbatan javob reaksiyasi singdirilgan toya natijasida kishilar o'z harakatlarini qay daraja o'zgartirganliklari tahlil qilinadi, ularning mafkuraviy ta'sirga javob reaksiyasi o'rganiladi. Milliy istiqloq mafkurasini singdirishning samaradorligini ta'minlashda bu bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kishilarning fikrlari, voqyealarga beradigan baholari, munosabatlaridagi o'zgarishlarni doimiy o'rganib borish g'oyaviy ta'sirning samaradorligini «o'lchash» imkonini beradi. Bundan tashqari, insonlarni bezovta qiladigan muammolar haqida doimiy axborot to'planib, shunga mos ravishda tartib yo'nalishini o'zgartirish yoki muayyan g'oyalarning tashviqotini faollashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Jamoatchilik fikridagi bu kabi o'zgarishlarni muntazam ravishda o'rganib borish mafkurani singdirish borasidagi kelgusi ishlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlantidek Milliy istiqlol mafkurasini singdirishda yangi texnologiyalardan foydalanish auditoriyani segmentlashni (turkumlarga ajratishni) taqozo etadi. Auditoriyani segmentlash kuyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

- Geografik makonga ko'ra. Kishilarning yashash joyi, mintaqada joylashgan o'rni birbiridan farq qilishi tufayli milliy istiqlol g'oyasini singdirishda ularning yashash joyiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aholisining qarashlari, urf-odatlari Toshkent shaxri yoki Krraqalposhston Respublikasi aholisining kyarashlari va urfodatlaridan ancha farq qiladi.
- Demografik omilga ko'ra. Kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy axeoli birbiridan farq qilgani bois ularning qarashlarida va qadriyatlarida ham muayyan tafovutlarni uchratish mumkin. Milliy istiqlol g'oyasi targibotining samaradorlitani oshirishda bu omillarni ham nazardan qochirib bo'lmaydi.
- Psixologik omilga ko'ra. Kishilarning ruhiy holati ancha o'zgaruvchan bo'lsada, bu omil mafkura targibotida katta ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqlol g'oyasini insonlar ongi va qalbiga singdirishda ularning ruhiy holati, jamiyatimizda kechayotgan islohotlarga munosabati, qo'llabquvvatlash darajasiga, voqyeahodisalarga munosabati va kayfiyatlarini hisobga olish darkor.
- Ijtimoiy maqomiga ko'ra. Kishilarning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi ularning axborotni qay darajada qabul qilishlariga, bu axborotga qanday munosabat bildirishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.
- Obro'-e'tiboriga ko'ra. Targibotda yangi texnologiyalarni qo'llashda fikr yetakchilaridan foydalanish axborot yetkazishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shu bois kishilarga ta'sir ko'rsatishda ularning obro'e'tiborli kishilarga bo'lgan ishonchidan mohirona foydalanish talab etiladi. Negaki, muayyan guruhning manfaatlarini ifoda etishda, avvalo, fikr yetakchisini aniqlash va u orqali axborot yetkazish targ'ibotining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.
- A'zolikka ko'ra. Kishilar u yoki bu partiyaning, jamoat birlashmasining a'zosi ekanligi mafkura targabotida qo'l keluvchi omil sanaladi. Odatda, bitta guruhga mansub kishilarning qarashlarida umumiylik o'xshashlik bo'ladi. Bu esa mafkura targibotini bir qadar yengallashtirishga xizmat qiladi.
- Qarorlar qabul qilishdagi ishtirokiga ko'ra. Kishilarning ijtimoiysiyosiy hayotdagi ishtiroklari va faolliklari ularning axborotni qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatgani bois bu omil milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotida hisobga olinishi lozim. Qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishni xohlovchilar yoki o'zini hyech narsani hal qshshaydigan «kichkina odam» deb hisoblaydigan kishilar bir xil mazmundagi axborotni qabul qilishda turli nuqtai nazar bilan yoqsashadilar.

Milliy istiqlol g'oyasi targabotida auditoriyani segmentlash, kishilarni alohida guruhlarga bo'lib ta'sir ko'rsatish katta ahamiyat kasb etadi. Aksincha, bir vaqtning o'zida juda keng auditoriyani va ko'p obyektlarni qamrab olishga intilishshshg samarasi kam bo'ladi.

Mafkura targ'ibotining bizda keng rasm bo'lgan turi voizlarning faoliyati bilan bog'liq. Targ'ibotning bu shakli samaradorligini oshirish alohida e'tibor talab qiladi. Chunki, birinchidan, voizlar nutq so'zlaydigan auditoriyalarga odamlarni to'plash ba'zida majburiy tus oladi. Auditoriyaga ixtiyoridan qarshi boshlab kelingan insonda esa hali va'zni eshitmayoq, ichki qarshilik paydo bo'ladi. Demak hali targibot boshlanmasidanoq u teskari samara berishi ehtimoli kuchayadi. Ikkinchidan, bunday norozi auditoriyani o'zi tomoniga ogdirish, unga ta'sir ko'rsatish, uni ilhomlantirish voizdan juda katta mahorat talab etadi. Hamma voizlarda ham shunday iste'dod bormikan?

Ta'kidlash joizki, milliy istiqlol ROYASI targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan biri — zimdan targibot qilitttdir. Inson unga ta'sir o'tkazilayotganini sezmasligi lozim. Aslida, targibot davomida mafkura so'zining ishlatilishi ham shart emas. Muxtasar qilib aytganda, targibottashviqot ishlarida masalaning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish muhim:

- oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishdan har birimiz shaxsan manfaatdor ekanligamizga kishilarni ishontirish;
- kelajagimizni ko'z oldimizga keltirish imkonini beradigan, ertangi kunimiz qanday bo'lishini ko'rsatadigan materiallar tayyorlash;
- dolzarb qadriyatlarni singdirish maqsadida jamoatchilik fikriga shu qadriyatlarni jozibali qilib yetkazish;
- ommaviy axborot vositalaridan maorif tarqatish tizimidan insonlarni aqliy jihatdan boyitish quroli sifatida mohirona foydalanish;
- insonlarning erkin fikrlashini rag'batlantirish, ularni o'z fikrlarini himoya qilishga o'rgatish orqali mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash;
- taraqqiyotimiz yo'lida g'ov bo'layotgan illatlarni fosh etish va tanqid qilish yo'li bilan ularni samarali «davolash»;

- ommaviy axborot vositalaridan haqiqat ko'zgusi sifatida foydalanish orqali insonlarning ularga ishonchini kuchaytirish;
- yaqin o'tmishda sodir bo'lgan yorqin voqyealarga bagishlangan xronikal filmlarni yaratish yo'li bilan yaxshi va yomon kunlarimizni botbot eslatib turish;
- insonlarda chuqur taassurot qoldirish maqsadida badiiy obrazlar orqali milliy mafkurani singdirish. Bunda targibottashviqot ishlarini puxta rejalashtirish, hissiyotlarga kuchli ta'sir qilish, jozibalilik noan'anaviy usullarini qo'llash, oshkoralik qadriyatlar doirasidan chiqmaslik ommabop va tushunarli bo'lish, takrorlanishlar bilan kishilarning «me'dasiga tegmaslik» talab qilinadi.

Mafkuraning targ'ibotiga aynan shunday yondashish ko'proq samara beradi. Shundagina insonlarning salohiyati, mehnagi, vaqti, mulki va mablag'larini tanlangan maqsad sari yo'naltirish mumkin. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy narsalarda — yuqori sifatli mahsulotlarda, badavlat turmushimizda, bunyodkorlik ishlarida, erkin va farovon hayotda, iqtisodiy o'sishda «o'lchash» imkonini beradi.

XULOSA

Milliy istiqlool g'oyasini fan sifatida o'rganish, uning boshqa ijtimoiy gumanitar fanlardan farqli, o'ziga xos jihatlari borligini ko'rsatadi. U fan amal qiladigan qonuniyatlarga tayanadi. Ayni paytda inson ruhiyati, maqsad va intilishlari ishonch hamda e'tiqodining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga ham bog'liq. Uning namoyon bo'lishi nafaqat har bir shaxs, ayni paytda boshqa insonlar, muayyan guruhlar va qatlamlar, elat, millat, xalqning mushtarak maqsadlari yuzaga chiqishining muhim omilidir.

Milliy g'oyani anglash umummaqsad yo'lida birlashish, uyushish, o'zini safarbar etish, hamjihat va hamkorlik totuvlik hamda bagrikenglik fazilatlarini sifatida namoyon bo'lishini bildiradi. Shunday omilning mavjudligi mamlakatning, xalqning, millatning ma'naviy, ruhiy kuchqudrati mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Uning negizida o'zlikni anglash, millat va xalqni, jamiyatning oldida turgan mushtarak maqsadlarni anglash yotadi. Mushtarak taqdir, Vatan, tarix milliy madaniy meros, til, madaniy qadriyatlar bir tomondan, ikkinchidan, mamlakatning, xalqning, millatning dunyo, bashariyat erishayotgan yutuqlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojni his etish tuygusi ana shu jarayonda milliy istiqlool g'oyasini taraqqiyotning muhim kaliti sifatida namoyon etadi. Uning asosiy g'oyalari va fuqarolik mas'uliyati hamda mamlakatning, millatning kelajagi, uning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini amalga oshirish, o'zligini saqlab qolish uchun Vatan oldida, millat va kelgusi avlodlar oldidagi mas'ullik ruhini singdiradi.

Milliy istiqlool g'oyasini o'rganishni fuqarolik mas'uliyati va burchi ham, unga ishonch va e'tiqodni mustahkam bo'lishini his etishni taqozo etadi. Shundagina u xalqni, millatni birlashtirishga, mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga xizmat qila oladigan muhim vazifani bajaradi. Inson faoliyatida bunyodkorlik yoki tajovuzkorlik kuchini namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday fikr, g'oya, mafkura ham xalqlar taqdiriga bir xil ta'sir etmagan. Ular orasida bunyodkor g'oyalar bilan birga, buzgunchi va tajovuzkorlari ham bo'lganligi mafkura tarixidan ma'lum. Bu ham turli ijtimoiy kuchlarning «ichki ma'naviy dunyosi» maqsad va muddaolari bilan bogliq bo'lgan o'zigaxos qonuniyatdir. Ularni ham o'rganish, bilish zarur. Bu insonda ezgu g'oyalardan yovuz g'oyalarni farqlay olish qobiliyatini shakllantiradi va g'oyani g'oyadan, mafkurani mafkuradan farqini anglashga yordam beradi.

Bugungi globallashuv jarayoni o'tmishda ham, hozir va kelajakda ham milliy g'oyaga bo'lgan zaruratni oshirib boradi. Shuning uchun ham bu dunyo qanchalik ma'rifiy taraqqiyot qonunlariga amal qilmasin, inson qalbi, ongi va ishonchi, e'tiqodini o'zgartirishga bo'lgan harakat, urinish, doimo saqlanib qoladi. Bunday urinish yo'qolgan davrni, inson ongi va qalbini o'z holicha erkin va turli xil «mafkuraviy tazyiqchardan xoli holda rivojlanish deb tasavvur etishni» faqat orzu qilish mumkin. Turli maqsadlar, manfaatlar bor ekan u turli davrlarda, turli xil namoyon bo'lishi tabiiy.

Bu qonuniyatlarni fan yo'li bilan o'rganib, oldindan uni bashorat qilish o'ta murakkab jarayondir. Chunki, g'oya va mafkura sohasi ishonch va e'tiqod, dunyoqarash, manfaatlar tizimi bilan bog'liq. Shunga ko'ra, faqat uning o'zgaruvchanligini oldindan aytish mumkin, xolos. Uni xalqning o'zligiga bo'lgan munosabati, o'zligini anglash darajasi, milliy madaniy merosiga, qadriyatlariga bo'lgan munosabatda har bir avlodga nima berayotgani va nimani meros qilib qoldira olishi bilan bogliq qonuniyat mujassamlashgan. Shuning uchun ham milliy g'oyani fan sifatida o'rganishni unchalik to'g'ri emas deb hisoblaydiganlar fikriga qo'shilish qiyin. Masalan, inson ongi va tafakkurida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelishi bilan uning dunyoqarashida mustaqil fikrdan ko'ra mutelik qaramlik g'oyalari ustuvor bo'la boshlaydi. Demak uni ko'proq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj zaruriyatini anglash tuygusini dalillovchi omillar, uni uzluksiz, doimiy, tadrijiy ravishda hamma vaqt, alohida e'tibor beradigan, qolaversa, har bir xalq yoki millatning, mamlakat yohud davlatning ertangi istiqboli, dunyo hamjamiyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishi, o'zligini saqlab qolishga bo'lgan ehtiyojning hayotiy falsafasidir.

Milliy g'oyada o'zligini saqlab qolish maqsadi dunyodan ajralib yashashni, faqat o'z qobigiga o'ralib qolishini bildirmaydi. Aksincha, dunyo bilan hamnafas bo'lishga undaydi. Faqat milliy ma'naviy qadriyatlariga, merosiga tayangan holda unga hurmat bilan qarashga, o'z milliy ma'naviy negizlariga tayanib, undan uzilmaslikni o'rgatadi. Chunki undan begonalashish, milliy o'zligidan uzoqlashtiradi, tarixidan, qadriyatlaridan ayri holda rivojlanishga sabab bo'ladi. Bu milliy taraqqiyot qonuniyatiga va manfaatlar uygunligiga ham mos kelmaydi.

Milliy g'oya bu mustaqillikni mustahkamlash va uni asrabavaylash, himoya qilish omili. Shuning uchun ham u inson ongini boshqarishni emas, aksincha uni bunyodkor g'oyalarga yo'naltirishga xizmat

qiladigan oliy qadriyat hamdir. Milliy g'oya ana shu eng oliy qadriyat — inson, xalq, millat, mamlakat sha'ni, qadriyatini, o'zligini hurmat qilishiga tayangan holda turli siyosiy sharoitlar rivoji talablariga javob beradi. Milliy g'oyani o'rganish kishida milliy g'ururni uyg'otadi va doimo o'zligini boshqarib yashashga undaydi. Shuning uchun ham milliy g'oya boshqarib ijtimoiy falsafiy fanlardan farqli o'laroq Vatan, millatning dardi, orzu-idraklarini, maqsadlarini, sha'nini baland tutib, uni doimo qalbida saqlagan holda o'zligini boyitib borishda taraqqiyot omili bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish kabi milliy g'oyaning bosh maqsadi bilan mushtaraklikda namoyon bo'lishining sababi ham shunda. U demokratik rivojlanish, fuqarolik jamiyati qurilishiga yo'naltirilgan, fuqarolarni millatidan, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar, safarbar etuvchilik bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy kuch-qudrat manbaidir. Xalqgoshg, millatning, har bir fuqaroning nafaqat o'tmish, bugungi kun va kelajagi bilan bog'langan. Milliy istiqlol g'oyasini ishonch va e'tiqodga aylantirish bir kishining ishi emas. U har bir millat fidoyisi, mutafakkirining vazifasidir. Zero, xalqning, millatning jipslashib, o'zaro hamkor, hamjihat bo'lib, ozod va obod Vatanda erkin hamda farovon hayotda yashashining kafolatidir. Milliy istiqlol g'oyasi — bu mavhum maqsadlar emas. U aniq bo'lib, har bir kishining kundalik hayot tarzi, dunyoqarashi, ong va tafakkuri, ishonch va e'tiqodi, uning faoliyati orqali ijtimoiy hayot o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada har bir yutuq insonning o'ziga, oila a'zolari, mahallasi, elyurti, xalqi va millatining, Vatani, mamlakatining ravnaqiga, taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. «Barchamizning tayanchimiz va suyanchimiz bo'lgan farzandlarimizning xursandchiligini, kerak bo'lsa, ochiq qiyofasi, baxtiyor chehrasini ko'rish, ertangi kunga ishonchini o'zimizga tasovvur qilish shuning o'zi katta baxt emasmi?»¹ deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Darhaqiqat milliy istiqlol g'oyasiga amal qilgan, uni ishonch va e'tiqodiga ongli ravishda aylantirgan odam juda katta ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat manbaiga ega bo'ladi. Bu uni yangi yutuqlarga, ezgu maqsadlarga undaydi. Hayotning, yashashning ma'nomazmunini insonlar bilan birga bo'lishda, ularga savob ishlarni qilish, ezgulik yo'lida mamlakat ravnaqi uchun ilm olishga, kasbhunar egallashga undaydi. Inson hayotida suv va havo qanchalik zarur, non qanchalik aziz bo'lsa, milliy g'oya ham shunday. Usiz, inson o'zligini, istiqbolini aniq tasavvur eta olmaydi. Milliy g'oya shunga o'rgatadi. Bu esa har bir insonyushg o'ziga xos ma'naviy dunyosi orqali amalga oshadi. Bunday mushtaraklik ma'naviy kuch-qudrat manbai bo'lib taraqqiyotga xizmat qiladi, Zamon, davr va avlodlar o'zgaradi, lekin milliy g'oyaga zaruratning qolishi muqarrar. Milliy g'oya boyib, rivojlanib borishi tabiiy. Dunyodagi o'zgarishlar milliy g'oya oldida ham yangi yangi vazifalarni, usul va vositalardan foydalanishni talab qiladi. Uni hisobga olish, "mafakura maydonida" ezgu va bunyodkor g'oyalarning doimo ustuvorlik qilib qolishini, ma'rifiy taraqqiyotning istiqbolini belgilaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston xalqi milliy g'oyaga alohida e'tibor berib, uni jamiyat mafkurasi sifatida o'rganishi ana shu ezgu maqsadlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham o'zining samarasini bermiqda.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. — T.: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1jild. T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2jild. — T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3jild. — T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4jild. — T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5jild. T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6jild. T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7jild. T.: O'zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. 8jild. — T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9jild. T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10jild. T.: O'zbekiston, 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11jild. T.: O'zbekiston, 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuchqudratimiz, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12jild. T.: O'zbekiston, 2004.
14. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. (Prezident Islom Karimovning «Nezavisimaya gazeta» muxbirining savollariga javoblari). T.: O'zbekiston, NMIO', 2005, 646.
15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. — T.: O'zbekiston, 2005, 966.
16. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon hyech kimga qaram bo'lmaydi. T.: O'zbekiston, 2005, 1606.
17. Azizxo'jayev A.A. Mustaqillik kurashlar, iztiroblar va quvonchlar. — T.: 2001.
18. Azizxo'jayev A.A. Chin o'zbek ishi. T.: Akademiya, 2003.
19. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. — T.: Ma'naviyat, 1999.
20. Alimova D. Insoniyat tarixi — toya va mafkuralar tarixidir. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
21. Amir Temur jahon tarixida. YuNESKO. Parij 1996.
22. Aflotun. Qonunlar. T.: Yangi asr avlodi, 2002.
23. Boyqobilov B. O'zbeknoma. — T.: Sharq, 1999.
24. Boboyev X., Yeofurov 3. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. — T.: Yangi asr avlodi, 2001.
25. Buyuk siymolar, allomalar. — T.: Ma'naviyat, 1995.
26. Buxoro sharq durdonasi. YuNESKO. T.: Sharq, 1997.
27. Jaloliddin Manguberdi. T.: Sharq, 1999.
28. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiyfalsafiy tahlil. — T.: «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2000.
29. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi, — T.: Yangi asr avlodi, 2002.
30. Jo'rayev N. Mafkuraviy immunitet. — T.: Ma'naviyat, 2001.
31. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. — T.: 1998.
32. Islomov 3., Isoqov B., Yusupov O., Muhammadiyev D., Minavarov S. Bunyodkor g'oyalar. — T.: Yangi asr avlodi, 2001.
33. Karimova V. Targibotning psixologik uslublari. T.: Ma'naviyat, 2001.
34. Karimova V., Umarov A., Qur'onov M. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. — T.: Yangi asr avlodi, 2001.
35. Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir. — T.: Ma'naviyat, 2000.
36. Karimov N. Cho'lpon: Ma'rifiy roman. — T.: Sharq, 2003.
37. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. — T.: Yozuvchi, 1996.
38. Komilov N. Tafakkur karvonlari. — T.: Ma'naviyat, 1999.
39. Konfusi. Uroki mudrosti. — M.: Nauka, 1998.
40. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: O'zbekiston, 2001.
41. Mashriqzamin — hikmat bo'stoni. T.: Sharq, 1997.
42. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha o'kuv dasturini tayyorlash va ta'lim tizimiga joriy etish to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.
43. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tutuncha va tamoyillar

- T.: O'zbekiston, 2001.
44. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi: falsafiy va huquqiy jihatlar. — T.: 2001.
 45. Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari — T.: 2002.
 46. Milliy g'oya — bizning g'oya. — T.: 2001.
 47. Millatlararo hamjihatlik barqarorlik omili. — T.: 1999.
 48. Murtazo Qarshiboy. Bunyodkor xalq g'oyasi. — X: Ma'naviyat, 2001.
 49. Murtazo Qarshiboy. Yangalanishdan buyuk o'zgarish sari. — T.: Rafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
 50. Mustaqillik. Izoxdi ilmiyommabop lugat. — T.: Sharq, 2000.
 51. Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
 52. Norboyev T. Mustaqil rivojlanish jarayonida milliy g'oyani demokratik tomonlar bilan uygunlashtirishning ishtimoifyalsafiy asoslari. JDIU 2001.
 53. Ortiqov M., Usmonov M. G'oya va mafkura. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
 54. Otamurotov S, Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. — T.: Yangi asr avlodi, 2001.
 55. Olimov S. Milliy mafkura — xalq tayanadigan kuch. — T.: 2000.
 56. Paxrutdinov Sh. Tahdid — halokatli kuch. T.: Akademiya, 2001.
 57. Rizayev Sh. Saxna ma'naviyati. — T.: Ma'naviyat, 2000.
 58. Sadulla Otamuratov, Sarvar Otamuratov. O'zbekistonda ma'naviyruhiy tiklanish T.: Yangi asr avlodi, 2003.
 59. Sulaymonova Fozila. Sharq va Garb. — T.: O'zbekiston, 1997.
 60. Tarix mustaqillik milliy g'oya. T.: Akademiya, 2001.
 61. Umarova N. Milliy istiqlol g'oyasini umumiy ta'lim tizimida singdirish texnologiyasi. 2003.
 62. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. — T.: Sharq, 2002.
 63. Xolbekov A. Ildirov U. Sosiologiya: izohli lug'at — ma'lumotnoma. — T.: Ibn Sino, 1998. 1606.
 64. XristianIslom muloqoti GermaniyaO'zbekiston. (Xalqaro seminar materiallari). To'plam. T.: Akademiya, 2003.
 65. Xiva gorod tmsyachi kupolov. YuNESKO. T.: Sharq, 1997.
 66. Choriyev A., Mansurov A. G'oya, tarix va milliy tafakkur. — T.: Yangi asr avlodi, 2002.
 67. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997.
 68. YeParafiddinov O. Istiqlol fidoiylari: Mustaf Cho'qay, Cho'lpon, Otajon Xoshim. — T.: 1993.
 69. Sharafiddinov O. Sardaftar sahifalari: maqolalar, xotiralar. — T.: Yozuvchi, 1998.
 70. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash — T.: Yozuvchi, 1994.
 71. Shopengauer A. "Svoboda voli i npravstvennost". M.: Respublika, 1992.
 72. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. — T.: Akademiya, 2000.
 73. Ergashev F., Ergashev I. Fidoyilik — hayot mazmuni. — T.: O'zbekiston, 2001.
 74. Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat. — T.: Akademiya, 2002.
 75. Ergashev I. Siyosat falsafasi. — T.: Akademiya, 2004.
 76. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda (sharhlar). — T.: O'zbekiston, 2000.
 77. O'zbekiston yuksalish yo'lida. — T.: O'zbekiston, 2001.
 78. O'zbekistonning yangi tarixi. 1kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
 79. O'zbekistonning yangi tarixi. 2kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
 80. O'zbekistonning yangi tarixi. 3kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.
 81. Qodirova M. Yoshlar ongida g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish. — T.: Yangi asr avlodi, 2002.
 82. Qosimov B. Milliy uygonish. — T.: Ma'naviyat, 2003.
 83. Yeaybulloh asSalom, Ne'matulloh Otajon. Jahongashta «Boburnoma». — T.: ADodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
 84. Gaybulloh asSalom. Ey umri aziz. Birinchi kitob. T.: Sharq, 1997.
 85. Gaybulloh asSalom. Ezgulikka chog'lan odamzod. Ikkinchi kitob. T.: Sharq, 1997.
 86. Xusniddinov 3. Islom yo'nalishlar, mas'hablar, oqimlar. — T.: Movarounnahr, 2000.

**MILLIY ISTIQLOL G'OYASI FANINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN MAXSUS
ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
2. G'oya va mafkura. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
3. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
4. Markaziy Osiyo: G'OYAVIY jarayonlar va mafkuraviy tahdid. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
5. Milliy istiqlol g'oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent 2001 y.
6. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
7. Milliy g'oya inson va zamon. mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: nazariya va amaliyot. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
9. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
10. Insoniyat tarixi g'oya va mafkuralar tarixidir. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
11. Q.Nazarov. Milliy istiqlol royasining asosiy maqsad va vazifalari. Toshkent — 2001 y.
12. Bunyodkor g'oya. Mas'ul muharrir K.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
13. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
14. Yeoya, tarix va milliy tafakkur. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2002 y.
15. Taraqqiyotning o'zbek modeli. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
16. L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. — T.: O'zbekiston, 2001.
17. M.Sharifxo'jayev. O'zbekiston yangi royalar, yangi yutuqlar. — T.: 2002 y.
18. M.Sharifxo'jayev, F.Rahimov. Davrni belgilab bergan inson. — T.: 2004 y.

